

# O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi*

**Bosh muharrir –**

**SHERMANOV Eldor Uralovich**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Bosh muharrir o'rinbosari –**

**JUMAYEV Sobirjon Saidovich**

professor

**TAHRIR HAY'ATI**

**RUSHANIN Vladimir Yakovlevich –**

Chelyabinsk davlat madaniyat instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor

**NURULLAYEV Abdulaziz Sirojiddinovich –** Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**MAVRULOV Abduxalil Abdulyayevich –** Tarix fanlari doktori, professor

**TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna –** San'atshunoslik fanlari doktori, professor

**QODIROVA Sarvinoz Muhsinovna –** San'atshunoslik fanlari doktori, professor

**UMAROV Absalom Adilovich –** Sotsiologiya fanlari doktori, professor

**YULDASHEV Ma'rufjon Muxammadjonovich –** Filologiya fanlari doktori, professor

**TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna –** Falsafa fanlari doktori

**QOSIMOV Nozim Kozimovich –** Filologiya fanlari nomzodi, professor

**NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna –** Tarix fanlari nomzodi, dotsent

**MULLAJONOV Davlat Mavlonovich –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**FAYZIYEVA Feruza Xodjimuradovna –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**XALIKULOVA Go'zal Erkinovna –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

**ABDUJABBAROVA Musallam Lapasovna –** Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**XUDOYEV G'ani Muhammadovich –** Sanatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**ISMOILOV Hamdam –** Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**KOSHELEVA Antonina Fedorovna –** Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**RASHIDOV Temur Maxmudovich –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

**TURG'UNOVA Nasiba Mamatovna –** Sanatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**MAMATQOSIMOV Jahongir Abirqulovich –** Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.

**JAMOATCHILIK KENGASHI**

**NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –** O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri,

O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

**AXMEDOV Bahodir Majitovich –** O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri o'rinbosari, dotsent v.b.

**MIRZAALIYEV Iqboljon Mirzakarimovich –** O'zbekiston xalq shoiri

**AKILOVA Kamola Baltabayevna –** San'atshunoslik fanlari doktori, professor

**KARIMOVA Nigora G'aniyevna –** San'atshunoslik fanlari doktori

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan  
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya  
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi  
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha  
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop  
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

# MUNDARIJA

## I. TEATR VA KINO

1. N.Kasimova. XXI asr jahon kino san'atida qisqa metrajli filmlarning o'rni.....	3
2. D.O'rozaliyev. Kinooperatorlik san'atida yorug'lik nisbati va uning tasviriy ahamiyati.....	6
3. D.Mirsaidova. Значение звука в кино и телевидении.....	9
4. I.Qalandarov. O'zbek kinosida ilk tarixiy filmlar va ularda operatorlik mahorati.....	12

## II. MUSIQA SAN'ATI

1. С. Балганиязов. Головной и грудной резонаторы.....	17
2. D.Malikova. Xor ijrochiligida zamonaviy tendensiyalar.....	21
3. Sh.Matyakubov. Maqomlardagi bezaklar .....	24
4. Z.Arzibayeva. Kasbiy musiqada shoiralar nazmi.....	28
5. S.Sobirov. Tanbur ijrochilik maktablari.....	30

## III. SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. J.Shukurov. M.P.Musorgskiyning "ko'rgazmadagi suratlar" musiqiy asariga chizgilar.....	34
2. Q.Esanova. "Lazgi" kuyiga bastalangan matnlar variantlari xususiyatlari.....	38
3. I.Abdurahmonov. XX asr haykaltaroshligida afsonaviy mavzularning rivojlanish dinamikasi.....	41
4. S.Mahmudova. "Hayrat ul-abror" dostonida sultonlar va olimlar xususidagi mulohazalar.....	45
5. E.Yorbekov. Badiiy so'z: kecha va bugun.....	47
6. G.Isakova. O'zbek filmlari talqinida qanotli so'zlarning ahamiyati.....	50
7. Q.Nishonboyeva. "Tarixi madaniyat" xalqni madaniyatga oshno qilgan asardir.....	54

## IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. F.Abdullayev. Sozandalikda ustoz-shogird an'analari.....	58
2. M.Yo'ldoshev. Yangi asr g'azali yoki bugungi kun yoshlari nima uchun g'azal o'qimay qo'ydilar.....	60
3. T.Fayziyev. Fandrayzing – byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish texnologiyasi sifatida.....	65
4. O.Васильченко. Воспитание эстетической культуры студентов в вузе на музыкальных занятиях.....	68
5. I.Sodiqov. Estrada rejissyorlarini tarbiyalashda " ritorika" ifodaviy usullaridan foydalanish.....	71
6. O.Davlatov. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda san'atning tutgan o'rni.....	74

## V. KUTUBXONASHUNOSLIK

1. G'.Narzullayev. "Kutubxona-axborot faoliyati" fakultetida kutubxona-axborot va bibliografik ta'limning o'qitish masalalari: muammo va yechim.....	76
2. N.Ro'ziyeva. Kutubxonachilik tarixi va uning hozirgi davr kutubxonachilik ishi .....	80
3. N.Shamuratova. Qanday qilib xxi asr kutubxonachisi bo'lish mumkin? .....	84
4. M.Is'hoqov. Elektron shakldagi imij katalog: maqsad vazifalari va yaratish usullari.....	87

## VI. YOSH TADQIQOTCHI

1. M.Turobova. O'zbek qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish masalalari va muammolari.....	91
2. A. Otegenov. Dramatik spektaklda musiqa.....	94
3. B.Umarxodjayev. Milliy o'zlikni anglashda madaniyat markazlarining o'rni.....	97
4. Z.Mo'minova. Dutor – bastakorlik ijodida.....	100
5. M.Karimova. Teatrlashtirilgan tadbirlarda folklor jamoalarining ishtiroki.....	103

## VII. E'TIROF

1. G.Xalikulova. So'z qudratini chuqur anglash – zamon talabi.....	105
2. Ah.Dadayev. Ustoz g'ulomjon hojiqulovning ijrochilik maktabi .....	110
3. N.Abraykulova. Surxon san'ati fidoyisi – Xoliq Xursandov .....	114
4. O'. Rasulov. Turg'un alimatov ijodiy merosi .....	117



# I BO' LIM

## TEATR VA KINO

Nodira KASIMOVA,  
O'zDSMI "Kino, televideniye va radio rejissyorligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

### XXI ASR JAHON KINO SAN'ATIDA QISQA METRAJLI FILMLARNING O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, qisqa metrajli filmlarning jahon kinosida tutgan o'rni haqida yozilgan. Unda nafaqat yosh ijodkorlar, balki mashhur rejissyorlar ham qisqa metrajli kinoga murojaat qilayotganligi to'g'risida so'z yuritilgan. Maqolada XXI asrda yaratilgan qisqa metrajli filmlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kinematografiya, qisqa metrajli film, rejissyor, qahramon, kinofestival.

### РОЛЬ КОРОТКОМЕТРАЖНОГО ФИЛЬМА В ИСКУССТВЕ МИРА XXI ВЕКА

**Аннотация.** В данной статье идёт речь о роли короткометражных фильмов в мировом кино. В нем говорится, что к короткометражкам обращаются не только молодые художники, но и известные режиссеры. В статье анализируются короткометражные фильмы XXI века.

**Ключевые слова:** кинематография, короткометражный фильм, режиссер, герой, кинофестиваль.

### THE ROLE OF SHORT FILMS IN THE CINEMA OF THE WORLD IN XXI CENTURE

**Abstract.** This article is about the role of short films in the world cinema. There is said that not only young artists, but also famous directors have referred to shorts. In the article short films made in the XXI century are analyzed.

**Key words:** cinematography, short film, director, hero, film festival.



XXI asrda texnik taraqqiyot natijasida, kino asarini tasvirga olish jarayoni birmuncha yengillashdi (kinoplyonkadan HD formatga o'tildi). Shu bilan birga, ijod mahsulini namoyish qilishga keng imkoniyat yuzaga keldi (oldin, asosan kinofestival doirasida namoyish etilgan bo'lsa, endilikda, internet sahifalari uy kinoteatri vazifasini bajara boshladi). Bu kabi omillar kinematografiyani, ayniqsa, qisqa metrajli kinoning keskin rivojlanishiga va ommalashishiga sabab bo'ldi.

2000-yillarda internet sahifalarida tomoshabinlar e'tiboriga tushgan filmlardan biri, 2006-yil Buyuk Britaniyalik rejissyor S.Djeykobson tomonidan yaratilgan "Yuzdan bir soniya" ("One Hundredth of a Second") filmidir. Uning ssenariysi real voqea asosida A.Boden va S.Djeykobsonlar tomonidan yozilgan. Syujet ichki konfliktga qurilgan. Asarda insonning ichki hakami va orzu-havasi o'rtasidagi kurash aks etadi. Olti daqiqa davom etuvchi ushbu filmda insonni qiynaydigan vijdon azobi tasvirlangan. Rejissyor g'oyani ochishda, parallel montaj usulini qo'llagan. Film qahramoni fotojurnalist qiz muhim tadbirga borish uchun uyda tayyorgarlik ko'radi. Qiz pardozi qila turib, xotiraga beriladi. U tadbirga

kelib o'tirarkan, fleshbek kadrlar real kadrlar bilan almashaveradi. Voqea hozir va o'tmish bilan parallel tarzda rivojlanaveradi.

Retro kadrlarda, kasbini sevuvchi qahramon jang bo'layotgan joydan otishma va voqelikni harakatlarni foto tasмага muhrlashga intiladi. U iloji boricha jonli va ta'sirli suratlar olishga harakat qiladi. Fotojurnalist bir qizaloqning dushman askar turgan muyulishga kirganini ko'radi va xavfsizlikni unutilib, uning ortidan ergashadi. Qurollangan askar qizchani qo'lidagi xaltani tortib olmoqchi bo'ladi. Qizcha esa jon-jahdi bilan xaltani qo'lidan qo'yib yubormaydi. Qizcha fotojurnalistni ko'rib, unga umid bilan tikiladi.

Hozirgi vaqtni ifodalovchi kadrdan, "Yilning eng yaxshi fotosuratçisi" nominatsiyasida qahramonning ismi tilga olinadi, u sahnaga taklif etiladi. Sahna ekranida peshonasidan qon sizib chiqib turgan qizcha hamda yerda xaltadan sochilib yotgan sabzavotlar tasviri tushirilgan surat. Fotojurnalist taqdirlash marosimidan otilib chiqib ketadi. U o'zini yig'idan to'xtata olmaydi. Vijdoni bir qizchani o'limi evaziga erishilgan butun umrlik orzusini qabul qila olmaydi.

S.Djeykobson "Yuzdan bir soniya" filmida vijdon va orzu-havas o'rtasidagi konfliktni asar davomida asta-

sekinlik bilan kuchaytiradi. Asar boshida qarama-qarshilik oshkor etilmaydi. Ichki kurash rivojlanib, kulminatsiyada cho'qqiga chiqadi. Mazkur film 1993-yilda JARlik suratchi K.Karter faoliyati asosida yaratilgan bo'lib, o'shanda u suratga olgan bir surat bahs-munozaraga sabab bo'lgandi. Rejissyor ushbu real voqeani ekranga olib chiqarkan, odamlarni har qanday sharoitda ham insoniylikni unutmaslikka chaqiradi.

Rejissyor S.Djeykobsonning ijodiy faoliyatida qisqa metrajli kino muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki uning filmografiyasida sakkizta rejissyorlik ish bo'lsa, ulardan to'rttasi qisqa metrajli filmdan iborat. Qisqa metrajli filmlar AQSH, Yevropa mamlakatlarida rejissyorlar ijodida qanday o'rin tutsa, Osiyo, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham shunday o'ringa ega. *“Shuni ta'kidlab o'tish joiz-ki, 2005-yildan keyin Qirg'iziston oliy ta'limlarida kinomutaxassislar tayyorlana boshlandi. Bitiruvchilar milliy kinostudiyalar (“Qirg'izfilm” hozirda T.Okeyev nomidagi) va xususiy kinostudiyalar ijodiy guruhlarini tarkibiga qo'shildilar. Yosh mutaxassislar badiiy saviyasi yuqori bo'lgan qisqa metrajli filmlar yarata boshladilar. Bunga “Deraza” (“Okno” rejissyor: F.Tursunov va G.Sidikova. 2005-yil), “Bizda hammasi yaxshi” («У нас все хорошо» rejissyor: A.Bekbolotov. 2007-yil), “Chiqimda” («У мпана» rejissyor: N.Asanbekov. 2009-yil), “Suv” («Вода» rejissyor: A.Nasirov. 2011-yil) kabi filmlarni misol keltirish mumkin»* [1.65].

Darhaqiqat, 2000-yillardan so'ng, qirg'iz kinematografiya yangi bosqichga ko'tarildi, deyish mumkin. Buni kinoijodkorlar tomonidan yaratilayotgan filmlar va mamlakatda o'tkazilayotgan festivallar misolida guvoh bo'lish mumkin. “Qirg'iz qisqa metrajli kinosining muvaffaqiyati haqida har yili Bishkekda o'tkaziladigan *“Qirg'iziston – qisqa metrajli filmlar mamlakati” nomli MDH va Boltiq davlatlari xalqaro kinofestivali darak beradi*” [2.16].

Mazkur festival ishtirokchisi yosh rejissyor A.Bakanova 2011-yilda “Yomg'ir qo'shig'i” filmi suratga oldi. Ushbu asar jahon ekranlarida nomoyish etildi. Bishkek festivalida “Eng yaxshi film” deb topilib, Shveysariyadagi Lokarno xalqaro kinofestivalining asosiy tanlovida ishtirok etishi uchun saralab olindi.

A.Bakanova tomonidan yaratilgan “Yomg'ir qo'shig'i” filmi turmush o'rtog'i xorij – Rossiyaga ishlagani ketgan yosh juvon Begoyim hayoti haqida hikoya qiladi. Begoyim homilador bo'lib, erining qo'ng'iroq qilishini kutib yashaydi. Qaynonasi esa uning holiga qaramay, bir dam tin olishga bermaydi. Begoyim hali tug'ilmagani farzandiga otasining tez kunlarda kelib qolishi haqida gapirib, o'zini ovutib yuradi. Ammo chet elda eri bilan birga ishlab kelgan qo'shnisidan bo'lajak farzandining otasi boshqa ayol bilan yashayotganligini eshitib qoladi. Begoyim endi kelinlik uyida o'zini begonadek his qiladi. Film “Yomg'ir qo'shig'i” bilan yakun topadi.

Rejissyor A.Bakanova ushbu qo'shiq orqali Begoyimning ichki kechinmalarini tasvirlab berishga muassar bo'lgan. Ayol qo'shiq xirgoyi qilarkan,

qalbidagi barcha alam-sitamlarni to'kib sochadi. Mazkur asar orqali rejissyor qirg'iz ayollarining baxtsiz taqdirini ko'rsatishga intilgan. Pul dardida oilalarning parchalanib ketishi nafaqat Qirg'izistonda, balki ko'plab dunyo mamlakatlarida yuz berayotgan ijtimoiy-maishiy muammodir. Shuning uchun bo'lsa kerak, “Yomg'ir qo'shig'i” filmi dunyoning turli xil davlatlarida o'z muxlislarini topdi.

Qirg'izistonda mavjud tendensiyani Qozog'iston kenematografida ham kuzatish mumkin. *“Hozirgi kunda “Qozoqfilm” kinostudiyasida “Debyut” bo'limi faoliyat yuritayotgan bo'lib, bu yerda yosh rejissyorlar Qozog'iston, Rossiya, Fransiya va AQSH oliygohlarining bitiruvchilari birinchi professional qisqa metrajli filmi suratga olish imkoniga ega*” [3.3]. Jumladan, “Tonggi shafaq nuri” (“Luch utrenney zari” rej: D.Tulegenov, 2015-yil), “Oliara” (rej: Ye.Yeskendir, 2016-yil), “Erkak” (rej: B.Jaxanov, 2016-yil), “Kub” (rej: M.Kodarov, 2016-yil), “Shoqol” (rej: A.Seitov, 2016-yil), “Tubsizlik” (rej: R.Kaldikoz, 2017-yil), “Baliq sho'rva” (rej: A.Jadigerov, 2018-yil), “Samal” (rej: Sh.Serjan, 2018-yil), “Suv” (rej: A.Kasimbek, 2018-yil), “Qishloqdagi diplom” («Диплом в село» rej: S.Raxim, 2019-yil) kabi filmlar yaratildi. Bu Qozog'istonda qisqa metrajli kinoga katta ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi. Yosh ijodkorlarga kino sohasida o'rinlarini topishda yordam berish hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. *“Respublika va xalqaro kinofestivallarda qisqa metrajli filmlar namoyishi o'tkazilmoqda. Xalqaro talabalar kinofestivali “Bastau” va “Shaken yulduzlari” aynan debyutantlarning qisqa metrajli filmlari uchun tashkil etildi*” [3.4-5].

D.Tulegenovning “Tonggi shafaq nuri” nomli filmi ham ko'plab festivallarda ishtirok etib, Bishkekda “Qirg'iziston – qisqa metrajli filmlar mamlakati” nomli MDH va Boltiq davlatlari xalqaro kinofestivalida “Bosh sovrin” (2015), Olmaotadagi “Yevraziya” xalqaro kinofestivalida “Eng yaxshi qisqa metrajli film” (2016), Yekaterinburgdagi “Kinoproba” kinomaktablar amaliyot-festivalida (festival-praktikum kinoshkol) “Hakamlar sovrini” kabi yutuqlarni qo'lga kiritdi. Mazkur film maishiy drama janrida bo'lib, ona va bola o'rtasidagi murakkab munosabatni ko'rsatadi. Rejissyor otalik mehrini his qilmay voyaga yetayotgan qahramon bolaning alamzadaligi tufayli, axloqsizlik va buzg'unchilikka moyilligini tasvirlab bergan.

Filmda kemtik oilada balog'atga yetayotgan o'smir yigitning qalb tug'yoni obyektlarda va detallarda aniq ifodalangan. Masalan, ilk kadrdagi bo'sh tramvay ichidagi buzuq o'rindiq, oilaning but emasligiga ishora bo'lsa, derazalarni sindirib ichkariga kelib tushadigan toshlar esa, qahramonning faryodini izohlaydi. Bola tosh o'tarkan, alamini olishga urinadi. Bu xatti-harakat obrazning xarakterini ochib beradi. Rejissyor D.Tulegenov filmni “Tonggi shafaq nuri” deb nomlashi bejiz emas. Chunki, boshqa erkak bilan turmush qurishga intilgan ona nomarddan jabr ko'rib, asar so'nggida o'g'li bilan qoladi. Bezorilik qilib yurgan o'g'il ham onasining holatini tushunib unga suyanchiq bo'ladi. Film so'nggida ona va bola o'rtasidagi

munosabat yaxshilanganligi va ikkisi ham bir-birini qadrlay boshlagani tongdagi shafaqqa qiyos qilinadi. Rejissyor yangi kunni hayot, nurni umid ramzida ifodalagan.

XXI asrdagi texnologik evolutsia qisqa metrajli kinoga keng imkoniyat ochib berdi. Bu yo'nalish yosh ijodkorlar faoliyatida muhim rol o'ynash bilan birga kinoda mavqega erishgan rejissyorlar ijodidan o'rin egallab kelmoqda. Ushbu xususiyatni rossiyalik ikki rejissyor A.Melikyan va Ye.Nikitinlar ishi misolida ko'rish mumkin.

2015-yilda mashhur rejissyor A.Melikyan "8" nomli qisqa metrajli film suratga oldi. Fantastik drama janridagi bu filmda javobsiz sevgi tufayli, o'tmishni unutishga uringan yigitning kechinmalari ifodalangan. Film janrga xos uslubda tasvirga olingan bo'lib, xayol va reallikni izohlovchi kadrlar keskin ravishda montaj orqali almashadi. Rejissyor filmda detalga urg'u berib, yirik plandan keskin boshqa obyektidagi umumiy plandagi tasvirga o'tgan. Masalan, qahramonning armonli muhabbati bilan bog'liq xotirasini o'chiruvchi dori tasviridan yigitning uyida dori ichayotgan holatidagi o'rta plan, so'ng, maxsus effektdagi fantastik hodisa va xayolotdagi umumiy yiriklikdagi tasvirdan foydalanilgan. Bunday keskin kadrlar almashishi filmning temp va ritmini oshirib, syujetni yorqin o'ziga xos usulda ochib bergan. A.Melikyaning "8" filmi oq-qora rangda bo'lib, g'aroyib dori qizil rangda bo'lib, uning insonga ta'siri yorqin ranglarda beriladi. Film "8" deb nomlanishiga sabab, odamni azoblovchi o'tmishni unutish uchun 8 dona dori kerak. Bu raqam cheksizlik ma'nosini ham anglatib, inson hayotida javobsiz tuyg'ular, yo'qotishlar va ular bilan bog'liq og'riqli hissiyotlar doim mavjud bo'ladi. Chunki odamzod yaqin munosabatga intiladi, lekin hech narsa abadiy emas.

"8" qisqa metrajli bo'lishiga qaramay, unda taniqli aktyorlar Ye.Siganov, I.Dapkunayte rol ijro etgan. Ye.Siganov yaratgan obrazining holatini aniq ko'rsatib bergan. Aktyorning yuz ifodasi va harakatlari qahramonning ichki kechinmalarini ta'sirli va ishonarli ifodalagan. Shuningdek, I.Dapkunayte talqin qilgan obrazining xarakteriga jiddiy yondashgan. U jiddiylik

va faylasufona tabassum orqali yorqin obraz gavdalanir.

Yosh rejissyorlardan Ye.Nikitin 2017-yilda navbatdagi qisqa metrajli filmni yaratdi. "Nayza" ("Strela") nomli film maktabning yuqori sinf o'quvchilari orasidagi muammoga bag'ishlangan. 25 daqiqa davom etuvchi ijtimoiy drama janridagi mazkur asarning maqsadi, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra bolalarning bir-biriga bo'lgan munosabati va maktab rahbariyatining ularga bo'lgan muomalasini ochib berishga qaratilgan. Edik boy xonadonning o'ta tantiq va odobsiz bolasi. U istaganicha darsga xalaqit beradi. Sinfdoshlarini masxaralab, o'qituvchilarni behurmat qiladi. Lekin ota-onasining maktabga ko'rsatayotgan moddiy yordami tufayli, maktab direktori uning barcha qiliqlariga ko'z yumadi. Sinfga Alisa ismli yangi o'quvchi qiz keladi. Qiz Edikning boshqalarga qilayotgan muomalasiga chiday olmay unga musht tushiradi va darsdan keyin jangga chaqiradi. Rejissyor ushbu filmidagi qiz obrazi orqali har qanday beboshlikka qarshi chiquvchi kuch topilishi muqarrar ekanligini ta'kidlagan.

Ye.Nikitin "Nayza" filmi bilan ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, maktabda bolalar qanday nohaqliklarga uchrashi haqida hikoya qiladi. Rahbariyat esa o'quvchilarni birdek ko'rib, ularga to'g'ri tarbiya berish o'rniga ota-onalarning moddiy ko'magiga qarab turlicha munosabatda bo'lishini aks ettirgan. O'qituvchilar tengsizlik tufayli, hurmatsizliklarga chidashga majburligi tasvirlangan. Yosh ijodkor filmni voqealarga ko'ra qismlarga bo'lib, ularni syujet nuqtai nazaridan iboralar bilan nomlagan. Har bir ibora kichik sahnaning ma'nosini izohlaydi. "Do'sting yordamga kelganda", "Chetlab o'tilgan jang, muvaffaqiyatli jang" kabi qo'llanilgan iboralar rejissyorning fikrini bayon qilishga va tomoshabinni o'ylashga undaydi. "Nayza" qisqa metrajli filmi rejissyorning uslubi, jamiyatda uchraydigan muammolarga munosabatini ifodalaydi.

Jahonda ekran san'ati paydo bo'lgan ekan, yildan-yilga turli janrlar va uslublar ko'payib, mukammallashib boraverdi. Ammo qisqa metrajli kino o'z xususiyatini yo'qotmadi. U yuzaga kelgan vaqtdagi kabi jamiyatdagi muammolarni ochib, faqat kino san'ati yo'lida xizmat qilib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толомушева Г. Территория Киностан. Кыргызское кино в лицах. – Бишкек: 2009. – С.252.
2. Токоева Ж. Основные тенденции развития современного кыргызского кинематографа. "Культура и искусство", 2019, № 11. – С.16. DOI:10.7256/2454-0625.2019.11.30832 URL: [https://nbpublish.com/library\\_read\\_article.php?id=30832](https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=30832)
3. Байракимов А. Короткометражный фильм как метод воспитания режиссера. // APRIORI. Серрия: Гуманитарные науки. WWW.APRIORI-JOURNAL.RU. 2016. № 2. – С.7.

## KINOOPERATORLIK SAN'ATIDA YORUG'LIK NISBATI VA UNING TASVIRIY AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, ekspozitsiya uchburchagi unsurlarini to'g'ri kombinatsiyalashning ahamiyati, uning fotografiya va kino san'atida ma'lum bir sabablarga ko'ra farqlanishi haqida so'z yuritiladi. Mavzu hayotiy misollar va soha mutaxassislarining fikr-mulohazalaridan foydalanilgan holda tadqiq etildi.

**Kalit so'zlar:** kinematografiya, fotograf, ekspozitsiya, diafragma, shutter tezligi, ISO.

## ОТНОШЕНИЕ СВЕТА К КИНООПЕРАТОРСКОМУ ИСКУССТВУ И ЕГО ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается важность правильного сочетания элементов экспозиционного треугольника, и чем он отличается по тем или иным причинам в фотографии и кинематографии. Тема исследована на реальных примерах и мнениях отраслевых экспертов.

**Ключевые слова:** кинематография, фотограф, выдержка, диафрагма, выдержка, ISO.

## THE RATIO OF LIGHT TO CINEMATOGRAPHIC ART AND ITS PICTORIAL SIGNIFICANCE

**Abstract.** This article discusses the importance of the correct combination of the elements of the exposure triangle, and how it differs for certain reasons in photography and cinematography. The topic was researched using real-life examples and opinions of industry experts.

**Key words:** cinematography, photographer, exposure, aperture, shutter speed, ISO.

Kinematografiya san'atining tub lug'aviy ma'nosi yorug'lik bilan tasvir yaratishdir. Zero, mutlaq qorong'ilikda inson ko'zlari hech qanday tasvirni ham, atrof-muhitni ham ko'rmaydi. Inson ko'zlari bilan atrof-muhitni tafakkur etishida yorug'lik eng asosiy omil hisoblanadi. Ammo "yorug'lik" qanchalik qudratli va chuqur fenomen bo'lmasin, uni kino kadri uchun kinokamera qurilmasida boshqarishning yo'llari sanoqligina.

Mazkur ilmiy maqola mavzusini yoritishda tavsifiy, tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va kompleks yondashuv tahlil usullari qo'llanildi. Shu bilan birga ishda gumanitar fanlar – san'atshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, aloqa nazariyasi, madaniyatshunoslik metodologik vositalaridan foydalanadi. Tadqiqotda ko'rib chiqilayotgan muammolarni nazariy va tarixiy-badiiy tushunishga qaratilgan zamonaviy san'atshunoslik usullaridan qo'llanilgan. Umuman olganda, ish qiyosiy tahlil va tipologik umumlashtirishdan foydalanishga imkon beruvchi ekranning o'ziga xos ifoda vositalarini yaratish va his qilish muammosiga integratsiyalashgan yondashuvdan foydalangan. Qiyosiy tahlil usuli ekran san'atining rivojlanishining turli bosqichlarida badiiy filmlarda tasviriy yechimning o'zaro ta'siri va uni amalga oshirishning texnologik imkoniyatlarini o'rganishda ishlatilgan. Shu bilan birga retrospektiv tahlil usulidan ham foydalanilgan.

Kinematografiya sohasi doirasida yorug'likni boshqarish tasvirni "ekspozitsiyalash" deb yuritiladi. Ekspozitsiya so'zi lotin tilining "yorug'lik" so'zi o'zagidan kelib chiqqan. Kinokadr hamda fotografiyada tasvirni ijodkor tasavvuriga ko'ra ekspozitsiyalashning ikkita bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan yo'llari mavjud. Birinchisi tashqi, ya'ni chiroqlar hamda boshqa yordamchi yorituvchi qurilmalar orqali; ikkinchisi esa ichki, ya'ni kinokamera sozlamalari "ekspozitsiya uchburchagi" orqali. Ekspozitsiya uchburchagini tushunish fotografiya va kino ijodining asoslaridan biridir. Diafragma, ISO va Shutter tezligini ekspozitsiyalash va tasvirning boshqa

qator aspektlariga ta'sirini tushunish ijodkor uchun tasvir yaratishda ko'plab yangi ijodiy yondashuvlarni ochadi. Umuman olganda har qanday holat uchun "mukammal ekspozitsiya" iborasi mavjud emas. Chunki tasvirni ekspozitsiyalash bu ijodkorning tanlagan yo'li hamda "low key" yoki "high key" kabi tanlagan yoritish stilistikalaridan kelib chiqadi. Masalan, umumiy planda qorli sahnani bir ijodkor berilgan dramaturgiyadan kelib chiqqan holda yorqin tasvirlasa, ikkinchisi kulrangroq hamda qorong'iroq sovuq atmosfera bilan tasvirlashi mumkin. Har qanday natijani yaratishda ham ekspozitsiya uchburchagi unsurlarini to'g'ri kombinatsiyalash eng birinchi o'rinda turadi.

Kinokamera qurilmasi yaralish tarixiga nazar solsak, undagi ilk protiplarning, ya'ni kamera obskuraning yagona maqsadi reallikdagi ko'rinishni yassi tekislikka proyeksiyalash bo'lgan. Kamera obskura bu bir dona 1-4 mm radius tuynugi mavjud bo'lgan kichik mutlaq qorong'i xona. Unda o'sha tuynuk ortidagi tabiat (borliq) kamera obskuraning tuynugiga qarama-qarshi bo'lgan devoriga proyeksiyalangan, ya'ni tasvirning aksi devorda paydo bo'lgan. Undagi aksning ekspozitsiyasi hamda ravshanligi kamera obskuraning tuynugi hajmi bilan boshqarilgan. Bu, albatta, o'z o'rnida "ekspozitsiya uchburchagi"ning bir unsuri bo'lmish kamera obyektivi aperturasi ishlash prinsipining ilk ko'rinishi hamda analogidir.

Diafragma yoki aperture – yorug'lik o'tadigan linzalar orasidagi bargsimon tuynukning ochilib yopilishi. U f/ stop yoki kino obyektivlarida t/stoplarda kalibrovkalanadi va odatda, 1.4, 2, 2.8, 4, 5.6, 8, 11 va 16 kabi raqamlarda belgilanadi. Diafragmaning qanchalik past son bilan belgilanishi bu undagi tuynukning shunchalik keng ochilgani va bu bilan ko'p miqdordagi yorug'lik obyektivdan o'tib tasma tomon ketayotganini bildiradi. Baland son bilan belgilangan diafragma esa, aksincha, tuynuk kichikligi va kam miqdordagi yorug'lik obyektivdan o'tayotganini bildiradi. Ekspozimetriya, ya'ni yorqinlik hamda qorong'ilik bilan birga diafragma tasvirning

chuqurligi, aniqroq qilib obyektiv qaratilgan obyekt yoki subyekt oldi va orqasidagi ma'lum zonaning qanchalik ravshan yoki noaniqlanishini boshqaradi. Umuman olganda, agar tasvirni ikki x va y o'lchamli emas, balki uch o'lchamli x, y va chuqurlik z o'lchamli deb qabul qilsak, unda diafragma z o'lchami bo'yicha qancha masofada ravshanlik belgilanishi va qolgan qismi qanday darajada noaniqlanishini belgilaydi. Diafragmaning son belgisi qanchalik past bo'lsa, linzadagi tuynuk shunchalik katta bo'ladi va bu o'z o'rnida tasvirning z o'qi bo'ylab ravshan ko'rinayotgan qismi kam bo'ladi hamda fon shuncha noaniqlashadi. Diafragma soni qanchalik baland ko'rsatgichda bo'lsa, linzadagi tuynuk shuncha kichik bo'ladi va tasvirning z o'qi bo'ylab ravshan ko'rinayotgan qismi uzun bo'ladi hamda fon shunchalik aniqroq ko'rinadi. Shu o'rinda bir sodda misol bilan fikrimizni tushuntirsak, agar tasvirida ikki personaj kameraga nisbatan orqama- ketin joylashsa va ularning kameraga yaqinroq turgan personajiga nisbatan fokus olinsa, diafragma uning ortidagi personajning qanchalik noaniq ko'rinishi yoki ravshan ko'rinishini boshqaruvchi xususiyatga ega. An'anaviy kinooperator hamda fotograflar bunday holatni "fokussizlik darajasi" deb ham yuritishadi.

Reallikni ma'lum jismga proyeksiyalash taraqqiyotining ilk qadamlaridanoq muhim bir masala, bu kamera obskura devorida o'z aksini topayotgan tasvirni uzoq vaqtga saqlab qolish edi. Ya'ni endilikda tasvir devorga proyeksiyalantirilmagan, balki tasvirni xotirlab qoluvchi maxsus shishalarga va keyinchalik, albatta, foto tasmalarga tushirildi. Foto texnologiyalar rivojlanishining aynan shu bosqichlaridan boshlab tasvir ekspozitsiyasini obyektiv aperturasidan tashqari yana ikki unsuri paydo bo'lgan. Ular tasvirning, shu bilan birga yorug'likning tasmaga tushirilish vaqti hamda tasmaning yorug'likka sezuvchanlik miqdori edi. Mana shu tasvirga olishdagi texnik ishlash prinsiplari bugungi kundagi kino hamda foto qurilmalarida ham bir xil. Yanada tushunarliroq qilib aytdigan bo'lsak, kamera obskura, ya'ni lotincha "atrofni ko'ruvchi qorong'i xona" ma'nosini anglatuvchi unsur bugungi kunga kelib texnika va texnologiyalarning ilg'or rivoji sabab, kichik bir texnikaviy qutiga aylandi.

Fotografiya hamda kinematografiyaning rivojlanish bosqichlaridagi bir davrda bizning yurtimizda ham Xivaning minoralari va hamyurtlarini suratga ola boshlagan Xudoybergan Devonov kamerasi orqali tasvirga olish jarayonida ham butun dunyodagi qolgan hamkasblari kabi tasvirlamoqchi bo'lgan obyekt yoki subyektini kamera qarshisiga joylagach, ular oldida kamera obyektivi qopqog'ini qo'lda bor-yo'g'i bir necha soniyaga ochib keyin chaqqonlik bilan yopib qo'ygan. Yuqorida ta'kidlanganidek, reallikdagi tasvir bu kamera qurilmasidagi tasvirni sezuvchi jism uchun yorug'lik hisoblanadi. Ya'ni tasmaga kamera obyektivi orqali tushayotgan nur (yorug'lik) bu tasvirning o'zidir. Agar bu nurning tushish vaqti boshqarilmasdan tasmaga keragidan ortiq vaqt va shu bilan birga ortiqcha miqdorda yorug'lik tushirilsa tasmadagi tasvir detalizatsiyasi yo'qolib yorishib ketishi yoki bir tasmasi ustiga ikki-uch va undan ko'p tasvir tushirilgandek xira bo'lib ketishi mumkin. Agar aksi bo'lib tasma yetarlicha vaqt mobaynida nurlanmasa, unda tasmadagi tasvir qorong'ilashib ketadi. Mana shu jarayonni fotograflar qo'lda boshqargan davrda ularning harakati qanchalik kulgili ko'ringan bo'lsa-da, ular yaratgan to'g'ri ekspozitsiyalangan tasvirlar bugungi kunimizda o'tmishni bizga yetkazuvchi bebaho arxivlardir.

Albatta, tasvir yaratish texnologiyalari taraqqiyoti tasvir yaralishidagi bunday hisob-kitob hamda mexanik ishni ko'p o'tmay avtomatlashtiradi. Fotoapparatlarda obyektiv hamda tasma o'rtasiga rus tilida "затвор" ingliz tilida "shutter" deb yuritiluvchi qurilma joylashtiriladi. U ochilib yopilish orqali obyektivdan kelayotgan tasvirni tasmaga tushish vaqtini boshqarish imkonini beradi. Ya'ni fotoapparat qurilmasidagi shutter tezligini fotograf 1/50 ga qo'ysa tasvir tasmaga 1/50 sekund tushayotgani va shutter 1/50 sekundga ochilib keyin yopilayotganini bildiradi.

Kadr san'at va texnikaviy bilimning uyg'unligidir. Faqatgina bu ikki jihatcha asoslarini baravar tushunishdan so'ng, tasvirida ijodiy qarashlarni ifoda etish mumkin. Fotograf Jeff Karlson ta'kidlashicha, tasvirning ijodiy yondashuvida shutter tezligi bilan tasvir ekspozitsiyasini boshqarishdan tashqari yana ikkita narsaga oson erishish mumkin. Birinchisi, bu vaqtni muzlatish, ya'ni har qanday harakat tasvirga olingan milli sekunldagi fazasida hech qanday xiralanihsiz qotish. Agar shutter tezligi 1/1000 sekund kabi tezliklarga sozlangan, u tezda ochilib yopiladi va tasvirida qanday harakatlar bo'lishidan qat'i nazar aynan o'sha milli sekunddagi qismni oladi. Misol uchun poygada qatnashayotgan 160 km/s tezlikda o'tayotgan avtoullovning tasviri tiniq, tezlik baland bo'lishiga qaramay hech qanday xiralanihsiz olinadi. Ikkinchisi esa ijodiy tafakkurdan va tasvirlanayotgan vaziyatdan kelib chiqqan holda ijodkor shutter tezligini inson ko'zi qabul qilish normasidan ham sekinroq qilishi mumkin. Bunda tasvirida paydo bo'lgan xiralanihsiz tasvirni yorqinlashuvi yoki boshqa ijodiy stilistikani yaratish kabi maqsadli foydalanish mumkin. Xususan, yuqorida misol tariqasida keltirib o'tilgan 160 km/s tezlikda harakatlanayotgan avtoullovning bunday holatdagi korpusi va g'ildiraklari deyarli ko'rinmaslikkacha o'z harakat chizig'i bo'ylab xiralashib (motion blur) boradi, uning yoniq turgan chiroqlari esa tasvir bo'ylab bir chiziq bo'lib tasvirlanadi. Bunday tasvirlarning eng mashhuri Buyuk Britaniya Qirolligi London shahridagi Big Ben soati ostida tushirilgan. Unda soat va tungi peyzaj, ko'priklar bo'ylab esa uzun chiziqlar bo'lib ketgan avtoullov qizil chiroqlari aks etgan.

Reallikdagi tasvir yorug'lik to'liq uzunligi, obyektiv murakkab linzalari hamda aperturasidan o'tib tasmaga muhrlanar ekan, tasvir yoritilganligi borasidagi muhim faktorlardan biri bu tasmaning sifatidir. Foto hamda kino tasmalarning ommalashuvi natijasida, tasma turlarining xilma-xilligi hamda turli rang va yorug'lik sezuvchanlik xususiyatiga egaligi oshdi. Tasmadagi yorug'lik sezuvchanligi xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan (kinoda yorug'lik sezgirligi standartlarini o'rnatgan tashkilot nomi bilan) "ISO" harflari bilan belgilagan. Bu atama garchi tasmalar erasida kelib chiqqan bo'lsa-da, u hali ham raqamli fotografiyada ham matritsaning yorug'lik sezuvchanligiga ishora qiladi.

Ekspozitsiyada ISO, ehtimol, eng noaniq va eng kam tushunilgan unsurdur. ISO ko'rsatkichi ekspozitsiya tushunchasida garchi yorug'lik yoki qorong'ilikni o'zgartirsa-da, undagi qo'shimcha aspekt bu tasviridagi vizual shovqinning darajasini boshqarishdir. Agar kamera sozlamalaridan ISO ko'rsatkichi minimal qilib belgilansa, misol uchun 50 ISO yoki 100 ISO unda tasvir tasmada yoki displeyda vizual shovqinsiz toza hosil bo'ladi. Shu bilan birga past ISO ko'rsatkichi kam yorug'lik sezuvchanlikni belgilaydi, ya'ni sun'iy yoritish uskunalari bo'lmagan yoki ishlatililmaydigan holatda, tunda va interyerda tasvirga olish mushkul bo'ladi. Kam sezuvchanlikka moslangan

tasma yoki matritsada yaxshi ekspozitsiyalangan tasvir paydo bo'lishi uchun tasvirlanayotgan obyekt yoki subyekti juda ham yorqin bo'lishi kerak. Vaholanki, ISO ko'rsatkichi maksimal yoki 1600 ISO dan ham baland belgilanishi bu tasma yoki matritsaning yorug'likka sezuvchanligi ortganidan dalolat beradi. Bunday holatda tasvirlanayotgan muhit va jism unchalik yorqin bo'lmagan holda ham tasmaning yorug'likka sezuvchanligi orqali unda yaxshi ekspozitsiyalangan tasvir kelib chiqadi. Ammo ISO ning yuqori ko'rsatkichlari tasvirda vizual shovqinning kuchayishiga olib keladi. Aksariyat holatlarda vizual shovqini me'yordan ko'p tasvir va kadrlar yaroqsiz hisoblanadi. Shunga qaramay kinematograflar orasida kadrdagi yetarlicha vizual shovqin bo'lmasa uni "plastmassa" kadr hisoblovchilar ham katta foizni tashkil etadi. ISO standarti belgilangan bir davrda dunyo kinosi rivojlanishning ayni bir pallasida turgan edi. Buyuk kinoklassikalar va tasmalar davrida aksariyat gollivud kinosi 800 ISO bilan belgilangan "Kodak" tasmalariga muhrlangan. Shuning uchun ham bugungi kun kinematograflari ham tabiiy vizual shovqin 800 ISO da paydo bo'ladi, deya ta'kidlashadi. Tasvirdagi yorqinlik hamda uning vizual shovqini har qanday holat uchun ham aniq belgilangan ISO ko'rsatkichi mavjud emas, bu yuzadan qanday qarorga kelishini kinooperator yoki fotograf o'zining tanlagan ijodiy yo'lidan kelib chiqib aniqlaydi.

Dramaturgiyaga maqbul ekspozitsiyalashda yuqorida sanab o'tilgan ekspozitsiya unsurlarini to'g'ri kombinatsiyalash eng muhim o'rinda turadi. Garchi diafragmaning ham, shatter tezligi va ISO ning ham ko'rsatkichlari tasvirdagi yoritilganlikka ta'sir ko'rsatsa-da, ularning alohida yana qo'shimcha ta'sir faktorlari mavjud. Bu holat tasvirni ekspozitsiyalashda universal bir yo'l yo'q ekanligini ifodalaydi. O'z o'rnida bir savol tug'iladi: unda ekspozitsiyalashni qaysi unsurdan boshlash kerak?

Ekspozitsiya uchburchagi elementlari bo'lmish diafragma, shatter tezligi va ISO ko'rsatkichlarini o'rnatishda operator yoki fotograf o'zining tasvirga olayotgan voqeligining ma'nosidagi prioritetga e'tibor qaratadi. Agar fotograf liboslar modelini, rangli qog'ozli fonda tasvirga tushirayotgan bo'lsa, unda u uchun rangli qog'ozning past diafragma va shu bilan birga ochiqroq tuynuk qilib noaniq,

xira va bir tonli qilish prioritetda turadi hamda model va kiyim vizual shovqinsiz toza ko'rinishi uchun imkon qadar past darajali ISO ko'rsatkichlari o'rnatiladi. Shu holatda agar fotograf kamerani qo'lida ushlab tasvirga tushirayotgan bo'lsa, unda qo'l titrashi tasvir xiralashishiga olib kelmasligi uchun shatter tezligini taxminiy 1/125 sekundga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Ammo kinokadrdagi ekspozitsiyalash uchburchagi unsurlari kombinatsiyasi o'zgacha bo'ladi. Misol uchun bir qancha filmlarda kuzatganimizdek, kadr birinchi planda birinchi personaj ma'lum his-tuyg'u bilan kinokamera tarafga qarab turadi va ikkinchi planda yana boshqa personaj birinchisining his-tuyg'usiga reaksiya bildiradi. Bunday kadr kompozitsiyasini ekspozitsiyalashda aksariyat holatda prioritet diafragmada bo'ladi, ya'ni kadr chuqurligi bo'yicha ma'lum masofa farq bilan turgan ikki personajning ikkalasini ham aniq, ravshan yoki ravshanroq qilib ko'rsatishda diafragma ko'rsatkichi kattaroq raqamlarda bo'ladi, ya'ni obyektiv yorug'lik o'tish tuynugi kichik hajmga qo'yiladi. Ekspozitsiyaning qolgan ikki usuri diafragmadan keyingi yoritilganlik darajasiga qarab belgilanadi. Bundan tashqari bir qator o'z sohasining yetuk namoyandalari bo'lgan kinooperatorlar tasvirda vizual shovqinning tomoshabinga mental ta'siriga alohida ahamiyat berishadi.

"Kann" xalqaro kinofestivalida qatnashuvchi ko'plab ijodkorlarning ishlarida biz filmning boshdan oxirgacha 400 yoki 800, hattoki, 1600 ISO ko'rsatkichlarida tasvirga olinganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu kabi ijodkorlar uchun ekspozimetriya uchburchagi prioriteti birinchi o'rinda ISO ko'rsatkichida bo'ladi va qolgan ikki unurni tasvir dramaturgiyasi hamda yoritilganligiga qarab belgilashadi.

Har bir kompozitsiya ekspozitsiyasi ustida chuqur ishlashdan maqsad, tasvirga olayotgan obyektningizni badiiy tasavvuringizga mos keladigan tarzda suratga olishdir. Tasvir – bu fotografiya ko'rinishida ham kinematografiya ko'rinishida ham san'at turi hisoblanadi. Unda ma'lum chegaralar mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun ijodkor tasvirni "to'g'ri ekspozitsiya" ta'rifiga javob berishi shart emas. U tabiiylikdan yiroq, qorong'iroq va xiraroq yoki me'yordan yorug'roq bo'lishi mumkin. Eng asosiysi esa tasvir ijodkor xohlagan voqea hamda hissiyotlarni tomoshabinga yetkaza olsa bo'lgani.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blain Brown. Cinematography: Theory and practice. – New York, 2002.
2. Meliqo'ziyev I. Cinematographer's ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International journal of advanced science and technology, 29 (05), 1554–1567.
3. Ikbal Melikuziev. (2020). CINEMATOGRAPHER'S ABILITY IN THE CREATION OF GRAPHIC IMAGE IN UZBEK HISTORICAL FILMS. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554–1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
4. Ikboljon, M., & Tirkashaliyevich, K.S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230–5236. doi:10.35940/ijeat. A2948.109119
5. Abul-Kasimova X. Кино и художественная культура Узбекистана. – Т.: "Fan", 1991.
6. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari / X. Abulqosimova; mas'ul muharrir H.Ikromov; O'zbekiston Davlat san'at instituti. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. – B.100.
7. Akbarov H. Adabiyot va kino. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
8. Akbarov H. Sehrli yog'du. Yillar va filmlar, yetuklik bo'sag'asida, ekran va ikki muammo. – Т.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – B.176.
9. Aliyev M. Xalq sevgan san'at. – Т.: "Adabiyot va san'at", 1973. – B.134.
10. Aliyev M. Kino asoslari: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniy-ma'rifiy ixtisosdan bilim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma (qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr). – Т.: "O'qituvchi", 1993. – B.160.
11. Aliyev M. Zamon bilan hamnafas (o'zbek kinosi misolida). – Т.: "O'zbekiston" 1983.
12. Возможности кинооператора в создании графического образа в узбекских исторических фильмах Меликузиев, Международный журнал передовых наук и технологий 29 (5), 1554–1567.
13. Киноискусство Узбекистана: вчера и сегодня И.М. Меликузиев.



## ЗНАЧЕНИЕ ЗВУКА В КИНО И ТЕЛЕВИДЕНИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются звуковые качества в кино и телевидении, восприятие слушателя при увиденной сцене а так же работа на съёмочной площадке звукорежиссёра так же всей съёмочно-творческой группы. Процесс постпродакшена, роль изображения и звука. В работе так же упоминается действие актёров немого фильма после появления звука в кадре. В статье использовались работы выдающихся режиссёров и операторов.

**Ключевые слова:** кино, телевидение, изображение, звук, музыка, кадр, кинематографист, микрофон, эффект, партитура, гиперреалистичность, постпродакшн.

## KINO VA TELEVIDENIYEDA OVOZNING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, kino va televideniyedagi tovush ahamiyati, tinglovchining sahna ko'rishini eshitish orqali idroki, hamda ovoz rejissyori va butun ijodiy guruh tasvirga olish jamoasining ish jarayoni o'rganilgan. Tasvirga olishdan keyingi jarayon, tasvir va tovushning vazifasi qalamga olingan. Bundan tashqari ovozsiz film aktyorlarining kadrda tovush paydo bo'lgandan keyingi harakatlari ham qayd etilgan. Maqolada taniqli rejissyor va operatorlarning ishlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kino, televideniye, tasvir, tovush, musiqa, kadr, kinematograf, mikrofon, effekt, partitura, giperrealizm, postprodakshn.

## THE IMPORTANCE OF SOUND IN FILM AND TELEVISION

**Abstract.** This article discusses the sound qualities in cinema and television, the perception of the listener when he sees the scene, as well as the work on the set of the sound engineer as well as the entire film and creative team. The post-production process, the role of image and sound. The work also mentions the action of the actors of a silent film after the appearance of sound in the frame. The article used the work of outstanding directors and cameramen.

**Key words:** cinema, television, image, sound, music, frame, cinematographer, microphone, effect, score, hyperrealism, post-production.

Звук для кино и телевидения – это слуховой опыт, созданный для поддержки сюжета повествовательного, документального или коммерческого фильма или телевизионной программы. Звук может рассказать историю напрямую, или он может быть использован косвенно для улучшения истории. Хотя существуют отдельные механизмы восприятия звука и изображения, аудитория может интегрировать звук вместе с изображением в единое целое, без дифференциации. В таком состоянии звук и изображение вместе могут стать больше, чем сумма частей.

В большинстве случаев звук в кино и на телевидении для развлекательных и документальных программ создается в процессе постпродакшна профессионалами, использующими множество фрагментов звука, плавно смешанных вместе, чтобы создать законченное целое. Источники, используемые для звука, включают записи, сделанные во время основной съемки на съемочных площадках или на натуре, библиотеки звуковых эффектов и индивидуальные записи, а также музыку, как написанную для фильма, так и из ранее существовавших источников.

Таким образом, звук для кино и телевидения – это тщательно сконструированный опыт, обычно предназначенный для плавной интеграции многих элементов воедино и не привлекающий к себе особого внимания.

Относительная роль изображения и звука в повествовании может меняться от сцены к сцене и от момента к моменту. Прямая повествовательная картина, вероятно, будет сопровождаться диалогом, в то время как монтаж картины часто будет сопровождаться музыкой или, по крайней мере, управляемыми звуковыми эффектами, поскольку режиссер время от времени меняет метод повествования, чтобы добавить интерес к фильму и предоставить зрителям возможность погрузиться в действие, делайте переходы между сценами и так далее.

Почти каждый, кто участвует в производстве фильма или телевизионной программы, влияет на звук и находится под его воздействием. Сценаристы используют звуковые элементы в своем повествовании, предлагая в сценарии то, что может быть услышано. Специалисты по определению местоположения должны обращать внимание на плохие шумовые условия в потенциальных местах съемки, потому что, хотя камера может «панорамировать» нарушающий знак, нет такого эффективного способа исключить пролетающие самолеты из звукового сопровождения – «края» звукового кадра не такие жесткие, как у кадра с картинкой.

Режиссеры должны остро осознавать потенциал звука, то, что они получают на съемочной площадке, и то, что может быть заменено в по-

стпродакшене, поскольку звук – это «50 процентов впечатления», по словам ведущего режиссера кинематографисты могут спланировать освещение таким образом, чтобы можно было использовать звуковой бум, в результате чего звук потенциально становится намного лучше.

Костюмеры могут снабдить встроенными в одежду мешочками, которые могут скрывать микрофоны, а также пинетками, чтобы актеры могли носить их для снижения уровня шума, когда их ноги не видны. Захваты, фиксаторы и комоды для набора могут сделать набор бесшумным и заставить рабочие элементы работать бесшумно. Часто режиссеру достаточно сказать съемочной группе, что звук важен для него или нее, чтобы все это произошло.

Многие виды звука играют непосредственную повествовательную роль в кинопроизводстве. Диалог и повествование рассказывают историю, и в этом качестве также могут использоваться звуковые эффекты, например, для привлечения внимания персонажей к событию за кадром. Такие звуковые эффекты прямого повествования часто прописываются в сценарии, потому что их использование может повлиять на то, когда и где актеры должны предпринять какое-то соответствующее действие.

Звук также играет подсознательную роль, воздействуя на аудиторию подсознательно. В то время как все зрители могут различать различные объекты на картинке – актера, стол, стены комнаты, – слушатели почти никогда не воспринимают звук так аналитически. Они склонны воспринимать звук как единое целое, несмотря на то, что на самом деле он намеренно составлен из множества фрагментов.

В этом заключается ключ к важной повествовательной силе звука: неспособность слушателей разделить звук на составляющие части может легко вызвать у аудитории «добровольное приостановление недоверия», потому что они не могут по отдельности различать функции различных звуковых элементов.

Создатели фильма могут манипулировать этим фактом, чтобы создать путь к эмоциональному вовлечению аудитории в материал. Наиболее прямым примером этого эффекта часто является партитура фильма. Услышанные изолированно, партитуры фильмов часто не имеют особого музыкального смысла; музыка намеренно написана, чтобы усилить настроение сцены и подчеркнуть действие, не как действие на переднем плане, а как фоновое.

Функция музыки состоит в том, чтобы «рассказывать» аудитории, что она чувствует, от момента к моменту: парящие струны означают одно, один малый барабан – другое.

Другим примером такого рода вещей является уравнение эмоционального звука в котором говорится что низкие частоты представляют угрозу. Возможно, это ассоциация имеет глубокие зна-

чальные корни, но если нет, то воздействие звука фильма безусловно быстро преподает слушателям этот урок. Отдаленная гроза, разыгравшаяся под солнечной сценой, указывает на предчувствие беды, о чем говорит это уравнение. Интересная параллель заключается в том, что «акула в челюстях» вводится четырьмя низкими нотами на фоне спокойного океана и есть много других подобных примеров. Звук также играет грамматическую роль в процессе создания фильма. Например, если звук остается неизменным до и после обрезки изображения, зрителям дается понять, что, хотя точка зрения, возможно изменилась сцена не сдвинулась – мы находимся в том же пространстве что и раньше. Таким образом, звук обеспечивает непрерывность или соединительную ткань для фильмов. В частности, эту роль играет один тип звука, представленный несколькими способами. Присутствие и атмосфера помогают «продать» зрителям непрерывность сцены.

Звук часто бывает «ГИПЕРРЕАЛИСТИЧНЫМ». Звукозаписи для кино и телевидения часто являются преувеличением реальности. Одна из причин этого заключается в том, что обычно в любой данный момент существует так много конкурирующих звуков что каждый звук, который записывается и должен быть услышан, должен быть сформулирован довольно категорично, просто чтобы «прочсть» сквозь беспорядок. Услышанные по отдельности, записи кажутся глупыми, преувеличенными; но, услышанные в контексте, они обретают более естественный баланс. Элементы, которые часто лучше всего иллюстрируют этот эффект, называются звуковыми эффектами Фоули (Foley). Это эффекты, записанные во время просмотра изображения, такие как шаги, и часто они преувеличены по сравнению с тем, какими они были бы в реальности как по громкости так и по интимности. Хотя отчасти это преувеличение объясняется опытом практикующих обнаруживших, что обычные системы воспроизведения звука скрывают детали, значительная часть преувеличения все же желательна при наилучших условиях воспроизведения, просто из-за конкуренции со стороны других видов звука.

Звук часто оказывает влияние на изображение, и наоборот. Например, при редактировании изображений вместе с понижением такта в музыкальной партитуре часто сокращения изображений кажутся очень правильными. В фильме «Ты не сирота» режиссера Ш.С.Аббасова мы видим, как режиссер преподает нам этот урок, поскольку он синхронизировал страх и обиду девочки с фильма в фильме «Илхак» режиссёра Ж.Ахмедова с музыкой, усиливая мощь сцены, чтобы взволновать людей.

Сцены различаются в зависимости от того, как в них воспроизводится звук. Например, «предварительное наложение» редактирования звука перед редактированием изображения, изменяющего сцену, просто отличается от одновременной

обрезки звука и изображения. Усиливается ощущение, что уходящая сцена закончена и история движется вперед. Такое решение обычно принимается не в конце процесса постпродакшна звуковым редактором, а чаще всего редактором изображений и режиссером, работающими вместе, потому что оно оказывает такое глубокое влияние на повествование. Таким образом, взаимодействие со звуком важно не только для тех, кто отмечен титрами ориентированными на звук, но и для всего процесса создания фильма представленного режиссурой и монтажом фильма.

Персонал, отвечающий за звук в данном фильме или на телевидении, может варьироваться от одного человека, который является оператором в малобюджетном документальном фильме с небольшим количеством постпродакшна, до довольно больших и дифференцированных съемочных групп, как это видно в титрах театральных фильмов. В типичном производстве художественных фильмов звукорежиссер-постановщик выступает в качестве руководителя съемочной группы, которая может добавить одного или нескольких операторов стрелы и кабельщиков по мере необходимости, чтобы зафиксировать весь присутствующий звук. В телевизионных программах, снятых в многокамерном формате, снятых перед живой студийной аудиторией, еще большая съемочная группа может использоваться для управления несколькими микрофонами, установки микрофонов на съемочной площадке и размещения радиомикрофонов на актерах, а затем микширования этих звуков на многодорожечный пульта.

Любая из этих ситуаций называется производственной звукозаписью. После постпродакшна редакторы вырезали саундтрек к фильму вместе с картинкой, чтобы историю можно было рассказывать на протяжении всего фильма. Они могут добавлять некоторый дополнительный звук в виде основных звуковых эффектов и музыки, создавая, часто с помощью специальных звуковых редакторов, «временные миксы», полезные для оценки текущего состояния фильма или видео в процессе постпродакшна. Без такого звука зрители, в том числе даже искушенные профессионалы, не могут адекватно оценить содержание программы, поскольку их отвлекают такие вещи, как отключенные звуки.

Стимулируя два чувства, программный материал вызывает у зрителя слушателя повышенные ощущения, чего не произошло бы, если бы изображение или звук были отдельно взяты. Примером может служить наблюдатель, который молча смотрит на сцену действия, а затем со все возрастающей сложностью звука добавляет каждый из отредактированных источников звука по очереди. Общее восприятие наблюдателей в этих условиях заключается в том, что изображение, по-видимому, воспроизводится быстрее с более сложным звуком, несмотря на то, что для беззвучной и звуковой презентаций проходит точно такое же

время: звук оказал глубокое влияние на восприятие изображения. Когда изображение отредактировано, начинается серьезная обработка звука. Операторы передачи берут производственные звукозаписи и переводят их в формат, пригодный для редактирования, например, на цифровую звуковую рабочую станцию. Звуковые редакторы выбирают и размещают звук, опираясь на производственный звук, библиотеки звуковых эффектов и специально записанные эффекты, которые также переносятся в редактируемый файл. Из отредактированных саундтреков различные миксы создаются перезаписывающими микшерами (в Англии их называют микшерами дубляжа). Сведение может быть выполнено в один или несколько этапов, при этом становится необходимым большее количество поколений, поскольку количество вырезанных звуковых дорожек увеличивается до такой степени, что все дорожки не могут быть обработаны одновременно. На последнем этапе постпродакшна-микширования подготавливаются мастер-версии в формате, совместимом с носителем доставки, таким как оптический звук на пленке или цифровой формат.

Хотя у этого есть техническая сторона, в конечном счете для звука в кино и на телевидении наиболее важно то, что слышит слушатель, то есть какой выбор был сделан создателями фильма на протяжении всего производства и постпродакшена. Часто от продюсеров и других людей можно услышать такие мысли, как: «Разве вы не можете просто улучшить звук, сделав его полностью цифровым?» На самом деле, это наивная точка зрения, потому что, например, для создания звука важнее техника работы с микрофоном, а не метод готовой записи. Нежелательный шум на съемочной площадке не уменьшается с помощью цифровой записи и часто вызывает проблемы, несмотря на метод, используемый для записи производственного звука.

Когда в конце 1920-х годов началось озвучивание фильмов, процесс создания саундтрека был очень сложным. Движение камеры эпохи было ограничено большими корпусами, в которых находились как камера, так и оператор, чтобы шум не проникал на съемочную площадку. Оптические звуковые дорожки были записаны одновременно с изображением на отдельную звуковую камеру и не могли быть воспроизведены до тех пор, пока пленка не была обработана и распечатана, а отпечаток обработан. Микрофоны были нечувствительны, поэтому актерам приходилось говорить громко и четко. Карьера актеров немого кино была под угрозой поскольку зрители не замечали, что у многих из них был иностранный акцент или высокие, писклявые голоса.

Сегодня технические препятствия, связанные с ранней записью звука, устранены. Актерские стили гораздо более естественны и более вероятно что актер будет «недооценивать» сцену из-за близости камеры, чем «переигрывать» ее. Тем не ме-

нее, качество, достигнутое при постановке звука, по-прежнему зависит от таких вопросов как была ли установлена тишина на съемочной площадке и произносит ли актер свои реплики или бормочет их. Многие режиссеры переключаются все проблемы с разборчивостью речи на звукооператора, который в конце концов, должен уметь делать высококачественную запись, даже если режиссер не слышит актера на съемочной площадке!

«Размеры» звукового сопровождения могут быть разбиты для обсуждения на частотный диапазон, динамический диапазон, пространственное измерение и временное измерение. Важным фактором в истории звукового сопровождения картин является рост возможностей, связанных с этими измерениями, с течением времени, и глубокое влияние, которое этот рост оказал на эстетику звуковых дорожек кинофильмов. В то время как ранние звуковые фильмы имели частотный диапазон (полосу пропускания) примерно такой же, как у те-

лефона, устойчивый рост в этой области привел к появлению современных возможностей звуковой дорожки, хорошо соответствующих частотному диапазону человеческого слуха.

Улучшения возможностей динамического диапазона означают, что как более громкие, так и более мягкие звуки могут воспроизводиться и слышаться без искажений или маскировки. Стерефонический звук буквально привнес новые измерения в саундтреки к фильмам, сначала довольно осторожно в 1950-х годах с магнитными звуковыми отпечатками, а затем решительно с оптическими стереопечатами в 1970-х годах, которые с тех пор продолжают совершенствоваться. Тем не менее, даже монофонические фильмы 1930-х годов выиграли от одного пространственного измерения: добавление реверберации к саундтрекам помогло разместить актеров в сцене и различать повествование, экранный диалог, закадровые звуковые эффекты и музыку.



#### Использованная литература:

1. Tomlinson Holman – Sound for Film and Television 2010 Published by Elsevier Inc.
2. Mirsaidova D.I. Ovozlashtirish san'atining nazariy asoslari (o'quv qo'llanma). – Toshkent: 2021.
3. Аманмурадов Ш.Ч. Музыкальное и шумовое оформление (учебное пособие). – Т.: 2019.
4. Камола Садиковна Хидирова. (2022). РАЗВИТИЕ ПОЭТИЧЕСКОГО СТИЛЯ В УЗБЕКСКИХ КИНЕМАТОГРАФИИ. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(13), 20–23. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7409251>
5. Nargiza Ismatullayevna Sadikova. (2022). EXPLORING INNOVATIVE METHODS AND THE CHALLENGE OF MODULAR LEARNING IN SOUND DESIGN TEACHING. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(13), 294–297. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7481046>
6. Agzamov Doniyor Baxtiyorovich. (2023). TEXNIKA VA SAN'AT UYG'UNLIGIDA OVOZ REJISSORLIGINING AHAMIYATI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 3(1), 109–112. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7509699>
7. Iqbal Mamasodikovich Melikuziev. (2023). KHATAM FAYZIEV – A BRIGHT REPRESENTATIVE OF THE UZBEK CINEMATOGRAPHY SCHOOL. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 3(1), 96–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7509691>
8. Dilorom Izatullayevna Mirsaidova. (2022). ZAMONAVIY OVOZ ISHLAB CHIQRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 33-36 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6528938>

## O‘ZBEK KINOSIDA ILK TARIXIY FILMLAR VA ULARDA OPERATORLIK MAHORATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o‘zbek operatorlik maktabining o‘ziga xosligi, tarixiy filmda operatorlik mahorati masalalari, kompozitsiya, yorug‘lik va rang bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlari, dunyo va milliy kino san‘atimizda ijod qilgan va durdona kino asarlar suratga olgan o‘zbek operatorlik san‘ati maktabi usullari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** operator, film, kadr, tasvir, rejissyor, syujet, ssenariy, aktyor, sintez.

## ПЕРВЫЕ ИСТОРИЧЕСКИЕ ФИЛЬМЫ УЗБЕКСКОГО КИНО И ОПЕРАТОРСКОЕ МАСТЕРСТВО В НИХ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы специфики узбекской операторской школы, операторского мастерства в исторических фильмах, особенности его работы с композицией, светом и цветом в исторических фильмах, методы узбекской школы операторского искусства, созданные в нашем мировом и национальном киноискусстве и создающие шедевры кинопроизводства.

**Ключевые слова:** оператор, фильм, персонал, образ, режиссер, сюжет, сценарий, актер, синтез.

## THE FIRST HISTORICAL FILMS IN UZBEK CINEMA AND THE SKILLS OF CINEMATOGRAPHY IN THEM

**Abstract.** This article will focus on the peculiarities of the Uzbek cinematographic school, the issues of cinematographic skills in film, the peculiarities of its work with composition, light and color in historical films, the methods of the Uzbek School of cinematographic art, which has created and shot masterpieces in our world and National Film Art.

**Key words:** operator, film, staff, image, director, plot, script, actor, synthesis.



Zamonning jadal rivojlanishi kino san‘atini shaklan ahamiyatini, ta’sirchanligini yanada oshirdi. Kino – fotografiya, grafika, rassomchilikka yaqin bo‘lsa-da, faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlari mavjud. Kino san‘atida vujudga kelgan voqealar, harakat, tasvir, ma’kon va davr ichida kechadi. Xuddi mana shu tasviriy o‘ziga xoslik bilan kino san‘ati boshqa san‘atlardan ajralib turadi. Mazkur san‘at nafaqat millatimiz ma’naviyati, madaniyatini shakllantirishga, balki uni jahonga tanitishda ham o‘z hissasiga ega. Shu sababli ham kino ommaviy san‘atidir.

Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni boy tariximiz, tarixiy shaxslarimiz bilan tanishtirishda ham kino san‘atining o‘rni beqiyos. Vatanimizdagi tarixiy voqealarni eng birinchi bo‘lib kinotasmalarga muhrlagan birinchi o‘zbek kinooperatori bu Xudoybergan Devonov edi (1878–1940). U 1907–1908-yillar Moskva, Peterburgdan teleskop, grammofoon, foto va kino uskunalari olib kelib, fotolaboratoriya tashkil etgan. Bu laboratoriya Xorazmda fotokinostudiya vazifasini o‘tagan. Xudoybergan Devonov ijodi rus kino san‘atkorlari faoliyati bilan deyarli bir vaqtda boshlangan. U “O‘rta

Osiyo me’moriy yodgorliklari”, “Turkiston ko‘rinishlari”, “Xiva va xivaliklar” kabi qisqa metrajli filmlarni suratga olgan. Keyinroq, 1925-yillarda “Sovkino” muxbiri sifatida ishlab, Moskvaga “Sho‘r ko‘l”, “Ishchi ayollar” singari syujet va lavhalarini yuborib turdi. Lekin bu filmlar hujjatli xususiyatga ega edi.

O‘zbekistonda badiiy kinofilmlarning ilk namoyishi 1897-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan. 1924-yil “Buxkino” nomli Rus-Buxoro o‘rtoqlik tashkiloti tashkil etilib, u 1925-yil bir qator hujjatli filmlar hamda “Sevzapkino” kinostudiyasi bilan birgalikda “O‘lim minorasi” filmi suratga olgan. Ushbu film, o‘sha davrda xalq orasida mavjud bo‘lgan rivoyat asosida suratga olingan va aytish mumkinki, aynan shu film tarixiy janrdan vatanimizda suratga olingan eng birinchi filmidir.

1925–26-yillarda “Buxkino”, “Sharq yulduzi”, “O‘zbekkino” korxonalar idorasi tashkil etildi va “Sharq yulduzi” kinofabrikasi ochildi<sup>1</sup>. Xuddi shu yillardan boshlab ko‘plab filmlar yaratildi. Bunga “O‘lim minorasi” (“Buxkino” 1925-yil, rejissyor: V.Viskovskiy, operator: F.Verigo-Darovskiy), “Musulmon qizi” (“Buxkino” 1925-yil, rejissyor: D.Bassaligo, operator: V.Dobranskiy), “Paxtaorol” (“Sharq yulduzi” k/s., 1925-yil, rejissyor-operator Sh.Cherbakov), “Quyoshli baxt” (“Sharq yulduzi” k/s., rejissyor: V.Krivsov, operator: N.Gasilov), “Ikkinchi xotin” (“Sharq yulduzi” k/s., rejissyor: M.Dorotin, operator:

<sup>1</sup> Ushbu kinofabrika 1958-yildan boshlab “O‘zbekfilm” deb yuritila boshlagan.

V.Dobryanskiy), “Chodra” (“Sharq yulduzi” k/s., 1927-yil, rejissyor: M.Averbax, operator: A.Lemberg), “Ravot qashqirlari” (“Sharq yulduzi” k/s., 1927-yil, rejissyor: K.Gertel, operator: A.Dorn, kompozitor V.Uspenskiy), “Yopiq furgon” (“Sharq yulduzi” k/s., 1926-yil, rejissyor: O.Frelix, operator: V.Dobryanskiy), “Moxov ayol” (“Sharq yulduzi” k/s., 1927-yil, rejissyor: O.Frelix, operator: V.Dobryanskiy), “Musulmon qizi” (“Sharq yulduzi” k/s., 1926-yil, rejissyor: O.Frelix, operator: A.Ginzburg), “Masjid qubbasidan” (“Sharq yulduzi” k/s., 1928-yil, rejissyor: K.Gertel, operator: A.Dorn), “Do‘stboy Arabiy” (“Sharq yulduzi” k/s., 1930-yil, ssenariy muallifi va rejissyor: N.Zubova, operator F.Verigo-Darovskiy), “Bag‘doddan chiqqan amerikalik” (“Sharq yulduzi” k/s., 1931-yil, rejissyor: N.Klado, operator: F.Verigo-Darovskiy) kabi filmlarni misol qilib keltirish mumkin.

Ovozsiz kino davrida o‘zbek kinematografiyasi rivojiga rejissyorlar: O.N.Frelix, K.Gertel, M.Doronin, N.N.Klado, operatorlar: A.Dorn, A.Bulinskiy, F.Verigo-Darovskiy, V.Shevchenko, V.Timkovskiy va boshqalar katta hissa qo‘shgan. Shu yillar mobaynida yosh kinoijodkorlar: N.G‘aniev, K.Yormatov, M.Qayumov, F.Xo‘jaev, R.Hamroev, Y.Agzamov, A.Saidovlardan tashkil topgan kino arboblarning guruhi yuksaldi. O‘zbek kinematograflarining ijodi va tasvirga olish texnikasi mukammalashuvi ovozi kino uchun zamin yaratdi.

“O‘lim minorasi” filmini rejissyor V.Viskovskiy ekranlashtirgan, operator F.Verigo-Darovskiy tasvirga tushirgan. Ushbu film o‘zbek kino san‘ati tarixidagi mahalliy afsonalar asosida yaratilgan eng birinchi tarixiy filmidir. Aytish mumkinki, film juda mashaqqatlar bilan suratga olingan. Eng asosiy muammo shundan iborat ediki, film ijodkorlari mahalliy shart-sharoitni, milliy urf-odatlarini, rasm-rusumlarni, turmush tarzini, tilni mutlaqo bilmasdilar. Bu esa film sifatiga ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmadi.

Ijodkorlar tomonidan mahobatli dekoratsiyalari bilan “Soxta Sharq” yaratildi. Filmga taniqli aktyorlar jalb etildi. Tabiat sharoitida suratga olishlar Buxoroda o‘tkazildi, pavilondagi tasvirlar esa Moskva va Leningradda olindi. Ishva bilan boqayotgan go‘zal kanizaklar, ehtirosli erkaklar, ekzotik tabiat, “telba” poygalar, murakkab tryuklar, sirlilik va mistika – bularning bari Yevropa tomoshabinini maftun etishi kerak edi. Syujetga asos qilib Buxorodagi o‘lim minorasi (Minorai kalon) haqidagi afsona olingandi.

Ssenariy muallifi A.Balagin minora tarixini bilmagan holda kambag‘al yigitga oshiq bo‘lib qolgan xivalik go‘zal Jamol haqida melodramatik sarguzasht asari yozgan. Film voqealari o‘ta jo‘n, xalq hayotining tashqi ko‘rinishini anchayin no‘noqlik bilan tasvirlagan kartina bo‘lib qoldi. Inqilobga qadar mavjud bo‘lgan kino an‘analariga sodiq bo‘lgan operator Verigo-Darovskiy filmni statik tarzda o‘rta va umumiy planlardan foydalangan holda suratga oldi, natijada, kartina maromi ancha sekinlashdi. Isyon epizodida esa rejissyor V.Viskovskiyning o‘jiz tomonlari sezilib qoldi. Umumiy planda va yuqoridan suratga olingan isyon ko‘targanlar hujumi lavhasi musulmonlarning

diniy bayram o‘tkazish uchun masjidga borayotganiga o‘xshab qolgan: “isyonchi”lar shoshilmay, bir tekis qadam tashlab amir saroyini olishga borishmoqda.

O‘z navbatida operator Verigo-Darovskiy jangni o‘rnida qo‘zg‘almay turgan apparatda olgan, natijada voqea-hodisalarning faqat kameraga kirgan qismini qayd etuvchi chet kuzatuvchiga o‘xshab qolgan. Bu epizodni suratga olish usuli shu qadar jo‘nki, ekranda tez-tez qorayishni ham ko‘rish mumkin: bu ommaviy sahna ishtirokchilaridan birontasi qo‘zg‘almas suratga olish apparati yonidan o‘tayotib, gavdasi bilan uning obyektivini to‘siq qo‘ygan.

Filmning kamchiliklari mo‘l, lekin shu narsaniyam hisobga olish kerakki, *“bu o‘zbek zaminida suratga olingan birinchi film edi. Balki shu sababli bo‘lsa kerak, tomoshabinlar filmni olqishlar bilan qarshi olishdi”*<sup>2</sup>. O‘zbek tomoshabinini nafaqat film voqealari, balki o‘ziga tanish voqea-hodisalar kino qilingani ham hayajonlantirib yuborgan.

Operator Verigo-Darovskiyga kelsak, u ko‘p yillar mobaynida “Sevzapkino” studiyasida ishlagan. Bu yillar ichida u bilan bir qatorda inqilobdan burungi kinematografiyadan kelgan operatorlar ham faoliyat ko‘rsatishgan. Bular safida N.Kozlovskiy, I.Frolov, G.Lemberg, Ye.Rillo, A.Kyun, A.Drankov va boshqa operatorlar bor edi. Ularning hammasi professional-amaliyotchi edi. Ularning badiiy madaniyatiga, kasbiy malakasiga havas qilsa arzirdi. An‘anaga ko‘ra ularning ishi apparatni, albatta, vaterpasga o‘rnatib, ekspozitsiyani aniq belgilash va texnik talabga mos, deyarli bir tekis yorug‘likda, yengil effekt bilan apparat oldida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni suratga olishdan iborat edi.

Apparatning doimiy balandligi – 120 santimetrga yaqin. Apparatni boshqa joyga olib o‘tish, planlarni umumiy, o‘rta, yirikka almashtirib turish kabi juda sodda ishlarni kamdan-kam hollardagina amalga oshirilgan. F.Verigo-Darovskiyga ham ustuvorlik kasb etgan tartib-qoidalarga o‘zgartirish kiritish oson emasdi. A.Moskvin va Gordanovdan farqli ravishda, u kinotasvir sohasida “inqilob” yasashga qodir emasdi.

Verigo-Darovskiy ko‘plab rus kinematografchilari singari o‘z taqdirini O‘zbekiston bilan bog‘ladi. U “O‘zbekiston” kinojurnali uchun syujetlar olish jarayonida faol ishtirok etdi. Verigo-Darovskiy tomonidan o‘sha olis yillarda olingan syujetlar O‘zbekistonning yaqin o‘tmishi haqida hikoya qiluvchi bebaho hujjatlarga aylangan. Ularning hammasi Toshkentdagi kino-foto-fono hujjatlar arxivida avaylab saqlanmoqda.

Aytish mumkinki, XX asrning 30-yillari boshida ishlab chiqarilgan birinchi film ovozsiz kino davri o‘zbek filmlari operatorlik san‘atida olg‘a katta qadam tashlash bo‘ldi. 30-yillari studiyada har xil filmlar yaratildi. Ularning badiiy saviyasi ham turlicha edi. Zero, bu filmlarni turli ijodkorlar yaratardilar.

Agar ovozsiz o‘zbek filmlaridagi kinooperatorlar ishlarini tahlildan o‘tkazsak, ular dunyo tomoshabinlari uchun hali noma‘lum bo‘lgan, qadimiy madaniyatga, urf-odatlariga, fe‘l-atvorga ega xalqi bor, o‘z yashash tarzi, muhabbat va nafrati mavjud, ona zaminda

yashash uchun kurashayotgan mamlakatni kashf etib berdilar.

Quyosh yog‘dusining mo‘l-ko‘lligi ko‘plab ovozsiz filmlar tasviriy yechimiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Fotografiya qonun-qoidalarini yaxshi biladigan iste‘dodli va tajribali operatorlar yorqin quyosh yoritishi hamda ko‘lankalar o‘rtasidagi kontrastdan badiiy foydalanishni eplay oldilar. Yorug‘lik va soyaning mohirlik bilan chog‘ishtirilishi, ularni to‘g‘ri muvofiqlashtirish ajoyib tasvirlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ovozsiz kino davrida kinooperatorlar ishlaridagi yana bir umumiylik – bu ekzotikadan haddan ziyod foydalanish: kadrda, albatta, yirtiq-yamoq milliy chopon, g‘arib hujralar, sertuproq ko‘chalar, guvala devorlar. Ehtimol buni o‘sha paytlari chindan ham ko‘plab o‘zbeklar shunday uylarda yashagani, kirchir chopon va do‘ppi kiyib yurgani, aholining bir qismi faqirlikda yashagani bilan izohlash mumkindir. Ijodkorlar bu odamlarning boy ichki dunyosini, ularning mehr-oqibatini, insoniyatini va munosabatlaridagi samimiyligni ko‘rsatolmasdan, tashqi belgilarga zo‘r berdilar.

Garchand bu filmlarda operatorlar mahorati jahon standartlaridan pastroq bo‘lsa-da, operatorlar tomonidan hayratlanarli darajadagi tasviriy yechimli filmlar yaratilmagan bo‘lsa-da, biz baribir ulardan juda-juda minnatdormiz. Zero, ular o‘z filmlari orqali bizning XX asrning 1920–30-yillaridagi hayotimizni abadiyatga muhrlab qo‘ydilar.

Yillar ketidan yillar bir-birini quvib o‘tib borar ekan, bir narsaga iqror bo‘lamiz: operatorlik san‘ati rivojlanishida studiyalarning texnik jihatdan qanday jihozlanganligi muhim ahamiyatga ega. Aksar hollarda o‘zining ijodiy g‘oyasini amaliyotga tatbiq etmoqchi bo‘lgan operatorga kichik studiyalarda topilmaydigan qimmat va zamonaviy suratga olish texnikasi, jihozlari kerak bo‘ladi. Shu sababli ham operator ko‘p hollarda murakkab eksperimentlardan voz kechishga va o‘z g‘oyasini soddaroq yo‘l bilan hal etishga majbur bo‘ladi. Bu esa oxir-oqibat har qanday san‘at asarini o‘rtachalikka olib keladi. Olamshumul filmlarni suratga olgan barcha buyuk operatorlar ajoyib texnikaga ega katta studiyalarda faoliyat ko‘rsatishgan. “O‘zbekkino” texnik yuksalishdan uzoqroqda bo‘ldi va bu ovozsiz kino davrida olingan filmlarning badiiy saviyasida aks etmay qolmadi.

40-yillarda o‘zbek kinosining katta yutuqlari: “Tohir va Zuhra” (1945-yil), “Nasriddinning sarguzashtlari” (1947-yil, rej. N.G‘aniev), “Alisher Navoiy” (1948-yil, rej. K.Yormatov) kabi filmlar suratga olingan. Realistik tarzda suratga olingan ushbu tarixiy filmlarda uzoq o‘tmishning hayoti va madaniyati, jamiyatdagi ichki jarayonlari tasvirlangan.

50-yillarda Toshkent kinostudiyasi mahsulotlari qatoridan dolzarb masalalarga bag‘ishlangan, tarixiy mavzudagi: “Ibn Sino” (1957-yil, rej. K.Yormatov), “Qutlug‘ qon” (1956-yil, rej. L.Fayziev), “Furqat” (1959-yil, rej. Y.Agzamov) filmlarida o‘zbek xalqining o‘tmishdagi hayoti tasvirlangan.

60-yillar kino sohasidagi bir qator yutuqlar bilan esda



qolgan. 1959-yilda o‘zbek kinoijodkorlari “O‘zbekfilm” kinostudiyasining yangi binosini qabul qilib oldi. Bu yerda katta yoshdagi ijodkorlar K.Yormatov, Z.Sobitov, Y.Agzamov, M.Krasnyanskiy, N.Ryadov, V.Sinichenko, V.Yeremyanlar qatorida yosh ijodkorlar: rejissyorlar Sh.Abbasov, A.Xachaturov, A.Hamraev, D.Salimov, R.Batirov, X.Axmar, U.Nazarov, A.Akbaxo‘jayev, E.Ishmuxamedov, Q.Kamalova, operatorlar H.Fayziev, D.Fathullayev, L.Traviskiy, T.Eftimovskiy, rassomlar E.Kalantarov, Ye.Pushin, N.Raximboyev va boshqalar o‘z ijodiy faoliyatini boshlaganlar. Ushbu davr kinematografiyasi turli janrlar, yo‘nalishlar va mavzular boyligi bilan ajralib turadi. Bu davrga tegishli tarixiy filmlar: “Ulug‘bek yulduzi” (1965-yil, rej. L.Fayziev), “O‘tkan kunlar” (1970-yil, rej. Y.Agzamov) ham shu davrga tegishlidir.



Ilk marotaba o‘zbek xalqining ikkinchi jahon urushi davridagi jasorati aks etgan: “Sen yetim emassan” (1963-yil, rej. Sh.Abbosov), “Qirq birinchi yil olmalari” (1970-yil, rej. R.Botirov), “Oy borib, omon qayt” (rej. L.Fayziev) filmlar ham suratga olindi.

70-yillarda “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan bir nechta tarixiy filmlar suratga olindi. Bular: “Odamlar orasida yolg‘iz” (1974-yil, rej. K.Yormatov), “Inson qushlar ortidan boradi” (1976-yil, rej. A.Xamraev), “Abu Rayhon Beruniy” (1975-yil, rej. Sh.Abbosov), “Dahoning yoshligi” (1983-yil, rej. E.Ishmuhamedov) va boshqalar. Ularda o‘zbek xalqi tarixi sahifalari ochilgan, tarixiy shaxslar – shoira Nodira, shoir Mushfiq va olimlar – Beruniy, Ibn Sino siymolari gavalantirilgan. Bolalar filmi sifatida xalqimizning o‘tmishidan hikoya qiluvchi “Shum bola” (1977-yil, rej. D.Salimov) filmi suratga olindi.

70-yillarda xorijiy kinostudiyalar bilan hamkorlikda ham bir nechta tarixiy mavzudagi filmlar yaratildi. Bolgariya bilan hamkorlikda urush yillariga bag‘ishlangan “Ikki askar haqida hikoya” (1977-yil, rej. Z.Sobitov), Hindiston bilan “Ali Bobo va qirq qaroqchi” (1980-yil, rej. L.Fayziev va U.Mehra) filmlar suratga olindi. 1975-yil “O‘zbekfilm” kinostudiyasida ssenariylar ustaxonasi tashkil etilgan.



Mustaqillik yillarida ham “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan bir qator tarixiy mavzudagi filmlar yaratildi. “Kulol va Xurmacha” (1991-yil, rej. G.Bzarov), “Marg‘iyona” (1997-yil, rej. H.Fayziev), “Buyuk Amir Temur” (1998-yil, rej. I.Ergashev, B.Sodiqov), “O‘tkan kunlar”, (1998-yil, rej. M.Abzalov), “Otamdan qolgan dalalar” (1998-yil, rej. Sh.Abbosov), “Voiz” (1998-yil, rej. Yu.Roziqov), “Alpomish” (2000-yil, rej. P.Fayziev), “O‘rtoq Boykenjayev” (2002-yil, rej. Yu.Roziqov), “Mesh polvon” (2002-yil, rej. M.Abzalov), “Qor qo‘ynida lola”, (2003-yil, rej. A.Shahobiddinov), “Yodgor” (2003-yil, rej. H.Nasimov), “Afandi va Azroil” (2004-yil, rej. H.Nasimov), “Vatan” (2006-yil, rej. Z.Musoqov), “O‘tov” (2007-yil, rej. A.Shahobiddinov), “Shatranj mamlakatidagi mo‘jizalar” (2008-yil, rej. J.Is‘hoqov), “Qo‘rg‘oshin” (2014-yil), “Berlin-Oqqo‘rg‘on” (2018-yil, rej. Z.Musoqov) kabi filmlar shular jumlasidandir. Ularning ko‘plari xalqaro kinofestivallarda ishtirok etdi, yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritdi va ko‘pgina mamalakatlarda e‘tirof etildi. Xususan, rejissyor Z.Musoqovning “Vatan” filmi (operator: A.Ismoilov) 2007-yilda Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida

o‘tkazilgan 50-xalqaro kinofestivalda “Osiyoning eng yaxshi filmi” nominatsiyasida g‘olib bo‘lgan. Xuddi shu film 2006-yilda Rossiyaning Smolensk shahrida o‘tkazilgan xalqaro kinofestivalda bosh mukofot va diplomga sazovor bo‘lgan.

Bugungi kunda, umuman mustaqillik yillarida o‘zbek kinosida tarixiy mavzudagi filmlarni yaratish borasida o‘ziga xos turg‘unlik davri yuzaga keldi. Bunga sabab, avvalo, mustaqillikning dastlabki yillarida kishilar ongida yuzaga kelgan mafkuraviy bo‘shliq, eski mafkura tanazzuli tufayli ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketgan tarix, tarixiy asarlar, ssenariylarning yozilishi keskin kamayib ketgani, moliyaviy muammolar, rejissuradagi ayrim kamchiliklar va boshqa bir necha omillarni keltirish mumkin.

Kadrlar yetishmovchiligi, moliyaviy muammolar, ssenariy va rejissura bilan bog‘liq masalalarni bartaraf etish uchun, avvalo, ushbu mutaxassislar ta‘lim berish jarayonida kurs va bitiruv ishi sifatida tarixiy mavzudagi filmlarni topshirish, ular uchun tarixiy yo‘nalishlarda ijod qiluvchi rejissyorlar, operatorlar, kino rassomlari bilan ijodiy uchrashuv va master-klasslar uyushtirish, tarixiy yo‘nalishdagi filmlar uchun alohida festival va konkurslar tashkil qilish, bunday loyihalarni moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish kabi bir qator islohotlarni olib borish zarur. Bundan tashqari tarixiy filmlarni yaratishda, ijodkorlarning tarixiy bilimlarini mustahkamlash, ularga tarixiy faktlar bo‘yicha konsultatsiyalar beruvchi mutaxassislar belgilash ham tarixiy filmlar yaratish jarayonida sifatga erishishga omil bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadjibayeva O.K., Melikuziev I.M., Khusanov Sh.T. Issues of the using the Special Effects as means of Visual expression in the Cinema art. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7, 2, 2020, 2204-2215
2. Melikuziev I. (2020). Cinematographer’s ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29 (05), 1554–1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
3. Ikboljon M. & Tirkashaliyevich K.S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat. A2948.109119
4. Ikboljon Melikuziev. (2016). Duties of a Cinematographer in Creating a Film. *Journal of Literature and Art Studies*, 6(7). <https://doi.org/10.17265/2159-5836/2016.07.013>
5. Melikuziev I. (2020). Cinematographer’s ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1554–1567.
8. Абул-Касымова Х., Тешабаев Ж., Мирзамухаммедова М. Кино Узбекистана. – Toshkent: Изд-во лит. и искусства им. Г. Гуляма, 1985 г.
9. Абул-Касымова Х. Кино и художественная культура Узбекистана. – Т.: «Фан», 1991 г. – С.132.
10. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2009. – В.100.
11. Akbarov H. Adabiyot va kino. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – В.49.
13. Дмитрий Масуренков. Оператор Искусство и техника. «MediaVision» журнал, 2011. № 6. – С.55–57.





# II BO' LIM

## MUSIQA SAN'ATI

Сарсенбай БАЛТАНИЯЗОВ,  
профессор Нукусский филиал Государственный институт искусств и культуры Узбекистана,  
народный артист Республики Каракалпакистан

### ГОЛОВНОЙ И ГРУДНОЙ РЕЗОНАТОРЫ

**Аннотация.** В статье дается краткий обзор вокального аппарата певца, музыкальных способностей головного и грудного резонатора, чувства ритма, интонации и голосового диапазона. Различия между верхним резонатором грудной клетки и верхним резонатором и их роль в вокальном исполнении.

**Ключевые слова:** певец, сила звука, романс, музыкант, композитор, музыка, пение, мелодия, диапазон, регистр, интонация, децибел, амплитуда, диафрагма, мутация.

### BOSH VA KO'KRAK QAFASI REZONATORI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, qo'shiqchining tovush apparati, bosh va ko'krak qafasi rezonatori, musiqiy qobiliyati, ritmni sezishi, intonatsiyasi va tovush diapazoni haqida so'z ketadi. Ko'krak rezonatori bilan yuqori rezonatorning bir-biridan farqi va ularning vokal ijrochiligidagi tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit suzlar:** qo'shiqchi, tovush kuchi, romans, musiqachi, bastakor, musiqa, qo'shiq, navo diapazon, registr, intonatsiya, detsibel, amplituda, diafragma, mutatsiya.

### HEAD AND CHEST RESONATORS

**Abstract.** The article provides a brief overview of the singer's vocal apparatus, the musical abilities of the head and chest resonator, the sense of rhythm, intonation and vocal range. Differences between the upper chest resonator and the upper resonator and their role in vocal performance.

**Key words:** singer, sound power, romance, musician, composer, music, singing, melody, range, register, intonation, decibel, amplitude, aperture, mutation.

В вокальной педагогике широко применяются термины «грудной и головной резонаторы». Голос считается хорошо поставленным в пении, когда он на всем протяжении диапазона «окрашивается грудным и головным резонированием». Во многих школах «попадание в головной резонатор» считается краеугольным камнем, на котором строится организация певческого звука. От ощущений резонирования звука в голове и груди получили свое название регистры голоса – головной и грудной. Действительно, при пении возникают достаточно ярко ощутимые вибрации как в области лицевой части головы – головное резонирование, иногда называемое «маской», так и в области грудной клетки. Голос при хорошем головном резонировании ярок, звонок, металлический. При грудном – насыщен, «мясист». В некоторых случаях эти ощущения бывают очень сильны. Так, при некоторых особенно удачно взятых нотах певцы чувствуют настолько сильные вибрации в области лицевой части головы, что у них возникает головокружение. Когда голос хорошо резонирует, голосообразование совершается особенно легко. По-видимому, эти ощущения и вызывающие их физические явления играют значительную роль

в певческом голосе об разовании. Отзвучивание голоса «в маске» – один из показателей правильной организации певческого звука. Однако нельзя не отметить, что при отличном звучании певческого голоса эти ощущения, так сильно выраженные у большинства певцов, у других выражены очень неярко, а у некоторых, правда редких, головное резонирование отсутствует вовсе. Таким образом, хотя ощущение головного резонирования и является характерным для хорошего звучания певческого голоса, но не является во всех случаях обязательным.

Место, где ощущается головное резонирование, у певцов не-одинаково. Некоторые ощущают головное резонирование в области той части лицевого скелета, которая прикрывается маскарадной маской (отсюда и произошел термин – маска певцов, петь в «маску»); другие – у передних зубов верхней челюсти (Микиша, Моран); третьи – в области лобных пазух (Дейша-Сионицкая), а четвертые – в области темени или твердого неба.

Место наибольшей вибрации обычно не остается постоянным на протяжении всей шкалы диапазона голоса. Чаще всего на более низких нотах – оно ощущается впереди – в области передних

зубов или передней части нёбного свода (точка Морана). По мере повышения звука ощущения чаще всего перемешаются больше кзади и на верхних нотах звука ощущаются где-то в темени. Варьируют эти ощущения и в зависимости от техники производства звука: при одной технике – одни ощущения, при другой-другие. Грудное резонирование носит разлитой характер и может быть выражено в весьма различной степени в зависимости от регистра, характера голоса, участка ди-апазона.

Для того чтобы выяснить вопрос о том, где в голосовом аппарате могут возникать явления резонирования и какую роль это резонирование может играть в звучании, голоса, вспомним, что мы узнали о резонансе и резонаторах.

Под резонатором в акустике понимается объем воздуха, заключенный в упругие стенки. Характерным свойством резонатора является то, что он отзвучивает – резонирует – на звук определенной высоты, совпадающий с его собственным тоном или его обертонами. Чем меньше размеры резонатора, меньше объем воздуха, тем выше собственный тон резонатора, на который он отзвучивает.

Если с точки зрения акустических представлений посмотреть на воздухоносные пути, то мы можем там найти многочисленные полости, трубки, каналы, наполненные воздухом и имеющие достаточно упругие стенки для того, чтобы в них возникли явления резонанса. То, что среди полостей имеются и такие, у которых стенки не костные или хрящевые, а мышечные, т.е. относительно мягкие, несущественно – в них также могут развиваться явления резонанса. Наглядным доказательством тому служит образование гласных вследствие резонанса звука в ротовой и глоточной полостях, имеющих мягкие стенки. Таким образом, явления резонанса могут развиваться во всех отделах воздухоносных путей. Рассмотрим все эти полости с точки зрения резонанса.

Как мы уже упоминали, резонанс ротовой и глоточной полости, меняющийся по своему объему в зависимости от уклада языка, является причиной образования гласных. Никаких других резонаторных явлений в этой части голосового тракта не происходит. С резонансом полости гортани связано оформление «высокой певческой форманты, возникающей как краевой тон связок. Остаются полости, находящиеся ниже голосовой щели: трахеальная трубка и бронхи и полости, расположенные выше нёбного свода, т. е. носовые полости и носоглотка, а также так называемые придаточные полости носа. С ними-то и связываются обычно представления об обогащении тембра за счет головного и грудного резонирования.

Под головным резонатором певцов иногда понимают все полости, находящиеся выше гортани, т. е. включают в это понятие не только нос, носоглотку и придаточные полости носа, но и рото-глоточный канал. Мы считаем такое включение

неоправданным, так как резонаторная функция рта и глотки не является причиной возникновения вибраций в области «маски» и служит лишь для образования формант гласных. Под головными резонаторами мы предлагаем понимать только полости, расположенные выше нёбного свода, в лицевой части головы, в области «маски».

Следует сразу же отметить, что все полости, входящие в понятия верхнего резонатора, заключены в костные или хрящевые стенки, т. е. неспособны менять свой объем, а следовательно, и резонаторные свойства. Раз данные человеку, они остаются неизменными в течение его жизни. Только носоглотка, вследствие подвижности мягкого нёба, способна менять свой объем и иметь разную степень сообщения с глоточной полостью.

Непосредственно через воздушные пути звук в носовую полость, а тем более в его придаточные полости, не попадает. Как известно, частые гласные звуки русского языка обычно произносятся при полном перекрытии мягким нёбом хода в носоглотку. Если нёбная занавеска поднята плохо, голос приобретает носовой оттенок – гнусавость. Таким образом, хороший певческий звук предполагает или полное перекрытие хода в нос мягким нёбом, или совершенно незначительное сообщение.

Между прочим многие певцы именно так и ощущают работу верхнего резонатора, ясно понимая, что причина резонанса кроется в работе гортани. Так, например, солист театра Ла Скала, бас Иво Винко, заявил, что причиной резонаторных ощущений «в маске» является гортань. Еще более четко определение причины грудного и головного резонирования, дал солист того же театра, баритон Роландо Панераи: «Резонаторы у певца не делаются, не фабрикуются, их нельзя сделать искусственно. Они зависят от природной конструкции лицевой части скелета, составляют неотъемлемую часть анатомической структуры голосового аппарата... Характер резонанса у того или иного певца стоит в связи с размерами и формой лицевых резонаторов: у одного они велики, у другого малы. Поэтому и внутренние ощущения певцов, и свойства их голосов – различны. Если молодой певец учится, начинает верно формировать звук, то и резонаторы у него начинают отвечать в голосовых связках родится певческий голос. Если ты научился производить певческий звук на правильной позиции в глубине горла, вот тогда и появляются те резонансы, которые-свойственны данному голосу, появляется красивый голос».

Из этого, однако, не следует, что резонаторные ощущения в головном резонаторе не имеют никакого значения для певца. Мы уже отмечали, что они являются сильнейшим возбудителем голосовой функции и, следовательно, «попадание в резонатор», т. е. ответ резонатора на верное формирование первичного тембра гортани, ведет к облегчению процесса звукообразования. Это пря-

мая, непосредственная помощь, которую оказывает певцу головной резонатор.

Головной резонатор – важнейший индикатор правильного певческого звучания голоса. На развитие резонаторных ощущений у учащихся неинию следует обратить самое пристальное внимание. Не все ученики понимают эти ощущения в начале занятий, и для того чтобы они знали к чему стремиться, многие педагоги употребляют приемы, направляющие на эти ощущения.

Приемы, связанные с пением на звонкие согласные ж и я, так называемое «мычание» и «нычание», когда рот закрыт и весь звук идет через носовые ходы, приводят к сильному сотрясению стенок полостей верхнего резонатора даже в том случае, когда высокие частоты выражены слабо. Эти приемы помогают ученику осознать, какого ощущения следует добиваться при пении.

Другим приемом, направленным на возникновение головного резонатора, является употребление гласного звука и. Как мы уже отмечали, форманты этого гласного составляют 400 и 3000 гц, т. е. в чисто произнесенном звуке и всегда имеется группа усиленных обертонов порядка 3000 гц, на которые и резонирует верхний резонатор. Употребляя гласный звук и, мы легче вызовем явления головного резонирования по сравнению с другими гласными, не имеющими в своем спектре высококачественных формант.

Наконец, более плотное смыкание голосовых связок и верная организация работы гортани приводят к появлению в тембре большей металличности, яркости, что тотчас же вызывает ответ в головном резонаторе. Активизация работы гортани методом ли атаки или опорой дыхания, ведет к появлению в звуке высоких частот, а вместе с этим головному резонированию.

Все эти пути: через «мычание» и «нычание», посредством гласного и и путем активизации смыкания связок ведут к появлению головного резонирования, и ученик начинает понимать, к какого характера звучанию следует стремиться, какие ощущения сопровождают качественный певческий голос.

Постепенно сопровождающие хорошее профессиональное звучание ощущения головного резонирования «маски» становятся привычными для певца, и в них он начинает видеть причину хорошего звучания голоса. Так формируется психология певца, считающего, что главной задачей в образовании профессионального певческого звучания голоса является «попадание в головной резонатор», «направление звука в маску». Между тем, как мы уже отмечали, не у всех певцов резонаторные ощущения ярки даже при отличном звучании певческого голоса, что может быть объяснено индивидуальными особенностями формы, размеров и состояния придаточных полостей носа. У некоторых индивидуумов они весьма плохо развиты, у других, наоборот, – эти полости многочисленны и велики по размеру. Поэтому и резонаторные свой-

ства верхнего резонатора разных певцов будут неодинаковы.

Сказанное о верхнем резонаторе несколько не противоречит певческой практике, а наоборот, повседневно подтверждается ею.

Так, например, ведущий солист Большого театра, заслуженный артист республики Н., на вопрос о головном резонаторе нам сообщил, что резонаторные ощущения у него при правильном формировании певческого звука весьма ярки. Обычно он чувствует, что весь лицевой отдел головы и особенно область «маски» сильно вибрируют во время пения и при этом состоянии петь особенно легко и удобно, а звук обладает наибольшей летучестью, хорошо несется в зал. Но иногда приходилось петь в состоянии острого насморка, когда нос был полностью заложен и ни о каком отзвукивании головного резонатора не могло быть речи. В этих случаях субъективно было трудно петь, так как в результате пения не возникали привычные ощущения головного резонирования, однако ни партнеры, ни друзья, ни публика никогда не замечала какого бы то ни было ухудшения звучания голоса. Естественно, что не получая нужных, привычных ощущений, т. е. при нарушении некоторых обратных связей, пение для самого певца затруднялось. Приходилось пользоваться для контроля над звукообразованием другими ощущениями, которые остались незатронутыми болезненным состоянием (мышечные, слуховые и др.). Не было стимуляции голосовой функции со стороны верхнего резонатора. Все это субъективно затрудняло пение для певца. Но голос /авучал также округло и металлически, звонко, как и всегда, несмотря на всякое отсутствие головного резонирования. Это лишнее раз подтверждает, что близость, металличность, звонкость и полетность певческого звука зависят не от «окрашивания звука в верхнем резонаторе», а от работы гортани.

В отношении грудного резонатора можно сказать, что грудное резонирование, т. е. ощущения ясно выраженных вибраций в области грудной клетки, сопровождает все звукообразование на протяжении полутора октав диапазона мужского голоса и в нижнем и центральном участках женского. Резонатором в акустическом понимании этого слова здесь могут быть трахея и крупные бронхи. Это единственные воздушные полости-трубки, которые имеются в грудной клетке. Как известно, сама легочная ткань, составляющая основную массу легких, представляет собой эластичную губчатую ткань и поэтому является прекрасным поглотителем звука.

Если думать, что грудное резонирование способно что-либо изменить в характере певческого звука, то надо предположить, что этот резонанс включается в общее звучание голоса, идя по ходу воздушных путей. Резонируя на частоты порядка 500 гц, этот тон трахеи, в основном тратясь на сотрясение ее стенок и лишь немного проникая через голосовую щель, ча-

стично примешивается к общему звуку, рождающемуся в голосовом затворе и, выходя из рта, доходит до слушателя.

Надо отметить, что трахея и крупные бронхи не относятся к резонаторам, имеющим совершенно неизменный объем. Трахея и бронхи при глубоком вдохе несколько растягиваются в длину, а за счет сокращения гладкой мускулатуры могут в небольших пределах менять и величину своего просвета. Таким образом, грудной резонатор в этом отношении не похож на головной, где стенки полостей совершенно стабильны, здесь имеется определенная возможность приспособления.

Грудное резонирование тогда получается сильным, когда голосовые связки работают по грудному типу своих вибраций. При фальцетной их работе грудной резонатор не отвечает. Это связано с тем, что по своим размерам трахея способна ответить на сравнительно низкие частоты и резонанс поэтому в грудном резонаторе проявляется лишь тогда, когда в связочном тоне имеются достаточно хорошо выраженные низкие частоты. Скорее всего явление дрожания, развивающееся в трахео-бронхеальной системе, следует рассматривать не как истинный резонанс, а как вынужденные колебания, источником которых являются работающие голосовые связки.

Для певца грудное и головное резонирование являются индикаторами правильности певческого звука, поэтому на ощущениях резонанса следует останавливать внимание ученика. Чем тоньше ученик будет дифференцировать свои резонаторные ощущения, тем точнее он сможет управлять работой голосового аппарата. Следует только помнить, что грудное и головное резонирование являются следствием правильно организованного певческого звука, а не его причиной.

В заключение необходимо отметить, что при

увлечении только головным или грудным резонированием, вне учета остальных моментов певческого голосообразования, голос может деградировать. Увлечение головным резонированием, при всей важности этого явления, постепенно может привести к зажатию голоса, к «обуженному» звучанию, к потере органичности звука. Певец начинает петь, как говорят в практике, «только верхушкой», звук становится неполноценным и пение затрудняется. Об этом явлении убедительно рассказал нам солист театра Ла Скала Иво Винко: «В течение моей карьеры я старался все время голос «посылать в маску», как говорят, «держал его в маске». Однако я пришел к выводу, что постоянно посылать голос в «маску» – это не нужное и, в конце концов, бесполезное дело. Такой певец, который на протяжении певческой карьеры держит постоянно голос в «маске», в конце концов видит, что голос вместо того чтобы развиваться полностью, постепенно становится все уже и уже. И артист через десяток лет убеждается в том, что голос не может больше ему служить. Певец больше петь не может. Наступает кризис. Увлечение «маской» приводит в конце концов к невозможности петь. Тогда надо снова учиться петь и искать развития голоса, раскрытия звука при помощи всего тела, всего корпуса, особенно при помощи грудной клетки».

Злоупотребление грудным резонированием также может повести к деградации голоса. При этом голос затяжелается, становятся заметными регистровые переходы, которые прежде не отмечались, затрудняется движение голоса вверх. Постепенно голос затяжелается все больше и больше, начинает покачиваться и детонировать. Таким образом, злоупотребление только головным или грудным звучанием может нанести вред голосу.

#### Использованная литература:

1. Чаплина В.Л. «Вопросы вокальной педагогики» – Москва: «Музыка», 1969. – С.231.
2. Бризгалов И.О. Школа пения для баритона и баса. – Ташкент: Литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1987. – С.92.
3. Аспелунд Д.Л. Развитие певца и его голоса. – М.: «Планета музыки», 2017. – С.180.
4. Ризаева М. Стоновление молодого певца. – Т.: «Чўлпон», 2003. – С.104.
5. Варламов А.Е. Полная школа пения. – М.: «Планета музыки», 2012. –С.120.
6. Назаренко И.К. Искусства пения. – М.: «Музыка», 1968. – С.624.
7. Морозов В.П. Вокальный слух и голос. – М.: «Музыка», 1965. – С.88.

## XOR IJROCHILIGIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kun xor san'ati, ijrochiligi, uning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, xor dirijyorlarining professional sifatlari hamda professional xor jamoalarining konsert chiqishlaridagi innovatsion yangiliklari, zamonaviy xor ijrochiligidagi muammo va yechimlari xususida fikrlar bayon etilgan.

**Калит сўзлар:** a kapella, xor, xormeyster, dirijyor, temp, diksiya, dinamika, jarang kuchi, repertuar, innovatsiya, repertuar, LED ekran, innovatsiya.

## СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ХОРОВОМ ИСПОЛНЕНИИ

**Аннотация.** В данной статье изучены и анализированы проблемы и решения современного профессионального хорового искусства, некоторые профессиональные качества руководителей хоров, инновационные новшества и внедрения их в исполнение хоровых произведений а также изложены взгляды на проблемы и их решения современного хорового исполнительства.

**Ключевые слова:** а капелла, хор, хормейстер, дирижёр, темп, дикция, динамика, сила звука, репертуар, LED экран, инновация.

## MODERN TRENDS IN CHORAL PERFORMANCE

**Abstract.** This article examines and analyzes the problems and solutions of modern professional choral art, some professional qualities of choir leaders, innovative innovations and their implementation in the performance of choral works, as well as views on the problems and their solutions of modern choral performance

**Key words:** a capella, chorus, choirmaster, conductor, tempo, diction, dynamics, slang power, repertoire, LED screen, innovation.

Musiqa – ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozug'idir. Bu san'at xalqimizning ma'naviyati, ruhiyati, mehnati, o'tmish va zamonasini qamrab olgan benazir ummon kabidir. Oddiy kuylardan tortib, mukammal "Shashmaqom" namunalorigacha xalqimiz ichki dunyosini, o'tmishi va kelajagini ohanglarda mujassam etgan.

Xalqimizning bugungi hayotida ham qo'shiqchilik san'ati alohida o'rin egallagan. Musiqasiz, qo'shiqsiz turmush tarzimizni tasavvur qilish qiyin. Biz bilamizki, kuy-qo'shiq insoniyatning ichki dunyosini boyitib, hayotini go'zallik sari chorlab, insonning inson bo'lib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy-ma'naviy omil hisoblanadi. Jamoaviy ijroda esa qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sirchanligi yanada kuchayadi.

Xor qo'shiqchiligi – bu inson badiiy faoliyatining eng keng shakllaridan biridir. U insoniyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlamini jadal badiiy faoliyatga va umumiylovga chorlaydi. Jamoa bo'lib kuylash insonlarni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy va dunyo musiqi klassik durdonalariga qiziqish tug'dirib, birlashtiradi. Insonlarni ahillik va birdamlikka chaqirish, ularni ma'naviy barkamollikka yetishish va ongini o'sishida yordam beradi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. "Harakatlar strategiyasidan

– Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalish ishlab chiqildi. San'at va madaniyatimiz sohasi uchun aynan beshinchisi: "ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish", tegishlidir. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi nihoyatda muhim bo'lib, u nafaqat mamlakatimizning besh yillik rivojlanish yo'li va yo'nalishlari, balki undan keyingi ravnaqi uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlanib, e'lon qilingach, hech qancha vaqt o'tmasdan, 2022-yilning 2-fevral kuni yana bir muhim hujjat "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini imzolanishi davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviyat, madaniyat, san'at sohaslariga jiddiy e'tibor qaratilayotganini yana bir bor tasdig'idir. Ushbu qarorda Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aynan musiqi fani, uning o'quvchilarni tarbiyasidagi ahamiyati borasida alohida to'xtalib, qator vazifalarni ta'kidlab o'tdi: "Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh

*ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid qator davlat dasturlari", tasdiqlandi.*

Biz bilamizki, respublikamizda teatrlar xorlaridan tashqari professional xor jamoalardan to'rttasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda: O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi O'zbekiston Davlat xor kapellasi, Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi qoshidagi MTS (musiqali teatr studiyasi) xori hamda Davlat simfonik orkestri qoshida tashkil etilgan Davlat xori shular jumlasidan. Ulardan Davlat xor kapellasi va MTS, ko'proq chet el va o'zbek kompozitorlarining xor uchun yozgan asarlarini tinglovchilarga manzur etsa, Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi milliy, ya'ni o'zbek kompozitorlarining hamda xormeysterlarning xor uchun yozgan asarlarini yoki qayta ishlagan xalq qoshiqlarini targ'ibot va tashviqot etadilar. Jamoalarning bugungi kundagi konsert chiqishlari xususida to'xtalib o'tsak.

#### **Zamonaviy xor – bu qanday ta'rifga loyiq?**

Bugungi kunda ushbu san'at turida faoliyat yuritayotgan ba'zi jamoalar xorning aniq maqsadlarini qanchalik amalda bajaryaptilar? To'g'ri biz turli "Bitva xorov" konkurslarini ko'rib tinglayapmiz, bu shou-kontsertlardagi chiqishlarda jamoalar asosan zamonaviy estrada asarlarini turli xatti-harakatlar bilan ijro etayaptilar. Ha, balki bu ijrolar qaysidir holatlarda insonlarga zavq bag'ishlayotgandir, lekin bunday ijroning davomiyligi, muntazamligi haqiqiy xor san'atini targ'ibotiga, tinglovchilarning asarlar ma'no-mazmunini anglashlariga biroz xalaqit bermayaptimikan?

Xor jamoalari tomonidan kuylanayotgan musiqiy asar ijrosi vaqtida ba'zi zarur bo'lmagan xatti-harakatlar tufayli ohanglar mushtarakligi aniq yo'qolib bormoqda. Gohida muntazam ravishda sahnada harakatlanish, deyarli raqsga tushib xor asarini kuylash qanchalik bu maqomga tog'ri, yoki javob beryapti. Qarang, bajarilayotgan harakatlar tufayli ijroda ovozlarning mushtarakligi, garmonik akkordlar tuzilmalarida uzilishlar, temp, ritmlarda nomutanosibliklar, ansambl, jarang kuchi yo'qolyayotgani eshitib turibmiz-ku!

**Xor jamoasi bilan ashula va raqs ansamblini farqi bo'lishi kerakmi?** Bugungi kunda texnika juda rivojlangan vaqtda xor asarlarini klassik uslubda tekis turib ijro etish, balki zamon talabiga qisman javob bermas, lekin klassik kompozitorlarimiz yaratgan mumtoz asarlarni ham shu yo'sinda ijro etish to'g'ri bo'larmikan? Xorning tom ma'nosiga javob beradigan asarlar ijrosi bizni qiziqitirmasa, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridagi xor soatlarni qisqartiraylik-da, keling, raqs fani qo'shib unga beraylik! Xor san'ati asrlar mobaynida shakllanib, sayqallanib bizgacha o'ziga xos professional ko'rinishda yetib kelsa-yu, uni bugungi kunda ashula

va raqs ko'rinishiga aylantirib qo'yishga biz qanchalik haqlimiz? Professional xor jamoalari ijodi borasida to'xtalsak, ularning o'zbek va dunyo kompozitorlari yaratgan asarlarini targ'ib etishlarida o'z maqsad va vazifalari bor shekilli?

To'g'ri, xor ijrochiligining an'anaviy ko'rinishi zerikarli bo'lib qolayotgani bois, professional xor jamoalarining kontsertlarida tinglovchilar soni keskin kamayib boryapti. Balki shu sababdan bu san'at turini ham estrada shou-tomoshalari kabi maxsus rangli chiroqlar, sahna, dekoratsiya bezaklari (LED ekran), sahna kiyimlarini zamonaviyroq bo'lishi, xor joylashuvini o'zgartirib turilishi, turli raqs elementlari bilan jamoani harakatlanib turishini talab etmoqdadir. Lekin biz uni bugungi zamon talablariga ko'ra rivojlantirishimiz kerak, deb **ashula va raqs ansamblariga** aylantirib qo'ymayapmizmi? Agar zamon shuni talab etsa yosh, iste'dodli xormeyster-dirijyorlar yangi jamoalar tuzishsin, izlanishsin! Yangi xor jamoalari tashkil etishsin! Nima uchun qator xor dirijyorligini bitirgan talabalar xor artisti bo'lib faoliyat ko'rsatib kelyaptilar? Qani ulardagi shijoat, qani iroda?

Fikrimizcha, har bir bajarilayotgan ishlarimizda me'yor bo'lishi kerak. San'atimiz darg'alari, ustozlarimizning ko'pchiligi dotsent yoki professor bo'lishlariga qaramay madaniyat uylarida, turli oliy o'quv yurtlarida xorlar tashkil qilib, mutaxassis sifatida o'z ijodiy faoliyatlarini olib borganlar. Ba'zida yoshlar mutaxassisliklaridan bilimlari yetarlicha emasligidanmi yoki tajribalari sustligidanmi, hattoki, tayyor professional xor jamoalarini ham eplolmayaptilar.

Ta'kidlab o'tish joizki, 2015–2019-yillarda respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasiga rahbar bo'lgan Sh.Babaxanova xorning repertuari, ijro uslubi o'zgarib xorni har maqomga yo'rg'alatdi, desa ham bo'ladi. U rahbarlik qilib kelgan yillarda xor jamoasining konsert dasturi ijrosi, saviyasi shu darajada pasayib ketgan ediki, jamoa konsertida nafaqat xor san'ati ixlosmandlari, balki kompozitor, musiqashunoslar, hattoki, xor san'ati namoyandalari deyarli ko'rinmay qoldilar. Bu rahbar, avvalgi rahbarlarning shakllantirib ketgan repertuar asarlari ijrosini ham saqlab qololmadi. Ushbu yillarda xor jamoasining ijodiy yuksalishi tugab, avvalgi salohiyati ham umuman tushib ketdi. Qo'yingchi xor ijrosi uchun muhim bo'lgan ko'plab talablarni sanab o'tishimiz mumkin. Axir bu jamoa o'zining milliy ijro uslubi bo'yicha boshqa xor jamoalaridan ajralib turardi-ku. Mohir, iste'dodli xormeyster, dirijyor, kompozitor Botir Umidjonov bir necha zahmatli yillar mobaynida xor ijrochiligining akademik yo'lini milliy xonandalik an'analari bilan muvofiqlashtirib, o'zbekona xorning mukammal va o'ziga xos yangrashini topib, ushbu yo'nalishni ko'z qorachig'idek asrab kelgandi. Uning davomchilari Jo'raqul Shukurov va Dilbar Malikovalar ham jamoa ijodini ushbu yo'nalishdan og'ishmay, an'anaviy tarzda saqlab, davom ettirib kelgandilar.

Xor jamoasiga 2019-yildan boshlab yosh, iste'dodli, izlanuvchan dirijyor Gulnora Malikova rahbarlikka kelishi bilan yuqoridagi muammolar asta-sekin o'z yechimini topa boshladi. Gulnora Malikova O'zbekiston

davlat filarmoniyasining Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi bilan ustozlarning uslublarini qo'llagan holda, ularning izidan borib yangicha, zamonaviy talqinda xor asarlarini muxlislarga taqdim etib kelmoqda. Masalan, Mustafu Bafoevning **“Holati Alisher Navoiy”** simfoniyasi; Uvaysiy g'azallariga yozilgan **“Maqom sadolari”** turkumi; **“Ajab nozik”**, **“O'zbekistonim”** asarlari; B.Umedjonovning Zahiriddin Muhammad Bobir ruboiylariga yozilgan 6 qismli a capella turkumi, **“Sog'inish”**, **“Olis yo'lda”**, **“Jangchi qabrida”**, **“Yovvoyi Chorgoh”** kabi xor asarlari; Bahrullo Lufullayevning **“Bir tola soch”**, **“Yor sendek”** xorlari va **“Sarahbori Dugoh”** nomli xor uchun yozilgan konsertlari sahnada qaytadan yangicha talqinda jonlanib, ijro etib kelinmoqda.

Xor jamoasi Turkmaniston Respublikasida o'tkazilgan onlayn xor festivalida 2023-yil 21–24-fevral kunlari Janubiy Koreya Respublikasi Chedju VII Xalqaro xor festivalida ishtirok etib, juda katta ijodiy yutuqlarini namoyon etmoqda. Bugungi kunda bu jamoa ham innovatsion yangiliklarni qo'llagan holda ijro an'alarini yanada takomillashtirib, o'zbek kompozitorlari, xormeysterlar tomonidan yaratilgan turli janrdagi (a capella, syuita, simfoniya va b.) xor asarlari hamda ustozlarning xor uchun qayta ishlagan murakkab klassik va maqom asarlarini xor san'ati muxlislarga nafaqat yakkaxon kontsert ijrosida, balki o'zbek xalq cholg'u hamda simfonik orkestrlari bilan ham yuqori professional darajada taqdim etib kelmoqda. Shiddat bilan rivojlanib kelayotgan musiqiy hayot xor san'ati namoyandalaridan ham keng qamrovlilikni, professional mahorat ustida muntazam izlanib borishni talab etmoqda.

Biz shuni yodimizda tutishimiz kerakki, ustozlarimiz tomonidan tamal toshi qo'yilgan ijro yo'nalishlarini kelajak avlodga yetkazib, anglatib berish professional xor dirijyorlari uchun ham qarz, ham farzdir! Yetishib kelayotgan xormeysterlar, dirijyorlarimiz turli xor jamoalarning ijodiy faoliyatini nafaqat o'rganishlari, balki ularning yo'nalishlarini farqlay bila olishlari ham muhimdir. Bugungi kunda o'zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini yanada ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz, shuningdek, yosh avlodni umuminsoniy va milliy an'analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari bilan 2017-yil 3-avgustda o'tkazilgan uchrashuvda: *“Inson qalbini, uning dardu-intilishlari vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharafli ekanini barchamiz albatta bilamiz”* [3.B.1], – deb bejiz ta'kidlab o'tmagan.

Davlatimiz rahbari ushbu ma'ruzada madaniyatimiz va san'atimizning rivojlanish jarayonlari, bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta'siri xolisona va tanqidiy baholanib, o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida atroflicha fikr yuritdi. Ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o'rni va vazifasi haqida muhim va dolzarb fikrlar bayon qilindi. Prezidentimiz tomonidanaytib o'tilgan qator kamchiliklar respublikamizda tobora susayib borayotgan san'at turlaridan biri bo'lmish xor san'atiga ham taalluqlidir.

Respublikamiz taraqqiyoti o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarni har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z vatanidan faxrlanish tuyg'usiga ega etib tarbiyalash, zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamlı muammolardan biridir. Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Musiqa yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib biz shuni aytishimiz va yodimizda tutishimiz kerakki, ustozlarimiz tomonidan tamal toshi qo'yilgan milliy ijro yo'nalishi mohiyati va maqsadini nafaqat tinglovchilarga, balki o'rta va oliy ta'lim o'quv muassasalaridagi o'quvchi va talabalar xor jamoalariga, kelajak avlodga yetkazib berish nafaqat professional xor dirijyorlari uchun, balki musiqa madaniyati fani o'qituvchilari, o'rta va oliy ta'lim professor-o'qituvchilari uchun ham farzdir! Yoshlar – mamlakatning ertasi va kuch-qudratidir. Ular har tomonlama barkamol, jismonan baquvvat, ruhan va ma'nan sog'lom, bilimli, yuksak tafakkurli bo'lib ulg'aysa, el-yurtning kelajagi yorug', barqaror va farovon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PF-60-son 28.01.2022. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: 2022.
2. “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror. “Yangi O'zbekiston” gazetasi, 2022-yil, 4 fevral. № 25 (547).
3. “Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so'zi” gazetasi, 2017yil, 4-avgust.
4. Shomaxmudova B. Xor lug'ati. – T.: “Musiqa”, 2009.

## MAQOMLARDAGI BEZAKLAR

**Annotatsiya.** O'zbek mumtoz ashulalari va maqomlarida nola va qochirimlardan tashqari bastakorlar tomonidan belgilab ketilgan musiqiy bezaklar mavjud. Maqola aynan bastakorlar tomonidan yaratilgan bezaklar haqida.

**Kalit so'zlar:** maqom, mumtoz asarlar, bezaklar, zamzama, hang, dumcha, daromad, miyonxat, dunasr, furovard, bastakor, namud, xonanda.

## УКРАШЕНИЯ ПО СТАТУСАМ

**Аннотация.** В узбекских классических песнях и макомах, помимо обычных мелизмов (нола-қочирим), есть музыкальные мелизмы отмеченные композиторами. Статья посвящена именно орнаментам-мелизмам созданным композиторами.

**Ключевые слова:** маком, классика, мелизм, композитор, замзама, ханг, думча, даромад, миенхат, дунаср, фурувард, намуд, певец.

## DECORATIONS ON STATUSES

**Abstract.** In Uzbek classical songs and makoms, in addition to the usual melisms (nola-kochirim), there are musical melisms noted by composers. The article is devoted specifically to ornaments-melisms created by composers.

**Key words:** makom, classics, melism, composer, zamzama, hang, dumcha, daromad, miyonxat, dunasr, furovard, namud singer.



Maqom xonandaligida nola-qochirimlar yoki boshqacha aytganda bezaklar mavjud bo'lib, ularning har bir uslub vakillari hamda vohalarga mansub turlari bor. Bu masalaga tarixiy yondashish uchun faqatgina ilk magnit tasmlariga yozib olingan yozuvlarga va hozirgi vaqtda eshitish mumkin bo'lgan manbalarga tayanamiz. O'zbek xonandalarining ilk yozuvlari gramplastinkalardir. Ulardagi xonandalar Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Levi Boboxonov, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, Hojixon Boltayev, Nurmuhammad Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov va hokazo. Bu xonandalarning ijrosidagi nola va qochirimlar o'ziga xos sodda bo'lib, ba'zilari hozirgi davr tinglovchisida ham qiziqish uyg'otadi. Milliy xonandalik san'ati va ulardagi ijro asosan ustoz xonandalar ijrosiga tayanadi. Zamonaviy tilda bezaklarni melizmlar, deb atash rasm bo'lgan. "Vikipediya" saytida melizmlar haqida shunday deyilgan: "Melizmlar (yunoncha melisma – qo'shiq, kuy), ornamentika, musiqa bezaklari – vokal va cholg'u musiqada muayyan shaklga ega (mas, trel, forshlag, kashish va boshqalar) yoki erkin tarzda ijro etiladigan (passaj, fioritura, qochirim, nola, molish) barcha ohang bezaklari, kuyning asosiy pog'onalarini o'zgartiradigan qo'shimcha tovushlar. Melizmlar kuy ohangdorligini, ta'sirchanligini oshiruvchi, ko'proq lirik mazmunni boyituvchi vositalar sifatida musiqa san'atiga keng joriy etilmoqda. Melizmlar xalq

musiqa ijodiyoti va ijrochiligi, xususan, badiha san'ati, bastakorlik hamda kompozitorlik ijodiyotida uzoq o'tmishdan davom etib kelayotgan an'analarning mahsulidir. Melizmlarga oid ma'lumotlar O'rta asr Sharq musiqa risolalarida o'z aksini topgan: "Mahmud ash-Sheroziy XIII asr sozlarda ijro etish uslublari borasida fikr yuritib, sozandalar kuylarni bezaklar bilan boyitishi lozimligini ta'kidlagan, Jomiy esa kuy bezaklarida malaka hosil qilish ijrochining o'ziga bog'liqligini uqtirgan va o'z zamonasi amaliyotidan misollar keltirgan. Har bir xalq musiqasidagi melizmlar o'ziga xos ko'rinishga ega. O'zbek milliy ijrochiligida qochirim, nola, molish, xonish, kashish kabi melizmlar mavjud. Ulardan torli (tanbur, dutor, g'ijjak, sato kabi) va puflama (nay, surnay, qo'shnay, bo'lamon) musiqa cholg'ulari va, ayniqsa, xonandalikda keng foydalaniladi"<sup>1</sup>.

Qomus info on-line ensoklopediyasida: "Qochirim – o'zbek an'anaviy musiqasida oddiy va murakkab musiqa bezaklarining umumiy ifodasi. Qochirimlar kuyga jilo beruvchi qisqa tovush (ohang)lardan tashkil topadi"<sup>2</sup>, deyilgan. Demak, har bir bezak o'z nomi atalishi qadimdan odat tusiga kirgan, lekin hozirgi kunda ularni umumlashtirib nola-qochirim yoki bezaklar, deymiz.

Hozirgi kundagi ko'pchilik xonandalarning ijrolari nola-qochirimlari tahsinga loyiq. Ba'zilari borki, boshidan to oxirigacha nola qilaverib, asarni bezab tashlaydi, milliy musiqamizning asosiy negizi ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Nola va qochirimlar har bir xonandaning o'z yuragi, ya'ni dardi faqat uning o'zigagina xos bo'lgan xonandalik san'ati haqidagi

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Melizmlar>

<sup>2</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qochirim-uz/>



tushunchasi va dunyoqarashiga bog'liq. Aslida nola va qochirimlar asarning bir yoki ikki joylarida o'ziga xos tarzda qo'shib ketilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshidan oxirigacha asarni nola-qochirimlar bilan bezash tinglovchining me'dasiga tegishi, asarning mohiyatan o'zgarishi va musiqiy matnning buzilishiga olib keladi. Yuqorida aytib o'tilgan ustozlar asarining ijrosi davomida me'yorini bilgan holda o'ziga xos bezaklar ijro qilib ketganlar. Ustozlarimizning aytishicha, ovozni o'ynatish nola-qochirimlarni mislsiz go'zal ijro etishga ustozlarning ham iqtidori yetgan, ammo ular musiqiy yo'lni to'la-to'kis tinglovchiga yetkazib berish uchun me'yor darajasini bilganlar. Nola va qochirimlarning ko'pligi asarni bezamaydi, aksincha musiqiy negiz yoki asosni zaiflashtiradi. Chunki milliy musiqamizdagi har bir asar ijrosi o'ziga xos yondashuv va bezaklarni talab etadi. Shunday asarlar borki, ular yetuk xonandalar tomonidan ijro qilinaverib, xalqimiz qulog'iga o'rnashib qolgan. Bu ashulalarni ijro etish davomida, nola-qochirimlar qilishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Chunki shinavanda mazkur ashulalarni aynan shu nola-qochirimlari bilan tinglashga ko'nikib qolgan. Bu bezaklar har bir ijrochini ixtiyoriy ravishda qo'shishi mumkin bo'lgan nola-qochirimlardir. Bundan tashqari maqom ijrochiligidagi ba'zi bezaklar borki, ular ayni maqomlarning bastakorlari tomonidan yaratilib, g'azal baytlarini bir-biriga bog'lash, ajratish va tugatish, vazifalarini bajaradi. Bu bezaklar joriy etilgan va o'zgarimas bezaklar hisoblanadi. Bunday bezaklarsiz maqomlarni ijro qilib bo'lmaydi, asar o'ziga o'xshamay qoladi. Biz bu bezaklarning hammasiga hang deyishga odatlanganmiz. Shunday bezaklardan biri – zamzama, bu bezak har bir asarda shu asar jins-pardalari asosida tuzilgan bo'lib, bir baytni ikkinchi baytga ulab beradi. "Maqomot" kitobida bunday bezaklar haqida aytib o'tilgan.

"Zamzama ("O" lab aytish, so'zsiz qo'shiq) nuqtai nazaridan namudning biron-bir variant yoki mustaqil birlik shaklida kelishi mumkin"<sup>3</sup>. Zamzama Saraxbori Dugoh va Saraxbori Navoda doim takrorlanadigan so'zsiz matni.

### Saraxbori Dugoh



### Saraxbori Navo



### Saraxbori Dugoh



Hang maqomlarda, asosan Saraxborlarda uchraydi va bitta joyda qo'llaniladi. "Hang (ohang, ohanglash) bu ham matnsiz "o" tovushini kuyga solib aytiladigan bo'laklardir. Hang zamzamaga qo'shilgan holda yoki mustaqil kuy bo'lakchasi sifatida uchraydi"<sup>4</sup>. Hanglar aynan shu maqomning jins-pardalarida yaratilib, boshqa pardadan, ya'ni modulyatsiya shaklida keladi, ushbu Saraxborlarda bosh pardasi re bo'lsa si pardasidan boshlanadi va tonikasi rega kelib tushadi. Saraxbori Dugoh va Saraxbori Navoda dunasr qismidan keyin aytiladi. Umuman olganda hanglar asarni dunasrdan keyin namudga ulab berish yoki namuddan keyin furovardga ulab berish vazifasini o'taydi.

### Saraxbori Navo



Maqomlarda daromad, miyonxat, dunasr, namud furovard kabi qismlarga qo'shimcha dumcha, deb nomlanuvchi kuy bo'laklari ham uchraydi. Bu qism shu kuy jumlasini tugatilganligini bildiradi va navbatdagi kuy matni boshlanishidan darak beradi. Saraxborlarda dumcha har bir zamzamaning so'ngida ijro etiladi. "Maqomot" kitobida dumcha haqida shunday deyiladi: "Dumcha – kuy jumlarida yakunlovchi nuqta vazifasini bajaruvchi lad alomati. Dumchani lad funksiyasini Yevropa musiqasidagi "kadans" tuzilmasiga o'xshatish mumkin. U ladning bosh pardasi (tonika)ning tayanchlik xususiyatini yanada mustahkamroq namoyish etishga qaratilgan. Dumchalar har bir maqomning o'ziga xos belgili pardalari bo'lib, esda qoladigan yorqin ohanglari bilan yaqqol ajralib turadi"<sup>5</sup>. Saraxbori Dugoh va Saraxbori Navoda aynan zamzamalarning va hangning tugallanish qismida keladi va hay yorey, hay joningman hay yorey kabi qo'shimcha so'zlar bilan kuyulanadi.

### Saraxbori Dugoh



### Saraxbori Navo



<sup>3</sup> Matyakubov O. Maqomot. – Toshkent: 2004. – B.142.

<sup>4</sup> Matyakubov O. Maqomot. – Toshkent: 2004. – B.143.

<sup>5</sup> Matyakubov O. Maqomot. – T.: 2004. – B.144.

Musiqiy ohangning hidini yoki rangini sezib bo'lmaydi. Maqomlarda shunday bir bezak borki, u ham bo'lsa rang deb nomlanib, ijro davomida boshqa asarning bo'yog'ini namoyon etadi. Misol uchun ijrochi Rost maqomidagi Savti ushshoq asarini ijro eta turib, ikkinchi xati, ya'ni miyonxat qismida Chorgoh pardalari kuylaganini eshitamiz. Ranglar asosan so'z matni bilan kuylanadi, miyoxat, furovard o'rnida ham kelishi mumkin.

Savti Ushshoq

♩ = 100 Ushshoq pardalari

A gar har lah za sen din ko'r ma gim yuz ming ja  
fo bo' sun. A ning har qay si sin o'r ni ga men din ming va  
Chorgoh  
fo bo' sun. Bu jon kin un ri lar jon ich va tin nay tar bi  
Ushshoq pardalariga qaytdi  
yat qil dim U uni dim bu hi  
jo no bir hu ni zen ga fi do bo' sun.

Savti Ushshoq asarida bu yaqqol seziladi va miyonxat sifatida kelgan. "Shashmaqomda ishlatiladigan rang mohiyatan namudga o'xshagan narsa, aniqrog'i uning o'zgaruvchan shaklidir. Rang bunda quyning bir bo'yog'i, o'xshab ketish degan ma'nolarni anglatadi. Farqi shundaki, namud – xuddi quyning o'zi, bekamu ko'st ko'rinishi, rang esa uning ayrim tomonlarigina namoyon bo'lishi"<sup>6</sup>.

Endi namudlar masalasiga keladigan bo'lsak, manbalarda keltirilishicha, namud – ko'rinish demakdir. Namudlar ham ijrochilik nuqtai nazaridan maqomlardagi bezaklar, deyish mumkin. Chunki namudlar asarni nafaqat bezaydi, balki boshqa jins-pardadan ijro etilib, yana asl jins-pardasiga olib keladi. Qadimda ustoz xonandalar namudlarni sharoitga qarab o'zgartirib aytib ketishgan. Misol uchun, Saraxbori Navoning avjida Oraz namudini doymiy ravishda aytib yurib, asl shinavandalar jam bo'lgan davrada Orazning o'rniga Segoh namudini ijro qilishlari mumkin, bu maqomot qonuniyatiga zid emas. Aksincha, maqomlarga ijodiy yondashuv hisoblangan. Bugungi kunda ham mashq sifatida bir namudni ikkinchi namudga almashtirib ko'rish ko'nikmasini tajriba qilishimiz mumkin. "Ustozlar shunday ijro qilishgan, biz ham ustozlar aytgan namudlar bilan ijro qilamiz", qabilida maqomlarga yondashadigan bo'lsak, maqomlarning zamonaviy ijrolari uchun zarracha ham hissa qo'shmagan bo'lamiz.

Shu o'rinda Navo deb nomlanuvchi namudga to'xtalib o'tmoqchimiz: "Musiqiy tushuncha sifatida namud muayan kuy yoki ashula tuzilmasining turli sho'balar tarkibidagi ko'rinishidir. Ular asosan

sho'baning boshlanish kuy jumllaridan olinadi"<sup>7</sup>. Demak, Navo namudi Saraxbori Navoning boshlanish qismidan olinib, boshqa maqomning doyra usuliga moslab qo'yiladi.

Saraxbori Navo

Sen dek ja hon da ko'z la ri ay ni ba  
lo qa ni, Men dek a ning ba lo si bi  
la mub ta lo qa ni yo

Aynan shu kuy tuzilmasi boshqa maqomning avj qizmiga kelib tushib, Navo namudini shakillantiradi. Misol uchun, Talqini Bayotda shunday ko'rinishda keladi:

Navo Namudi (Talqin)

Talqini Bayotdan

Qat li biy mi dur ta rah lum ning da g'i um me di bor,  
Bu li bo si ol ki mi ul no mu sul  
mo nim da du ro  
Vas li sho mi kuy ma gan par vo na sho  
yad qol ma g'ay  
Bu sha faq gum hul la kim, sham' i sha bis  
to nim da du ro

Bu aynan Navo namudi ekanligiga hech qanday shak-shubha yo'q. Lekin shunga o'xshash yana bir namud bor, ammo jins-pardalari Navo pardasi emas, balki Dugohning jins-pardalariga mosdir.

Navro'zi Sabodan

Hi ro mon go ma ting ga gul shan ichra ko'r  
gu zur ta zim, De ma yel bir la mo yil har ta raf sar vu  
sa nav bar dur

Mazkur namud so'zimiz boshida ta'kidlanganidek, Saraxbori Dugohning hang qizmiga o'xshaydi:

Hay jo ni mo o

<sup>6</sup> Matyakubov O. Maqomot. – T.: 2004. – B.148.

<sup>7</sup> Rajabov I. Maqom asoslari. – T.: 1992. – B.22.

Aynan shu namud boshqa maqomlarda ham uchraydi, ammo manbaalarda bu namudni Navo deb yozib qoldirilgan va ijrochilar ham o'z navbatida Navo deb ijro etishadi.

♩ = 100 Nasri Segohning taronasidan

Xalq a ro ko'p so'z la ma saq lab o'zing ni so'z la gil, Téz o g'iz

lik qil ma\_g'il bil gil su han don qad ri ni O

Ish ra tu sho di bi la gul zor i chin da o'l tu rur

Hin du iy so hib sa o dat din o' shal meng do na si

O yo rey

Bizningcha, bu namudning nomini Dugoh namudi, deb yuritganimiz ma'qul. Chunki mazkur namud Navo emas, balki Dugoh jins-pardalaridan tuzilgan bo'lib, o'zining Dugoh ko'rinishini namoyon etadi. Fikrimizcha, bu ikkala namudga bundan-da ko'p izoh ortiqcha.

Bundan ko'rinib turibdiki, bezak faqatgina biz ortiqcha ishlatadigan nola-qochirimlar emas, balki zamzamarlar, hanglar, dumchalar, ranglar va hatto namudlar ham bezaklar turiga kirar ekan. Bu bezaklarni biz shundayligicha o'rganganligimiz uchun ularni kuy bo'laklari sifatida qabul qilamiz. Ammo shu bezaklardan oqilona foydalanib, maqomlar rivojiga hissa qo'sha oladigan darajaga yetganimizda, bir o'zimizni maqomchi yoki maqom ijrochisi sifatida ko'ra olishimiz mumkin. Hozircha biz ustozlarni yaratgan asarlarini takrorlab, ijro qilib yuruvchi shogirdimiz, xolos.

## KASBIY MUSIQADA SHOIRALAR NAZMI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, o'zbek adabiyoti tarixining turli davrlarida faol ijod qilgan shoira ayollarning adabiy merosining o'zbek kasbiy musiqasi namunalarida go'zal ifodalarga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, Mohlaroyim Nodira g'azallari bilan aytiladigan "Mustahzod", Jahon otin Uvaysiy g'azallari bilan ijro etilayotgan "Chorgoh 1", "Chorgoh 2", Zebunniso begim g'azallari bilan sevib tinglab kelinayotgan "Samarqand ushshog'i" kabi ashula yo'llari muhtasr tahlil etilgan.

**Kalitli so'zlar:** kasbiy musiqa, maqom, ashula, g'azal, meros, sulola.

## ПОЭЗИЯ ПОЭТЕС В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКЕ

**Аннотация.** В данной статье представлены суждения о прекрасном выражении литературного наследия женщин-поэтов, активно творивших в разные периоды истории узбекской литературы и прекрасно прилаженные в образцах узбекской профессиональной музыки. В частности, речь идет о «Mustakhzod» в исполнении газелей Мохларойим Надира, «Чоргох 1», «Чоргох 2» в исполнении газелей Джахан атин Увайсий и «Самарканд ушшоги» в исполнении газелей Зебунниса.

**Ключевые слова:** профессиональная музыка, статус, песня, газель, наследие, династия.

## POETRY POETESS IN PROFESSIONAL MUSIC

**Abstract.** This article presents judgments about the beautiful expression of the literary heritage of women poets who actively worked in different periods of the history of Uzbek literature and are perfectly applied in samples of Uzbek professional music. In particular, we are talking about "Mustakhzod" performed by the gazelles of Mokhlaroim-Nadir, "Chorgokh 1", "Chorgokh 2" performed by the gazelles Jahan atin Uvaysiy and "Samarkand ushshoggi" performed by the gazelles of Zebunniso.

**Key words:** professional music, status, song, ghazal, heritage, dynasty.

Ma'lumki, o'zbek kasbiy musiqasi qadim davrlarda shakllanib, bugungi kunda ham o'z an'alarini davom ettirib, yangi-yangi sayqallar bilan boyib kelmoqda. Bu mavzuda, ayniqsa, kasbiy musiqada shoirlar nazmi ham musiqashunoslik ilmidagi o'rganilib kelinmoqda. Og'zaki an'anadagi professional musiqa ijodiyoti, ya'ni kasbiy musiqa serqirra janrlar tarkibida ayni kunga qadar o'ziga xos mukammal shakl-shamoyillar asosida turli ijro uslublarda sayqallanib, amaliyotda ustoz-shogird an'anasi asosida o'zlashtirilib kelinmoqda. Ushbu an'ana, kasbiy musiqaning o'rganilishida muhim ahamiyat kasb etib, uning amaliyotdagi bardavomiylik omillaridan biridir.

XVIII–XX asr mumtoz musiqa ijodiyotida aynan ayollarning tutgan muhim o'rnini o'rganish ayni muddaodir. O'rta Osiyo xalqining kelib chiqish tarixi bir bo'lganidek, ularning musiqiy an'analari ham bir-biriga ma'lum darajada yaqindir. Zero, o'zbek va tojik xalqining qadimiy musiqa merosi bo'lgan maqomlar boshqa xorijiy Sharq xalqlari mumtoz musiqa namunalarida ham turkum asosida o'zlashtiriladi.

O'zbek adabiyot tarixi aynan zamonlar va avlod-ajdodlarning qalb sadolari aks etgan rangin sahifalar bilan boydir. Bu zarvaraqlarda Lutfiy va Navoiy, Bobur va Mashrab, Munis va Ogahiy, Furqat va Muqimiy kabi o'nlab ijodkorlarning asarlari bitilgan. O'zbek adabiyoti tarixida yana bir sahifa mavjud bo'lib, u xotin-qizlar ijodiyotiga xos mumtoz sahifadir. Mazkur tarixning turli davrlari va bosqichlarida ijodkor ayollar adabiy hayotning faol ishtirokchilari bo'lgani alohida e'tirof etish kerak. Ayollar hayotining quvonch va armonlarini o'ta ta'sirchan va dard bilan yonib kuylash ayol shoiralarning asarlarida yetakchi o'rinni egallab kelgan.

To'xtasin Jalolovning "O'zbek shoirlari" kitobida Sharq adabiyotiga ziynat baxsh etgan Robiya Balxiy (IX

asr), Ismatiy va Oyisha Samarqandiy (XI asr), Munisa Maxastiy va Rayhona (XII asr), Mutriba Qoshg'ariy (XIII), xorazmlik Podsho xotun (XIV), Alisher Navoiyning zamondoshlari bo'lgan Mehriy, Nihoniy, Iffatiy, Ismatiy, Jamila, Gavharshod begim, Dilshod xotun, shuningdek, Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns" asarida nomlari qayd etilgan o'ttiz ikki shoir, boburiylar davrida yashab ijod etgan Gulbadan begim, Gulruh begim, Zebunniso, Nurjahon, Jahonoro, Salima (XVII) kabi shoirlar va ularning asarlari haqida ma'lumot beriladi [1].

Ayollar mumtoz ijodiyotiga nazar solar ekanmiz, aynan XVIII–XX asr mumtoz adabiyot namoyandalari Mohlaroyim Nodira, Jahon otin Uvaysiy, Zebunniso, Dilshod va Anbar otin ijodlari misolida davr adabiy-musiqiy hayoti mavzusiga xos ravishda ularning Yaratganga va insoniyatga muhabbati ruhida dalkash asarlariga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda birgina Uvaysiyning ijodidagi yuksak ruhiyatni, san'atkorona bitilgan g'azal va muxammaslari, murabba' va ruboiylar, dostonlar, shuningdek, tarixiy-falsafiy asarlarining mazmun-mohiyatiga singib ketganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, Jahon otin Uvaysiy o'z davrining siyosiy qarashlarning tazyiqi va zarbalariga bardoshini o'z she'rlarida ifoda eta olgan buyuk iste'dod egasi bo'lgan. Bu maqsad yo'lida to umrining oxirigacha iqtidorli yosh qiz va juvonlarga adabiyot va musiqa san'atining amaliy jihatidan ta'lim berib, yetakchi ma'rifatparvarlar yo'lidan borgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Jahon otin Uvaysiyning qator g'azallari o'zbek va tojik xalqining umumiy merosi bo'lgan maqomlarda, ayniqsa, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridagi musiqa namunalarida mashhurdir. Misol tariqasida birgina mashhur "Chorgoh" ashula yo'llariga murojaat qilsak. Ushbu ashula nafaqat Farg'ona vodiysida, balki butun O'zbekistonda xonandalar

tomonidan sevib ijro etib kelmoqda. Bu ashuladagi soʻz va ohangning uygʻunligi, uning mukammal ijrosi bilan yanada goʻzal sayqallangan. Xususan, “Chorgoh 1” ashulasini Oʻzbekiston xalq artisti Munojot Yoʻlchiyeva, “Chorgoh 2”ni esa xonanda Saida Xolmetovalar tomonidan yuksak mahorat bilan ijro etilgan.

Eʼtirof etish joizki, Uvaysiy XIX asrning birinchi yarmida Fargʻonada oʻziga xos ovozi bilan hamda oʻsha davr adabiy muhitini yanada kengayishida koʻrsatgan katta taʼsiri bilan ham alohida ajralib turuvchi isteʼdodli zamon kuychisi, otashin shoirasi boʻlgan. Bu haqda Toʻxtasin Jalolovning **“Oʻzbek shoiralari”** hamda akademik Aziz Qayumov hamda adabiyotshunos olimi Eʼtibor Ibrohimovalar tomonidan nashrga tayorlangan **“Uvaysiy devoni”**da atroflicha maʼlumot berilgan. Xususan, Toʻxtasin Jalolov **“Oʻzbek shoiralari”** kitobida Uvaysiy ijodiy merosi haqida: “Uvaysiyning adabiy merosi juda salmoqli: *“Karbalonoma”* va *“Boqioti Muhammad Alixon”* sheʼriy hikoyalardan iboratdir. Devonda 269 gʻazal, 29 muxammas, 55 musaddas va bir murabbaʼ bor”, – deb yozadi [1.43-b.].

Uvaysiyning ijodi, uning boy va serjilo gʻazallari mumtoz musiqa anʼanalari bilan ham chambarchas bogʻliqdir. Bunga namuna sifatida shoiraning gʻazallariga aytilgan bir qancha mumtoz musiqa namunalarini keltirish mumkin. Jumladan, **“Chapandozi Gulyor”**, Rost maqomidan **“Nasri ushshoq”**ning 1-taronasi [4.50-b.].

**Jon berurmen tegsa ming kulfatki, jonon yoʻlida,  
Na emish koʻz abridin toʻkmakli boʻron yoʻlida.**

Saraxbori Rost maqomidan 3-taronasi:

**Jafosin chekmaymi boʻlmas muyassar senga,  
janonim,**

**Yurakka dardi tegmay taʼsir etmas ohu afgʻonim,** – soʻzlari bilan boshlanadi.

Bundan tashqari, Uvaysiy zamondoshi Mohlariyom Nodira oʻzining boy ijodiy merosi bilan nafaqat oʻzbek adabiyoti tarixida, balki kasbiy musiqa sanʼatida ham mumtoz oʻringa ega boʻlgan ijodkordir. Maʼlumki, mashhur oʻzbek shoirasi Nodirabegimning asli ismi Mohlar oyim boʻlib, u XVIII asrning oxirida Andijonda tugʻilgan. Bu borada Toʻxtasin Jalolov kitobida **“Munataxabut-tavori”**dan olingan quyidagi maʼlumotni keltiradi: *“...Ul vaqt Andijon hukumati Rahmonquli biy, Amir Olimxonning togʻasi erdi. Unga taalluqli erdi. Uning ismagida bir qizi bor erdi, ismi Mohlaroyim erdi. Amir Olimxon xohladikim, ul muxaddarani amir Umarxonning nikohiga kirgazsa, ...Umarxonni Andijonga olib borib nikoh qilib, Margʻilonga keltirib qoʻygil”* [1.74-75.b.]. Muallif davom etarkan: *“Bu voqea 1808-yilda boʻlib, 1810-yil Olimxon oʻlimidan soʻng, ukasi amir Umarxon taxtga chiqadi. Margʻilon hokimini xotini Mohlaroyim mamlakat malikasi darajasiga koʻtariladi. Umarxon oʻlgach (1822-yil) taxt 14 yoshli Umarxonning oʻgʻli Maʼdalixonga qoladi. Lekin xonlikning barcha ishlari Nodiraning qoʻlida boʻladi. Nodira adabiyot, madaniyat masalasida*

*Umarxonning izidan borib, olimlar, sanʼatkorlarga katta hurmat koʻrsatadi. Ularni turli kitoblar yozishga tashviq qildi va har vaqt hadyalar bilan siylab turdi. Oʻzi Qoʻqonda bir madrasa, hammom va saroy bino qildirdi”* [1.75-b.]. Shuni ham aytish kerakki, Nodirabegim oʻz ijodida dastlab **“Komila”** taxallusi bilan keyinchalik esa **“Nodira”** taxallusi bilan ijod qilgan. Bundan tashqari, Fargʻona xalqi mashhur shoirani ardoqlab, **“Nodirai davron”** nomini bergan [1.79-b.].

Shashmaqom turkumida shoiralar nazmi bilan aytilgan koʻplab misollarni keltirish mumkin. Ayniqsa, Munojot Yoʻlchiyeva tomonidan oʻzgacha tarovat bilan ijro etilgan Navo maqomining ikkinchi guruh shoʻbasi tarkibidagi **“Bayot IV”**, xalq orasida juda mashhurdir [5.183-b.]. Mazkur ashula:

**Yoring vasli emas ozorsiz,**

**Gulshan ichra gul topilmas xorsiz,** – soʻzlari bidan boshlanadi.

Bu kabi ayol shoiralar ijodi bilan bogʻlangan maqom namunalarini yana koʻplab misol keltirish mumkin. Jumladan, Boburiylar sulolasiga mansub Gulbadanbegim avlodidan boʻlgan Zebunniso ijodi serqirraligi bilan ajralib turadi [3]. Shoiraning chin insoniylik, pok axloqiy hayot va tabiatga nisbatan muhabbat mavzularidagi ijodi bastakorlarni befarq qoldirmadi. Bu borada Samarqandda tavallud topgan maqomdon hofiz, bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovning **“Samarqand Ushshogʻi”** ijod namunasi isboti boʻla oladi. Bu **“Samarqand Ushshogʻi”** **“Ushshoqi Samarqand”** nomi bilan aynan Hazart Navoiy gʻazaliga Ogahiy muxammasi bilan ham mashhurdir [4.153-b.]. Zebunnisoning **“Biyoki zulfi kaj-u chashmi surmasa injost..”** soʻzlari bilan boshlangan mazkur ashula yoʻlini bastakor el orasida mashhur ashulalardan biri boʻlgan **“Saraxboru Rost”** lad tizimidan foydalanib yaratgan. Bastakorning mohirligi kuy va soʻz uygʻunligini goʻzal ohanglar bilan bogʻlay olganligida boʻlib, goʻyoki ohang va gʻazal bir yaxlitlikdek tasavvur beradi.

Shuni ham aytish kerakki, Zebunniso gʻazali bilan aytiladigan **“Samarqand Ushshogʻi”** Jomiy Sohib muxammasi, Bobur sulolasiga mansub Shohjahonning nabirasi Tojidavlatning gʻazaliga bitilgan muxammas bilan ashula yoʻli oʻzgarmagan holda va **“Ushshoqi Kalon”** nomi bilan ham mashhurdir.

Yuqorida nomlari tilga olingan shoiralarning har biri nafaqat yetuk shoira, balki dunyoviy va diniy bilimlar egasi sifatida oʻz his-tuygʻularini ohanglarda ifoda etgan ayol ijrochilardir. Ularning har biri ojiza boʻlganlari tufayli oʻz davrining siyosiy holatlariga tahliliy baho berishda oʻz ijodlarida oshkorona keskin munosabatlarini koʻrsatganliklari kuzatiladi.

Xulosa oʻrnida aytish joizki, ayollar ijodi nafaqat mumtoz adabiyot tarixida, balki birdek mumtoz musiqa amaliyotida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kasbiy musiqa amaliyotida ayollar nazmi yana koʻp asrlar davomida xalqning yuksak maʼnaviy hayoti va ijtimoiy tarixidan darak berib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov T. Oʻzbek shoiralari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980.
2. Anbar Otin. – T.: “Oʻzbekiston badiiy adabiyoti”, 1963.
3. Zebunniso, Dilshod va Anbar otin. – T.: 1981.
4. Shashmaqom (II-tom). – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1968.
5. Shashmaqom (III-tom). – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1970.

## TANBUR IJROCHILIK MAKTABLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Toshkent-Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Xorazm tanbur ijrochilik maktablari hamda maktablarining buyuk siymolari haqida soz yuritiladi. Bundan tashqari ushbu hududlarda maqomlarning tarixiy va tadrijiy rivojlanish bosqichlari haqida ham ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** tanbur, maqom, an'ana, ijro, cholg'u, zarb, qochirim, nola.

## ШКОЛЫ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО ИСКУССТВА ТАНБУР

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются Ташкентско-Ферганская, Бухаро-Самаркандская, Хорезмская школы исполнения танбура, существующие в нашей стране. Кроме того, приводятся сведения об исторических и постепенных этапах развития статуса в этих регионах. Также обсуждаются великие деятели этих исполнительских школ и инструмент танбур.

**Ключевые слова:** танбур, маком, традиции, исполнение, инструмент, штрихи, мелизмы, удар.

## TANBUR PERFORMING SCHOOLS

**Abstract.** This article discusses the Tashkent-Fargana, Bukhara-Samarkand, Khorezm tanbur performance schools that exist in our country. In addition, information about the historical and gradual development stages of status in these regions is also given. The great figures of these performance schools and the tanbur instrument are also discussed.

**Key words:** tanbur, makom, tradition, performance, instrument, nola.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochildi. Qisqa tarixiy davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosati asoslari yaratilishi bilan birgalikda, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Istiqloq sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayozgan an'analalarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustuvorlik kasb etadi. Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. Ulamolimiz bergan ta'riflardan biriga ko'ra: "Musiqqa inson ruhining ozig'idir. Binobarin, milliy musiqqa ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi va ayni paytda, yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig'idir"<sup>1</sup>.

Musiqqa ilmi va uning asosini tashkil etuvchi milliy musiqqa cholg'ulari haqida, jumladan, tanbur cholg'usi haqida ham arab, fors, turk va boshqa tillarda yozib qoldirilgan musiqiy manbalarda turlicha ma'lumotlar berilgan. Sharq xalqlarida tanbur cholg'usining turli xil nomlarda ataladigan namunalari bo'lib, ular joylashgan muhiti, ijro uslubi, soz, ovoz sadolanishi, parda, lad, ijro etiladigan musiqiy asarlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonda mumtoz musiqqa ijrochiligini tanbur cholg'usisiz tasavvur qilish qiyin.

Tanbur cholg'usi ko'p asrlar davomida og'zaki an'ana ijro uslubida "Ustoz va shogird" tizimi asosida musiqqa ijrochiligida qo'llanib kelingan. 1920-yillardan boshlab O'zbekistonda dastlabki musiqqa maskanlari tashkil etilib, barcha milliy musiqqa cholg'ulari qatori tanbur cholg'usining ijrosi ham o'rganila boshlangan<sup>2</sup>. Keyingi yillarda tashkil qilingan musiqqa muassasalarida negadir tanbur ijrochiligi ta'lim sohasida o'rganilmasdan, faqat maqom ansambllarida qo'llanilib kelindi.

1972-yildan boshlab, Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat Konservatoriyasida (O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi) san'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzullo Karomatov rahbarligida "Sharq musiqasi" kafedrasini tashkil qilinish, milliy musiqashunoslik sohasi asosida mumtoz musiqqa ijrochiligini amaliy va nazariy tomonlari, shu bilan birga ko'pgina milliy musiqqa cholg'ularidan – ud, qonun, tanbur va boshqa cholg'ularning milliy uslubdagi ijrolari qayta tiklanib, hozirgi kunda barcha oliy va o'rta musiqqa o'quv maskanlarining "An'anaviy ijrochilik" va "Xalq cholg'ulari" kafedralarining o'quv rejalariga fan sifatida kiritilib, ularning ijrolari musiqiy ta'lim asosida o'rgatib kelinmoqda.

Tanbur cholg'usi ham o'ziga xos ijro uslubiga ega bo'lib, bugungi kunda an'anaviy va zamonaviy ijrochilik an'analari bor. Bu sozni o'rganish va targ'ib qilish borasida ko'proq maqom asarlari – Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, bastakorlarning maqom yo'llari asosida bastalagan musiqiy asarlari, xalq musiqqa ijodiyotining cholg'u va ashula yo'li ijrolariga xos musiqiy asarlarini, magnit yozuvlari va Yunus Rajabiy, Matniyoz Yusupov va boshqalar notaga olgan maqom asarlarini nota yozuvlaridan keng miqyosda foydalaniladi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Elov. M. Milliy qo'shiqchilik va musiqachilik san'atini rivojlanishining zamonaviy ko'rinishi. "O'zDSMI xabarlari" ilmiy jurnal, 2020/2 (14) – B.40.

<sup>2</sup> Abdulkarimov M. Tanbur navolari. – Toshkent: "Nasaf", 2000. – B.34

<sup>3</sup> Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1963. – B.43..

Yurtimizning har bir vohasi o'ziga xos an'ana va urf odatlarga ega. Xuddi shunday san'ati ham, ijro uslubi ham bir-biridan farq qiladi. Har bir vohaning o'z ijrochilik maktablari bo'lgani kabi tanbur ijrochilik maktabi borasida vohalarning alohida o'ziga xos yo'nalishlari mavjud. Ma'lumki, o'zbek musiqa san'ati to'rt lokal hududlarga bo'linadi. Bular: Toshkent – Farg'ona, Buxoro – Samarqand, Qashqadaryo – Surxondaryo hamda Xorazm. Bu hududlarning uchtasida (Qashqadaryo – Surxondaryo vohasidan tashqari) tanbur ijrochilik maktabi keng rivojlangan bo'lib, shu ijrochilik maktabining buyuk siymolari yetishib chiqqan.

*“Buxoro tanbur ijrochilik maktabi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tanbur cholg'usi vertikal holatda, ya'ni tik ushlanadi. Cholg'u shunday holatda ushlanganda, parda bosish jarayonida barmoqdagi asosiy kuch o'sha pardani sadolantirishga yo'naltiriladi. Buxoro tanbur ijrochilik maktabida asosiy shtrix titrama bo'lib bu tanburni vertikal, ya'ni tikka holatda ushlashni taqozo qiladi. Bunday holatda tanburda to'xtovsiz vibratsiyani ishlatganda ijrochidan ko'p kuch talab qilmaydi va qo'l toliqmaydi. Yakka zarb, pirrang, qo'sh zarb kabilar bilan birgalikda, bilak zarb ham ishlatiladi. Bunda tanbur kosasini ushlab turgan qo'l barmoqlari bo'shatilgan holda bosh va noxun taqilgan barmoq birga yoki birin-ketin harakat qilib, o'ziga xos jarangdorlik paydo qiladi. Noxun asosan xarrakdan yuqoriroqqa uriladi va tanbur ovozi ham o'ziga xos sadolanadi. Bu uslubda yakka zarb ko'proq ishlatiladi va chuqur kashishlar deyarli ko'rinmaydi. Bunga magnit tasmalariga yozib olingan ustozlar ijrolari misol bo'la oladi.*

*Buxoro tanbur ijrochiligida o'zbek, tojik, eron ijro unsurlari uyg'unligini kuzatish mumkin. Bunday baynalminallik ushbu mahalliy uslub tanbur ijrochiligining boshqalardan farq qiladigan eng asosiy jihati. Shuni alohida qayd qilish o'rinliki, an'anaviy tanbur ijrochiligining hududiy shakllari nafaqat ohang shakllantirishda, balki cholg'uda barmoqlarning joylashuvida ham farqlarni ko'rishimiz mumkin. Biz buni Buxoro an'anaviy tanbur ijrochiligi bilan Toshkent-Farg'ona ijrochiligini solishtirganda yaqqol ko'ramiz”<sup>4</sup>.*

Buxoro va Farg'ona – Toshkent ijrochilik maktablarida musiqa cholg'usini yaxshi sado berishi, asarni tanlash, holat, o'ng va chap qo'l harakati, ijro bezaklari va ularni qo'llash mahoratlari, noxunni ko'rsatkich barmoqqa mosligi va boshqa juda ko'p jarayonlarga e'tibor beriladi. Buxoro ijrochilik maktabida chap qo'lning bosh barmog'i birorta bog'langan pardani orqa tomonida bosib turiladi, qolgan barmoqlar esa pastga va yuqoriga sekunda, tertsiya, kvarta intervallarida harakat qiladi. Farg'ona – Toshkent ijrochilik maktabida tanburning dastasi bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasida turadi va qolgan barmoqlar pardalarda harakat qiladi. Ya'ni ijro aynan

dutor ijrosiga o'xshash. Nola, kashish, qochirim kabi ijro bezaklari chap qo'l barmoqlari harakati vositasida hosil qilinadi<sup>5</sup>.

O'ng qo'l tanburda rang-barang musiqa sadolarini hosil qilinishida asosiy vosita hisoblanadi. O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini katta yoki kichikligiga qarab “noxun” nomli temir tirnoq tayyorlab ko'rsatkich barmoqqa kiygiziladi hamda ijro zarblarini bajarishda juda ham harakatchan bo'ladi. Ijro jarayonida o'ng qo'lning jimjiloq barmog'i kosaxonaning ostki qismidan ushlab, ko'rsatkich barmoq tanburdagi ijro bezaklaridan bosh barmoqni noxun vositasidagi pastga va yuqoriga, yuqoriga va pastga, bir zarbli, ikki zarbli, uch zarbli, qo'shnoxun, pirrang, zarbi oro kabi ijro zarblarini sadolanishi ko'rsatkich barmoq harakatiga asoslangan bo'lib, ko'rsatkich barmoq qanday ijro zarblarini ijro etsa, chap qo'l barmoqlari o'shanga mos bir pardada, pardadan yuqoriga yoki pastga qarab harakatda bo'lib, ijro zarblarini sadolanishlarini hosil qiladi.

Toshkent – Farg'ona tanburchilari tanbur dastasini asosan o'ziga qaratib, rubob sozi dastasini ushlagan kabi ushlaydi. Buni eng asosiy sabablaridan biri bu ijro uslubida kashishlar an'anaviy Buxoro ijrochiligiga qaraganda ko'proq qo'llanilishidir. Titroq tovushlar ham Buxoro tanbur ijrochiligidagi titroqqa nisbatan sustroq ijro etiladi. Shuningdek, Buxoro tanbur ijrochiligida noxun xarrakka yaqinroq tarzda simga uriladi. Ba'zan noxun xarrakka juda taqalgan holatdagi ijro uslublarini ham kuzatishimiz mumkin. Ta'kidlash lozimki, an'anaviy xonandalarning ba'zilarida ovoz o'ynatish holatlari (buni biz qochirim yoki bezash deymiz) me'yorida oshib ketadi. An'anaviy tanbur ijrochiligida mavjud ba'zi xususiyatlarning paydo bo'lishiga shunday holatlar ta'sir qilgan. Aytaylik, Buxoro tanbur ijrochiligiga qaraganda Toshkent-Farg'ona tanbur ijrochiligi eshitalishda dardliroq sadolanadi, chunki Toshkent – Farg'ona hofizlarida nolakorlik ko'proq kuzatiladi. Buxoro tanbur ijrochilik maktabida kuyni chiroyli ijro etish asosan namudlar hisobiga amalga oshiriladi. Bu albatta barcha hududiy uslublarda bor, lekin o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan hofizlar ko'p hollarda ovozga jo'r bo'layotgan paytda noxunini xarrakdan biroz yuqoriroqda sadolantirishsa, asarning kuy bo'lagida esa noxunni xarrakni tagida urishadi. Bunday chertganda ovoz uzoqqa boradi va chingillab chiqadi. O'ziga xos yaxshi ma'nodagi shang'ilik paydo qiladi.

Tasma yozuvlarga murojaat qilsak, usta Ro'zmat Isaboyev ijrosida Buxoro ijro maktabiga yaqinlik kuzatiladi, ya'ni yakka zarb ijrosi juda kuchli bo'ladi. Balki bizgacha bo'lgan 100-150 yil ilgari Toshkent – Farg'ona an'anaviy tanbur ijrochilik nolakorlik va serqochirimlilik yoki xarrakni tagiga noxun urib chalish holatlari bo'lmagandir, chunki maqom va maqom yo'lidagi asarlarni ijrosi deyarli barcha lokal hududlarda bir xil amalga oshirilgan, desa bo'ladi. Albatta taraqqiyot shunday darajaga olib keldiki, Toshkent – Farg'ona an'anaviy tanbur ijrochiligida bu uslub rivojlanib bordi va xuddi shu uslubda

<sup>4</sup> Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. – Т.: 1972. – С.57.

<sup>5</sup> Abdulkarimov M. Tanbur navolari. – Т.: “Nasaf”, 2000. – Б.24.

bir qancha maktablar paydo bo'ldi. Xususan, Ro'zmatxon Isaboyev maktabi, Mo'ydin hoji maktabi, Shodmon hoji maktablari fikrimizning dalili. Mana shu maktablarni eng mukammal va chiroyli, eng in'ikosi o'laroq Toshkent – Farg'ona an'anaviy tanbur ijrochiligidagi Turg'un Alimatov maktabi paydo bo'ldi, bu maktab bugungi kunda ham juda mashhurdir. Albatta har bir narsaning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Bu maktabning salbiy tomoni shundaki, boshqa ijrolar o'sha ijroni soyasida qolib ketdi. Bu tabiiy hol, albatta. Turg'un Alimatov yaratgan maktab, bu hamma uchun maqbul va tushunarli maktab. U o'z ijrosida kashishlarni chuqurroq ko'rsatishga alohida e'tibor qaratdi. Avvallari yarim parda, kamdan-kam holatlarda bir parda miqdorida kashishlar amalga oshirilgan bo'lsa, endi ana shu bir parda darajasida amalga oshirildi va o'sha ta'limot asosida bu bir yarim parda darajasiga ham borib yetdi. Nazarimizda, Hindistondagi setor sozini o'ziga xos tomonlarini tanbarga singib borishidir. Turg'un Alimatovning ulug'ligi shundaki, mana shu narsalarning hammasini o'zbekona tarzda xalqimizga yetkazdi.

Turg'un Alimatov ijodiga chuqur nazar solgan odam, u o'zidan oldingi ustozlar ijrosiga ko'p murojaat qilganini sezadi. Masalan, "Surnay navosi"ning Jo'rabek Saydaliyev yo'lidagi, yoki "Qo'shchinar"da Otavali Nuriddinovning ijro uslubini ko'ramiz. Shuningdek, Turg'un Alimatov ijrosida kamonli sozlarga xos ba'zi unsurlarni uchratamiz. Dutor va tanbur ijrosidagi "Dutor ajami" kuyida qo'l barmoqlarni xuddi kamon ijrochiligidagi harakatga o'xshashligini ko'ramiz. Chunki u tanbur, dator, kamon, g'ijjak ijrochiligidagi eng yaxshi va go'zal unsurlarni puxta bilgan. Shuning uchun ham nafaqat asrning eng yaxshi tanburchisi, balki asrning eng yaxshi satochisi, deb ham tan olingan. "Shuni ham ta'kidlash joizki, Jo'raxon Sultonovlarning tanburda ijro etgan "Sodirxon Ushshoq"lariga e'tibor beradigan bo'lsak, unda Buxoroga xoslikni ko'ramiz. Birdaniga zarb berib, keyin sekin zarblar bilan chalish va barmoqni titrab turishlarida Buxoroga xoslik namoyon bo'ladi"<sup>6</sup>.

Bu uslublar nafaqat ijroda, balki tanbur pardalari bog'laminu joylashuvida ham aks etadi. Masalan, ilgari Buxoro tanburchilarining tanbur pardalari joylashuvi Toshkent – Farg'ona tanburlaridagi parda joylashuvidan kichik bir millimetrga bo'lsa ham farq qilgan. Bu ijro urflari xilma-xilligidan kelib chiqadi. Umuman tanbur pardalari shundayki, bir hofizning tanburini ko'p hollarda ikkinchi hofiz chala olmaydi. Chunki pardalarda, ma'lum darajada o'rnamshuvidagi

farqlar mavjuddir. Tanbur xonandaning ovozi tarbiyalaydi. Har qanday xonanda ijrosi davomida tanbur soziga tayangan holda soz va ovoznining uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Tanbur xuddi g'ijjak, sato, surnay kabi inson ovozigacha yaqin sozlardan biridir.

Xorazm tanbur ijrochilik maktabini Xorazm maqomlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xorazm maqomlari ijro etishda tanbur cholg'usi alohida e'tiborga ega. Xorazm maqomi XVIII–XIX asr boshlarida Shashmaqom va Xorazm musiqiy an'analari negizida shakllanib, keng rivojlangan. Turkum tarkibi **Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh** maqomlaridan iborat bo'lib, har bir maqom o'z navbatida Shashmaqomga o'xshash ikki bo'limdan tashkil topgan. *Cholg'u bo'limi* – Chertim yo'li yoki Mansur; *Ashula bo'limi* – Aytim yo'li yoki Manzum, deb ataladi. Xorazm maqomlari turkumi ikki yuzga yaqin cholg'u va ashula yo'llarini qamrab olgan. Xorazm maqomlari Shashmaqom kabi ustoz-bastakorlar mahsulidir<sup>7</sup>.

Shashmaqom asarlari qadimdan og'zaki an'ana uslubida ijro etilgan bo'lsa, 1920-yillardan keyin "**Shashmaqom**" ijrolari dastlab V.A.Uspenskiy, Ota Jalol, Ota G'iyoslar ijrolarida notaga olib, tanburning sozlanishi ko'rsatilmagan, lekin musiqiy asarlar ijrolari bas kalitida berilgan<sup>8</sup>. Shashmaqomning birinchi Buzruk maqomini o'zbek tilidagi ijrosida tanburning sozlanishlari bas kalitida musiqiy ijro asarlar esa skripka kalitida berilgan. Shashmaqomning birinchi Buzruk maqomini tojik tilidagi ijrosida tanburning to'rt xil sozi va tovush qatori bas kalitida berilgan bo'lib, musiqiy asarlarning ijrolari skripka kalitida berilgan<sup>9</sup>. Is'hoq Rajabov "**Shashmaqom**" asarlarini nazariy jihatdan tahlil qilar ekan, tanbur so'zi haqida ham ma'lumot bergan<sup>10</sup>.

"**Shashmaqom**" asarlari ijrolaridagi sozlanishlarida "**sol-re-sol**" tovushlariga asos hisoblansa, Xorazm maqomlari ijrolarida tanbur sozlanishlari tubdan farq qiladi. Uch torli tanburning sozlanishlari bir ton baland, ya'ni katta sekunda yuqori bas kalitida "Iya-mi-Iya" tovushlari asos qilib olingan. Lekin musiqiy asarlar ijrolari skripka kalitida berilgan<sup>11</sup>. Biz maqom asarlari ijrolarida berilgan tanbur sozlanishlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishdik. Faqat V.A.Uspenskiy notaga olgan "**Shashmaqom**" ijrosida tanburning sozi va tovush qatori katta oktava sadolanishda to'g'ri berilgan bo'lib, qolgan notaga olingan Shashmaqom asarlari ijrolarida tanburning sozlanishlari bas kalitida musiqiy asarlar ijrolari skripka kalitida yozilishi haqida hech qanday izoh berilmagan.

N.Mironov ham tanbur cholg'usini uch xil sozlanishi haqida ma'lumot berib, musiqiy asarlar ijrosida Buxoro tanburnovzlari nay sadolanishlarini asos qilib olib, tanburlarni – g'arav nay: "**Iya-mi-Iya**", yog'och nay: "**Iya-bemol, mi-bemol, Iya-bemol**", mis nay: "**sol-re-sol**" ovozlariga sozlashgan<sup>12</sup>. Demak, Buxoro Shashmaqom asarlarining ijrosida tanburni mis nay: "**sol-re-sol**" tovushlariga, Xorazm maqomlari ijrosida esa tanburni g'arav nay: "**Iya-mi-Iya**" tovushiga sozlanishlari asos qilib olingan.

<sup>6</sup> Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1963. – B.64.

<sup>7</sup> Yunus Rajabiy. Shashmaqom (1-jild). –T.: 1966. – B.12.

<sup>8</sup> Издание. Народного Назарата Просвещения. Бух республика. 1924

<sup>9</sup> Fayzullaev B., Sohobov Sh., Shahobov F. Shashmaqom. – Moskva: 1950. – B.19–29.

<sup>10</sup> Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1963. – B.64.

<sup>11</sup> Миронов Н. Музыка узбеков. – Самарканд: 1929 – С.12.



Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon xo'ja, Feruz, Komil Xorazmiy, Muhammadrasul mirzo, Matyoqub xarrat va boshqalar maqomlarga yangi cholg'u qismlar bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar. Kuy tuzilishi, lad asoslari saqlangan holda Xorazmga xos musiqiy uslublarda ijro etilib kelingan. Xorazm maqomlarining Chertim yo'li tarkibiga **"Tanimaqom"**, **"Tarje"**, **"Gardun"**, **"Muxammas"**, **"Saqil"** qismlaridan tashqari **"Peshrav"** va **"Ufar"** qismlari kirgan. Aytim yo'li tarkibiga **"Tanimaqom"**, **"Talqin"**, **"Nasr"** va **"Ufar"** qismlari va faqatgina **"Tanimaqomni"** bog'lovchi **"Taronalar"** yetakchi xonanda tomonidan tanbur cholg'usi yoki cholg'u ansambli jo'navozligida ijro etilgan. Ularga turdosh bo'lgan Xorazmga xos "Suvora", "Naqsh", "Faryod", "Muqaddima" kabi ashula yo'llari ham aytilib kelingan (aytim yo'llarida mumtoz sharq shoirlari Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Feruz, Avaz O'tar, Atoiy va boshqalarning ishqiy lirik, falsafiy, nasihatimiz she'rlaridan foydalanilgan).

*"Buxoro maqomlari bilan qiyoslaganda, Xorazm maqomlarida ba'zan ashula yo'llarining doyra usullari, kuy yo'llari ixchamlashtirilib olingan va biroz usul sur'ati tezlashtirilgan yoki soddalashtirilgan. Xorazm maqomlaridagi kuy va ashula yo'llarida avjlar ham katta o'zgarishlarga uchragan. Ammo Xorazm maqomlari mazmunan va usluban, shaklan va ijrochilik madaniyati nisbatan mustaqil ahamiyatga*

*molikdir"*. Ushbu maqom turkumi voha ijrochilik an'analari bo'yicha yakkanavozlik tarzida erkin va badihago'ylik ravishda aytilgan. Xorazm maqomlari XIX asrning oxirgi chorag'ida Xiva xoni bo'lmish Muhammad Rahimxon Soniy tashabbusi bilan Komil Xorazmiy kashf etgan "Tanbur chizig'i"da uning o'zi va o'g'li, Muhammad Rasul Mirzaboshi tomonidan to'la (tanbur va dutor maqom turkumlari) yozib olingan va ijrochilik amaliyotida, "ustoz-shogird" maktablarida XX asrning 40-yillarigacha qo'llanib kelingan<sup>13</sup>.

Hozirgi nota yozuvida Xorazm maqomlarining Chertim yo'llari Ye.Romanovskaya tomonidan (Xorazm klassik musiqasi. Toshkent, 1939), M.Yusupov tomonidan Chertim va Aytim yo'llari (Xorazm maqomlari. Toshkent, 1958), (Xorazm maqomlari (uch tomlik besh kitobdan iborat alohida to'plam) Toshkent, 1978–1991) yozib olingan. **"Xorazm tanbur chizig'i"** nota yozuviga V.Belyayev, I.Akbarov, O.Bobonazarov, R.Boltayev, B.Rahimovlar tomonidan o'tkazilgan (O'zbek notasi. Toshkent: YUNESKO, 2007).

Xorazm maqomlari haqida gap ketganda, albatta, tanbur cholg'usi tilga olinadi. Xorazm maqom ijrochiligida tanbur cholg'usi eng asosiy va betakror sanaladi. Tanbur qopqog'iga urib chalishlar, ba'zi hollarda asosiy barmoqlar tor ustida turganda qolgan barmoqlarning usul berib turishi aynan Xorazm ijrochilik maktabiga xos sanaladi.

<sup>13</sup> Rasulov J.K. O'zbek dutor ijrochiligi. – Toshkent: "Musiqqa", 1997. – B.54.



## III BO' LIM

# SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Jo'ra SHUKUROV,  
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasini professori,  
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi,

## M.P. MUSORGSKIYNING "KO'RGAZMADAGI SURATLAR" MUSIQIY ASARIGA CHIZGILAR

**Annotatsiya.** XIX asr ikkinchi yarmida rus musiqasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan mashhur rus kompozitori M. Musorgskiy o'zining opera va pyesa kabi asarlarida Rossiya tarixida bo'lib o'tgan fojiali voqealarini musiqiy bo'yoqlar asosida ochib berishga harakat qildi. Buyuk kompozitor zamondoshi, o'z davrining taniqli rassomi Viktor Gartman asarlari asosida fortepiano uchun yozgan "Ko'rgazmadagi suratlar" nomli turkumli pyesalarida aynan rus xalqining tarixiga oid ma'lumotlar kelganligini ko'ramiz.

**Kalit so'zlar:** qudratli to'da, kompozitor, rassom, portret, manzara, romans, pyesa, turkum.

## ШТРИХИ МУЗЫКАЛЬНОМУ ПРОИЗВЕДЕНИЮ М.Р.МУСОРГСКОГО «КАРТИНКИ НА ЭРМИТАЖЕ»

**Аннотация.** В данной статье речь идёт о знаменитом композиторе М. Мусоргском, который раскрыл в своих произведениях трагические события русской истории с помощью новых красок в своей музыке, а также о фортепианных пьесах, посвящённых произведениям художника Виктора Гартмана.

**Ключевые слова:** могучая кучка, композитор, художник, портрет, пейзаж, романс, пьеса, цикл.

## DRAWINGS FOR M.P. MUSORGSKY'S "PICTURES AT THE EXHIBITION"

**Abstract.** This article is about the famous composer M. Mussorgsky who talks tragic events of Russian history in his operas with the help of new colors as well as piano pieces which dedicated to the work of artist Victor Hartman.

**Key words:** mighty handful, composer, artist, portrait, landscape, romance, play, cycle.

Kompozitorlarning xalq orasida keng tarqalgan va juda ham mashhur bo'lgan musiqiy asarlarining aksariyati tasviriy san'atda ijod etilgan nodir chizgilar asosida dunyoga kelgan edi. Jumladan, Modest Petrovich Musorgskiyning "Ko'rgazmadagi suratlar" nomli fortepiano ijrochiligi uchun yaratilgan turkum asarida kartinkada ifodalangan obrazlar musiqa ohanglari orqali aniq ochib berilganligi bilan alohida ajralib turadi. Kompozitor ushbu asarni 1874-yilda yozgan edi. U buyuk rus me'mori va rassomi Viktor Gartman asarlaridan tashkil etilgan ko'rgazma tomoshasida bo'lgach, ana shu kartinkalar asosida fortepiano uchun turkumdan iborat pyesa yozish istagi tug'ildi va shu yilning bahorida "Ko'rgazmadagi suratlar" nomli pyesasini ijod qildi.

M. Musorgskiy yosh rassom Viktor Gartman bilan ilk bora taniqli rus musiqa va san'at tanqidchisi, tarixchi va jamoat arbobi Vladimir Stasovning (1870-yil) uyida tanishgan edi. Tez orada ular yaqin do'st bo'lib qoladilar. Biroq yosh iste'dodli rassom Viktor Gartmanning o'limi Musorgskiyga benihoya qattiq ta'sir qiladi va 1874-yilning fevral-mart oylarida

V. Stasovning tashabbusi bilan Peterburg me'morlari jamiyati yordamida Imperator Badiiy akademiyasida V. Gartman xotirasiga bag'ishlab, uning o'n besh yillik umri davomida yaratgan asarlari asosida to'rt yuzga yaqin ishlaridan iborat ko'rgazma tashkil etiladi. Ko'rgazmada V. Gartmanning chizgan suratlari, akvarellari, me'moriy loyihalari, teatr dekoratsiyalarining eskizlari va liboslari hamda badiiy buyumlar eskizlari munosib o'rin olgan edi. Shu bilan birga rassomning o'zi yasagan "Yong'oq chaqadigan ombur", "Tovuq oyoqli uy ko'rinishidagi soat" va uning chet el sayohatlaridan olib kelgan loyihalaridan bir nechtasini ko'rgazmada uchratamiz. Rassom V. Gartmanning asarlarida – maishiy suratlar, tabiiy manzaralar, rus xalq afsonalarining obrazlari hamda inson xarakterini ifodalovchi chizgilarni qamrab oladi. Shu bois mazkur turkum asarlarni (10 ta) ma'no jihatdan birin-ketin bir-birini to'ldirib turadigan turkumiy asarlar, deyish mumkin.

Ta'kidlash joizki, ushbu turkum asarlar kompozitor M. Musorgskiyning o'ziga rom etdi va natijada ko'rgazma galereyasini fortepiano ijrosidagi musiqiy ohanglar orqali tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.



Kompozitor asarni qisqa muddat ichida (21 kunda) yozib tugatdi va turkum tarkibiga kirgan ayrim "suratlar" muallifning o'zi tomonidan ijro ham etilgan edi.

Shuni alohida aytish joizki, M.Musorgskiy V.Gartman asarlarining obrazlari orasidagi bog'lovchi lavhani "**Sayr**" deb nomlaydi. Unda Musorgskiy o'zini ko'rgazmada sayohat qilayotganligini va sayohat paytida bir eksponatdan ikkinchi eksponatga o'tayotganligini o'zining musiqasida ifoda etadi. Asarning bosh mavzusi "**Sayr**" deb nomlanib, unda rus xalq ohanglari o'ziga xos tarzda bayon etiladi. Asar davomida "**Sayr**" musiqasining xarakteri goh erkin, goh jo'shqin, goh o'ychan va iztirobli (zerikarli), hatto, sirli tarzda yangraydi. Buning boisi, har bir qismning mohiyati turfa harakter bilan bevosita bog'liq holda ochib beriladi. Shu o'rinda musiqiy asarning har bir qismlariga to'xtalib o'tamiz.

Jumladan, Gartman o'zining birinchi kartinkasida kichik gnom ko'rinishidagi yong'oq chaqadigan omburni eslatuvchi archa o'yinchog'ini tasvirlaydi va uni "**Gnom**" nomi bilan ataydi. Kompozitor, ya'ni Musorgskiy esa pyesada archa o'yinchog'iga qaraganda, inson qiyofasida yovuzroq obrazni ifodalaydi. Biroq Gnomning afsonaviy va sehrli qiyofasini saqlab, gnomning chuqur qayg'usi va pushaymonligini aks ettiradi. Uning gnom obrazi F.Listning "**Gnomlar xorovodi**" yoxud E.Grigning fortepiano uchun yozgan 5-daftarining "**Lirik pyesalari**"dagi "**Gnomlar yurishi**" pyesalariga qaraganda g'azabli tarzda tasvirlanadi. Dinamik tuslar, registr va unisonida jaranglaydigan akkordli tuzilmalar ham bir-biri bilan qarama-qarshi holda harakatlanadi.

Ikkinchi kartinkada V.Gartmanning Yevropa sayohatlari taassurotlari natijasida chizilgan, ya'ni "**Eski qasr**" deya nomlangan suratida qasrning hajm jihatidan kattaligini tomoshabinga yetkazib berish maqsadida, rassom uning zamirida lyutnya ushlab turgan xonanda – trubadurning suratini ham qo'shib chizadi. Ayni mana shu suratda tasvirlangan xonanda (trubadur)ning holati va xarakteri Musorgskiyning musiqasida g'am va umidsizlikka to'la qo'shiq kuylayotgan trubadur, "**Eski qasr**" suratining tungi tomoshasi-yu hamda o'zining xotirjamligi bilan o'zgalarni maftun etuvchi xarakterini tasvirlaydi.

O'tgan kunlar haqida qayg'urish bilan g'amgin xotiralar soyasida yorqin umid uchquni namoyon bo'ladi. Sog'inch tuyg'ulari va melanxoliyalik xarakterga boy bunday ohang go'yo o'tmishni eslatishga qaratilganday, qasrdagi hujumlar va askarlar esa uzoq o'tmishda qolganligini eslatganday jaranglaydi.

Gartmanning uchinchi surati bo'lmish "**Tyulyeriy bog'i**" o'zidan oldingi pyesalardan keskin farq qiladi va kompozitor Musorgskiy asarida o'zining to'laqonli ifodasini topgan bo'lib, unda bolalarning Parij bog'larning biridagi o'yinlarini ifodalaydi. Ushbu musiqada to'laqonli ro'shnolik va quvonch hukm suradi. Musiqadagi suratning tezligi, ajoyib urg'ulari asosan yuqori registrdagi majorladi yozning yorqin kuni zamirida bolalarning yaxshigina sho'x va jonli o'yinlarini aks etadi.

Mazkur musiqiy asarni tinglagan tomoshabinning ko'z o'ngida xuddiki, fransuz bog'i yo'laklarida bir necha shumtaka bolalar zavq-shavqqa to'lib-toshib o'yin o'ynab, xursandchilik qilishayotganlari gavalanganday tuyuladi. Bolalikning yorug'li umidlarga boy nurlil hayoti musiqiy ohanglarda boshqa pyesalar bilan keskin kontrastni tashkil etadi.

Turkumning navbatdagi to'rtinchi qismi "**Eski arava**" (Bidlo Polyak tilidan olingan bo'lib, rus tilida qoramol ma'nosini anglatadi) deb nomlanib, u g'amgin va motamsaro xarakterga ega bo'lgan turli-tuman ijodiy namunalarda yangrab turadigan eng mashhur kuylardandir. Ta'kidlash joizki, kompozitorning mazkur asari bugungi kunda hayotning baxtsiz qirralarini ko'rsatib berish maqsadida turli film va badiiy asarlarda qo'llanib kelinmoqda. Qayg'uli dehqonlar ohanglari singari ijro etilayotgan ushbu musiqa og'ir ritmlarga asoslangan va zulmatli xarakterga ega bo'lib, xuddiki, ho'kizning minorga o'xshagan og'ir tuyoqli qadamlarini eslatganday bo'lsa, aravada o'tirib ho'kizlarni haydayotgan dehqon obrazini charchoq holda ekanligini va asar jaranglashi davomida arava uni kuzatib turgan odamga yaqinlashayotganligi tasvirlanadi. Asarning avj nuqtasida aravakash o'zining g'amgin o'tib ketishi bilan tepalik ortida g'oyib bo'lib ketishi tasvirlanadi. Pyesada dehqonlar hayotining murakkab va cheklanishlarga to'la o'y-xayollari hamda qayg'uli xotiralarini o'ziga xos tarzda bayon etiladi.

Gartman keyingi qismda “**Ochilmagan jo‘jalar raqsi**” suratida endigina tuxumni yorib chiqayotgan jo‘jalar raqsi aks ettiriladi. To‘liq yetilmagan jo‘jalarni aks ettirish uchun kompozitordan kuchli mahorat va malaka talab



etiladi. M.Musorgskiy jo‘jalarning xarakterini musiqa ohanglarda ochib berishda keng qamrovli fantaziyalar orqali o‘ta ustalik bilan ochib bera oldi.

Mazkur surat kompozitor Yuliy Gerberning 1871-yilda Katta teatrdan mashhur baletmeyster Marius Petipa tomonidan sahnalashtirilgan “**Trilbi**” baletidagi eskizlarni va yosh balet ijrochilarining xarakterli raqsini o‘zida namoyon etadi. Bu qismda ham musiqiy xarakter o‘zining tez va jo‘shqinlik holatda yuqori registrda jaranglaydigan sekundalarning akkordlar bilan intiluvchan tarzda galma-galdan kelishi tufayli keskin o‘zgarib boradi.

M.Musorgskiy ushbu suratni musiqa ohanglari orqali ifodalashda yuqori va o‘rta registrlarda jonli hamda yengil yangrovchi musiqiy mavzuni tanlaydi. O‘yinqaroq forshlaglar, arpedjioli passajlarga, sirliklik xususiyatini baxsh etuvchi sekundli ohanglarga boy bo‘lgan ohang hali tuxumidan chiqib ulgurmagani jajjigina, chaqqon mavjudotlarni tasvirlashga harakat qiladi.


Asarning keyingi “**Ikki yahudiy**” deya nomlangan qismida rassom boy bilan kambag‘al orasida bo‘lib o‘tayotgan jarayonlarni izohlaydi. M.Musorgskiy inson xarakterini ohanglar orqali ifoda qiladi. Qayd etish lozimki, garchi asar davomida xonandaning ijrosi bo‘lmasa-da, kambag‘alni kamsitilgan va unga nisbatan boyning o‘dag‘aylagan qo‘pol muomalasi fortepiano ohanglari orqali naqadar haqiqiy va jonli tarzda bayon etiladi. Kompozitorning ustaligi shundaki, boyning ovozi hukmdorlik va hal qiluvchi xarakterini ifodalashda bas tovushlarni tanlagan bo‘lsa, unga qarama-qarshi bo‘lgan kambag‘alning ovozi uchun esa mutlaqo kontrast keluvchi o‘ta ohista va pichirlovchi, yuqori registrdagi uzuluvchan xarakterdagi ohangni ishlatadi. Natijada, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani o‘ta mohirona bajarishga muvaffaq bo‘ladi.

Turkumning navbatdagi qismi “**Limoj bozori**” (Limojskiy rinok) deb nomlangan bo‘lib, rassom bu yerda ko‘plab odamlar yig‘ilgan g‘ala-g‘ovurli bozorni tasvirlagan. Bu qismda kompozitor dengiz bo‘yi bozorida odamlarning tiqilinchdagi turli suhbatlar, qiyqiriq-u qichqiriqlar, bayramona kayfiyatlarini musiqiy pardalar va ohanglar orqali tasvirlab beradi.

Musorgskiyning navbatdagi turkumidagi “**Katakombalar**” asari V.Gartmannning “**Rim katakombalari**” asosida yaratilgan edi. Bu asarda musiqa muallifi ohista va keskin jaranglaydigan hamda aks-sadoning jarlik (labirint) tomon g‘oyib bo‘ladigan akkordlarni to‘satdan o‘zgarib turishlarini, to‘satdan

tomchilaydigan sovuq suvning xunuk tovushi, burgutlarning johilona jaranglaydigan qichqiriqlarini mohirona ishlatganki, buday holatdagi uzundun-uzoq tovushlarni eshitib turgan tinglovchining ko‘z o‘ngida yerto‘ladagi sir-sinoatga boy bo‘lgan dahshatli sukunatni, g‘ira-shira shu‘la tarqatayotgan chiroq va devorlardagi turli-tuman chizgilarni vahima orqali tasavvur etmasdan iloj qolmaydi.

Ko‘rgazmadan joy egallagan navatdagi surat “**Tovuq oyog‘idagi uy**” deb nomlanib, unda yalmog‘iz kampirning obrazi tasvirlanadi. Bu surat mazkur pyesada yalmog‘iz kampirning yovuz fe‘l-atvori g‘ayritabiiy qora bo‘yoqlarda ko‘rsatilgan bo‘lsa, uning sodda, hiyla-nayrangli va hazilomuz qiliqlari esa yorqin bo‘yoqlarda ifodalanadi.



Rassom tomonidan bu uyda chizilgan soat xonani afsonaga aylantirgan bo‘lsa-da, M.Musorgskiy tasvirlangan mavzuni o‘zgartirishga ahd qiladi. U asosiy urg‘uni soat tasvirlangan tovuq oyoqli uyga emas, balki yalmog‘iz kampirga beradi. Yalmog‘iz kampir odatdagidek bir hushtak chaladi-yu, o‘zining yovuz odatlarini amalga oshirish uchun uchib boraveradi. Musorgskiy o‘z fantaziyasi doirasini yanada kengaytirib, yalmog‘iz kampir obrazini nafaqat tovuq oyoqda yashashini, balki o‘g‘irda uchishini ham musiqiy ohanglar yordamida tasvirlab berishga imkon topadi.

“Ko‘rgazmadagi suratlar” turkumga xotima yasovchi “Qahramonlar darvozasi” pyesasi boshqa kartinalardan o‘zining salobatliliigi va tantananavorligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu qismdagi musiqani kompozitor V.Gatmannning “Kiyevning shahar darvozasi”, ya‘ni 1866-yilning 4-aprelida imperator Aleksandr II ga qilingan suiqasddan omon qolganligi munosabati bilan qurilishi kerak bo‘lgan arxitektura loyihasi eskizining ta‘siri ostida amalga oshiradi. O‘zining garmonik holati va ohanglari bilan bu qismdagi musiqalar qanchalik rus xalq qo‘shiqlarini eslatsa, turkumning boshlanish qismida ko‘rsatilgan “**Sayr**” qismini ham shunchalik eslatib turadi. Kompozitor turkumining yakunlovchi pyesasi butun asarning intonatsion, dinamik, fakturali avjini tashkil etadi. Kompozitorning o‘zi asar xarakterini tantanali va ulug‘vor deb belgilaydi.

Pyesa mavzusi “**Sayr**” kuyining bayramona bir varianti bo‘lib, butun asarni bayramona va quvnoq, qo‘ng‘iroqlarning kuchli yangrashi bilan yakunlaydi.

M.Musorgskiy qalamiga mansub betakror musiqiy manzaralar turkumi vujudga keldi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, bu ohanglar kompozitor ko‘rgan suratlarini qisman tasvirlaydi, xolos. Chunki, kompozitorning erkin ijodiy fantaziyasi mahsuli asosan pyesalar edi. U “**Ko‘rgazma**”ga asos qilib,



V.Gartmannning chet elda yaratgan suratlarini va rus mavzusiga oid ikkita eskizini tanlaydi. Afsuski, ko'rgazmaga qo'yilgan ishlarning sotilib ketilganligi sababli, bugungi kunda shunday noyob asarlarning aksariyati qayerdaligi

noma'lumdir. Turkumda tasvirlangan suratlarning faqatgina oltitasini qayta tiklash mumkin, xolos.

M.Musorgskiy syuitani ijod qilar ekan, "**Viktor Gartman haqida xotiralar**" deya nomlagan edi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, kompozitor rassom V.Gartman bilan Stasovning uyida tanishgani bois syuitani keyinchalik Stasovga bag'ishlaydi. Chunki u rassom V.Gartman bilan tanishganiga Stasov sababchi ekanligi uchun undan juda ham mamnun bo'lgan edi. Qolaversa, M.Musorgskiy Stasovning taklifiga binoan rassomning ko'rgazmalariga borgan edi. Mana shu mamnuniyatlikni bildirish istagida bo'lsa kerak, Stasovga bir muddat o'tgan ushbu pyesani unga bag'ishlaydi. Mazkur pyesalar turkumi 1874-yilning yozida nashrga tayyorlangan bo'lsa-da, M.Musorgskiyning vafotidan so'ng (1886-yil) nashr etilgan edi. Ajoyib va betakror asarning pianinochilar dasturiga kiritilishiga ham yana bir necha yillar kerak bo'ldi.

M. Musorgskiyning ushbu syuitasini, bimalol o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan dasturiy, ya'ni programmali musiqaning yorqin namunasi, deya olishimiz mumkin. Chunki asarda hayotiy voqealar ertak, fantastik va o'tmish xotiralar bilan o'zaro uyg'unlashgan tarzda qo'shilib ketadi. Asardagi rus xalq qo'shiqlarini eslatuvchi "Sayr" mavzusi syuita davomida bir necha marotaba qayta-qayta takrorlanib borar ekan, aynan mana shu ohang orqali o'zini bir suratning tomoshasidan, ikkinchi surat tomoshasiga o'tayotganligini tasvirlaydi. "**Mening qiyofam intermediyalarda ko'rinadi**", – deb yozgan edi muallif o'z do'sti V.Stasovga. Ko'pchilik intermediyalarda melodik harakat vazmin ijro etiladi va u muallifning yurishini taqlid qiladi. Kompozitor tomonidan bastalangan "**Sayr**" musiqasi Gartman

suratlari talqinining birontasiga ham o'xshamaydi. "Muallifdan" bo'lgan bu musiqiy satrlar mazkur albomni ajoyib tarzda, bitta badiiy yaxlitlikka birlashtiradi. Turkumning keyingi o'n ta pyesasi aynan rassom Viktor Gartman ijodining ifodasini musiqada namoyon etadi. Aytish joizki, ularning har biri rang-barang ohanglar orqali tanlangan obrazni keng va to'laqonli ochib berishga yo'naltirilgan. Suratlar tinglovchining ongiga kompozitor nigohi va tasvuri orqali yetkaziladi, desak xato bo'lmaydi.

"**Ko'rgazmadagi suratlar**"ning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ichki yaxlitlik, ya'ni kompozitorning rassom olamini ifodalashga bo'lgan yondashuvidir. M.Musorgskiyning betakror asariga o'xshash musiqiy ohanglarni biz Yeropada va hattoki, rus musiqasida ham uchratmaymiz.

Musorgskiy o'zining "Suratlar" asarini yaratar ekan, I.S.Bax kabi real hayotdagi tarbiyaviy obrazlarni yaratishga intilgan edi. Mazkur turkumli pyesalar buyuk rus kompozitori P.I.Chaykovskiy hamda I.Shtrausni ham ilhomlantirgan edi. "Ko'rgazmadagi suratlar" asarida kompozitor beixtiyor bolalar musiqasiga ham e'tibor qaratganligining guvohi bo'lamiz. Asarda xalqning turmush tarzi va afsonaviy hikoyalari cholg'ular ijrochiligi orqali ko'rsatib beriladi. Bu ijrolar o'z o'rnida ham qiziqarli, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Yillar davomida M.Musorgskiyning pyesalariga bo'lgan qiziqish tobora ortib bordi. Asardagi obrazlarning yorqinligi, ularning tasviriyligi, fortepiano "bo'yoqlari"ning o'ziga xos uslubda yangrashi orkestrga moslashtirishga turtki berdi. Jumladan, N.Rimskiy-Korsakov arxivida turkum qismlaridan biri, "Eski qasr"ning orkestrlashtirilgan qog'ozlari saqlanib qolingani ma'lum bo'ldi. Keyinchalik bu turkumni kompozitor R.Korsakovning shogirdi M.Tushmalov orkestrga qayta moslashtirdi. 1922-yilda Musorgskiy ijodining ashaddiy muxlisi, fransuz impressionisti, kompozitor Moris Ravelning ham "**Ko'rgazmadagi suratlar**" syuitasining ajoyib orkestrlashtirilgan talqini tez orada konsert estradasini zabt etadi va M.Musorgskiyning fortepiano talqini singari mashhur bo'ladi.

Bugungikunda M.Musorgskiyning "**Ko'rgazmadagi suratlar**" asari jahondagi ko'plab pianinochilarning konsert dasturlaridan munosib o'rin egallagan. O'zbekiston fortepiano ijrochiligi maktabida ham mazkur turkum bugungi kunda o'ziga xos alohida o'ringa ega bo'lib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Римский-Корсаков Н.А. Летопись моей музыкальной жизни. – Москва: 1980. – С.65.
2. Каратыгин В.Г. Жизнь. Деятельность. – Ленинград: 1927. – С.152.
3. Асафьев Б. Безграмотень ли Мусоргский? // Современная музыка. 1927. №22. – С.277.
4. Стравинский И. Публицист. Собеседник. // Сост. Варунц В.П. – М.:1980. – С.130
5. Бобровский В.П. Анализ композиции «Картинки с выставки» Мусоргского. – М.: 1990. – С.125-126, 135-136.
6. Абызова Е.Н. «Картинки с выставки» Мусоргского. – М.:1987.
7. Орлова А.А., Пекелис М.С. «Литературное наследие» Мусоргский М.П. –М.: 1971. – С.87.
8. Холопов Ю.Н. Теоретический курс. – М.: 1988. Глава 11.
9. Козлова Н.П. Музыкальная литература. Учебник для ДМШ. – С.54.
10. Шарникова М. Музыкаотная литература: Русская музыкальная классика. Для ДМШ и ДМИ. Википедия. 2020.000 «Яндекс Москва».
11. Самарин В. «Картинки с выставки» Мусоргского. – М.: «Музыка» 2015. Википедия

## “LAZGI” KUYIGA BASTALANGAN MATNLAR VARIANTLARI XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Lazgi” kuyi, raqsi va ashula tarixi, rivojlanish bosqichlari, ijro jarayonida sodir bo'lgan o'zgarishlar hamda ularning san'atshunoslikdagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm lazgisi, qadimgi an'analar, raqslar, kuylar, g'azallar.

## ОСОБЕННОСТИ ВАРИАНТЫ ТЕКСТОВ НА МЕЛОДИИ “ЛАЗГИ”

**Аннотация.** В данной статье освещены история мелодии, танца и песни «Лазги», их этапы развития, изменение в исполнительском процессе, а также их значение в истории искусства.

**Ключевые слова:** Хорезмские лазги, древние традиции, танцы, мелодии, газели.

## FEATURES VARIANTS OF TEXTS ON THE MELODIES “LAZGI”

**Abstract.** This article highlights the history of the melody, dance and song "Lazgi", their stages of development, changes in the performing process, as well as their significance in the history of art.

**Key words:** Xorazm lasgis, ancient traditions, dances, melodies, gazelles.



Milliy raqs san'ati tarixida “Lazgi” o'zining chuqur hayotiy falsafasi, betakror ijro usuli va jozibasi bilan nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham katta dovrug' qozongan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: “San'at turlari ichida xalq qalbiga yaqin bo'lgan raqs san'atidir. Nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo xalqlari orasida raqs san'atining gultoji hisoblanmish lazgi raqsi xalqimizning qadim tarixini, boy madaniyati va ma'naviyatini ko'rsata oladigan go'zal san'at namunasi hisoblanadi. Lazgi raqsining paydo bo'lish tarixi, rivojlanib sayqal topishi va taraqqiyot yo'lini o'rganish uzoq yillar davomida san'atshunoslik ilmining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, davr va zamon o'tsa ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shuningdek, “Lazgi”ning original ijro uslublari, jozibadorligi, mazmun-mohiyati bilan farqlanadigan turlari mavjud. Uning ochilmagan sirlari bir talay. “Lazgi” o'z eliga, o'z beshigiga ega mangulikka daxldor boyligimizdir” [1].

Xorazm san'ati va madaniyati to'g'risida, xususan, “Lazgi” san'ati haqida ilk ma'lumotlar “Avesto”da, shuningdek, Gerodotning “Tarix”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va Mahmud az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarlarida uchraydi. Shuningdek, S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm”, “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”, I.Jabborovning “Ko'hna xarobalar siri”, T.Qilichyevning “Xorazm xalq teatri”, L.Abdeyevning “O'zbekiston raqs san'ati”, M.Rahmonovning “O'zbek teatri tarixi” kabi asarlarida ham zarur ma'lumotlar bor [2].

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida raqslarning kelib chiqish va shakllanishini bevosita ibtidoiy davrdagi ov jarayonlariga, xalqlar o'rtasidagi an'ana va urf-odatlariga bog'lagan holda ma'lumotlar keltirgan. XX asrda yaratilgan

ilmiy tadqiqotlar ustoz san'atkor, baletmeysterlar Tamaraxonim va Gavhar Rahimova, shuningdek, Anash Cho'loq, Raviya Otajonovlarning ijrosi bilan bog'liq holda yaratilgan. Bu tadqiqotlarda Xorazm raqs san'ati o'zining boyligi, rang-barangligi va maftunkorligi bilan Farg'ona lirikasining nozik lirikasidan, Buxoro raqsining latofatidan farqlanib turishi, u o'ziga xos yorqinlikka, rang-baranglikka, zo'r jo'shqinlikka, qizg'in g'ayrat va ehtirosiga ega ekanligi ta'kidlangan [3].

1937-yili taniqli arxeolog-etnograf, akademik Sergey Tolstov qadimgi Xorazm davlati xarobalari sirlarini o'rganish uchun keng ko'lamlı etnoarxeologik ekspeditsiyaga chiqadi. Ko'plab qazishmalar va intensiv tadqiqotlar olib borgan ekspeditsiya ishi erta to'xtatilishiga qaramasdan, raqs san'ati izlarini aniqlashga muvassar bo'ladi. Xorazm shaydosi S.Tolstov o'z kitobida o'rta asrlarda mehmonxona va choyxonalarda odamlar yig'ilib, charchog'ini chiqarish maqsadida, holdan toyguncha olovga qarab raqs tushganlarini yozadi. Bu raqs lazgi raqsidan o'zga raqs emasligini ta'kidlagan [4].

Xorazmda rahbar lavozimlarda ishlagan xodimlardan Madamin Matkarimov, Hasanboy Yo'ldoshev, Razzoq Hasanov, Ulbibi Abdullayeva, savdo xodimi Hurmat Habibullayev, teatrning kiyim sex boshlig'i Arslon Otajonovlar Xorazmning mashhur lazgi raqsini puxta ijro qilgan san'atkorlardir. XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ustozlar Sharip Tog'onov, Davlat surnaychi, Qodir surnaychi, Quronboy Bobojonov, Qodir Bobojonovlar ham lazgining mohir ijrochilari bo'lishgan. “Maftuningman” badiiy filmida (paxtazor qirg'og'ida, dala shiyponida) ijro etilgan erkaklar “Lazgi”si mazkur ijrolarining bir namunasi sifatida kadrga muhrlanib qolgan.

Amalda raqs san'ati rivojiga hissa qo'shayotganlar, yangi-yangi uslublar bilan uni xalq orasida keng targ'ib

etayotganlar ko'p bo'lsa-da, bu borada qilingan ilmiy ishlar juda ko'p emas. Aynan lazgi raqsiga bag'ishlangan ma'lum bir asarning mavjud bo'lishi, izlanuvchi olimlar, shuningdek, sohaga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun ajoyib tuhfa bo'lishi tabiiy edi. Bu boradagi dastlabki va eng salmoqli izlanishlardan biri Xorazm xalqining farzandi, mashhur raqqosa Gavharxonim Matyoqubova tomonidan amalga oshirildi. U 1993-yili "Ofatijon Lazgi" nomli risola taqdim etgan bo'lib, uni o'ziga xos Lazgi qomusi deb atasak ham bo'ladi. 2017-yili mazkur kitob jurnalist Sharqiya Eshjonova bilan hamkorlikda qayta nashr etilgan [5].

Lazgi raqsi chet ellik olimlardan biri Roza Verko tomonidan ham o'rganilgan. U o'z maqolasida shunday yozadi: "Lazgi – Xorazmni ko'rish demakdir. Lazgi – bu o'yinga tushganingda o'zingizni yaxshi his qiladigan raqs bo'lib, bu holatda siz hayot zavqi yoki hayot shavqini his qilasiz. "Lazgi" so'zining ma'nosi "qaltirash" degan fikr bor, bu jonli musiqiy ritmlar va ifodali yuz mimikalari bilan birga tananing juda shiddatli harakatini tasvirlaydi"[6].

"Lazgi" raqsi YUNESKONing Butunjahon nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritildi. Bunda O'zbekistonda moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro "Oltin meros" jamg'armasining hissasi katta bo'ldi. Bugun ularning mashaqqatli mehnatlari samarasi o'laroq lazgi o'zbek raqs san'atining gultoji degan ulug' nomga sazovor bo'ldi. Dunyoda "Lazgi" raqsi va kuyi haqida ko'p yozilgan. Ammo uning ashula matni haqida deyarli fikr yuritilmaydi. Bu kuyda Xorazm xalq dostonlaridan olingan she'rlar ham, mutoz g'azallar ham, zamonaviy she'rlar ham ijro etiladi. Odatda "Lazgi" boshlanishida:

*Hay omon-ay omon,  
G'aniy dog'lar, g'aniy dog'lar,  
Qorli bo'lar, qorsiz bo'lmas.  
Yigit boshi eson bo'lsa,*

Molli bo'lar, molsiz bo'lmasey, omon-ay, omon, – degan hikmatli so'zlar bilan yangraydi.

Shundan so'ng, Komil Xorazmiyning "Qaysi falak burjining mehri puranvorisan", misrasi bilan boshlanuvchi hamda "So'yla manga ey sanam, Kimning sevar yorisan?" misrasi bilan yakun topuvchi muxammas ijro etiladi. Bu muxammas O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov tomonidan kuylangan mashhur "Lazgi" ashulasi matni sanaladi.

*Qaysi falak burjining mehri puranvorisan,  
Qaysi sadaf durjining gavhari, shahvorisan?  
Qaysi Xo'tan og'usi, nofai totorisan,  
Qaysi chamanzorning lolai gulnorisan?  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning sevar yorisan?*

*Qomatingga bandadur bog' aro sarvi ravon,  
La'li labing rashkidin g'uncha erur bag'ri qon.  
Chunki chaman sahnida bo'lsa yuzing gulnishon,  
Nolasin aylar fuzun bulbuli bexonumon.  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning sevar yorisan?*

*Yig'latur oshiqning la'li labing xandasi,  
Qumriyi nolon erur sarvi qadding bandasi.  
Husni kamol avjining axtari tobandasi,  
Ko'rsa mohi orazing bo'lg'usi sharmandasi.  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning sevar yorisan?*

*Ayshu nashot istabon g'amg'a duchor o'lmog'on,  
Mehringga dilbastai zori nazor o'lmog'on.  
La'li labing shahdig'a bormu xumor o'lmog'on?  
Dahr aro yo'qtur senga oshiqi zor o'lmog'on,  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning sevar yorisan?*

*Bir kecha aylab menga mehru muhabbat ayon,  
Hamrahu yo'ldoshsiz barcha ulusdin nihon.  
Kulbai ahzonima bo'lsang agar mehmon,  
Komili mahzunningga rostini etkil bayon.  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning sevar yorisan? [7]*

Asar oshiqona, samimiy insoniy sevgi mavzusida yozilgan bo'lib, oshiqning o'z ma'shuqasiga iltijosi, uning tengsiz husn-jamoli va ma'naviy kamoliga maftunligi, shu bilan birga go'zallarning o'z oshig'iga purjafoligi va beparvoligi, ishqning shirin azob-uqubatlari izhoridan iborat. Oshiqning ta'rificha, ma'shuqaning "Qomatiga bog'dagi tik o'suvchi sarv ham banda, qizil labiga rashk qilib la'ning bag'ri qizil qon, chaman sahnida yuzi namoyon bo'lganda uning latofatiga maftunu bexonimon bo'lgan bulbul uzun-uzun nola qiladi. Ammo oshiq bu go'zalinig kimligini bilmaydi. Shu sababli menga aytib qo'y, biror yoring bormi, yoki yolg'izmisan, odatda bunday go'zallarning yorsiz, egalik bo'lishi mumkin emas", – deydi.

Bu g'azal o'ta jiddiy tuyg'ular emas, balki yengil yumor hissi bilan ham orasta qilingan. Majoziy ishq lirikasining eng oliy namunalaridan biri aynan hayot qo'shig'i bo'lgan "Lazgi" kuyiga solingani va bu kuy-qo'shiqqa raqqosalarning ilohiy xirom aylashi bejiz emas.

Bu muxammas aruzning "muftailun // foilun, mustafilun // foilun" vaznida bitilgan. Paradigmasi – v - // - v - // - v v - // - v –

Komiljon Otaniyozovning o'zi ham yuqoridagi muxammas vaznida asar bitgan bo'lib, u K.Otaniyozov xotirasiga bag'ishlangan to'plamga ham kiritilgan. Rez bilan boshlanuvchi so'zlar asli ashula matniga aloqasi yo'q bo'ladi. Bunda ijrochi tinglovchini o'ziga jalb qilish uchun aytiladi. Shu sababli, bu matn turli so'zlardan iborat bo'lib, ijro jarayonida o'zgartirilishi mumkin. Matnni keltirib o'tamiz:

*Aha hey omonay omon, asiram, benavoyam,  
Bekasam, giriftoram, omon.  
Umrmda gezmaram gulu gulzor sayrina,  
Fasli bahor istamaram bulbul o'lmas.  
Gulzor sayrin naylaram ahli gul o'lmas,  
Aaha, g'aniy dog'lar, g'aniy dog'lar,  
Qorli bo'lar, qorsiz bo'lmas.  
Yigit boshi omon bo'lsa,  
Molli bo'lar molsiz bo'lmasey, omon-ay, omon!*

*Ko'rmay ma'shug'in yuzin oshig'i qolsa bo'lmas,  
Yurak bag'ri kuymasa, behuda yonsa bo'lmas.  
Samandardek o't ichra yonmasni sevsa bo'lmas,*

*Ishqim tushdi yurakka, chiqarib olsa bo'lmas,  
Daryoga tomgan yoshni qaytarib olsa bo'lmas.*  
Naqarot  
Qorko'z bo'y, bo'y, bo'y,  
Qorago'z, bo'y, bo'y.  
Qorago'z gal bari, ey,  
Qorako'z gal bari.

*Visoli komin istab dod etarman falakka,  
Bo'lg'il vafoli yorim, ko'ngil qo'yima bo'lakka.*  
So'rimasa hol dilbar, g'amim sig'mas yurakka,  
Uch yuz oltmish tomirdan to'rt yuz qirq bir suyakka,  
Ishqim oncha singibdur, ajratib olsa bo'lmas.

Naqarot  
Qorko'z bo'y, bo'y, bo'y,  
Qorago'z, bo'y, bo'y.  
Qorago'z gal bari, ey,  
Qorako'z gal bari.

*Eshit arzimni endi, sani izlab yurarman,  
Xayolimdan behudman, na o'zimni bilarmen.*  
Komil murodim ber deb, man o'zingdan tilarman,  
Devona mashrabingman, ishq o'tina yonarman,  
Parvonadek bul o'tdan ishqni ayirsa bo'lmas.

Naqarot  
Qorago'z bo'y, bo'y, bo'y,  
Qorago'z, bo'y, bo'y.  
Qorago'z gal bari, ey,  
Qorako'z gal bari.

Ushbu satrlar muallifi Kursiya Esanova ham "Lazgi" ta'rifida" nomli manzuma bitgan. U bayram va to'ylarda "Lazgi" kuyiga ushbu so'zlarni qo'yib, odamlarni raqsga chorlab kelmoqda. Mazkur she'rda ashulaning tarixi, ijrochilari, jamiyat zavqi ta'riflangan. Ko'pgina misralar she'riyatning oliy mezonlariga javob bera olmasa ham misralarda samimiylik limmo-lim, deya olamiz.

*Komil Xorazmiy ellarda doston,  
Bir qo'shiq yaratda eshitib oston (astagina).  
Komiljonlar kuylab, Gulchehralar o'ynab,  
Bu "Lazgi" ayladi yurtimni doston.  
Ortiqjonu Otajonlar, Rahmatjonu Olmaxonlar,  
Hamdam hayot bag'ishlarlar.  
Yoshiga yoshlarni qo'shib,  
Lazgini kuylab jo'sharlar.*

*Lazgi kuyi boshlandi, gid-ginalar tashlandi,  
Araz qilgan bu ko'zlar quvonch ila yoshlandi.  
Boshlandi lazgi do'stlar, yo'qoldi kamu ko'stlar,  
O'yin-kulgi boshlandi, lazgiga o'ynang, do'stlar.*

*Chiqqan yoshu qari ham bu kuyni ko'rar baham,  
Etlar jumbishga kelar qo'shiq tinglaganda ham.  
Lazgi shamoldek yelar doldan o'ynaging kelar,  
Qursiya kuylaganda jo'shib o'ynaging kelar.*

*Dilmda qolmas armon lazgi tanimga darmon,  
Shodu shodon yashaylik lazgi bilan kirgan jon.*

*Oh lazgi yupanch lazgi, qalbmida quvonch lazgi,  
Tilim tushunmaganlar, tillarda tilmoch lazgi.  
Ortga nazar solsangiz hisobini olsangiz,  
Yetti yashar bola ham o'ynar lazgi chalsangiz.*

*Eldan elga o't lazgi, tildan tilga o't lazgi,  
Asrlar etsin davom KOMILLAR kuyi – lazgi.*

*Lazgiga chaling qayroq, tarelka bilan o'ymoq,  
Sharaqa-shuruq qayroq, qorago'z gal bari.  
Ey qorago'z, gal bari-i-i,  
O-o-o-om-o-o-on!*

Ushbu nazmda "Lazgiga chaling qayroq, tarelka bilan o'ymoq", undagi "tarelka bilan o'ymoq" deganda likobcha bilan angishvona ko'zda kutiladi. Lazgiga raqs tushganda o'yinchilar o'ng qo'lga mayda qayroqtosh, chap qo'lga likobcha olib, barmog'iga taqib olgan angishvona bilan kuyga mos ovoz chiqarib, ijroni qiziqarli qilishga intiladalar. Ba'zi san'atkorlar guruhi "Lazgi" kuyi, raqsi va ashulasini bir butun kompozitsiya holiga keltirib ijro etadilarki, bu chinakam milliy sirk tomoshasini namoyon qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerak-ki, bizning yurtimiz madaniyat va san'at namunalari boy diyor. Ayniqsa, yuqorida aytganimizdek, raqs san'atining yaralishi insoniyat paydo bo'lgan davrdan hozirgi kungacha o'z taraqqiyot bosqichini bosib kelmoqda. Raqslar ichida eng jozibalisi bo'lgan Xorazm lazgisini yanada chuqur o'rganish maqsadida, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ekspeditsiyalar tashkil qilish kerak. Mazkur o'rganish natijasida ilmiy risolalar, maqolalar yozishni yangi bosqichga ko'tarish lozim, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga lazgi matnlari qanchalik ko'p va rang-barang bo'lmasin, katta bayram tantanalarida, xalqaro anjumanlarda iloji boricha Komil Xorazmiy muxammasi bilan aytiladigan "Lazgi"ni kuylagan ma'qul. Bunda muxammas so'zlarining asliyatini o'rganib, so'z va iboralarni to'g'ri talaffuz qilish lozim. Shundagina biz ustozlar an'anasini to'g'ri davom ettirgan va "Lazgi"ning umrboqiyiligiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Nafosat hayotbaxsh qudrat". "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil, 21-avgust.
2. Abdeyeva L. O'zbekiston raqs san'ati. – Toshkent: O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashryoti, 1960. – B.184.
3. Abraykulova N.E. Raqs. – T.: "Turon-Iqbol", 2018. – B.154.
4. Matyoqubova G. Ofatijon "Lazgi". – T.: "Adabiyot va san'at", 1993. – B.64.
5. Matyoqubova G., Eshjonova Sh. Lazgi. – Urganch: "Quvanchbek Mashhura", 2017. – B.240-247.
6. Roza Verko. Khorezm Lazgi: The Sunniest Dance on Earth. <https://voicesoncentralasia.org/khorezm-lazgi-the-sunniest-dance-on-earth>.
7. Komil Xorazmiy. Devon. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.: 1977.1. "Nafosat hayotbaxsh qudrat". "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil, 21-avgust.



## XX ASR HAYKALTAROSHLIGIDA AFSONAVIY MAVZULARNING RIVOJLANISH DINAMIKASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, XX asr O'zbekiston haykaltaroshlik san'atining shakllanish va rivojlanish dinamikasi afsonaviy mavzular talqini misolida, san'atshunoslik ilmi kesimida tahlil qilinadi. Haykaltaroshlik tarixining oxirgi yuz yillik tarixi xronologik tarzda tizimli o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** haykaltaroshlik, toshtaroshlik, dastgohli, mahobatli, mif, mayolika, shomot, terrakota, plastika, afsona, ertak, an'ana, plastika, kompozitsiya, ramz.

## ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ МИФИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ В СКУЛЬПТУРЕ XX ВЕКА

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы динамика становления и развития скульптура Узбекистана XX века. Автор анализирует в области искусствоведения на примере интерпретации легендарных сюжетов. Систематически в хронологическом порядке изучается история последних столетний истории скульптуры.

**Ключевые слова:** скульптура, каменная кладка, станковая, монументальная, миф, майолика, шамот, терракота, легенда, сказка, традиция, пластика, композиция, символ.

## DYNAMICS OF THE DEVELOPMENT OF MYTHICAL SUBJECTS IN THE SCULPTURE OF THE 20TH CENTURY

**Abstract.** In this article, the dynamics of the formation and development of the sculptural art of 20th century Uzbekistan are analyzed in the field of art history as an example of the interpretation of legendary themes. The history of the last hundred years of the history of sculpture is systematically studied chronologically.

**Key words:** sculpture, stonework, easel, majestic, myth, majolica, fireclay, terracotta, legend, fairy tale, tradition, plastic, composition, symbol.

XX asr boshi turli sabablarga ko'ra unutilib ketgan haykaltaroshlik san'atini tiklash harakatlari boshlanganligi bilan izohlanadi. Jamiyatda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar, hokimiyatning yangilanishi haykaltaroshlik san'atining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy haykaltaroshlarning ayrimlari (Boris Mikeshin) faqatgina bitta mahobatli haykal ishlash uchun taklif qilingan bo'lsa, ba'zilar butunlay yurtimizda qolib, o'z ijodini davom ettirdi [7.B.485].

Zamonaviy haykaltaroshlik san'atini rivojlantirish ishlariga rus haykaltaroshlari bilan birga mahalliy toshtaroshlar ham jalb etildi. Ular tomonidan yaratilgan ilk asarlarda turli afsonaviy jonotlar qiyofasi ishlandi. Nurota tumani G'ozg'on qishlog'idan chiqqan A.Turdiyevning Buxorodagi Mohi xossa darvozasi oldida o'rnatilgan afsonaviy sherlar haykali o'z davrida nihoyatda nafislik bilan ishlangan nodir namunalardir. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari va xiyobonlarga mifologik hayvonlar va parrandalarning ertakona qiyofadagi haykallari o'rnatilgan. Shu davrda yaratilgan qurbaqa, kiyik, it, sher haykallarida an'anaviy toshtaroshlik texnikasi qo'llanilgan.

O'tgan asrning boshlarida ishlangan haykallarda obrazlar erkin talqin qilingan. Natijada, mazkur san'atning rivojlanishiga zamin hozirlangan. Mahalliy haykaltaroshlar asta-sekin zamonaviy rus va Yevropa san'ati an'alarini o'zlashtira boshlaydilar. Bundan ko'rinadiki, sobiq ittifoqning dastlabki davrlarida ijobiy o'zgarishlar bilan birga, badiiy madaniyat sohasiga keskin siyosiy talablarning qo'yilishi natijasida, milliy qadriyatlar qatorida afsonaviy mavzular ham biroq

cheklanadi. Faqatgina mafkuraviy qarashlarga moslashtirilgan obrazlarga targ'ib qilinadi. Shunday bir murakkab sharoitda yurtimizga tashrif buyurgan N.P.Vishnevskiy turli taqiqlarga qaramasdan, mahalliy aholining badiiy madaniyatini va islomiy rivoyatlarni o'rganib, ularni o'z asarlariga singdira oldi. Yog'och ashyosida ishlagan "Zohid" (1920) haykali plastik jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi [4.B.40]. Rivoyatlarga ko'ra, Yaratganning marhamatiga musharraf bo'lish haqidagi qarashlarni haykaltarosh zimdan o'rganib, realistik san'at talablari asosida mahalliy aholi qiyofasida ifodalagan. Bu davrda judayam ko'p haykallar ishlangan. Ammo ularning aksariyati noma'lum sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmagan [8.B.281].

1930-yillar o'zbek zamonaviy haykaltaroshlik san'atining shakllanish davri bo'ldi. Yurtimizga tashrif buyurgan rus ijodkorlari mazkur san'at qonuniyatlarini mahalliy ustalarga o'rgata boshlaydilar. Bu davr san'atida haykaltaroshlar o'z asarlarini loy, gips, yog'och, tosh va suyakda ishlaganlar. Ijodkorlar qisqa vaqt ichida mazkur ashyolardan foydalanish texnikasini o'zlashtirdilar. Istirohat bog'lari, dam olish maskanlari va shaharlar bosh maydonlariga afsonaviy mavzudagi haykallar o'rnatilgan.

Ikkinchi jahon urushi yaqinlashayotgan bir pallada vatanimizda ijod qilayotgan xorijiy haykaltaroshlar afsonaviy mavzuga qiziqqa boshlaydi. Xususan, B.Sandomirskaya yog'ochda ishlagan "Baliqchi afsonasi" haykalini realistik san'at talablari asosida yaratadi [4.B.17]. Ayol baliqchining qo'lida bir dona baliqni tutib, chuqur xayoliy kechinmalar girdobida tasvirlanishi



*N. Vishnevskiy. "Zohid".  
Sobiq sovet maktabi.  
Realistik talqin. Yog'och.  
O'zDSMI (1920-yil).*



*B. Urmahche. "Qo'rqym".  
Ekspressiv-realistik san'at  
talablari asosida ishlangan.  
Yog'och. O'zDSMI (1958-yil).*

orqali haykaltarosh har ikkalasining ham yolg'izligi, ichki ruhiy olamining o'xshashligiga urg'u bergan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida haykaltaroshlik san'ati rivoji ancha oqsay boshlaydi. Urush qahatchiligi vatanimiz san'atini ham chetlab o'tmadi. Urushdan keyingi yillar haykaltaroshligida asosiy mavzu sovet davlatining shonli g'alabasiga qaratildi. O'zbekistonning barcha hududlarida vatan himoyachilariga atalgan yodgorlik haykallari o'rnatila boshlandi.

1950-yillarda O'zbekiston mahobatli haykaltaroshligini milliy maktabi shakllana boshlaydi [2.B.14]. Mazkur san'at sho'ro davlati mafkurasining asosiy targ'ibot quroliga aylantirilib, kommunistik jamiyat barpo etishga chaqiriq ruhini ifodalovchi g'oyaviy buyurtmalar doirasida rivojlandi. Afsonaviy mavzular ikkinchi darajali ijodiy ishlar sifatida qaraldi [4.B.12].

1960-yillarda haykaltaroshlik san'ati uslubiy va texnik jihatdan rivojlandi. Yaratilgan asarlar sifat jihatdan yangi bosqichga kirdi. Eski qoliplar takomillashtirildi [6.B.170]. Ammo mavzular mazmun jihatdan ilgari qoliplardan chiqib olishi qiyin kechdi. Kommunistlarning xayolparastligini sharaflovchi yodgorlik majmualari, kompozitsiyalar yaratish, inqilob dohiylari, fuqarolar urushi qahramonlari haykalini yasash asosiy ishga aylangan edi. Dastgohli haykaltaroshlik rivojida birmuncha samarali bo'ldi. San'at tamoyillariga xos badiiy va estetik jihatlariga amal qilish kuzatiladi [4.B.12]. Haykaltaroshlar zamonaviy mavzular bilan bir qatorda xalq afsonalariga ham murojaat qila boshladilar. "Qo'rqut ota kitobi" dostoni matnlari asosida ishlangan haykallar, bu davrning eng nodir asarlaridan biriga aylandi. B. Urmahche yog'och ashyosida ekspressiv, realistik talqin qilingan "Qo'rqut" (1958) byustida asosiy qahramonni yoshi ulug', nigohlari o'tkir donishmand otaxon qiyofasida tasvirlagan. O'rta asrlar o'g'uz eposining yuksak namunalaridan biri bo'lgan ushbu kitobning ayrim qismlariga bizgacha yetib kelgan xolos. Haykaltarosh o'z uslubida obrazning mukammal chiqishi uchun yuz qiyofasining har bir detalini diqqat bilan ishlagan. Kitob matnidagi qahramonning ruhiy holati va kechinmalari aniq aks ettirilgan. Bunday talqin va uslub asta-cekin boshqa ijodkorlarda ham kuzatila boshlaydi.

XX asr o'rtalari zamonaviy haykaltaroshligida mayolikada ham asarlar yaratildi. D. Mileyevning "Cho'pon afsonasi" (1958) asarida cho'ponning bir o'rkachli tuya ustida qo'lga qamchi ushlagan holati ifodalangan. Tuya go'yo og'zini katta ochib,

charchog'ini chiqarayotganday tasavvur o'yg'otadi. Ijodkor cho'ponning horg'in qiyofasini lirik kechinmalarga burkangan holda ifodalaydi. Bu davr haykaltaroshligida yurtimizda uchramaydigan afsonaviy jonzotlar obrazi ham yaratilgan. M. Ivanovning "Delfin" (1960) kompozitsiyasi katta yangilik bo'ldi. Haykaltarosh bunda yog'och imkoniyatlarini inobatga olgan holda yangicha yondashadi. Suvdan chiqib qolgan bir dona delfin va uning ustida endigina uchishga shaylangan qush tasviri orqali suv muhiti, yer va samoviy jonzotlarni o'zaro biriga bog'liqlikda tasvirlaydi [4.B.56].

1960-yillarda N. Fidoridis ham xalq og'zaki ijodiga murojaat qiladi. "Qo'shiq" (1962), asarida ijodkor qahramonning ichki kechinmalarini, ilhom bilan kuylayotgan holatini aniq ifodalay olgan. A. Toirovning mifologik mavzudagi milliy an'analarni o'zida ifodalovchi gipsda ishlangan "Yer" (1964) kompozitsiyasida chuqur falsafiy mohiyat yashiringan. Olamning quruqlik qismi, narsalar turgan, jamiki tirik mavjudotlar hayot kechiradigan makonning ramziy obrazi sirliligicha talqin qilingan. Uning aksi bo'lgan osmon mavzusi A. Ivanovning "Samo" (1965) asarida ifodalangan. Dastgohli haykaltaroshlikda o'ziga xos betakror kompozitsiyada falakning tiniq, moviy va ohista ko'rinishlari o'z aksini topgan. Garchi bu asarlar mahalliy aholining afsonaviy qarashlari asosida yaratilgan bo'lsa-da, undagi qahramonlar tashqi qiyofasida davr ruhi, zamon siyosiy va ijtimoiy qarashlari ta'siri sezilib turadi.

Afsonaviy mavzularga Bandzeladze va V. Degtarevlar ijodida uchraydi. "Ko'pkari" (1969) kompozitsiyasini mis ashyosida quyma uslubda ishlanishi o'z davrida katta yangilik sifatida qabul qilinadi. Haykaltaroshlar buning uchun xalq sayillarini kuzatib, ularda tashkil etiladigan chavandozlik musobaqasida abjir pahlavonlar harakati, tashqi ko'rinishi, otlarning shijoati, xalq dostonlarida mard, tanti pahlavonlarning ta'rif-tavsiflarini o'rganib chiqadi. Asarda bir juft ot va chavandozning uloqni katta shijoat bilan qarama-qarshi tomonga qarab tortishi plastik jihatdan yaxshi ishlangan. Asosiy qahramonlar ot ustidagi chavandozlarning dinamik holati nihoyatda kuchli va ta'sirli chiqishiga katta ahamiyat bergan.

1970-yillar haykaltaroshligida garchi zamonaviy mavzular yetakchilik qilsa-da, xalq afsona va rivoyatlariga xos asarlar ham ishlangan. Toshkentda barpo etilgan Markaziy ko'rgazmalar zali oldidagi maydonga E. Aliyev, V. Degtaryev va N. Bandzeladzlar hamkorligida yaratilgan afsonaviy "Tuya" (1970) haykali bu davr san'atining eng yuksak namunalaridan biri edi. Unda mualliflar tuyaning dekorativ bezatilgan yangicha talqindagi afsonaviy obrazini yaratdilar. Haykalning boshi tuyaga o'xshasa-da, burama shakldagi shoxi yumaloq bo'lib yotgan ilonni eslatadi. Bo'yniga aylanal halqa ko'rinishdagi o'yma tasvirli bezak berilgan. Yelkasida go'yo qanot o'rnatilganday. Oldingi va orqa oyoqlaridagi doirali shakllar orqali olamning yaxlitligiga ishora qilinadi.

Mavzu doirasidagi ayrim obrazlar ramziy metaforik talqin qilingan bo'lsa, ayrimlari shartlilik prinsipida, yana boshqalari realistik maktab talablariga muvofiq yaratilgan. F. Grishchenkoning xalq afsonalarini yaxshi biluvchi, donishmand qariyalar timsolini yaratishga bo'lgan urinishlari uning "Oqsoqol" (1973) byustida jamlangan. Yog'och ashyosida ishlangan mazkur asar qahramonining qiyofasi real ko'rinishga ega. Boshiga qalpoq kiygan, soqol-mo'ylovli mahalliy otaxon obrazi



J. Qutimurodov. "Amudaryo ilohasi". Yog'och. QDSM (1970-yil).



D. Torenyazov. "Siren qushi". Yog'och. QDSM (1971-yil).

donishmandona sifatlar bilan chuqur o'yg'a tolgan qiyofada tasvirlangan. Bunday talqinlarni I. Jabborovning realistik san'at yo'nalishidagi "O'ylar" (1973) byustida ham ko'zga tashlanadi. Yosh, zamonaviy qizning silliq yuzi, hurpaygan sochi va ko'zining yumuqligi asar g'oyasini ochishga xizmat qilgan. Haykaltaroshlar turli ashyolardan foydalangan holda qahramonlarini o'z tafakkuridan kelib chiqib, badiiy ifodalaganlar.

XX asrning 70-yillarida V. Degtyarev ijodi gullab-yashnaydi. Ijodkor turli badiiy ashyolar rangli metal va yog'ochdan ajoyib mo'jizalar yaratadi. "Donolik" asarida katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan donishmand qariyaning qiyofasi plastik jihatdan murakkab talqin qilingan. Ular orasida biroz reallikdan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi. A. Atabayev "Ertak" (1978) asarida qahramonning aynan ertakona qiyofasini yaratishga erishgan. Hikoya tarzida og'zaki aytiladigan bolalar ertaklariga har doim ehtiyoj bo'lgan. Yog'och ashyosida qahramonning g'ayritabiiy obrazi yarim odam, yarim ertakona maxluq ko'rinishida boshidagi shoxi bilan tasvirlangan. Bunday talqin 70-yillar haykaltaroshligida boshqa uchramaydi.

1970–1980-yillarda haykaltaroshlik san'atining yetakchi tamoyillari shakllana boshlaydi. Bunda ijodkorlar individual izlanishlari katta omil vazifasini o'tagan. O'zbek xalq afsonalariga doir yaratilgan obrazlarda yangicha individual plastik izlanishlar kuzatiladi. Mahalliy afsonalarga oid obrazlarni yaratishda ayrim haykaltaroshlar dekorativ ifodaviylikka e'tibor qaratganlar. Tanlangan mavzuning falsafiy-majoziy talqini kuchayib bordi. Keng doiradagi kinoyaviy ohang, mazmundor obrazlar paydo bo'ladi. Afsonaviy ma'bud va ma'budalarga oid lavhalar, epos qahramonlarining shartli obrazlari yaratildi. Bunday mazmunan teran asarlarni yaratish jarayonida asosiy qahramonlarning istioraviy ko'rinishiga mos plastik uslub vujudga keldi. Bu jarayonda afsonaviy tiplarning yangicha badiiy talqini asoslandi. Tadqiqotlarda qayd etilgan "mifologik realizm"ga xos badiiy tasvir uslubi bir qator haykaltaroshlar tomonidan, real hayotdagi oddiy insonlarni tasvirlashda ham qo'llanilgan" [1.B.16]. Shu tariqa makon va zamonning chegarasidan o'tib borliq va voqelikka oid kechinmalarni o'zida uyg'unlashtirgan obrazlarning yangicha talqinlari paydo bo'ldi. Dekorativ plastikada S. Sultonmurodovning shomot texnikasidagi rangli, sirlangan sopol pannolari qatorida "Ertaklar" (1976), "Abadiyat Xudosi" (1979) kompozitsiyasi vertikal holatda bajarilgan bo'lsa-da, afsonaviy va falsafiy talqin qilinganligi bilan ahamiyatlidir. Mahobatli haykaltaroshlikda D. Berdimbetovning amalga oshirilmagan eskizlari orasida qoraqalpoq

eposiga bag'ishlangan "Qirq qiz" (1978) yodgorligi ko'p shaklli ulkan va istiqbolli relyef sifatida alohida qiymatga ega edi. Ijodkorning farishtalar mavzusidagi "Amazon-qizlari" (1978) mahobatli haykali eskizida obrazlarning qahramonlik pafosi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur mavzu "Guloyim" (1978) byustida ham davom etib, qiyofa shoirona lirik kechinmalar bilan birga ta'sirchan ifodalangan [1.B.14].

Bu davr haykaltaroshlari ijodida islom dini rivoyatlariga ham murojaat qilingan. Naqshbandiya tariqatining yirik vakili, benazir vakili siymosi A. Boymatovning "Xo'ja Nazar" (1978) bronzali byusti alohida belgilari bilan ishlangan. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodida hozirjavoblik, zukkolik va donishmandlik ramziga aylangan Nasriddin afandining betakror qiyofasiga ko'p bora murojaat qilingan. Y. Shopironing Buxoro shahri Labi-hovuz maydoni uchun ishlangan "Xo'ja Nasriddin" (1979) haykali hozirgi kunda ham o'z badiiy yechimi va talqiniga ko'ra ahamiyatli asarlar sirasiga kiradi. Haykaltarosh bunda eng avvalo qahramonni xalqimiz birday qabul qilishi uchun umumiy qiyofasini yaratishni maqsad qilgan. Eng avvalo egnidagi mahalliy yaktagi va belidagi belbog'i uning milliy an'analarga mos yechimga olib kelishini osonlashtirgan. Chap qo'lini ko'tarib, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yishi, soqoli, qoshi va kiprigi, peshonasi, boshidagi sallasi ham o'z o'rniga tushgan. Xo'ja Nasriddin o'zining afsonaviy eshagida maydon aylanishi, haykaltaroshning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi. O'zbek folklorida hayot daraxti mavzulariga oid turlicha qarashlar bor. R. Sulaymonovning "Hayot daraxti" (1977) haykalida xalqimizning uzoq o'tmishidagi afsonaviy qarashlariga murojaat qilingan. Mazkur haykal 70-yillarning so'ngida mavzu doirasida ishlangan eng noyob asarlardan biri sifatida nihoyatda qadrli.

O'zbekiston haykaltaroshligida afsonaviy mavzularning rivojlanish dinamikasida 80-yillar alohida o'rin tutadi. Garchi bu davrda eski mafkuraviy qoliplar davom etgan bo'lsa-da, mavzuga oid bir qator asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Realistik san'at prinsiplari yetakchilik qilgan bir davrda afsonaviy mavzularga ham murojaat qilindi. Misdan nafis haykallar ishlandi. T. Qosimovning kichik hajmdagi "Ho'kiz" kompozitsiyasi kuch-qudrat, bahodirlik ramzlarini o'zida mujassamlashtirgan. Bunday talqin o'z davrida katta yangilik edi. B. Muxtorovning yog'ochda bajarilgan "Ayiq o'g'li haqida" (1981) kompozitsiyasida katta ayiq, ya'ni katta yetti og'ayni, katta yetti qaroqchi (lot. ura major) – osmonning Shimoliy yarim sharida olam qutbiga yaqin joylashgan yulduz turkumi haqidagi afsonalar asos qilib olingan. Uning yettita yorug' yulduzining turishi cho'michga o'xshaydi. Kishilar juda qadim zamondan ajratib kuzatishganligi tarixdan ma'lum. Vatanimiz hududida yil bo'yi ko'rinib, ajoyib manzara hosil qilishi haykaltaroshni unga atab kompozitsiya ishlashiga sabab bo'lgan. L. Kozlovning "Afsonaviy qiz" (1983), R. Yormetovning "Donishmand" (1984), "Xo'ja Nasriddin" (1989), T. Esonovning shomot texnikasida ishlangan "Nasriddinni eshitayotganlar", "Yaxshiyamki tarvuz daraxtda o'smaydi" (1980), "Nur Ota" (1982), "Donishmand" (1986), "Nasriddin uydada emas", "Eshakni o'qitayotgan Nasriddin" (1986) kabi asarlari afsonaviy mavzuda yaratilgan yorqin namunalardan biridir. Umuman qoraqalpoq haykaltaroshligida yog'och bilan birga oq rangli marmarga ishlov berishda ham ma'lum ishlar bajarilgan.

Ularning aksariyatida qadimgi afsonalarga murojaat qilingan. J.Qutimurodovning **“Tumaris”** (1983) byusti marmardan qahramonning ichki ruhiy kechinmalarini aniq ifodalay olgan. Afsonaviy jasur sarkarda va go'zal malika Tumaris siymosida shaklning toshdan ajralib chiqmagan silueti koroplastikaga monand ifodalangan [9.B.1323].

Qoraqalpoq haykaltaroshlari orasida A.Atabayevning ijodiy plastik izlanishlari alohida ajralib turadi. Yog'och ashyosida har bir detaligacha katta mahorat bilan ishlangan kichik hajmdagi **“Niqob”** (1983) asarida asrlar qariga berkingan afsonaviy o'tmishimizga murojaat qilinadi. Yuzi yarim inson, yarim maxluq qiyofali g'ayritabiiy jonzot tasviri bu davr haykaltaroshligida boshqa uchramaydi. Garchi yuzi qisman odamga o'xshasa-da, asosiy belgilari g'ayritabiiy yirtqichni eslatadi. Boshidan o'sib chiqqan bir juft shoxi va to'rt juft yumaloq ko'zlarini ketma-ket tepaga qarab turishi uning har narsadan ogoh ekanligiga ishora qilinayotgandek go'yo. A.Atabayevning boshqa bir asarida ellinizm va u bilan bog'liq holda shakllangan mavzuga murojaat qiladi. Yog'och ashyosida bajarilgan **“Iskandar”** obrazi ham oldingi asari singari bir xil texnikada bajarilgan. Unda asosiy qahramonni mahalliy yoshi ulug' otaxonlar qiyofasidan izlaydi. Yog'ochga ishlov berishda o'z uslubiga xos qiyofa yaratar ekan, qahramonning vajohatini eng avvalo, yuz-ko'zida ifodalashga urinadi. Haykaltarosh yaratgan shakl plastikasida olamga qo'rqinchli nigoh tashlayotgan qariyaning fe'lini ochishga erisha olgan [1.B.12-17].

Bu davr haykaltaroshligida M.Gasimovning **“Qari jin”** (1986) asarlarida xalq mistikasiga oid qiyofaning yorqin namunasini ko'rish mumkin. Mifologik qarashlarga ko'ra, mazkur obraz pastqam joylarda kishi ko'ziga odam obrazida ko'rinib, go'yo uni biror dard-baloga chalintirib ketadigan afsonaviy maxluq ko'rinishida tasavvur qilinadi. Haykaltarosh ushbu asarni yaratishda, xalq afsonalaridagi ma'lumotlarni o'rganib, o'z badiiy



J. Qutimurodov.  
“Tumaris”. Marmar. QDCM  
(1983-yil).



Ya.Shapiro. “Xo'ja Nasriddin”.  
Moskva (1980-yil).

tafakkuri darajasida jinning ramziy qiyofasi yaratganligi seziladi [5.B.547].

Yuqoridagilardan xulosa shuki, XX asr haykaltaroshligida afsonaviy mavzularning rivojlanish dinamikasi turlicha kechdi. O'tgan asrda zamonaviy haykaltaroshlik san'ati shakllanib, rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirdi. Bu davrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlar, hokimiyatning almashuvi mazkur san'atning g'oyaviy negiziga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sobiq ittifoq davlatining vujudga kelishi natijasida, zamonaviy mavzularga alohida urg'u berilib, afsonaviy mavzularga kam e'tibor qaratildi. Ammo shunday bir murakkab sharoitda ayrim o'rinlarda mahalliy afsonalarga murojaat qilindi. Yurtimizdan mohir haykaltaroshlar avlodi yetishib chiqdi. Vatanimiz san'atkorlari tomonidan ishlangan nodir asarlar nafaqat yurtimizda, hatto uning tashqarisida ham o'z o'rnini va nufuziga ega bo'la boshladi. Ularning individual plastik izlanishlari natijasida o'z qahramonlarini turli yo'nalish, uslub va rakurslarda badiiy talqin qildilar. Bu esa mazkur san'at turida yaratilgan asarlarning rang-barangligini ta'minladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mambetkadirov G.A. Qoraqalpog'iston haykaltaroshligining shakllanishi va rivoji (XX asr 60-yillari, XXI asr boshlari). 17.00.04-tasviriy va amaliy-bezak san'ati ixtisosligida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2018.
2. Po'latov D.S. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. 17.00.04-tasviriy va amaliy bezak san'ati ixtisosligi bo'yicha san'atshunoslik nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008.
3. Такташ Р.Х. Изобразительное искусство Узбекистана (вторая половина XI в-50-е гг. XX в). –Т.: «Фан», 1972.
4. O'zbekiston tasviriy san'ati antologiyasi. – T.: “San'at”, 2011.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati (uchinchi jild). – T.: “O'zME”, 2007. – B.547.
6. Ibrokhim Rakhimovich Abdurakhmonov. Reflection Of Folklore In Applied Art Of Uzbekistan (From The Beginning Of The XX Century To The 90s). The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: February 27, 2021 | Pages: 166-171 Doi: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume 03Issue 02-26>.
7. Ibrohim Rahimovich Abdurahmonov. Concept of mythology represented in fine arts of uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> ISSN: 2278-4853 Vol 9, Issue 10, October, 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882.
8. Ibrokhim R. Abdurakhmonov. Interpretation of mythological topics in the fine art of the XX century. Art and design: social science, volume 02, issue 02, 2022 1 e-issn: 2181-2918; p-issn: 2181-290 x.
9. Ibrohim Abdurahmonov. O'zbekiston tasviriy san'atida folklor motivlari talqini. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1323-1327.

## “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA SULTONLAR VA OLIMLAR XUSUSIDAGI MULHAZALAR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlariga doir mulohazalar bayon etilgan. Shoirning “Hayrat ul-abror” dostonidagi ayrim maqolat va hikoyalar tahliliy mulohazalar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Hayrat ul-abror”, salotin, hukmdor, ilm-ma’rifat, olim, jamiyat.

## РАЗМЫШЛЕНИЯ О СУЛТАНАХ И УЧЕНЫХ В ПОЭМЕ «СМЯТЕНИЕ ПРАВЕДНЫХ»

**Аннотация.** Данная статья содержит комментарии к некоторым социально-философским воззрениям Алишера Навои. Основой для аналитических комментариев послужили некоторые макалоты и рассказы в эпической поэме «Смятение праведных».

**Ключевые слова:** «Смятение праведных», салотин, правитель, знание, ученый, общество.

## REFLECTIONS ABOUT SULTANS AND SCIENTISTS IN THE EPOS

**Abstract.** This article contains comments on some of the socio-philosophical views of Alisher Navoi. The analytical comments were based on some Makolots and stories in the epic poem “Wonders of Good People”.

**Key words:** “Wonders of Good People”, salotin, ruler, knowledge, scientist, society.



2023-yil 9-fevralda, xalqimiz dunyoning ma’rifatparvar insonlaridan biri buyuk shoir va mutafakkir Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligini keng nishonladi. Xususan, joylarda bo‘lib o‘tayotgan navoiyxonlik kunlari, ilmiy-amaliy anjumanlarda shoirning she’r va g‘azallari, dostonlaridan o‘qilib, uning boy merosi o‘rganildi.

Buyuk bobokalonimiz Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haqida so‘z ketganda, biz uni asosan g‘azalnavis shoir, besh dostonni o‘z ichiga olgan “Xamsa” asarining muallifi, yirik davlat arbobi sifatida bilamiz. Navoiyning nafaqat ijod, balki tadbirkorlik, tijorat ishlari bilan shug‘ullanganligi, ayniqsa, xotamiylik bobida ham tengsiz saxovat egasi ekanligi e’tiborga molik, albatta. Buyuk bobomizni anglash uchun so‘zsiz uning adabiy merosini, hayotini chuqur o‘rganish lozim. Uning o‘z zamonasidagi turli xil ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta’limiy masalalar haqida bahs yurituvchi “Hayrat ul-abror” dostoni shoirning dunyoqarashini, o‘rta asrlarda yashab ijod etgan bir ijodkor, tafakkur egasining hayot, jamiyat, insonparvarlik haqidagi qarashlarini aks ettirgan asar, desak adashmaymiz.

Bu asar haqida taniqli navoiyshunos A.Hayitmetov dostonning 1989-yil nashridagi so‘zboshida shunday yozadi: “Navoiy “Hayrat ul-abror”da shoh va uning amaldorlarini, riyokor shayxlarni, ochko‘z feodallarni, poraxo‘r mansabdorlarni ayamay tanqid qilar ekan, ularning satirik obrazlarini chizib, she’riyatni, dostonchilikni real turmush ehtiyojlariga yaqinlashtirdi. Shu bilan birga adolatni, insonparvarlikni, mehnatsevarlikni, saxovatni, ishq va muhabbatni, halollikni, rostgo‘ylikni, ma’rifatparvarlik na shunga o‘xshash boshqa insoniy fazilatlarini ulug‘lovchi satrlari bilan esa ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkur darajasini, she’riyatning jangovarligini yanada yuqori ko‘tardi” [1.2-b].

Haqiqatan ham doston navoiyshunoslar tomonidan falsafiy-didaktik doston, deb bejiz tavsiflanmaydi. Sababi, bu asarda Navoiy bobomizning dunyo, jamiyat, insoniyat haqidagi qarashlari, o‘rta asr kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan turli muammolar, insoniy fazilat va nuqsonlarga

oid fikrlari o‘z aksini topgan.

Buyuk bobomiz o‘zi yashagan davr haqida fikr yuritar ekan, risoladagi hukmdor qanday bo‘lishi kerak, ular qanday jihatlarga ega bo‘lishi, ularning xalqi oldidagi vazifalari va burchlari haqida ham mulohaza yuritadi. Dostonning “Salotin bobida” deb nomlangan uchinchi maqolatda shoir o‘z davri hukmdorlari – sultonlariga qarata shunday deb yozadi: “Senga Tangri imtiyoz berib, saltanatning eng yuksak cho‘qqisiga chiqarib qo‘ydi, shaxsinga taxtni makon qilib, mamlakatda hukmingni yurguzib qo‘ydi.

**Bo‘ldi raiyat galavu sen shubon,  
Ul shajari musmiru sen bog‘bon.  
Qo‘yni shubon asramasa oyu yil,  
Och bo‘rilar tu‘masidur bori bil.  
Boqmasa dehqon chamanin tunu kun,  
Naxli tarin angla qurug‘on o‘tun.**

Ma’nosi. Raiyat go‘yoki gala-yu, sen cho‘pon bo‘lding. Qo‘yni cho‘pon oyu yil asramasa, u och bo‘rilarning yemishiga aylanadi. Dehqon bog‘ini tunu kun parvarish qilmasa, bog‘ning qurigan o‘tindan farqi qolmaydi. Bo‘rini galadan uzoq tutib, bog‘ingga esa suv berib, ma‘mur (serob) qilgin. G‘am yesang, u gala foyda beradi, bog‘ gulu mevdan foydali hosil yetkazib beradi. Gala bo‘rilarga yem bo‘lib tugab, daraxtlar esa qurib tamom bo‘lsa, senga foyda-yu hosili qolmaydi [2.B 24].

Navoiy hukmdorga bu taxt unga Alloh tomonidan berilganini, uning qo‘l ostidagilar ham unga Allohdan omonat ekanligini va bu ne‘matlarning javobini so‘raganda, nima deb javob berishini hozirdan o‘ylashga chaqiradi:

**Negaki, chun xashr kuni zuljalol,  
Zolimu mazlumni aylar savol.  
Anga evazdur, sanga sharmandaliq,  
Anga biyiklik, sanga afgandaliq.  
Til chekib ul xanjari po‘loddek,  
Ochilibon savsani ozoddek.  
Sanga binafsha kibi qaddi nigun,  
Bosh ko‘fara olmay uyotdin zabun.**

*Anga nishotu sanga – anduhu g'am,  
Ul sanga andoqki, anga sen bu dam  
Har ne xato qilg'oning o'lg'och hisob,  
Bo'lg'usidur har biriga yuz azob.  
Tengri bu darding'a davo aylamas,  
Ushbu jihatdinki, haqulloh emas.*

Ma'nosi. Qanchadan-qancha kishilar sening hukmingga bo'ysunadilar, zulm qilsang ham mazlum bo'lib turaveradilar, chidaydilar, garchi martaba-yu, mol-dunyosi bo'lmasa ham ularning poyasi sendan ortiqroq. Qiyomat kuni Yaratgan zolimni ham, mazlumni ham so'roq qiladi. U (mazlum) qaddini tik tutib tursa, sen sharmanda holatda turasan, mazlum Haqning savollariga po'lat xanjardek ochiq, dadil javob qilsa, sen uyatdan bosh ko'tarolmay qolasan-ku!

Alisher Navoiyning yuqoridagi so'zlari nafaqat hukmdorlarga, balki jamiyatning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan katta-yu kichik rahbarlarga qarata aytilgandek, nazarimizda. Bu so'zlar yozilganiga necha asrlar o'tdi, lekin ularning qiymati oshsa oshdiki, ozaygani yo'q. Sababi, kishilik jamiyati naqadar taraqqiy etib borgani, fan-texnika rivojlanib, gadgetlar va internet texnologiyalar asri boshlangani bilan unda insoniy fazilatlar, insoniy his-tuyg'ularga bo'lgan ehtiyoj ortib borayapti. Rahbarlik lavozimiga o'tirgan insonlarning aksar qismi vaqt o'tishi bilan o'z burch-vazifalarini unutishi, ularga ko'rsatilgan ishonchni oqlamasligi, oddiy insonlarni nazarga ilmaslik kasaliga chalinishi bugungi kunda ko'p kuzatiladi. Hattoki, jamiyatda "snobizm" kasaliga chalingan kishilar, ya'ni snoblarning ko'payishi ham shuning natijasidir.

"Snobizm" so'zining asosi "snob" bo'lib, XVIII asrda Angliyada "etikdo'zning shogirdi" ma'nosida ishlatilgan, ammo 1840-yillardan boshlab "jamiyatda o'zidan yuqori pog'onada turuvchilarga o'rinli-o'rinsiz taqlid qiladigan, o'zidan pastdagilarni esa nazariga ilmagan kishilarni" anglatgan. Snob va snobizm so'zlari 1848-yilda ingliz satirik yozuvchisi Uilyam Tekkereyning "Snoblar kitobi" nashr qilinishi bilan yanada keng ommalashdi [3].

"Hayrat ul-abror" dostonida 11-maqolat "Ilm va olimlar haqida" deb nomlanadi. Bugungi kunda nafaqat jamiyatimizda, balki butun dunyoda ilmga va olimlarga bo'lgan e'tibor katta. Ilm-fan taraqqiy etgan yurtda insonlar baxtli hayot kechiradilar. Ma'rifatparvar, ziyolilar, oliy o'quv yurtlari, toliblari ko'p bo'lgan, ilm qilishni, bilim olishni maqsad qilgan jamiyat to'g'ri yo'ldan odimlab, taraqqiy etayotgan jamiyat sanaladi.

Alisher Navoiy bu maqolotda, toki jahon zulmdan voz kechmas ekan, nokaslarga baland martabalar-u, ilm ahliga azob-uqubat nasib qilaveradi, fe'li yomonlar yuksak mavqeni egallab, olamni hukmiga bo'ysundiraveradi deydi:

*Dahr ishi to xalq ila bo'lmish sitez,  
Xor durur olimu, johil – aziz.  
Toki jahon zulmni qilmish pisand,  
Yerga tushar meva, yig'och sarbaland.  
Razlg'a – rif'at, bilik ahlig'a – ranj,  
Tog' uza xorovu, yer ostida – ganj.  
Fe'li yomon topsa rafe' aylabon,  
Hukmig'a olamni mute' aylabon [4.B.158].*

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Hayrat ul-abror" dostoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-yil. – B.2.
2. "Hayrat ul-abror" nasriy bayoni. – T.: "Yangi asr avlodi", 2009. – B.24.
3. www.wictionary.org
4. "Hayrat ul-abror" dostoni. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B.158.
5. "Hayrat ul-abror" dostoni. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.– B.164.

Navoiyning fikrlari naqadar haq ekanligini mana 500 yil o'tsa-da, ko'rib turibmiz. To'g'ri, jahonda ilm-fan rivojlanyapti, texnika juda jadallab ketdi, xonadonlarimizni fan-texnikaning oxirgi yutuqlari bilan jhozlayapmiz, bolalarimiz harf tanib kitob o'qishdan avval, gadgetlarni qo'llariga olyapti. Lekin XXI asr kishisi hali ham mudrayapti, uyg'ongani yo'q. U o'zini texnika yutuqlari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, gadgetlar bilan chalg'itayapti. Zamondoshlarimizning kattagina qismi bu yutuqlardan zerikmaslik uchun hordiq chiqarish, kayfiyatni ko'tarish uchun foydalanadi. Holbuki, bu texnika yangiliklari insoniyatni yangi bosqichga ko'tarish, uning taraqqiyot yo'lini to'g'ri belgilashi, dunyoni yanada go'zal, insonlarni yanada insoniy qilish uchun yaratilgan.

Islom dinida inson tug'ilganidan to qabrgacha ilm izlashi lozimligi ta'kidlangan. Sharq xalqlarining folklor namunalaridan tortib, buyuk ajdodlarimizning turli asarlarida ilmga mehr qo'yish haqida juda qimmatli fikrlar aytilgan. Alisher Navoiy ham yuqorida tilga olgan 11-maqolatda olimlar haqida so'z yuritar ekan shunday deb yozadi:

*Ilmni kim vositai joh etar,  
O'ziniyu xalqni gumroh etar.  
Olim agar jon uchun o'lsa zalil,  
Ilmni aning jahlig'a bo'lg'ay dalil [5.B.164].*

Ma'nosi. Ayrim johil, ilmsiz kimsalar olimlardan, ilm yutuqlaridan o'zlarining maqsadlari uchun foydalanmoqchi bo'ladilar. Bunday maqsad uchun o'z ilmidan foydalangan olimlar ham o'z nomiga dog' tushiradilar. Olim doimo ilmiga sadoqat bilan xizmat qilishi kerak. Uni faqat ezgu maqsadlar uchun sarflashi lozim.

Bu maqolotdan keyin keltirilgan "Imom Faxr Roziy va Xorazm shohi haqida hikoya"da ham hammomda uchrashib qolgan imom va shohning suhbat beriladi. Shohning "Mahshar kuni odamlarning holi ne kechadi?" degan savoliga imomning bergan javobi bugungi kun kishisini ham o'ylantirmay qolmaydi. Sulton bo'lsa-da mahshar kuni uning yonida hech narsasi bo'lmasligini, imom Faxr Roziyning esa ilmi unga shunday kunda ham najot bo'lishini aytadi.

Darhaqiqat, ilm izlash, bilim olishga intilish har bir insonga xos jihat bo'lishi kerak. O'tmishda ham hozir ham olimlar bejiz jamiyatda hurmat-e'tiborga loyiq kishilar, deb hisoblanmaydi. Ularning ilmi uchun, tafakkuri uchun, hayotga, jamiyatga doir keng dunyoqarashi, turli muammolarga javob topishda ko'rsatgan riyozati uchun qadrlaydilar, ularga ergashishga, o'xshashga harakat qiladilar. Ammo bugungi kunda olimlar ichida ham turli kishilarni uchratish mumkin. Ilm yo'lini ilmga umrini sarflash uchun emas, balki obro'-e'tibor, to'kin hayot, yuqori lavozim uchun tanlaganlar ham afsuski, ko'p uchraydi.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida yana juda ko'p mavzular haqida fikr yuritilgan. Ularning har biri haqida maqola, ilmiy tadqiqotlar qilinsa arziydi. "Yaxshi kishilarning hayratlanishi" deb tarjima qilindigan bu doston yana ko'p yillar biz kabi avlodlarning hayratlanishiga sabab bo'laveradi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

## BADIIY SO'Z: KECHA VA BUGUN

**Annotatsiya.** Mavzu an'anaviy suxandonlik va zamonaviy boshlovchilik maktablarining uyg'unligi qanday ijobiy natijalar berishi mumkinligi haqida.

**Kalit so'zlar:** suxandon, boshlovchi, musiqiy bezak, rolik, tinglovchi, kompyuter, internet, tasavvur, axborot, teatr, efir, reportaj, sintez, eshittirish, dastur, muharrir.

## ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СЛОВО: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ

**Аннотация:** Тема о том, как сочетание традиционного вещания и современных школ лидерства может дать положительные результаты.

**Ключевые слова:** диктор, ведущий, музыкальное украшение, барабан, слушатель, компьютер, интернет, воображение, информация, театр, передача, репортаж, синтез, программа, редактор.

## ARTISTIC WORD: YESTERDAY AND TODAY

**Abstract.** The topic is about how the combination of traditional broadcasting and modern leadership schools can bring positive results.

**Key words:** announcer, presenter, musical decoration, drum, listener, computer, internet, imagination, information, theater, transmission, reportage, synthesis, transmission, program, editor.



O'zbekiston Mustaqillikka erishgach, milliy ma'naviyatimizni tiklash, ezgu qadriyatlarimizni asrab-avaylash, madaniyatimiz va san'atimizni istiqloq g'oyalari singdirilgan yetuk asarlar bilan boyitish va shular asosida har tomonlama yetuk va barakamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2014-yil 6-fevralda qabul qilingan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Qarori bu vazifalarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligining yana bir tasdig'i bo'ldi. Bu qaror bevosita ilm-fan, adabiyot, ommaviy axborot vositalari, san'at va madaniyat namoyandalari zimmasiga yanada sharafli mas'uliyatni yukladi. Yangi insonni kamolga yetkazishda, uning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda, vatanni sevish, unga daxldorlik tuyg'usini uyg'otishda san'atning o'rni beqiyosdir. Chunki san'at har bir millatning madaniyati yuksalganligi va millatning balog'atga yetganligini yaqqol ko'rsatuvchi oynadir.

Bunday g'oyatda muhim va dolzarb vazifani uddalash, zamon qahramoni obrazini yaratish barcha san'at turlari qatori notiqlik san'ati, xususan, teleradioboshlovchilik san'ati zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Bu yo'nalishni haqiqiy san'at darajasiga ko'tarish unga aynan aktyorlik san'ati nuqtayi nazaridan yondoshishni talab qiladi. Bejiz turli sohada ma'ruza qiluvchi notiqlar aktyorlarni o'zlariga "etalon" deb bilishmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dastlab oddiy axborot vositasi sifatida paydo bo'lgan televideniye va radio bugungi kunda tom ma'noda sintez san'at darajasiga chiqib ulgurdi. Radio va telvideniye kundalik hayot oldimizga qo'yayotgan ma'naviy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy masalalarni hal qilish hamda ularni omma orasida targ'ib qilishda faol ishtirokchigina emas, balki millatimiz vorislarini istiqloq

g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning estetik didini o'stirishdek murakkab burchni o'tovchi ulkan hayot maktabi hamdir.

Radio va televideniye eng zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan qurollangan holda jurnalist, rejissyor va operatorlarning yakdil jamoa bo'lib ishlashi oqibatida o'z oldiga qo'ygan vazifani uddalashga harakat qilar ekan, baribir, boshlovchisiz hech qanday natijaga erisha olmaydi. Chunki boshlovchigina jonli so'z xatti-harakati hamda ijodiy tasavvuri bilan radio va teledasturga hayot baxsh etadi, tinglovchini hayajonga solib, o'z ortidan ergashtiradi.

Mustaqillikka qadar boshqa hamdo'stlik mamlakatlari kabi O'zbekiston ham totalitar tuzum sharoitida 70 yil yashadi. Radioning ta'sir kuchi va imkoniyatlarini anglagan qizil imperiyachilar dastlabki paytlardanoq undan kuchli targ'ibot va tashviqot vositasi sifatida foydalanishni yo'lga qo'yidilar. Hukumat qarorlari, davlat ahamiyatidagi muhim hujjatlar albatta o'sha davrdagi ilk suxandonlar tomonidan yuqori pardada, minbarona o'qilishi talab etilgan va shunday o'qilar edi. Jumladan, O'zbekiston radiosidagi ilk suxandonlar faoliyati ham shu asosda yo'lga qo'yilgan edi. Natijada shunday radionutq formasi va uning negizida suxandonlarning an'anaviy nutqiy maromi va muloqot ko'rinishi shakllantirildiki, O'zbekiston radiosida 80-yillar oxirlariga qadar ushbu radiomuloqot uslubida eshittirishlar uzatish davom etgan. Diktorlarning ushbu an'anaviy matn o'qish uslubi, to'g'rirog'i, "qolip"i shu darajada ommalashib, qon-qonimizga singib ketdiki, radiomatn-axborot, ma'lumot, yangilik, xabarlar va radiomuloqot xuddi shu uslubda tinglovchiga yetkazilishi shart va lozim degan qat'iy nutqiy marom yuzaga keldi. Bu jarayonlar o'sha zamon nafasi, davr talabi va shartlariga binoan sun'iy tarzda shakllantirildi, lekin tabiiy ravishda rivojlandi.

O'zbekistonda radioning yaratilishi bilan bir paytda shakllantirilgan ushbu suxandonlik maktabining keyinchalik an'anaviylik kasb etgan ushbu "nutqiy marom uslubi"ni ham ana shu radioning an'anaviy faoliyati bilan hamnafas sharoitda yashab faoliyat yuritganliklari sababli, unga mehr-muhabbati baland bir necha avlod vakillarini ham qoralamoqchi emasmiz. Bunda hech bir insonning aybi yo'q. Kishilik jamiyati taraqqiyoti yangilanish, o'zgarish, evrilishlardan iborat ekanligini nazarda tutsak, bugungi kundagi radioda axborot o'qish, ma'lumot yetkazish, muloqot qilish, efir olib borish borasidagi yangicha mezonlar va talablarga javob berish uchun ularga moslashish "dogmatik" kayfiyatdagi ayrim tinglovchilarga katta bir fojidek tuyulmasligi kerak. Qolaversa, eski "qolip"lar tufayli tinglovchilaridan tobora uzoqlashib, auditoriyasini boy berib qo'yayotgan radiokanal uchun islohotlarni amalga oshirishni davrning o'zi talab qiladi.

O'zbek radiosi tarixida hayot mazmunini suxandonlikka bag'ishlab, xalqning mehrini, e'tiborini qozongan insonlar talaygina. Masalan, Qodir Maxsumov, Tuyg'unoy Yunusxo'jayeva, Davron Zunnunov va boshqalar. Ularning nomi tarixda abadiy qoladi, chunki ular o'zlarining suxandonlik maktabini yarata olganlar. Ularning suxandonlik faoliyatidagi ayrim unsurlarni bilish, o'rganish, o'zlashtirish hozirgi kun radioboshlovchisi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ana shu maktab an'analaridan ham boxabar bugungi kun boshlovchisi matn o'qishda diksiya, intonatsiya borasida qiyinchilikka uchramaydi.

An'anaviy diktorklik faoliyati sharoitidagi radioning tinglovchilardan tobora uzoqlashganligining sabablariga kelsak, suxandon nutqida temp (shiddat)ning pastligi, ohangarlik, bir xil intonatsiya, pauza va eng asosiysi bir xil ohangning bitta parda (nota)da ketma-ket takrorlanishi borib-borib me'daga urish jarayonini tezlashtirdi. Chunki tinglovchilarning qabul qilish psixologiyasi, ta'bi noziklashdi. U doimo xuddi robot yoki kompyuterga o'xshab bir xil temp va ohangda gapiradigan radiodan beziy boshladi. Unga oddiy va samimiy, muhimi dilkash hamroh bo'la oladigan radio kerak bo'lib qoldi. Tinglovchilar didining o'zgarishiga esa axborot texnologiyalarining rivojlanishi, texnik taraqqiyot, globallashuv jarayonlari ta'sir qildi. U turli mamlakatlarning, o'zimizning an'anaviy efillarimizga o'xshamaydigan erkin, quvnoq, samimiy radiolarini, qolaversa, o'zimizda ham faoliyati yo'lga qo'yilgan FM radiostansiyalarini eshitgach, "imillab" soatlab gapiradigan eskicha formatdagi radioni eshitmay qo'ydi.

Har qanday kasbni egallash, avvalo, uning tarixini o'rganishdan boshlanadi. Shunday ekan, keling, radio, dunyo radiosi tarixiga murojaat qilib ko'raylik. Radio aloqaning ixtiro etilishi – insoniyat tafakkuri va fan-texnika taraqqiyoti erishgan eng muhim yutuqlardan biri sifatida baholanadi. O'tgan davr mobaynida radioaloqa o'z rivojlanishining ulkan yo'lini bosib o'tdi va bugungi kunga kelib kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Elektromagnit to'lqinlarni simsiz qabul qilish imkonini beruvchi radiopriyomnikni dunyoda birinchi bo'lib yaratgan buyuk olim Aleksandr

Stepanovich Popov 1895-yilning 7-may kuni o'z ixtirosini fan vakillari oldida namoyish etdi. Va bu sana jahon fan-texnika tarixidan radioning yaratilishi sifatida joy oldi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, O'zbekistonda dastlabki tajribaviy eshittirishlar 1926-yilda Toshkentda o'tkazilgan. 1927-yil 27-mart kuni birinchi marotaba radioeshittirish efirga uzatila boshlangan. Unda ilk suxandon Nazirxon Kamolov bo'lgan. Dastlab efirga uzatish jadvali 6:00 dan 14:00 gacha va 17:00 dan 24:00 gacha belgilangan bo'lib, dasturlar o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tojik va rus tillarida olib borilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston radiosida Hamid G'ulom, Turob To'la singari adiblar ham faoliyat ko'rsatib, o'z san'ati, talaffuz madaniyati borasida o'zbek tilining badiiy kamolotiga katta hissa o'shganlar.

Bugungi kunda esa radio efir o'tmishdagi qiyofasidan farq qiladi. Ayniqsa, efirga uzatilayotgan dasturlarda musiqiy lahzalar ma'lum bir vaqt birligini o'z ichiga oladi. Unda boshlovchiga erkin ijod qilish huquqi beriladi. U qo'shiqdan so'ng o'z fikrlash qobiliyatidan, bilimi va salohiyatidan kelib chiqib tinglovchi bilan muloqotga kirishadi. Bunda qo'shiq mavzusiga e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda boshlovchi tinglovchining e'tiborini tortish, uni zeriktirib qo'ymaslik uchun efirni yengil va jozibali suhbat tarzida, rasmiyatchiliksiz, samimiy kayfiyatda boshqarib borishi lozim. Ammo eng mas'uliyatli damlar hali oldinda. Chunki musiqiy lahzalardan so'ng tajribali jurnalist tomonidan tayyorlangan jiddiy (siyosiy yoki iqtisodiy, ijtimoiy yoki adabiy) mavzudagi mukammal eshittirish efirga uzatilishi kerak. Endi boshlovchi bu dasturni yuqori saviyada tinglovchiga yetkazish uchun oldingi uslubni qo'llay olmaydi. Agar shunday yo'l tutsa eshittirishning saviyasi tushib ketadi, tinglovchi befarq bo'la boshlaydi. Bunday holga tushib qolmaslik uchun mikrofon oldidagi ijodkordan dastur kayfiyatini ilg'ay olish talab etiladi. U faqat chiroyli ovozi emas, balki tom ma'noda aktyorlik qobiliyati, suxandonlik salohiyatini ishga sola bilmog'i lozim.

"Axborot" dasturini olib borayotgan suxandon-boshlovchining matn o'qish uslubi yagona tizimni saqlagan holda rang-baranglik xususiyatiga ega bo'lishi lozim. O'zni tanishtiruv hamda dastur mundarijasida ovozda biroz keskinlik va ixchamlik, respublika xabarlarida samimiylik, xorij xabarlarida yanada keskinlik va betaraflik, sport sahifasida esa shijoat va yengillik, ob-havo ma'lumotida tabiatga xos mayinlik va xotirjamlik ohangi sezilib turishi kerak. Shundagina tinglovchi xayrlashayotgan suxandon ovozini yana eshitgisi keladi. Bunday mahoratga mikrofon oldidagi erkinlik, yuksak tajriba orqaligina erishish mumkin. Erkinlik va tajriba aktyorlik mahoratining barcha elementlarini mukammal o'qish va o'rganish tufayli keladi. K.S.Stanislavskiy aytganidek: "Qiyinchilikni – odatiylikka, odatiylikni – yengillikka, yengillikni – go'zallikka", aylantirish lozim.

Boshlovchi bitta, lekin auditoriyada bir necha ming, balki bir necha million tinglovchi bo'lishi mumkin. Ko'pchilikning ko'nglini topish, ularga yoqish, ularning



ko‘nglidagini topib aytish, bu albatta, murakkab va og‘ir jarayon. Bir vaqtning o‘zida aniq (real) va mavhum auditoriya boshlovchi faoliyatidagi murakkab jihat aynan ana shu. Notiq belgilab olgan mavzusi doirasida nutq irod etayotganda, oldidagi aniq va muayyan sondagi kishilardan iborat auditoriya bilan bevosita munosabatda bo‘ladi. Gapirayotgan har bir jumlasini, so‘zi auditoriya tomonidan qanday qabul qilinayotganini yoki qabul qilinmayotganini soniyaning yuzdan bir ulushi tezligida sezadi, chunki inson sezgisi bunday vaziyatlarda aldamaydi va shularga binoan keyingi jumllarini xayolida tuzadi. Bunday vaziyatda auditoriyadagi har bitta tinglovchi bilan notiq o‘rtasida ko‘rinmas energiya almashinuv jarayoni kechadi. Endi xuddi shu manzarani radio efirga ko‘chirib taqqoslasak, boshlovchi ham kasb malakasi oshib borgani sari auditoriyani his qilishi kuchayib boradi, millionlab tinglovchi uni tinglayotganini sezishi undagi mas’uliyatni kuchaytiradi. U quruq havoga yoki mikrofonga gapirmayapti, uni kimlardir tinglayapti. Buni boshqalardan ko‘ra ko‘proq his qila olgan boshlovchining muvaffaqiyatliroq faoliyat yuritishi tayin.

Bundan 30-40 yil oldingi tinglovchi bilan hozirgi tinglovchining yer bilan osmoncha farqi bor. U paytlarda tinglovchi efirda dasturni olib borayotgan radioboshlovchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri telefon orqali bog‘lana olmas, dastur yoki unda ko‘tarilgan mavzu haqida o‘z fikrini bildirish imkoniga ega bo‘lmasdi. Tinglovchi o‘zining qarashlarini faqat maktub orqali yo‘llashi mumkin edi. Bugungi tinglovchida esa imkoniyatlar juda ko‘p. Shulardan eng qulayi va

tezkori dasturda tinglovchining bevosita telefon orqali ishtirok eta olishi va o‘z fikr- mulohazalarini oshkora izhor qilish imkoniga egaligidir. Bu jihat haqiqiy shinavanda tinglovchini ruhlantiradi, hatto shunday hollar ham uchraydiki, o‘zi bilibmi yoki bilmaymi, dasturni qanday yo‘nalishda olib borish kerakligi borasida “maslahatlar” ham bera boshlaydi. Bunday tinglovchilar “injiq tinglovchilar” toifasiga kiradi. Radioboshlovchi bunday vaziyatlarga ham tayyor turishi lozim. Qanday qilib? Avvalo radioboshlovchida efirda telefon orqali hamsuhbat bo‘layotgan tinglovchining kayfiyatini uning ovoz jarangidan, jumla qurish uslubidan ilg‘ay olish qobiliyati bo‘lishi zarur. Qolaversa, radioboshlovchi o‘zi olib borayotgan dasturda ko‘tarilayotgan mavzuni imkon qadar chuqur bilishi, dasturni tayyorlagan muallifning maqsad va vazifalarini aniq fahmlashi lozim. Shundagina u, “injiq tinglovchi”ning ilmog‘iga ilinib qolmaydi.

Yana bir toifa tinglovchilar borki, ular “ovoz shaydolari” deyiladi. Bunday toifadagi tinglovchilar uchun dasturda ko‘tarilayotgan mavzu ikkinchi darajali. Ularga faqat o‘zi yoqtirgan shirali ovoz jaranglab tursa bas. Shu ovoz sohibi olib borayotgan hamma dastur ularga yoqaveradi. Bunday tinglovchilar bilan muloqotga kirishish boshlovchini ham ruhlantiradi. Lekin radioboshlovchi bu “ilmoq”qa ham ilinib qolmasligi, me’yorni saqlagan holda, mavzudan chetlashmasligi lozim. Ana shu talablarga javob bera oladigan tom ma’nodagi professional suxandon-boshlovchilarni tayyorlash uchun esa ko‘plab o‘quv qo‘llanmalar, adabiyotlar va darsliklar chop etilishi lozim. Bu masalaning eng muhim jihatlardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 16-yanvar. №11.
2. Sherel A. A. Radiojurnalistika. Moskva davlat universiteti nashriyoti, 2000.
3. Yorbekov E., Muxammadiyev Sh. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: 2019.
4. Hamid G‘ulom zamonloshlari xotirasida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
5. Alimjonova Z. Sahna nutqi. –T.: “Fan”, 2005.
6. Sayfuddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. – T.: “Fan”, 1980.

## O'ZBEK FILMLARI TALQINIDA QANOTLI SO'ZLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Jahon tilshunosligida lisoniy birliklar orasida qanotli so'zlar alohida o'rin tutadi. Qanotli so'zlar yaxlitlik, turg'unlik, ma'nodorlik, alohida shakllanganlik, faol qo'llanuvchanlik, ta'sirchanlik, biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanish, ongda qayta in'ikos etishlik, muallif yoki manbaga mansublik jihatlariga ega bo'lgan til birligidir. Quyidagi maqolada o'zbek kino san'atidan olingan qanotli so'zlar borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qanotli so'z, obrazlilik, yaxlitlik, keng qamrovlilik, ma'nodorlik, qo'llanuvchanlik, lo'nda, kino, san'at.

## ЗНАЧЕНИЕ КРЫЛАТЫХ СЛОВ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЗБЕКСКИХ ФИЛЬМОВ

**Аннотация.** Крылатые слова занимают особое место среди языковых единиц в мировой лингвистике. Крылатые слова - эта единица, которая имеет аспекты целостности, стойкости, осмысленности, отличительности, активного использования, эффективности, ассоциации с событием или явлением, воспроизводимости и имеющие авторство или источник происхождения. В статье рассматриваются крылатые слова, взятые из искусства узбекского кино.

**Ключевые слова:** крылатые слова, образность, целостность, широкоохватность, содержательность, широкоупотребительность, лаконичность, кино, искусство.

## SIGNIFICANCE OF WINGED WORDS IN INTERPRETATION OF UZBEK FILMS

**Abstract.** Winged words occupy a special place among linguistic units in world linguistics. Winged words are a unit that has aspects of integrity, persistence, meaningfulness, distinctiveness, active use, effectiveness, association with an event or phenomenon, reproducibility, and authorship or source of origin. The article deals with winged words taken from the art of Uzbek cinema.

**Key words:** winged words, figurative, general, character, meaning of content, wide usage, wide consumption, laconic, cinema, art.

Qanotli so'zlar dunyo madaniyatida va har bir xalqning milliy madaniyatida alohida o'ringa ega bo'lgan obrazli ifodalar, alohida iboralar sanaladi. Ular turli tillarda so'zlashuvchi xalqlarning nutqida keng qo'llanadi. Qanotli so'zlar tilga yaxlit holda kirgan va ulardan ijtimoiy, maishiy, ruhiy ko'rinishlarning ifodali tavsifi sifatida foydalaniladi. Qanotli so'zlar semantik jihatdan yaxlitlik, turg'unlik, ma'nodorlik, alohida shakllanganlik, faol qo'llanuvchanlik, ta'sirchanlik, biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanish, ongda qayta in'ikos etishlik, muallif yoki manbaga mansublik jihatlariga ega bo'lgan til birligidir. Ular nutqda lo'nda shaklda chuqur fikrlarni aniq va obrazli ifodalaydi, murakkab holat va xarakterlarning ma'nosini lo'nda tarzda aniqlab bera oladi.

Qanotli so'z tushunchasining tarixi uzoq davrga, Gomerning "Iliada" va "Odyssey" asarlariga borib taqaladi. Manbalarda berilishicha, ushbu asarlarda qanotli so'z alohida termin sifatida emas, balki so'z qanotida fikr obrazdan obrazga ko'chadi. Qanotli so'z termin sifatida ilk bor nemis yozuvchisi Fridrix Klopshtok (1724–1803) va ingliz tarixchisi, faylasuf va badiiy tanqidchi Tomas Korley (1795–1881) maqolasida keltirilgan [1.3].

Qanotli so'zlarni ilmiy jihatdan o'rganish esa nemis olimi Georg Byuxman (1822–1884) nomi

bilan bog'liq. Muallif nemis tilidagi qanotli so'zlarni o'rganar ekan, ularni: "Keng davrada doimo onavatan hikmatlarini takrorlovchi, har qaysi tilga mansub bo'lgan ibora yoki nom, tarixiy manba yoki badiiy kelib chiqishi aniq bo'lgan so'zlar", deb ta'riflaydi. Uning qanotli so'zlarga bag'ishlangan qo'llanmasida (1864-yil chop etilgan) yunon, lotin, nemis, fransuz va italyan yozuvchilariga mansub, shuningdek, bibliyaga oid hamda tarixiy qanotli so'zlar o'rin olgan [2].

Rus tilshunosligida qanotli so'zlar tadqiqini yozuvchi-belletrist va etnograf S.V.Maksimov boshlab bergan. Muallif «Крылатые слова» deb nomlangan to'plamining so'z boshida: "Bularning ko'plari lotin klassiklari tomonidan kam sonli, ixcham so'zlar orqali aytilgan o'zgalarning ajoyib fikrlaridir. Albatta, ularning faqatgina tarjimalarini emas, balki boshlang'ich manbasini ko'rsatish, ularning dastlabki kelib chiqish sababini, asl o'zagini ko'rsatish talab etiladi", deb yozadi [4.3-4].

Keyinroq, ushbu yo'nalishda I.Ye.Timoshenko tadqiqot olib bordi. U o'z ishini «Литературные первоисточники и прототипы трёхсот русских пословиц и поговорок» deb nomlaydi. Ushbu izlanishda muallif katta tarixiy-badiiy materiallarga tayangan holda yunon va rim yozuvchilarining, shuningdek,

«Древних и средневековых паремيوграфов» to'plamidagi rus maqollarini tahlil qilgan [8.174].

XX asrga kelib, qanotli so'z termini ko'plab rus tilshunoslarining e'tiborini tortdi va rus olimlari qanotli so'zlarni boshqa birliklardan farqlash va ularni lug'at sifatida jamlash borasida tadqiqotlar olib borishdi. Bu yo'nalishga M.I.Mixelson birinchilardan bo'lib kirishdi va uning «Русская мысль и речь. Свое и чужое. Опыт русской фразеологии» nomli to'plami chop etildi. Ushbu to'plamda Bibliyaga, mifologiyaga oid badiiy iboralar, buyuk shaxslarning mulohazalari, maqollar, idiomalar, mifologik va badiiy personajlarning turdoshga aylangan ismlari jamlangan va izohlangan [5.10].

M.I.Mixelson qanotli so'z iborasini termin sifatida emas, balki *“Qanotli so'zlar gapiruvchining og'zidan uchib chiqqan so'zdir”*, deya ta'riflaydi. Biroq lug'atning so'nggida muallif: *“So'nggi davrlarda bu so'z og'zaki va yozma ravishda “keng tarqalgan so'z” o'rnida tez-tez qo'llanayotgan bo'lsa-da, u turlicha tushuniladi va tushuntiriladi”*, deb fikr bildiradi. M.I.Mixelson bu kabi birliklarni *“ta'sirchan va keng tarqalgan so'z”* deb izohladi va muallifning shunday nom ostida 4389 lug'at maqolasidan tashkil topgan to'plami chop etildi [6.690].

S.G.Zaymovskiyning «Крылатые слова. Справочник цитаты и афоризма» nomli to'plamining maydonga kelishi qanotli so'zlar tadqiqida yangi davrni boshlab berdi, deyish mumkin. Muallif to'plamning birinchi nashrida so'z yoki iboraning qanotli bo'la olishi uchun uning badiiy manbasi yoki muallifi aniqlangan va ko'rsatilgan bo'lishi hamda u vaqtinchalik emas, balki uzoq muddatli bo'lishi kerak, degan talablarni bildiradi. Muallif qanotli so'zlarni *“xalq maqol va matallaridan farqli badiiy bilimdon davraning maqol va matallari”*, deya izohlaydi [3.15].

Rus tilshunosligida qanotli birliklarga oid muammolar N.S.Ashukin va M.G.Ashukinalarning «Литературные цитаты. Образные выражения» qo'llanmasida ma'lum darajada o'z talqinini topdi. Qo'llanmaning so'z boshida mualliflar: *“Taqdim etilayotgan kitobning tarkibi qanotli so'z terminining tor doiradagi ma'nolari, ya'ni badiiy yoki aniq tarixiy manba bilan chegaralangan. Ushbu kategoriyaga mansub qanotli so'zlar kelib chiqishi jihatidan turlicha. Ularning ba'zilari alohida bir o'tgan davrda vujudga kelgan bo'lsa, boshqalari yangi davrga mansub. Turli davr yoki milliy madaniyatlar ularning miqdorini boyitib bordi. Antik adabiyot va Bibliya afsonalari, xalq qo'shiq va ertaklari, jahon badiiy adabiyoti, tanqid, publitsistika, yodgorliklar, tarixiy hujjatlar, ilmiy bayonlar, siyosiy va ijtimoiy arboblarning nutqlari qanotli so'zlarning sermahsul manbasi hisoblanadi. Ular turli fikr, ko'rinishlar, murakkab obrazlarni lo'nda ifodalagan holda ongimizda qator fikrlar uyg'otadi. Biror qanotli so'z kelib chiqishi bilan yetarlicha tanish bo'lmaslik assotsiatsiyaning zaiflashishiga olib keladi va qanotli so'zning ma'nosi noto'g'ri tushuniladi”*, deb izohlashdi [1.5-6].

Ko'rinadiki, qanotli so'zlar tadqiqi borasida jahon tilshunosligida talaygina ishlar amalga oshirilgan. Lekin ularni alohida til birligi sifatida o'rganish borasida tilshunoslar o'rtasida tortishuvlar davom etmoqda.

Biz qanotli so'zlarni o'zbek tili misolida ko'rib chiqishni o'zimizga maqsad qilib qo'ydik. Aytib o'tish joizki, *“qanotli so'z”* o'zbek tilining izohli lug'atida termin sifatida aks etmagan va o'zbek tilshunosligida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Lekin ushbu termin qo'llangan, ya'ni 1986-yil folklorshunos Erkin Siddiqovning *“Qanotli s'z-lap”* nomli to'plami nashr etilgan. Muallif ushbu tushuncha ostida maqol, matal va hikmatli so'zlarni jamlagan. Manba *“Qanotli so'zlar”* deb nomlangan bo'lsa-da, unda muallif tomonidan ushbu tushuncha haqida fikr bildirilmagan. To'plamning kirish qismida muallif: *“Men ham bir havasmand folklorshunos qatori o'zbek xalq maqollari va hikmatli so'zlarini uzoq yillardan buyon o'rganib, yozib olib hamda tartibga solib kelaman”*, deb yozadi [10.3].

Shuningdek, Jaloliddin Safoyevning *“Qanotli s'z-lap: kim tomondan, qachon va nima muhosabat bilan aytilgan?”* to'plami nashr etilgan. Mazkur to'plamning kirish qismida muallif jurnalist do'stlari davrasida mashhur iboralarning mualliflari borasida bahslar bo'lib turishi, lekin ularning oydinlashmayotganligi sababli qanotli so'zlarga, ularning tarixi va mualliflariga qiziqish uyg'onganligini va shuning natijasida ushbu to'plamni yaratganligini bayon qiladi. Ushbu to'plam turli tillarga mansub to'rt yuzdan ortiq siyosiy, ijtimoiy va tarixiy ruhdagi qanotli iboralarni jamlagan bo'lib, ular haqida muallif: *“Asosan rus tilida chop etilgan kitoblardan foydalanganligimiz bois, iboralar va ularning sharhlarini o'z fikri ojizimizcha, ammo originaldan uzoqlashmagan holda erkin tarjima qildik va ularga sharh berishda ham shu kitoblarga, ayrim o'rinlarda shaxsiy mulohazalarimizga tayandik”*, deb yozadi [9.3].

Demak, qanotli so'zlar o'zbek tilshunosligida yechimini kutayotgan masala hisoblanadi. Quyidagi maqolada kelib chiqishi kino san'atiga doir bo'lgan qanotli so'zlar borasida so'z yuritiladi. Ma'lumki, san'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at o'zining turli ko'rinishlari bilan badiiy-estetik qadriyatlarni to'plash, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo'lgan estetik tizimni tashkil etadi. Qanotli so'zlarning ushbu manbasi bo'yicha rus tilshunoslari O.G.Salnikova va S.G.Shulejkovalar tadqiqot olib borishgan. Ularning fikricha, san'at bilan bog'liq qanotli so'zlarning muallifga ega ekanligi faqatgina muallif bilan emas, balki kompozitor, ba'zida aktyor-ijrochi bilan ham bog'liq ekanligini ta'kidlashadi. Mualliflar san'atning qo'shiq, romans, tasviriy san'at, kino, televideniye kabi turlarini qanotli iboralarning manbasi sifatida ajratishadi va keng tasvirlashadi. Shuningdek, ular hozirgi kunda rus tilida mingdan ortiq san'atga doir qanotli iboralar qo'llanilayotganligini ta'kidlashadi [7].

Kino san'atiga doir qanotli so'zlar til va madaniyatda alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, kino san'ati kundalik hayotga tez singib, insonlar ongiga kuchli ta'sir etuvchi manba hisoblanadi. Filmlardagi ba'zi ifodalarning qanotli so'zlarga aylanishida qator omillar mavjud. Yodda saqlanuvchanlik tomoshabinlarning aktyorlarga bo'lgan simpatiyasi bilan ham bog'liqdir. Shubhasiz, filmning tomoshabop yaratilganligi, syujetning muhimligi, ko'tarilgan muammoning dolzarbligi va hayotiyliigi muhimdir. Filmning muvaffaqiyatli chiqishi rejissyorni o'z ishining ustasi ekanligiga, aktyorning mahoratiga bog'liq. Chunki filmlar ushbu mezonlarga mos yaratilgandagina, tomoshabin qalbiga chuqur singib kiradi va ulardagi obraz yoki ma'nodor so'zlar ongda o'rnashib qoladi.

O'zbek kinosi tarixiga nazar tashlasak, xalqning dilidan o'rin olgan anchagina boy meros qoldirganligini guvohi bo'lamiz. Bunga misol qilib haligacha xalqimiz tomonidan sevib tomosha qilinadigan, barchaning qalbida alohida o'rin egallagan "O'tkan kunlar", "Shum bola", "Mahallada duv-duv gap", "Kelinlar qo'zg'oloni" singari filmlarni keltirish mumkin. Ushbu filmlarning qanchalik xalq diliga kirib borganligini ulardan olingan ayrim iboralar, obrazli ifodalar, ya'ni qanotli so'zlar misolida ham ko'rish mumkin. Mazkur qanotli so'zlar nutqda faol qo'llanib, tilimizni boytishga, uni ma'nodor va serjilo qilishga yordam berib kelmoqda. Xalqimiz ushbu qanotli so'zlarni ularning yaralish tarixi bilan bog'liq bo'lgan voqea yoki hodisalarga o'xshash jarayonlarga duch kelishganda beixtiyor qo'llaydi va o'z fikrlarini obrazli, lo'nda tarzda yetkaza oladi.

Masalan, "Siz o'shamu?" qanotli so'zini olaylik. Bu so'zlar xalqimizning sevimli yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida 1969-yil yaratilgan (rejissyor: Yo'ldosh A'zamov) filmdagi Kumush tilidan aytilgan. Iste'dodli aktrisa Gulchehra Jamilova tomonidan qiyomiga yetkazib ijro etilgan mazkur obraz barchaning qalbida chuqur iz qoldirgan. Filmida Kumushning Otabekka qarata aytgan bu so'zlari bugungi kunda o'zini tanishtirayotgan shaxsga nisbatan qo'llanadi. "Siz o'shamu?" qanotli so'zining qo'llanilishi, o'zini tanishtirayotgan shaxs haqida go'yoki oldindan ma'lum darajadagi fikrlarga egaday, bilgan, tanigan kishisiday qabul qilayotganligini obrazli ifodalaydi va vaziyatga komik jilo beradi.

Xurshid Davronning ushbu asardan ilhomlanib yaratgan va iqtidorli xonanda Shuhrat Qayumov tomonidan ijro etilgan "Siz o'shamu?" nomli qo'shiqning yaratilishi mazkur qanotli so'zni yanada keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Ushbu qo'shiqda obrazli iqtibos sifatida olingan "Siz o'shamu?" qanotli so'zi she'rning asosini tashkil etadi.

"O'nta qo'y nima bo'ladi?" qanotli so'zi beixtiyor rejissyor Shuhrat Abbosov tomonidan yaratilgan "Mahallada duv-duv gap" (1960-yil) filmi yodimizga soladi va film voqealari ko'z o'ngimizdan o'tadi. To'y arafasida Oyposhsha (Maryam Yoqubova) eridan "To'yga nechta qo'y oldingiz?" deb so'raganida,

eri past ovozda "Bitta" deb javob beradi. Shunda Oyposhsha baland ovozda, qo'shnilar ham eshitsin deb "O'nta qo'y nima bo'ladi?" deydi va "dushmanlarim kuyib kul bo'lsin deymanda", deb o'z niyatini obrazli namoyon qiladi. Shunga ko'ra, Oyposhshaning fe'l-atvoridan kelib chiqib har narsani pul bilan o'lchaydigan, katta gapiradigan shaxslarga xalqimiz shu gap bilan pisanda qiladi.

Shuningdek, "O'g'lim, ovqatingni yemaysanmi?" qanotli so'zi Oyposhshaning eri, ombor mudiri Arslonga mansubdir. Arslon filmida ishxona yoki oila muammolari oldida kuchsiz, qornini o'ylaydigan shaxs sifatida gavdalangan. Shundan kelib chiqib ushbu qanotli so'z har narsadan ko'ra, qorin to'ydirishni o'ylab turgan shaxslarga nisbatan qo'llanadi va ovqatxo'r ma'nosini anglatadi.

Yana shunday tomoshabinlarning qalbida chuqur iz qoldigan filmlardan biri "*Kelinlar qo'zg'oloni*"dir. Mazkur film Said Ahmadning shu nomli asari asosida 1984-yil taniqli o'zbek rejissyori Melis Abzalov tomonidan yaratilgan. Ushbu filmda qo'llanib, qanotli so'zlarga aylangan obrazli ifodalar ham nutqda alohida o'rin tutadi. Masalan, "*Akademik Pavlov nazariyasiga ko'ra*" qanotli so'zi filmdagi shifokor kelin (Rimma Ahmedova) tilidan aytilgan. U har bir gapidan oldin ushbu so'zlarni takrorlab, aytmoqchi bo'lgan gapini akademik Pavlov nazariyasiga bog'lagan holda tushuntirishga harakat qiladi. Shunga ko'ra ushbu qanotli so'z bugungi kunda gapni maydalab, ko'p bora takrorlanayotgan holatni ifodalash maqsadida qo'llanadi. Yoki so'zlovchining o'zi ko'p takrorlaydigan gaplarini hazil tariqasida "*Akademik Pavlov nazariyasiga ko'ra*", deb boshlash holatlari kuzatilib turadi.

Ushbu filmdan olingan "Mana bu kolxoz deganing uchun, mana bu rais deganing uchun" qanotli so'zlari Abbas ismli nabiraga tegishli. Abbas kichik yangasi Nigoraning buvisini tanqid qilganini eshitib qoladi va uning tayyorlab qo'ygan ovqatiga "Mana bu kolxoz deganing uchun, mana bu rais deganing uchun" deb bir quti tuzni solib, ovqatni sho'r qilib qo'yadi. Shu asosda hozirda boshqalarga jahl qilib ishlayotgan odamga qarata hazil tariqasida ushbu qanotli so'zlar qo'llanadi.

Ma'lumki, "Shum bola" filmi G'afur G'ulom asari asosida 1977-yil rejissyor Damir Salimov tomonidan yaratilgan bo'lib, ssenariysi Shuhrat Abbosov va Aleksandr Naumovlarga mansubdir. Mazkur filmdan olingan "Xo'sh, innakeyinchi?" qanotli so'zi ham nutqda faol qo'llanadi. Filmida boy otaning "Xo'sh, innakeyinchi?" deb takrorlayverishi Qoravoyni (Abdurayim Abduvahobov) rosa joniga tegadi. Shundan kelib chiqib hozirda kimningdir jig'iga tegmoqchi, jahlini chiqarmoqchi yoki asabini buzmoqchi bo'lganlar boy otaning ushbu mashhur ifodasini qo'llashadi.

Bu kabi xalq diliga o'rnashib qolgan obrazli ifodalar, ya'ni qanotli so'zlarga "Vodoprovod" suvi kerak emasmi? Balki "asfalt" tekislaydigan mashina kerakdir?... O'lgan buvisiga yangi kafan, otasiga – aroq zavodi, onasiga – kampf zavodi, singlisiga –

kiyim fabrikasi... sizga esa – zambarakning o'qi...” jumlasini ham keltirish mumkin. Ushbu mashhur jumlaning “Uchrashuv” teleminiatyurasida (1971-yil) Ergash Karimov aytgan. Qudalar to'y maslahatini qilishda, bir taraf ikkinchi tarafga to'yni dabdabali qilish haqida talab qo'yaverganida qahramon shu gapni aytadi. Qanotli so'zlarga aylangan ushbu jumla ortiqcha qo'yilgan talablar yoki me'yordan ortib ketgan xarajatlarga nisbatan yuzaga kelgan norozichilikni ifodalaydi. Nutqda ko'pincha qismlarga bo'lingan shakllarda kuzatiladi, ya'ni “Vodoprovod” suvi kerak emasmi?” “O'lgan buvisiga yangi kafan

kerakdir”, yoki “Zambarakning o'qi kerak emasmi” kabi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek tilidagi kelib chiqishi san'at bilan bog'liq bo'lgan qanotli so'zlar kundalik hayotga tez singishi, keng doirada ommalashishi hamda inson ongiga kuchli ta'sir ko'rsata olishi bilan ajralib turadi. Mazkur qanotli so'zlar orasida qahramonlar tomonidan aytilgan ma'nodor ifodalar salmoqli o'rin tutadi. Ular xalq tilida qayta jonlanib, kundalik turmushda kuzatiladigan turli voqea va hodisalarni obrazli, lo'nda ifodalashga xizmat qilayotganligi bilan xarakterlanadi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ашукин Н.С., Ашукина М.Г. Крылатые слова. Литературные цитаты. Образные выражения. – Москва: Госполитиздат, 1955. – С.668.
2. Buchmann G. Geflugelte Worte. – Berlin: Haude und Spener, 1864. – S.220. 2-édit. – Berlin: Haude und Spener, 1866. – S.234 .
3. Займовский С.Г. Крылатые слова. Справочник цитаты и афоризма. –Москва-Ленинград: Госиздат, 1930. – С.493.
4. Максимов С.В. Крылатые слова. – Москва, 1891; 2-е изд. – Москва, 1899; 3-е изд. – Москва, 1955. 4-е изд. – Красноярск: Кн. Изд-во, 1989. – С.390.
5. Михельсон М.И. Русская мысль и речь. Свое и чужое. Опыт русской фразеологии. Сборник образных слов и иносказаний. Т. 1. А-О. – СПб., 1902. – С.779. Т. 2. П-В. – СПб., 1903. – С.580. Стертип. Изд-во Терра, 1994.
6. Михельсон М.И. Меткие и ходячие слова. Сборник русских и иностранных пословиц, изречений и выражений. – СПб.: Типография Императорский АН., 1894. – С.690.
7. Сальникова О.Г., Шулежкова С.Г. Крылатые выражения из области искусства в современном русском языке. – Челябинск: Изд-во ЧГПИ, 1985. – С.81.
8. Тимошенко И.Е. Литературные первоисточники и прототипы трёхсот русских пословиц и поговорок. – Киев: Типография П.Барского, 1897. – С.174.
9. Safoyev J. Qanotli so'zlar: kim tomonidan, qachon va nima munosabat bilan aytilgan? – Toshkent: “Sharq”, 2016. – B.256.
10. Siddiqov E. Qanotli so'zlar. Maqollar, matallar, hikmatli so'zlar. – T.: “Yosh gvardiya”, 1986. – B.256.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati (1–5 tomlar). – T.: “O'zME”, 2006–2008.

## “TARIXI MADANIYAT” XALQNI MADANIYATGA OSHNO QILGAN ASARDIR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim Is'hoqxon to'ra Ibratning "Tarixi madaniyat" asari va uning falsafiy merosi, bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, adibning ma'rifat va madaniyatga oid qarashlari ilmiy dalillar asosida yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifat, madaniyat, tarix, madaniy meros, madaniy taraqqiyot, til, rivojlanish, Yangilanayotgan O'zbekiston.

## “ИСТОРИЯ КУЛЬТУРЫ” – ПРОИЗВЕДЕНИЕ ПРОБЩАЮЩЕЕ НАРОДА К КУЛЬТУРЕ

**Аннотация.** В данной статье размышляется о произведении «История культуры» просвещенного поэта, крупного лингвиста, ученого-историка Исхақхана Тора Ибрата, его философском наследии и просветительском значении в наши дни. Также в статье на основе научных данных освещаются взгляды писателя на просвещение и культуру, искренне желавшего, чтобы его народ был знающим и просвещенным.

**Ключевые слова:** просвещение, культура, история, культурное наследие, культурное развитие, язык, развитие, Обновление Узбекистана.

## “THE HISTORY AT CULTURE” – A WORK THAT INTRODUCES PEOPLE TO CULTURE

**Abstract.** This article reflects on the work "History of Culture" by enlightened poet, great linguist, historian scientist Ishaqkhan Tora Ibrat and its philosophical heritage and educational importance today. Also, in the article, the writer's views on enlightenment and culture, who sincerely wanted his people to be knowledgeable and enlightened, are highlighted on the basis of scientific evidence.

**Key words:** enlightenment, culture, history, cultural heritage, cultural development, language, development and Renewing Uzbekistan.



“Madaniyatni topadurgan va yurgizadurgan asbobi  
ilmdir”.

IS'HOQXON TO'RA IBRAT

“Tarixiy jarayon... bu sharoit, bilimlar, bevosita voqea-hodisalar mazmunidagi uzluksiz ravishdagi tub o'zgarishlardir” [1], – deb yozgan edi yirik mutafakkirlardan biri Karl Yaspers. Uning bu fikrlari insoniyat tarixining barcha bosqichlariga mos kelib, u orqali bir-biriga o'zaro aloqador bo'lgan tarixiy voqeliklar mohiyatini anglash imkoniyati kengayadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, jamiyat ma'naviy hayotining asosini tashkil etuvchi madaniyatni tarixiy jarayonlar davomida murakkab, ziddiyatli taraqqiy etuvchi, siyosat hamda iqtisodiyotga nisbatan mazmun va mohiyat jihatidan ko'proq o'zgaruvchan xususiyatlarni o'zida mujassam etgan fenomen, deb baholash mumkin. Tom ma'noda madaniyat jamiyat hayotining rivojlanishida harakatlantiruvchi kuchdir. Madaniyatning muhim komponentlari sifatida namoyon bo'luvchi fan, ta'lim-tarbiya, san'at, din va boshqalar o'z xususiyatiga ko'ra kommunikativ xarakterga ega bo'lib, ularga turli xil davrlar va voqeliklar o'z muhrini bosgan.

Bugungi tezkor jarayonda, ya'ni Yangilanayotgan O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jabhasida madaniyat tarixini tahlil etish,

uning rivojlanish bosqichlarini qaytadan ko'rib chiqib baholashda avvalombor uni tarixshunoslik ko'lamida o'rganish g'oyatda muhim. Madaniyatni o'ta nozik va turfa ekanligini hisobga olib idrok etish, xolisona o'rganish tadqiqotchidan katta mas'uliyat talab etadi. Bu bilan nima demoqchimiz: qizg'in qarama-qarshi jarayonlardan iborat XX asr va unga zamondosh bo'lgan mualliflarning hozirgacha tarixshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilmagan asarlarini o'rganish, “O'zbekiston tarixi” fanida jamiyatning ma'naviy rivojida muhim ahamiyat kasb etgan madaniyat muammolarining yoritilishi masalalariga ilmiy asoslangan holda baho berish g'oyatda muhim. Bunda har bir “asarning mazmuniga tanqidiy yondashish, unga baho berishda bir taraflamalikka yo'l qo'ymaslik”, eng avvalo mualliflarning qanday siyosiy sharoitda yashaganliklarini inobatga olish ayniqsa muhimdir.

Masalaning yana bir jihati borki, har bir davrda qayd etilgan fikrlar va ularda “madaniyat” tushunchasini aniqlashdagi qiyinchiliklar, uning murakkab qarama-qarshi va ko'p qirrali mohiyatini to'g'ri tushuntirib bera olganligini ham hisobga olmoq kerak. Bu borada XVIII asrning mashhur nemis faylasufi I.G.Gerder o'zining “Insoniyat falsafasiga doir g'oyalar” nomli fundamental asarini yozishga kirishayotganda:

**"Madaniyat iborasidan ko'ra noaniqroq so'z bo'lmasa kerak"** [2], – deb aytgan edi.

Haqiqatdan ham "madaniyat" tushunchasi haqida aniq va yagona izoh yaratilmagan. Zero, "madaniyat" so'zining mohiyati shu qadar kengki, uni bir so'z bilan ta'riflashning imkoni yo'q. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosida ham "madaniyat" tushunchasi, uning mohiyatini ochishga intilish kuchli bo'lgan. Shuningdek, insonlarning madaniylik darajasini belgilashda bevosita va bilvosita ijtimoiy hayot, ular yashayotgan jamiyatning ichki va tashqi holati, siyosiy jarayonlar bilan bog'liqlikda talqin etish ustuvorlik qiladi. O'rta asr Sharq madaniyatining buyuk namoyandasi Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra *"oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi"*, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Forobiy qarashlari Aflotun, Arastu nazariyalari ostida shakllangan bo'lib, u allomaning ezgulik va yaxshilik kategoriyalari xususidagi falsafiy qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi va bu tasavvurlarni umumiy holda "fozillik" iborasida qo'llaydi. Mutafakkir o'z qarashlarida fozillik iborasi ostida **"madaniylik"** mazmunini beradi. Hayot, jamiyat mavjudligining ma'naviy asoslarini alloma **"tenglik"**, **"birodarlik"**, **"ozodlik"**, **"haqiqat"**, **"go'zallik"**, **"insoniylik"** kabi tushunchalar orqali ta'riflashga intiladi va ular insonlar hayotining asosiy maqsadlaridan bo'lishi kerak, degan g'oyaga urg'u beradi. Forobiyning yuqoridagi fikrlari asosida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa qator mutafakkirlar shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar.

Masalan, **"Madaniyat"** so'zining etimologiyasini anglashga Alisher Navoiyning quyidagi misrasi yordam beradi. Shoirning "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida keltirilishicha:

**Yuz na't anga kim xulqi karim o'ldi fani,**

**Ya'nikim karam koni rasuli madaniy.**

Alisher Navoiy yetuk axloqlik, ma'rifatparvarlik, adolatparvarlikni madaniyatilik tarzda tushunadi. Ya'ni yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini, deb insonparvarlikni tushungan. O'rta asr allomalari yuqorida qayd etilgan insonparvarlik tushunchalari orqali madaniyatning holati va turlarini ochishga intilganlar. Umuman Sharq mutafakkirlari madaniyatni "Sivilizatsiya" tushunchasi bilan teng ma'noda mushohada qilganlar.

Sharq tarix falsafasining asoschilaridan biri Ibn Xaldun o'zining **"Muqaddima"** asarida jamiyat va insonlar hayotini "umron" sivilizatsiyaga taqqoslaydi [3]. Uning barcha ko'rinishlarini umumlashtirgan holda, uch bosqichga yoki turga taqsimlaydi, ya'ni "vahshiylik" insonlarni o'troq hayotga o'tgungacha bo'lgan davri, "badaviya" ko'chmanchi hayot kechiruvchi, yarim madaniyatli, "shahariy" yuqori darajadagi xo'jalik va iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlangan jamiyat. "Shahariy" madaniyatga o'tganda, jamoalar o'rtasidagi tenglik yo'qola boradi va bir-biridan farqlanuvchi "tabaqa"lar vujudga keladi. Ular

orasida hokimiyatga intiluvchi guruh to'planib, davlat tuzadilar. Bunda Ibn Xaldun sivilizatsiyani tabiat qonuniyatiga taqqoslaydi va uning qulash hamda boshqa sivilizatsiyaga o'z o'rnini berish jarayonini "asabiylik" davri deb baholab, uni Mag'rib tarixi misolida tahlil qilib beradi. Mutafakkirning nazariy fikricha, o'ta rivojlanib ketgan jamiyat oxir-oqibat tanozzulga yuz tutishi mumkin" [4].

Asosiy maqsadga keladigan bo'lsak, XIX asr va XX asr boshlarida dunyo ijtimoiy tafakkurida turli madaniyatlarning kelib chiqish sabablarini tushunish hamda o'rganishga qiziqish yanada ortdi. XX asr boshlariga kelib, mustamlaka sharoitida Turkiston jadidlari madaniyat va ma'rifatni ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili, deb bildilar. Chunki o'lka XX asrga mustamlaka xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ong'dagi turg'unlik kabi illatlar bilan qadam qo'ygan edi. Mustamlaka sharoitida, hukmron siyosiy mafkura doirasida qoloqlikdan qutulishning yagona yo'li madaniy yo'nalish orqali taraqqiy etish mumkinligini tushungan ziyolilar, eng avvalo, madaniy va maishiy hayotdagi qoloqlikni tugatish, milliy ongni isloh etishda til, tarix, matbuot, an'anaviy madaniyatni dunyo madaniyati tizimida qayta ko'rib chiqish zaruriyatini olib chiqdilar. Millatning madaniy taraqqiyotini ziyolilar boshqa xalqlar taraqqiyoti bilan qiyoslashga harakat qilib, ularning yutuqlari sabablarini aniqlashga, namuna olishga da'vat etganlar. Ularning aksariyati o'z asarlarida Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma'rifatga chaqirish, vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg'urish kabi muammolarni ko'tarib chiqqan edilar. Ana shunday tarixiy manbalardan biri Is'hoqxon Ibratning madaniyat va tarixiy taraqqiyot talablarini o'zida aks ettirgan "Tarixi madaniyat" nomli qo'lyozma asari bo'lib, asar XX asrning 20–30-yillariga oid qimmatli ma'naviy meros sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ushbu davr madaniy taraqqiyot tarixida eng mashaqqatli va ziddiyatli davr bo'lib, Ibrat ham boshqa o'zbek jadidlari kabi o'zining "Tarixi madaniyat" asarida mustaqil davlatning moddiy va ma'naviy zamini haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirgan. Bunda uning uzoq vaqt xorijiy mamlakatlarda bo'lgani va bu yurt ilm fani, texnikasi, ijtimoiy hayoti, tili va dini bilan yaqindan tanish bo'lgani juda katta foyda bergan. Adib o'z tarixiy asari orqali turkistonliklarni tanazzuldan chiqarish, ilg'or xalqlar qatori jahon madaniyati tizimidan joy olish, o'z madaniyatini dunyo ommasiga tanitishdan iborat katta maqsadlarga erishish yo'llarini izlaydi. Ibrat o'z falsafiy qarashlari orqali, madaniyat iborasini ko'proq "taraqqiyot" ma'nosida ishlatib, asarda madaniy taraqqiyot va tanazzul haqidagi fikrlarini bevosita ilm-fan, maktab, maorif, ta'lim-tarbiya masalalari bilan chambarchas bog'liq ravishda tahlil etadi.

Ibratning "Tarixi madaniyat" risolasi yozilgan payt yuqorida ta'kidlaganimizdek, eng ziddiyatli davr edi. XX asrning dastlabki 30-yilligiga to'g'ri keladi. Ushbu davr muammolari bilan shug'ullangan tarixshunos

olima D.A. Alimova maqolalarining birida quyidagicha mulohaza yuritib, bu davr madaniyat tarixini o'rganish: "...madaniy taraqqiyot tarixidagi eng mashaqqatli va ziddiyatli davr" [5], – ekanligini ta'kidlaydi. Bu holatni adibning fikrlaridan ham anglash mumkin. Risola ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, risola dastlab 1917-yil oktyabr to'ntarishidan oldin yozib tugallangan, biroq asar bosmaxonada yo'qolganligi sababli ham Is'hoqxon Ibrat 1925-yilda uni qayta ishlagan. Bu haqda muallif o'z risolasida quyidagicha yozadi: "*Madaniyatga targ'ib qilib mundin muqaddam bu risolani matbaaga bergan edim, yo'qolibdur. Siz bu asarni ani o'rniga tayyor qilib, muni ham avlodi islomga yodnoma, deb bandadan bir asardir, deb bir necha sahifa tahrir etdim*" [6]. Ushbu ma'lumotlar haqiqatdan ham asar qayta yozilganligidan dalolat beradi.

Ibratning "Tarixi madaniyat" asari tahlilini berishda Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning (870–950) "*Fozil shahar odamlari qarashlari*" nomli asarini keltirmaslik mumkin emas. Chunki bu asarda Forobiyning davlat boshqaruv tizimi, davlat arboblari, ularning fe'l-u atvorlari, ijtimoiy hayot, jamiyat, ilm-ma'rifat kabilar haqidagi qimmatli fikrlarining bayoni beriladi. Ibratning ushbu asarida ham madaniyatga erishgan davlat qanday bo'lmog'i kerak, uning moddiy va ma'naviy zamini nimalardan iborat bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi. Jumladan, u xorijiy davlatlarni ko'rgan, ularning turmush tarzi bilan yaqindan tanish bo'lgan alloma sifatida madaniy taraqqiyotga erishgan davlatni quyidagicha ta'riflaydi: "*Madaniyat*" degan so'z nizom va qonun ostida idora bo'lib, xalqi ilm va hunarni bilib, qilib turg'on kasbi ila bahuzur tiriklik qilsa o'shal yerni shahar va odamlarini madaniy derlar" [7].

Is'hoqxon Ibrat o'zining "Tarixi madaniyat" asarini yozish davomida xalqning madaniy taraqqiyot va tanazzul haqidagi fikrlarini kengaytirish, taraqqiyot mohiyatini tushuntirib berishni hamda millatga o'z fikr-mulohazalari orqali yordam berishni maqsad qilganligini quyidagicha bayon qiladi: "*Bu "Tarixi madaniyat" asarini yozmoqdan maqsad xalqni madaniyatga oshno qilish, ani ziddi bo'lgan vahshiyatni, beilm va behunarlik, taraqqiy va tanazzulni bildirish va alarni bu to'g'rida fikrlarini kengaytirish, xusus maktablarda aqliy va fikriy yaxshi talabalarni bu yo'llardan ma'lumot olishlari, muassasa kishilariga ham foydalik bo'lushi va o'qugonlar madaniyatni asosi ilan bilish va millatga qalam va fikr ilan foyda yetkuzish*" [8].

Adib asarning muqaddima qismida "Madaniyat" so'ziga ta'rif beradi va bu borada taraqqiyotning moddiy asosini mustahkamlash, ya'ni eng avvalo, iqtisodiy madaniyatni yaratishga asosiy e'tiborni qaratgan holda ma'naviy zaminni mustahkamlash masalasini bosh o'ringa olib chiqadi. Adibning eng katta yutuqlaridan biri shundaki, tarixga murojaat orqali milliy madaniyatni qayta tiklash, yanada rivojlantirish, o'z davri talabiga moslashtirish kabi muammolarni o'rtaga tashlaydi. Bu boradagi qarashlari orqali bugungi kunda ham ko'plab bahs va munozaralarga

sabab bo'layotgan til muammosiga to'xtalgan. U asr boshlarida iboralarning bir-biriga qo'shib omuxta til bo'lib borayotganligidan tashvishlanib, shunday yozadi: "*Ota-onasi turkiy, shahari turkiy, tilda forsiy... Hozirgacha muni hech kim bilmadi va bilsa ham qilmadi. Mana emdi muxtoriyat bo'lib, o'z qo'limizga ixtiyor berilgandan buyon ancha turkiy qilmoqdadir. Turkiy til rusiy, turkiy, arabiy hammasidan ihtilol bo'lg'on bir omuxta til bo'lib turibdur. Masalan, muassasa so'zlarida "avjroqum" desak, av – rusiy, ijro – arabiy, qum – arabiy. Qani turkiy munda? "O'lka buyruqlari" deganda ehtimol tomom turkiy bo'lsa, emdi kam-kam bo'lur*" [9]. Is'hoqxon Ibrat tomonidan ko'tarilgan bu muammo bugungi kunda ham ahamiyatlidir. Chunki bugungi kunda o'zbek tilining jozibasini qaytarish, unga jon bag'ishlash va mohiyatini yo'qotmaslik atamashunoslar, lug'atnavislar, tilshunoslar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Is'hoqxon Ibratning "*Tarixi madaniyat*" asarida ko'tarilgan masalalardan yana bir muhimi, ya'ni diqqatimizni tortgan jihatlar, adib o'z risolasida asosiy e'tiborni mustaqil davlatning ham moddiy, ham ma'naviy zaminini yaratish borasidagi muammolarga qaratganligidadir. Uning bu qarashlaridan biz bugun ijobiy xulosalar chiqarmog'imiz kerak. Bu borada adibning: "*Har bir millat maishiy tarafindin taraqqiyga yuz qo'ymasa, ma'naviy tarafdin, ya'ni ma'rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas*"; – degan fikrlari har bir inson o'zining maishiy turmushida ham o'zgarishlar yasashi lozimligini uqtiradi. Jumladan, u davlat taraqqiyotining moddiy zamini sifatida mahalliy sanoatni rivojlantirish, sug'orish inshootlari qurish, mamlakatda qishloq xo'jaligini yuritish, ichki va tashqi savdoni yo'lga qo'yish, mamlakatdagi foydali qazilmalar, ularni o'lkada qayta ishlab chiqarishni tashkil qilish, chetga xom ashyo o'rniga tayyor mahsulot chiqarishni hamda turli ixtisoslikka, shuningdek, muhandislikka oid firmalar tashkil etish muammolarini ko'tarib chiqadi. Shuningdek, u xorij firmalarining ishbilarmonlari va tadbirkordlari tajribalaridan o'rganishga chaqiradi. Davlat taraqqiyotining ma'naviy zamini sifatida maktablar tashkil qilish, kasb-hunar, texnika, oliy o'quv yurtlari, ilmiy tekshirish institutlari tashkil qilish kabi vazifalarni ko'rsatib beradi.

Is'hoqxon Ibrat o'z xalqining qiyinchiliklarini beilmlikdan deb biladi. Bu haqda u quyidagicha yozadi: "*Bu xalqlarimizni bu fe'llari beilmlikdan, shahar ko'rmaganlikdan vahshiyatdekdur. Bu axloqlari tarbiya ilan aqldan yo'q qilmasa tanballik tuxumi ko'karib, Turkistonni istilo qiladir, xalqni zulmatga solur*" [10]. Adib fikrlarining qimmatligi shundaki, ijtimoiy hayotning har bir sohasida jadidlar g'oyalarining himoyachisi sifatida maydonga chiqadi va o'zining har bir fikrini Qur'oni karimda keltirilgan oyatlar, ko'plab hadislar orqali isbotlashga harakat qiladi. Masalan, u Muhammad payg'ambar hadislaridan keltirib, ilm haqida quyidagicha yozadi: "*Rasululloh hazratlari marhamat qilibdilarki, "Al ilmu izzud dunyo va sharaful oxirati" (Ilm dunyo aziz, mukarramligi va oxirat sharafidir) deb. Ikkinchi bir hadislar "Utlubli*



*ilma va lav bis sini"* (Garchi, Chinmochindan bo'lsa ham ilm talab qil). Bu hadislar bizni ilm talab qilmoqqa taklif qiladir" [11].

Yuqoridagi fikrlari bilan Ibrat xalqini jahon ilm va fan texnikasini o'rganishga chaqiradi. Mamlakatning xorij mamlakatlaridan orqada qolishining sababi sifatida ham ilmsizlik va jaholatni ko'rsatadi. Bu haqda u: "Binobarin, qiyinlikda bo'lgan asli illat ilm va hunarsizlik", ekanligi haqida: "Ilm va hunar bo'lsa maktab va madrasalar barpo bo'lur" [12], kabi fikrlarni bildiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, Is'hoqxon Ibratning "**Tarixi madaniyat**" asari bugungi kunda Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari ilmiy markazi qo'lyozmalar fondida ikki nushada saqlanib kelinmoqda. Ibrat o'z ijodiy faoliyati davomida yigirmadan ortiq asarlar yozgan. Manbalarda aytilishicha, bularning ko'plari bizgacha yetib kelmagan. Bugungi tezkor jarayonda, mamlakatimizda chuqur islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda tarixiy ilmlarni o'rganish, to'laqonli tahlil etish, milliy manbalarni chuqur o'rganish asosida ilmiy va xolisona xulosalar ishlab chiqishni davrning o'zi talab qilmoqda. Shu jumladan, tariximizda o'zining tutgan o'rnini va ko'lami jihatidan e'tiborli o'rin tutgan jadidchilik harakati, uning namoyandalari va ular tomonidan qoldirilgan ilmiy merosni o'rganish va fanga olib kirish dolzarb muammolardan biridir. Shu nuqtayi nazardan XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadid olimi Is'hoqxon Junaydullox'o'ja o'g'li Ibratning tarixiy, madaniy, ijtimoiy hayotga oid asarlarini o'rganish bugungi kunda ayniqsa, ahamiyatlidir. Ushbu maqolada, biz uning birgina madaniyatga bog'liq bo'lgan "Tarixi madaniyat" asaridagi ba'zi bir masalalar yuzasida mulohaza yuritdik. Binobarin, dunyoviy bilimlarni chuqur o'rgangan, yetti tilni

mukammal bilgan serqirra ijodkor, olim va shoir, pedagog Is'hoqxon Ibratning hayoti va ijodi bugungi yoshlar uchun chinakam ibrat maktabidir. Allomaning "**Olti tilli lug'at**", "**Xatlar majmui**", "**Tarixi Farg'ona**", "**Tarixi madaniyat**", "**Zamon tarozusi**" singari asarlarining ma'lum qismlari bizgacha yetib kelgan. Afsuski, tilshunoslikka oid ilmiy-tarixiy, badiiy hamda ma'rifiy asarlari, ko'plab kitoblari qatag'on yillari yoqib va ko'mib yuborilgan. Darhaqiqat, Ibratning ilk matbaachi, yangi usuldagi maktab asoschisi sifatidagi bemisl xizmatlari tahsinga sazovor. U 1908-yilda Orenburg shahridan litografik mashina xarid qilib, ming mashaqqatlar bilan Namanganga olib kelgan va "Is'hoqiya bosmaxonasi"ga asos solgan. Mazkur bosmaxonada o'tgan asrning 60-yillariga qadar turli ilmiy-ma'rifiy kitob va risolalar, "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" singari gazetalar chop etilgan.

Shuningdek, Ibrat shoir sifatida ham devon tuzgan. Ming taassufki, uning "**Devoni ibrat**"i bizgacha yetib kelmagan. O'z davrida el orasida yuksak e'tibor topib, qozilik martabasiga erishgan, biroq ayrim g'alamisliklar bois tazyiqqa uchragan ma'rifatparvar bobomiz 1937-yilda 75 yoshida hibsga olinib, turmada vafot etadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev Namangan shahri, To'raqo'rg'on tumanidagi Is'hoqxon To'ra Ibrat muzeyi bilan tanishuv asnosida viloyat ziyolilari, nuroniylar va allomaning avlodlari bilan ham samimiy muloqot qurdi. "*Men Ibrat domla haqida ko'p o'qiyapman. Uning el-yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona xizmatlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo'lib qolmoqda. Shunday buyuk ajdodi borligi bilan namanganliklar har qancha faxrlansa arziydi va yoshlarimiz ham shunga munosib bo'lishlari kerak!*" – dedi Yurtboshimiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – Москва: 1991. – С.72.
2. Гердер И.Г. Идеи к философии человечества. – М.: 1977. – С.12.
3. Ибн Халдун Введение /фрагменты/ Басиева С.М. Историко – социологический трактат Ибн Халдуна. – М.: 1965. – С.12.
4. Басиева С.М. Бедуни и горожане в Мукаддима Ибн Халдуна. Очерки истории арабской культуры (V-XV вв.) – М.: 1982. – С.323.
5. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: 1999. – B.17.
6. Is'hoqxon Ibrat. "Tarixi madaniyat". Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, №11616. – B.139.
7. Is'hoqxon Ibrat. Shu asar. Qo'lyozmalar fondi. №10117. – B.105–109.

Farhod ABDULLAYEV,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi O'quv ishlari bo'yicha prorektori, dotsent

### SOZANDALIKDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI

**Аннотация.** *Ustoz-shogird an'analari hozirgi ta'lim jarayonida dolzarb masaladir. Maqolada, ushbu an'analarni turli kasb ijrochi-sozandalar tarbiyalash tizimi orqali qay darajada qo'llanilishi, uning an'anaviy o'qitish uslubi va zamonaviy pedagogik texnologiyalari bilan uyg'unligi o'z aksini topgan.*

**Калит so'zlar:** *ustoz, an'ana, kuy, sozanda, mahorat, ijod, cholg'u, musiqa.*

### УЧИТЕЛЬ-УЧЕНИК ТРАДИЦИИ В СТОЛНИЧНОМ ДЕЛЕ

**Аннотация.** *В статье вопрос, связанный с традицией «учитель-ученик», актуален в современном образовательном процессе. Отражена степень использования этих традиций через систему образования различных профессиональных исполнителей-композиторов, ее сочетание с традиционными методами обучения и современными педагогическими технологиями.*

**Ключевые слова:** *учитель, традиция, мелодия, музыкант, мастерство, творчество, инструмент, музыка.*

### TEACHER-APPRENTICE TRADITIONS IN THE CARPENTRY

**Abstract.** *In the article, the issue related to the tradition of "teacher-student" is relevant in the modern educational process. The degree of use of these traditions through the education system of various professional performers-composers, its combination with traditional teaching methods and modern pedagogical technologies is reflected.*

**Key words:** *teacher, tradition, melody, musician, skill, creativity, instrument, music.*



Zamonaviy ta'lim tizimida, milliy musiqa san'atini o'rganish va o'zlashtirish jarayonida o'tmish an'alaridan aynan ustoz-shogird an'analari kabi pedagogik uslublaridan keng foydalanish odat tusiga kirmoqda. Bu borada har bir xalq o'z qadriyatlarining negizini tashkil etuvchi musiqa va ijrochilik madaniyati, xususan, sozandalik san'atini izchil o'rganishida, amaliy asoslarini shakllantirishda ushbu an'ana yetakchi o'rin egallab kelmoqda. Yosh avlodga nafaqat eshittirib ma'lum asarni o'rganish, balki o'quv jarayonida bu an'alar ma'lum ustoz uslublari, o'tmish va hozirgi o'quv metodikasi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalari orqali chuqur singdirib borishimiz zarur.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy qadriyat va an'analarni singdirish, ularni ilg'or g'oyalar bilan boyitishga yo'naltirilgan harakat keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Milliy an'analarni qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida, o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak sozandalarni tayyorlashda nafaqat ilm-fan asoslari yuzasidan bilim-tajriba bilan qurollantirish, balki sinfdan tashqari bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish, ularning iqtidori, qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda ma'lum darajada ilmiy-amaliy ishlarga jalb etish, ma'naviyatini yuksaltirish hamda o'z kasbiga yo'naltirishda ustoz-shogird an'alaridan keng foydalanish ehtiyojga

aylanib bormoqda. Ushbu maqsadda, Yangi O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2021) talablari asosida ta'lim-tarbiya tizimi isloh qilinib, o'ziga xos uzluksiz ta'lim tizimi – boshlang'ich (maktabgacha) dan to oliy bosqichgacha yaratildi.

Ustoz-shogird ta'limoti o'rta asrda she'riyat, san'at va hunarmandchilik sohalarida shakllangan bo'lib, yoshlarda kasbiy mahoratini tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mavjudligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada: "Men o'z hayotimda ko'plab ustoz san'atkorlar bilan uchrashganman", – deb yozadi maqom san'atining sultoni, akademik Yunus Rajabiy. "Ularning bir qanchalari bilan birga ishlaganimda, ijro etgan maqom yo'llarini tinglab, o'rgana bordim, hamnafas bo'lganimdan g'oyatda mamnunman. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Halim Ibodov kabi mashhur maqomdon ustozlardan saboq olish baxtiga muyassar bo'ldim"<sup>1</sup>, deydi ustoz Yunus Rajabiy.

O'zbek xalq va zamonaviy musiqa cholg'ularida ijrochilik madaniyatining rivoji, jahon klassik kompozitorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlarining turli musiqa cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'lmoqda<sup>2</sup>. Sozandalar kamolot sari intilishda muqarrar uchta bosqichni bosib o'tadilar. **Birinchisi**, biron-bir yetuk san'atkor, ustozning izidan ergashish

<sup>1</sup> Yunus Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B.12.

(ustozga taqlid qilish ham mavjud). **Ikkinchisi**, bilim (tarix, nazariya, repertuar) va malakalarini kengaytirish, o'zga maktab vakillarining ijodidan bahramand bo'lish<sup>3</sup>. **Uchinchisi**, erishgan bilim va tajribalar asosida o'z uslubini shakllantirish. Ana shu murakkab ijodiy jarayonda o'z yo'lini topishda, ustozning ahamiyati eng muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ustoz timsoli, uning hurmat va e'tibori an'analarning o'ziga xos iymon va vijdoni vazifasini bajaradi. *“Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yurg'alar”*, degan maqol bu hikmatni aniq va lo'nda tasdiqlaydi.

Ko'pni ko'rgan ustozlarning aytishicha, kuy g'oyasi dilda paydo bo'ladi va uning mo'jizakor ruhi ham yurakda saqlanadi. Shuning uchun ham kuy sozandaning dilidan chiqib, tinglovchining qalbiga yetib boradi. Cholg'uchining qo'llari yoki xonandaning ovozi – kuy ruhining xizmatkorlaridir. Ular faqat qalb amri bilan ichkaridagi tuyg'ularni tashqariga chiqarishi, sadolantirishi mumkin. Bu “xizmatkorlar” o'z hunarini qancha mahoratli, bilintirmasdan namoyish etsa (tashqariga chiqarsa), shuncha “sadoqatli” hisoblanadi. Kuyning ravon harakati sozandaning sa'y-harakati, intilishlari va “mashaqqati” evaziga yuzaga keladi. Ammo tinglovchi oldida bu “mashaqqat” ko'rinmasligi kerak. Aks holda lazzatli soz jarayoni zavq-shavq va ta'sirchan emas, balki oddiy “mehnat”ga aylanib qoladi.

Doimiy ijodiy izlanish – haqiqiy sozanda ruhiyatining asl tabiiy holatidir. Hattoki, chinakam sozanda bir kuyni ikki marta bir xil chalmaydi. Unga bir kuyni takrorlab o'tirishning umuman hojati yo'q. Chunki ustozlarning dasturida bir qancha kuy takrorlanmasdan ijro etilishi mumkin bo'lgan boy zaxira mavjud. Bordi-yu, bir narsani qayta ijro etish hojati tug'ilib qolsa, sozanda uni avvalgidan boshqacharoq talqin etadi. Bor holatni takrorlamoq zerikarli va uning badiiy jozibasi ham past bo'ladi. Bu esa ustoz sha'niga munosib emas.

Bundan cheksiz ijodiy izlanishni beboshlik, deb xulosa chiqarish mumkinmi? Yo'q, albatta! Musiqiy g'oyaning talqinida erkinlik qay darajada bo'lmasin, uning asosida qat'iy o'zak – asrlar davomida sozanda va tinglovchi muloqotida shakllangan qonun-qoidalar mavjud. Tajribali tinglovchining qulog'i, uning badiiy ongi beboshlikni erkin ijodiy badihadan, mahoratli san'atkorning nozik ilhomini tajribasiz shogirdning qiliqlaridan darhol ajratib oladi. Shuning uchun ham uch tamoyil: yaratuvchi, ijrochi va tinglovchi uyg'unligida eshituvchi-tomoshabinga alohida o'rin ajratiladi. Zero, tinglovchi soz muhitini, kuy yoki ashula tinglash ehtiyojini belgilovchi va pirovardida sozandaga xolis baho beruvchi hisoblanadi.

Malakali musiqa tinglovchilari, odatda, muxlis yoki shinavanda deyiladi. Bunda birinchisi – soz san'atiga havas qilgan muxlis. Shinavanda kuy va ashulani idrok qiladigan, tushunadigan tinglovchi. Shinavanda (tushunuvchi) – musiqiy muhitda yuzaga kelgan maxsus atama. U musiqa haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'lgan va unga nisbatan alohida ishqibozlik bildiruvchi xos muxlislikni nazarda tutadi.

Tarixdan ma'lumki, maqom san'atining to'laqonli hayot kechirishida shinavandaning ahamiyati sozanda shaxsiyatining o'zi kabi muhim va e'tiborlidir. Bizda maqom shinavandachiligining o'ziga xos an'analari shakllangan. Bu san'atning taraqqiyotida muhim o'rin tutgan nafosatli soz majlislarining markazida aynan shu malakali shinavandalar turgan.

Oddiy eshituvchiga qaraganda xos shinavanda jonli musiqa jarayonining bevosita ishtirokchisi bo'lib maydonga chiqadi. Kuy va ashulalarning bilimdoni sifatida shinavanda eshitayotgan asarni ichidan o'tkazib boradi va go'yo tovush chiqarmasdan o'zi ham qo'shilib ijro etayotgandek bo'ladi. Demak, hofiz yoki sozanda bilan bir qatorda xayolan ijod jarayoniga qo'shiladi, kechirilayotgan his-tuyg'ularga sherik bo'ladi hamda kuyning har bir unsuri – vazni, ohangi, usuli va boshqa jihatlarini ongli ravishda nazorat qiladi.

Shuning uchun haqiqiy shinavanda, sozandaning ijodiy ilhomidan, uning badihalaridan zavqlanadi, huzurlanadi. Sozandaning har bir ijodiy intilishi shinavandaga rohat baxsh etadi, aksincha, har qanday g'aliz chekinishi, barqaror qonun-qoidalarga putur yetkazishi esa uning g'ashiga tegadi. E'tiborli tinglovchilar kuyning eng nozik tomonlarigacha kuzatib boradi va bundan sozanda o'zini chinakam shinavandalar davrasida ekanligini yaxshi his qiladi. Xullas, sozanda va shinavandaning ittifoqi (muloqoti), ijodiy ehtiyoj va ixtiyorning mutanosib holatga kelishi an'anaviy va zamonaviy musiqa san'atining rivojlanishi uchun eng qulay sharoitdir.

Eshituvchining hissiyotiga ta'sir eta bilish, uning fikru xayolini qamrab olish va musiqiy holatga buysundirish sozandaning bilim va mahorati, ma'lum ruhiy qudratga erishganligidan dalolat beradi. Ana shunday ustalik darajasiga yetgan sozandalar tinglovchilarni sehraib qo'yishga, musiqiy holatga to'la-to'kis bo'ysundirishga qodir bo'ladi<sup>4</sup>. Ijrochi va eshituvchining jonli ijodiy muloqotida mushtarak, ammo ikki yo'nalishga qaratilgan jarayonni kuzatish mumkin. Unda, bir tarafdin barqaror qonun-qoidalar mavjud. Ikkinchi tomondan, ana shu qonun-qoidalaridan tashqariga chiqish, badiha qilish, bunyodkorlik kashf etish ehtiyoji borligidir. Masalaning eng nozik va ayni chog'da chigal tomoni shundaki, qat'iy bir nota matni bo'lmagan jonli og'zaki musiqa jarayonida ijro va ijod chegaralarini aniq belgilash amrimahol. Ular doim bir-biriga tutashib, biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Ijro va ijod munosabatlarida bir sozandani ikkinchisiga o'xshamaydi va bu ikki jihatning o'lchovi, mezonini topish qiyin. Va ijod yo'nalishini oldindan belgilash ham mushkul. U hatto sozandaning o'zi xohlagan taqdirda ham chiqmasligi mumkin. Shuning uchun sozanda ijod ilhomini g'oyibdan keladigan ilohiy qudrat, deb biladi.

Qaysi davr bo'lmasin, ustoz-shogird an'analari ustoz shogirdiga yo'l-yo'riq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida shogirdni mustaqil faoliyatga tayyorlagan holda o'zidan keyin ish-hunarni, bilim va mahoratni avloddan-avlodga o'tishiga imkoniyat yaratgan. Chunki ijrochilik madaniyatida, shogirdlarni tayyorlashda bu an'ana katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, shogirdga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda zamon talablariga, jamiyat qonun-qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirish keyinchalik amaliy faoliyat jarayonida o'z samarasini ko'rsatadi.

<sup>2</sup> Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. – T.: “O'qituvchi”, 1995.

<sup>3</sup> Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi.

<sup>4</sup> Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2004.

## YANGI ASR G'AZALI

yoki bugungi kun yoshlari nima uchun g'azal o'qimay qo'ydilar...

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, bugungi kunda talabalarga aruz vazni, xususan, g'azal o'qishni o'rgatishdagi muammolar, tahlil va takliflar o'rtaga tashlangan.

**Kalit so'zlar:** "Navoiyxonlik", tabib, shayx, g'azal, pafos, qofiya, bo'g'in, smoking, loyiha.

## ГАЗЕЛИ НОВОГО ВЕКА

или почему современная молодёжь перестала читать газель...

**Аннотация.** В данной статье обсуждаются проблемы, анализ и предложения по обучению преподавателями студентов при исполнении классической поэзии в системе "Аруз", особенно газелей.

**Ключевые слова:** "Навоийские чтения", лекарь, шейх, газель, ямб, смокинг, проект.

## NEW CENTURY GHAZALS

or why modern young people stopped reading the ghazals...

**Abstract.** This article discusses the problems, analysis and proposals for teaching students by teachers in the performance of classical poetry in the Aruz style, especially ghazals.

**Key words:** "Navoi Readings", doctor, sheikh, gazelle, iambic, tuxedo, project.



Badiiy so'z olamida aktyorlik, boshlovchilik, shoumenlik va hatto, qiziqchilik yo'nalishlarida izlanuvchi, faoliyat yurituvchi ijodkorlar muvaffaqiyatida aruz vaznida yozilgan asarlar ijro etishning o'рни juda beqiyosdir. Chunki so'z aytuvchi odam badiiyatning ayni g'azal ijrosidan xabardorligi, uni bilishi va qadrlashi bevosita o'zining iqtidor va ijro darajasini ham belgilaydi.

Har qanday aktyor va boshlovchi boshqa soha egalaridan bir-ikki bosh yuqoriroqda turishi kerak. Talabani o'zi ham, uning o'qituvchi ustozlari ham aynan mana shu darajani marra qilib olishi va shu maqsadda izlanishi kerak. San'atkor, agar o'zini san'atkor deb bilsa, aholi qatlamlarining aslzodalaridan, oqsuyaklaridan bo'lishi kerak. Ammo bu deganim, yasan-tusan, mol-mulk tushunchasida emas, aksincha ong, qalb, madaniyat va badiiy so'z borasida.

O'zbek oilasida faqat qora mehnat bo'lgan, kosasi oqarmagan, u savodsiz va bilimsiz, tarbiya ko'rmagan bo'lgan degan qarashlar noto'g'ri bo'lib, bu nuqtai nazar sho'rolar tizimi tomonidan omma fikriga zo'rma-zo'raki singdirilgan. O'rta Osiyo xalqlari savodsiz bo'lib, "aholining faqat ikki foizigina xat tanigan bo'lgan" degan raqamlar g'irt uydirmadir. Illo, ular, shu fikr ijodkorlari, uzoq kelajakni ko'zlab, hujjatlarga shunday raqam qilganlar. Oradan bir asr vaqt o'tib, rus nashrlarida hali ham o'sha soxta ma'lumotlarni asosiy ro'kach sifatida keltiradilar.

G'arb mamlakatlari ongsizlik va nafs botqog'iga botib yashagan ming yilliklarda Turonzamin allomalari kema yelkanlarisiz, optik qurilmalarsiz, lazer uskunalarsiz qit'alar ochishgan, yulduzlar o'rnini qayd etishgan, inson tanasini dardlardan xalos qilishgan va bu ham hali hammasi emas!

Aksariyat o'zbek xonadonlarida dutor sozi ovozi yangrab turgan. Ko'pchilik oilalarda bobolar va buvilar

nabiralarni g'azalxonlik mashqlarida pishitishgan, otalari tuzgan mehmondorchiliklarda shoir-u hofizlar, badihago'ylar davralarga "o't qalashgan". Avlodlar tili va dili bolalikdanoq ma'rifat va madaniyat mash'ali bo'lmish adabiyot, musiqadan xabardor bo'lib ulg'ayganlar.

"...Xuftan namozidan so'ng yangilangan tashvishlarni biroz unutdirar umidi ila poychiroq yoniga o'tturib, Fuzuliy devonini varaqlar edi. Ammo Fuzuliyning rang-barang she'rlari ustida qanoatlanib to'xtamas, hamon vara-qlag'andan-varaqlar edi... Shoiming nafis so'zlari hozir uning uchun tussiz so'zlar yig'indisidan boshqa bir narsa ham emas edilar... Kishi iztirobka tushgan kezlarda tilab emas, ixtiyorsiz ba'zi bir yo'sunsiz ishlarga urinadir. Shuningdek, ul ham jiddiy bir ravishda Fuzuliy mutolaasiga berildi... Fuzuliyning yaxshilab o'qush kerak. Shuning uchun ham ma'nolik she'rlardan boshini ko'tarmaydir-da, go'yoki aytarsiz kitobka mixlangan..."

Kumushning uyga kelib kirgani ham unga sezilmay qoldi.

– Fuzuliy yaxshi kitob, – dedi Kumush, – men ham yolg'iz qolg'an kezlrimda bu kitobdan boshimni ololmas edim, sizammi?" (Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar")

Lavhadan ko'rinib turibdiki, yoshlarning ikkisi ham adabiyotdan xabardor. Xabardor bo'lganda ham, shoirdan shoirni farqlay oladigan darajada bilimi bor.

Vaholanki, ular eng oliy tabaqa hisoblanmish xon yoki vazirlar farzandi emas. Yoki quyida keltiriluvchi mushoira lavhasida tug'ilgan betakror baytlarni yana bir o'qing. O'qing va misradan misraga fikrning rivojlanib borishi, Ra'no aytmoqchi "saj' qofiyasi"dan tashqari mantiqiy bog'liqligi unchamuncha yetuk shoir ijodiga qiyosdir. To'g'ri, muallif bu ikki sevimli qahramonini "ideallashtirgan"dir. Ammo har qanaqasiga qaralganda ham xonaki maktab

darajasidagi bu yoshlarning gʻazal bitishi, badihaviy, sheʼriy musobaqasi kishini oʻylantirib, qoyil qolishga sabab boʻladi.

Anvar:

**Agar Farhodni(ng) Shirin, boʻlsa majnunlarni(ng) Laylosi,  
Nasib oʻlmish menga gulshan aro gullarni(ng)  
“Raʼno”si.**

Raʼno:

**Agar or etsa Layli haqlidir Qaysni(ng) jununidin,  
Ne baxt, Raʼno, xaridoring talab ahlini(ng)  
“Mirzo”si.**

Anvar:

**Hamisha xavfda koʻnglim bul muhabbat  
intihosidin,  
Meni ham etmasa majnun debon Raʼnoni(ng)  
savdosi.**

Raʼno:

**Muhabbat jomidin noʻsh aylagan ahli zako  
boʻlmish,  
Fununi tilda majnundir kishining kuysa safrosi.**

“Mehrobdan chayon” romanining bu lavhasi ham (qisqartirib olindi) yuqoridagi fikrimizni tasdiqlovchi kuchga ega. Anvar, aytish mumkinki, anchayin past tabaqaning farzandi. Solih maxdum ham bor-yoʻgʻi oʻz uyidan maktab ochgan bir maktabdor, xolos. U hatto, madrasa mudarrisi ham emas. Uning qizi Raʼno esa ana shu oddiy muallimning farzandi. Lekin gʻazal mutolaasini, gʻazal yozish mashqini obdon oʻzlashtirgan, oʻzi ham mardumning yosh qizlariga saboq bera oladigan darajada bilimiga ega boʻlgan qiz. Eʼtiborlisi shuki, va shunga diqqat qilish kerakki, shu birgina maxdumning xonadoniga necha nafar oʻgʻil-qizlar qatnab, savodli va bilimli boʻladilar. Qizlarni Raʼno onasi bilan, oʻgʻil bolalarni Solih maxdum Anvar bilan darajama-daraja oʻqitib borishadi. Mahdum xonadonida Anvar kabi mulla yigitlar bir necha nafar boʻlgan boʻlishi ham ehtimoldan holi emas. Faqat Qodiriy domla asar personajlarini koʻpaytirmaslik uchun birgina Anvarning oʻzini taʼriflash bilan cheklangan boʻlishlari mumkin. Mana shu kichkina bir tadqiqotdan ham xulosa chiqarsa boʻladiki, elning bolasi yaxshigina savodli, ruhoni va dunyoviy bilimlardan xabardor boʻlgan. Bunday xonadon, oilalar har bir mahallada boʻlmagan, deb kim ayta oladi?

Bu kabi personajlarni Choʻlpon, Oybek, Mirzakalon Ismoilij singari koʻpgina adiblarimiz asarlarida ham koʻrishimiz mumkin. Ular oʻsha zamonning savodli, madaniyat va maʼrifatli odamlaridan tanlab olingan prototiplar, timsol-lardir. Bular oddiy odamlar. Lekin biz tarixan bilamizki, jadidlar harakatining yu-zlab ishtirokchilari ham oʻsha xalqning vakillari. Faqat oʻzlari singari bilimdonlarning jonkuyarroqlari, fidoyiroqlari, kuydi-pishdiroqlari! Ularning har birini oʻnga, yuzga koʻpaytirish va shu taxlit aholining qancha qismi yuqori maʼlumotga ega boʻlganini bilib olish qiyin ish emas.

Ajab, juda qiziq eshitiladi-da! Savodi yoʻq xalqqa lugʻat nimaga kerak boʻlgan ekan? Savodni tanimagan

elga qomusga qanday zarurat bor edi? Axir, hali juda koʻp xalqlar bir butun millat boʻlib shakllanmagan davrlarda, ming yil avval Mahmud Qoshgʻariy oʻz “Devoni lugʻotit turk”ini kimga yozganiykin? Unda lugʻat tuza olishdek iqtidorni kim shakllantira olgan ekan?

Yana gʻazal xususiga qaytadigan boʻlsak, tarixiy adabiyotlarda uzoq qish kunlari odamlar oʻz xonadonlarida “Navoiyxonlik”, “Bedilxonlik”, “Mashrabxonlik” davralari tuzganliklari qayd etilgan. Bu tadbirlar soatlab davom etgan, ashulaga gʻazal, gʻazalga askiya ulangan gap-gashtaklar tun yarimlarigacha choʻzilgan. Tabiiyki, oilada oʻsayotgan bolalar bulardan olam-olam taassurotlar olishgan. Agar “Bolalikda olingan ilm toshga oʻyilgan bitik kabi” degan maqol rost boʻlsa, ularning bu taassurotlari bir umrlik boʻlgan.

Aktyorlar va albatta, boshlovchilar gʻazalni yaxshi bilishlari, yaxshi tushunishlari va chiroyli ijro eta olishlarini istardim. Oʻshanda ular boshqa barcha kasb egalari orasida oʻta ziyoli, quvvayi hofizasi puxta, atrofdagilarni maftun etuvchi inson, ijodkor boʻlib koʻrinardilar.

Gʻazal oʻzi pishiq bir asar boʻlib, u matematik, semantik, filologik, frazeologik, mifologik va teologik ilmlardan va manbalardan suv ichadigan jonli soʻzdir. Gʻazal faqatgina hofiz-u badiiy soʻz ustalarinigina emas, balki oshpaz-u hunarmandni ham, shoh-u gadoni ham oʻziga birday maftun qilgan, diliga nish urib, ijod bulogʻi koʻzini ochib yuborgani tarixan oʻz tasdigʻini topgan. Sulton Husayn, amir Alisher, shoh Bobur, Amir Umarxon, xon Feruz kabi amaldorlar ham gʻazal ijod qilganlar, devonlar tuzdirganlar. Ayonlari, saroy shoirlari yozgan gʻazal-u masnaviylarni, qasida-yu baxshiyonalarni baholay va qadrlay olganlar. Tabib Ibn Sino, olim Beruniy, shayx Yassaviy, voiz Rumi nima uchun gʻazalni sevdilar ekan? Ne sababdan shunchaki sevib, ermak qilib qolmasdan, bayozlar, toʻplam va devonlar tuzish bilan ham jiddiy mashgʻul boʻlishdi ekan?

Kanizak Tavaddud yodingizdadir? Bu afsonaviy oqila va dono kanizak, boshqacharoq aytganda oddiy bir choʻri, handasa, ilmi nujum, tibbiyot va boshqa bir qancha sohalar qatori sheʼriyatni, xususan, gʻazalnavislikni nechun bunchalar puxta oʻrgangan ekan? Ertak qahramoni ham hayotdan olinadi. Pahlavon-u botir-lar, usta hunarmandlar-u mohir merganlar, oliyjanob Hotamtoylar-u yeb toʻymas devlar odamlar orasida bor boʻlgan kimsalardan “yasalgan” personajlar. Faqat sal boʻrttirilgan, faqat sal oshirilgan koʻrinishda. Demak, Tavaddudni shaxmat oʻynamagan, tabiblik qilmagan, inson tanasini (biologiyani) suv qilib ichib yubormagan, deb hisoblasak ham musiqani, sheʼriyatni, hofizalikni, badihagoʻylikni, raqsni, pazandalikni besh qoʻlida tutganday, gʻazal yozish va oʻqishni ham yuksak mahorati bilan namoyish qilgan, deb ishonishimiz mumkin.

Aktyorlarimiz, umuman, aruz vazni, xususan, gʻazal ijrosi yoʻnalishlarini yaxshi oʻzlashtirsalar, undan oʻz ijodiy va amaliy faoliyatlarida ustalik bilan foydalansalar, bu ularning sanʼatkorlik yorgʻitlarining

qay darajada ekanini belgilaydi. Bora-bora ularning o'zlariga ishonchlari ortadi, qadam va qarorlari mustahkam bo'ladi. Nafaqat tomoshabinlar oldida, balki sahnadoshlari orasida ham nufuzlari ko'tariladi. Illo, kun sayin qaddini tiklab borayotgan o'zbek xalqining yirik namoyandalari, adabiyot va san'at yulduzlari haqida ishlanayotgan spektakllar, badiiy film va seriallarda ularning timsollarini yaratish jarayonida, bu aktyorlar oldiga tushadiganlari bo'lmaydi.

Izzat Sulton va Uyg'unning "Alisher Navoiy" dramasi qahramonlari obrazi-ni yaratishni orzu qilgan aktyor bo'lsa, albatta, g'azaliyot bilan qattiq do'st tutun-ishi kerak. Navoiymi, Gulimi, Abulmalix va yo yana boshqa qahramonlarni she'r va g'azalda so'zlatadigan bu o'lmas asarning muxlislari cheksiz ekanligi, albatta, aktyorlarni qiziqtirishi kerak. She'rni bilgan ijrochi g'azalni bilmasligi mumkin. Ammo g'azalni yaxshi o'zlashtirgan aktyorlar she'rni ham yuqori darajada ijro qiladilar.

Teatrimiz salaflaridan Olim Xo'jayev, Yoqub Ahmedov, Razzoq Xamroyev, Fayzulla Ahmedov, Farziddin Fayozov, Hojiakbar Nurmatov, badiiy so'z ustalaridan Temurmaliq Yunusov, Nasiba Qambarova, Mirzohid Rahimov, Halima Yusupova, Rahmat Jumayev, Vohid Do'stmuhammedov singari ijodkorlarimiz g'azal ijrosida yuksak mahorat cho'qqisida bo'lganlar. Ularga qadar radioda Tu'g'unoy Yunusxo'jayeva, Qodir Maqsumovdek diktorlar g'azal o'qishlari bilan millionlar qalbini zabt etganlar. Bu iste'dodlar o'z davrining noyob ijrochilari hisoblangan va davlat rahbarlarining e'tirofiga sazovor bo'lgan bo'lsa-da, biz bu ikki ijrochi yo'llarini bugun eng to'g'ri, eng ommabop deb qabul qilolmaymiz. Nafaqat qabul qilolmaymiz, balki yangi avlod talabalarini o'qitishda mutlaqo ular yo'lidan bormaslik kerak, deb aytamiz. Illo, o'shandan keyin bir necha bor yangilanishlarga yuz tutgan adabiyotimiz, she'riyatimiz, xususan g'azal ijrosi ham boshqa mezonlarda o'lchanadigan bo'ldi. Bugun g'azalga yondashuv, unga noto'g'ri qo'llanilgan ohangdorlik, bo'rttirma pafoslarga munosabat o'zgarishi, ma'no-mazmunidagi yangi kashfiyotlar nuqtai nazaridan ijro uslubi boshqa ko'rinish kasb etishi kerak.

G'azalxonlik masalasida, O'zbekiston radiosi va televideniyesida izlanuvchan xodimlar tomonidan ko'p ijobiy harakatlar amalga oshirilgan. "G'azalxon yoshligim" ko'rsatuvi asosan yoshlarni g'azalga oshno qilish, ularning ko'nglida mumtoz she'riyatimiz durdonasi bo'lmish g'azalga muhabbat uyg'otish maqsadida tashkil qilingan xayrli ishlardan biri, deya olamiz. Bundan tashqari "G'azal oqshomi", "G'azal bo'stoni", "Nazm va navo" ko'rsatuvlarida ham g'azal yozish, g'azal o'qish, g'azalni aholi turli qatlamlari orasida keng yoyish va targ'ib qilish kabi maqsadlar ilgari surilgan. Aytish kerakki, o'sha davrlarda bu maqsadlarga erishilgan ham. Biroq keyinchalik bu harakat sezilarli darajada sustlashib ketdi.

Biz bugun aruz vazni, g'azal janri haqida gapirar ekanmiz, barmoq vazni-dagi boshqa she'rlardan aruz vaznida yozilgan she'rlarning farqi haqida to'xtalib o'tishimiz shart.

Har ikki vaznda ham o'lchov – bo'g'in bor (chegara), shakl bor, qofiya bor. Shu sababli ham har ikkovi she'r deb ataladi. Ammo aruz vaznida yozilgan g'azal arablardan kirib kelgani bois, turkiylarga xos bo'lgan barmoq vaznidan biroz farqlanadi. Bu farq, avvalo, ba'zi bir tovushlarning arabcha talaffuzidagi o'ziga hoslik biz uchun bir muncha mushkulliklarni keltirib chiqaradiki, bizning talaffuzimizda ham alifboimizda bunday tovushlar mavjud emas. Arab tilini o'rganuvchilar ham buni uzoq muddat mashq qilgandan so'ng o'zlashtiradilar.

Shu bilan birga barmoq vaznida "bo'g'in" deyiluvchi o'lchov arab she'riyatiga nisbatan, xususan, aruz vaznida "hijo" ostida qo'llaniladi. Mana shu hijolar misralar ravonligi, vazn o'lchovi yagonaligi va dogmatikligini ta'minlash maqsadi bilan ulardagi unillar ba'zi o'rinlarda qisqa, ba'zi o'rinlarda uzunroq talaffuz qilinadi. Bu g'azalning barmoq vaznidagi she'rdan farqlantiradigan asosiy jihattir. Masalan, Hazrat Navoiy g'azalidan:

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi, Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi – baytini olaylik. Ushbu satrlardagi kecha so'zi "kechaaa" ko'rinishida talaffuz qilish kerak. Yoki "gulro'o'o'", "uyquuu" ko'rinishida kuychanroq qilib aytilishi kerak. "I" unlisi ham vazn talabi va hijoning imkoniyatiga qarab ba'zan qisqa, ba'zan cho'ziq holatda talaffuz qilinishi kerak. Hijolarning tarkiban birikuvi "rukn"ni hosil qilsa, ular yig'indisidan "bahr"lar vujudga keladi, bahrlar bag'rida ruknlarning ishtiroki asosida "vazn" hosil bo'ladi.

G'azalni oddiy she'rlarday yaxshi o'qish, berilib ijro etish kam. Hatto qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirib olishning o'zi ham yetarli emas. G'azalni ijro etmoqchi bo'lgan badiiy so'z sohibi uni sevishi kerak. Qalban his qilishi, ongi bilan tanishi kerak. Har bir odamning sevgan kitobi, yaxshi ko'rgan taomi, o'zi e'tiqod qilgan dini, ko'ngliga yaqin odamlari, qayta-qayta ko'rib zerikmaydigan filmlari bo'ladi. Shular bilan u erkin, bemalol, munosabat qiladi, ishtaha bilan tanovul qiladi yo berilib mutolaa qiladi. Istalgan payt, istalgan holatda ularni oson va tabiiy, o'zining bir bo'lagidek qabul qiladi. G'azal ham shunday ko'rinishda yaxshi ko'rilishi kerak. Shuni eplagan odam, umr bo'yi g'azal o'qishning yuqori cho'qqisini egallaydi, g'azaldan rohat oladi, baraka topadi va boshqalarga ham shu rohatni ulashadi.

Mening nuqtai nazarimga ko'ra, aktyorlar mamlakat ziyolilaridan bir bosh yuqori turishlari, nafaqat sahnadagi ijrolari paytida, balki jamoat orasida boshqa holatlarda hozir bo'lganlarida ham o'zlarini aslzodalardak tutishlari kerak, deb o'ylayman. Bugun hamma uchun chiroyli kiyinish oson bo'lgan davr. Lekin hamma ham ravn va yoqimli, ma'noli va ifodali gapira oladimi? Yo'q. O'sha chiroyli kiyinganlar orasida she'riyatni yaxshi biladigan, g'azal o'qishni yetuk o'zlashtirib olib, bir necha g'azalni ketma-ket ulab yodlab, ijro etib bera oladiganlar ko'pmi? Ishonish qiyin. Bas, san'at va madaniyat instituti bitiruvchisi, teatr san'ati yo'nalishida o'qiyotgan talaba aynan mana shunaqa bo'lishi, ko'pchilik orasida

oʻzini aslzodalarga xos tomonlarini koʻrsatishi kerak. Biroq odamdagi bu fazilatlarini yuqoridagi kabi faqat chiroyli va qimmatbaho liboslar bilan namoyon qilib boʻlmaydi-da. Kiyimlari siporoq boʻlsa ham aktyor ravon nutq, “qimmat-baho” badiiy soʻz ijrosi bilan oʻzini namoyish qilishi mumkin. Oʻzlari sanʼtkor boʻlmay turib, sanʼatni va sheʼriyatni yaxshi bilgan juda koʻp insonlarni bilaman. Biri shifokor, biri kimyogar olim, uchinchi prokuratura xodimi va hokazo. Ular gʻazal oʻqiganlarida, ruboiylar aytib berganlarida ancha-muncha aktyor va soʻz ustalarini ham hayron qoldira olardilar.

Oʻtgan asrning soʻnggi yigirma yili, yangi asrning yana yigirma yili mobaynida avvalgi qabul qilingan meʼyor va andozalar butkul chetga surildi, oʻrni almashdi, yangilari paydo boʻldi, ommalashdi. Sport kiyimi bilan klassik liboslar aralash kiyila boshlandi. Smoking va kapalak nusxa galstuk tagida yirtiq jinsi shim va krossovka(!) kiyilyapti. “Shartlilik” shiori ostida dekoratsiyasiz spektakllar namoyish qilina boshlandi. Boshlovchisiz konsertlar koʻpaydi. “Zangori ekran”da 50–60-yillar davomida teleinformatsion dasturlarni ikki boshlovchi – ayol va erkak oʻqir edi. Bu tamoyil ham buzildi va endi bir qator telekanallarda faqat bir ovozda erkak yo ayol boshlovchining oʻzi oʻqiydigan boʻldi. Qoʻshiq qoʻshiq boʻlmay, “kompozitsiya” deb, koʻrsatuvlar va tadbirlar “loyiha” deb nomlana boshladi. Bu kabi yangilanish va oʻzgarishlarni hamma-hamma sohada uchratish mumkin. Shuningdek sheʼriyatda ham.

Bugun yoshlar oddiy, barmoq vaznidagi sheʼrlarni ham yaxshi qabul qilmaydilar, avvalgi avlodlar kabi oshiqona, maftun boʻlib oʻqib yurmaydilar. Gʻazalga munosabat esa, undan ham achinarli holda. Shu sababli, sheʼriyatga, gʻazaliyotga boshqacha yondashish, uni oʻrgatishda yangicha usullar qoʻllash, hech boʻlmaganda eski usulda qabul qilingan qoidalarni jiddiy taftish qilish orqali talabalar zerikmaydigan, tushunishi oson, oʻzlashtirishi yengil qilib taqdim qilish kerak. Zamonaviy oʻquv dasturlari yaratish lozim.

Misol uchun olib qarajak, Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti dotsenti Ernazar Yorbekovning “Sahna nutqi” (Oʻzbek mumtoz sheʼriyati) nomli oʻquv qoʻllanmasida keltirilgan mashgʻulotlar bilan bugungi kun talabasiga gʻazalni sevdirish oʻrniga, aksincha munosabat uygʻotib qoʻyish mumkin. “Sahna nutqi” fani bilimdonlaridan boʻlgan ustoz Abdurahim Sayfutdinov domla bu darslarni oʻtgan asrning oltmishinchi yillari talabalar uchun oʻsha asr elliginchi yillarida filolog olimlar oʻrganib, tasdiqlagan tavsiyalar asosida ishlab chiqqanlar. Bu tadqiqotlar ustozning “Adabiy asar va ijrochilik mahorati” kitobining “Aruz sistemasini va unda yozilgan sheʼrlar ustida ishlash” boʻlimida keltirilgan (“Fan” nashriyoti, 1980-yil, 101-bet). Agar aruz aslan arab xalqiga tegishli sheʼriy forma ekanligi, arab fonetikasidagi koʻpgina unli va undosh tovushlar oʻzbek tilida va umuman turkigoʻy xalqlarda yoʻq ekanini hisobga oladigan boʻlsak, bu bizning talabalarimiz oʻzlashtirishiga apriori mushkul narsa. Buning ustiga u davrlarda oʻrta maktab

dasturlarida ham bu janrga alohida toʻxtalgan, adabiyot oʻqituvchilari bugungi kundagi darsliklarga qaraganda, bu mavzularni jiddiyroq tushuntirganlar. Chunki u oʻqituvchilarning oʻzlari ham bevosita oʻsha davrning bilimdon ustozlaridan dars olganlar. Tan olishimiz kerak, bugun ahvol anchayin oʻzgargan. Quyida misol tariqasida keltirilgan qoida bilan aruzni, gʻazal oʻqishni va gʻazal oʻqishni oʻrgatishni, hatto, filologiya fakulteti talabalari ham oʻzlashtirishlari qiyin.

Professor A.Sayfiddinovning biz yuqorida keltirganimiz “Adabiy asar va ijrochilik mahorati” nomli kitobida (“Fan” nashriyoti, 1980-yil, 107-bet) aruz sistemasiga keng toʻxtalinib, jumladan, shunday deyiladi: “Oʻzbek poeziyasidagi aruz sistemasida quyidagi ruknlar keng tarqalgan. Oʻquvchilarga tushunilishi oson boʻlsin uchun ularning nomlari bilan birga sxemasini-paradigmasini ham koʻrsatib oʻtamiz:

<i>Ruknlar nomlari</i>	<i>Ruknlar sxemasi</i>
<i>Mafʼul</i>	-- --
<i>Faʼul yoki faʼlun</i>	v --
<i>Faulun, foilot yoki foilun</i>	-- v --
<i>Fauvlun</i>	v -- --
<i>Mafʼuvlu</i>	-- -- v
<i>Failun</i>	v v --
<i>Foilotun</i>	-- v -- --
<i>Mafoilun</i>	v -- v --
<i>Mafoiylun</i>	v -- -- --
<i>Muftailun</i>	-- v v --
<i>Mustafʼilun</i>	-- -- v --
<i>Mustafʼilatun</i>	-- -- v v --
<i>Mafoiylatun</i>	v -- -- v --
<i>Mutafoilun</i>	v v -- v --

*Aruz sistemasida vaznlar mana shu ruknlardan tashkil topadi. Bu ruknlarni turlicha qoʻshib ishlatish mumkin. Masalan, foilotun ruknini 3 marotaba hamda unga qoʻshimcha qilib foilun ruknini 1marta ishlatib, aruzdagi 15 hijoli vazn vujudga keladi:*

*Fo i lo tun fo i lo tun fo i lo tun fo i lun*  
 -- v -- -- -- v -- -- -- v -- -- -- v --

*Misol: Xonaqahda / xalqai zikʼr ichra gʻavgʻo / qildi shayx,*

*Ahli dillar / naqdi avqoʻtini yagʻmo / qildi shayx”*

Bu fikrlardan koʻrinib turibdiki, aruz vaznida hijolardan ruknlar, ruknlar soniga qarab esa bahrlar shakllanadi. Yaʼni, 3 marta “foilotun” rukni takrorlanib, toʻrtinchi rukn “foilun” boʻlsa, ushbu ikki xil ruknning birgalashib guruhlanishi, bahr deyiladi. Yoki bir xil “mafoiylun” ruknining oʻzi 4 marta kelishi va bir guruhni tashkil etishi mumkin”.

Menimcha, bu yoʻsin dars oʻtilganda talabalarning juda koʻpchiligida oʻzlashtirishda mushkullik yuzaga keladi. Bugun ularning olamida zamonaviy va nur tezligidagi maʼlumotlar shunchalar koʻp va ular shunchalar jozibaliki, uzoq oʻtmishdagi ajdodlar alohida ilm sifatida avaylagan bu gʻazal ilmi ularni qiziqtirish darajasi juda past boʻladi. Qiziqqanlari ham “ramali musaddasi mahzuf”, “hazaji musaddasi mahzuf” – buning bahri bunday, hijolari mana bunday,

falon rukn va piston turoq... deganning o'zidayoq hafsalasi bo'shshib qolishi aniq.

Shu sababli, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining nutq bilan shug'ullanuvchi yo'nalishlari professor va o'qituvchilari, filologiya yo'nalishlarining mumtoz she'riyatimiz maydonida o'z so'zini aytgan va jiddiy izlanayotgan mutaxassislari birlashtirgan holda g'azalni zamonaviy o'rgatish uslubini ishlab chiqsalar, yaxshi bo'ladi. Chunki filologlar o'zlaricha, amaliyot bilan shug'ullanuvchi teatrlar, radio va televideniye ijodkorlari o'zlaricha, san'at instituti nutq mutaxassislari o'zlaricha faoliyat ko'rsatib, umumiy bir zamonaviy yo'nalishga ega emaslar.

Esimda, biz televideniya ishlab yurgan kezlirimizda, suxandonlar faoliyatini yaxshilash, ijro imkoniyatlarini oshirish, umuman, she'riyat va xususan aruz vaznida yozilgan she'rlarni to'g'ri o'qishni o'zlashtirishlari uchun maxsus o'quv kurslari tashkil qilingan edi. O'shanda Milliy universitetning professor-o'qituvchilari Alibek Rustamov, Hisomiddin G'ulomov singari mutaxassislari, San'at va madaniyat institutidan Roziya Usmonova, biz, televideniye diktorlariga g'azal ilmi va ijro sirlaridan darslar berishgan edi. O'shanda men o'qituvchi ham shunchalik fidoyi bo'lishi mumkin ekanmi, deb o'ylagan edim. Garchi men institutdaligimdayoq g'azal o'qishni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsam ham bu darslar menga juda ham asqotgan edi. Sababi, san'at institutida biz ijroga ko'p urg'u bergan bo'lsak, Alibek Rustamov va Hisomiddin G'ulomovlar biz uchun o'tgan darslarida g'azaldagi arabiy uslub va ma'nolar, so'zlar etimologiyasi va talaffuzi, g'azalning asl mo'jizalari haqidagi batafsil bilimlari orqali chinakam g'azal olami nima ekanini o'rgangan edik. Ming afsuski, bugun bu tajriba telekanallarda ham, institutimizda ham yo'q.

O'shanda u muborak zotlar bizga hazaj-u ramallardan, muta'qorib-u foilotlardan gapirmaganlar.

Chunki bu besh-olti darsda o'zlashtiriladigan ilm emas. U hajman juda katta vaqt talab etadi. Shu sababli, ular g'azalni qanday his qilish, rukni (usullari) ni ilg'ab olish, undan chiqib ketmagan holda she'r va ashula oralig'idagi kuychanlik bilan o'qishni o'rgatgan, barmoqdagi bo'g'in bilan g'azaldagi hijoning asosiy farqini ko'rsatib bergan edilar. Biz o'sha saboqlarga amal qilgan holda mana bir necha o'n yilliklar orasida g'azal o'qib kam bo'lmadik, dakki eshitmadik. Illo, bugungi yoshlarga ham g'azalni shular qo'llagan yo'sinda, soddaroq qilib o'rgatsak, degan taklifim bor. Va bu taklifimning zinhor, san'at institutidan tashqarida, bo'lak universitet va institutlarning filologiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga aloqasi yo'q. Chunki ular adabiyot ustunlarini fundamental o'rganishlari zarur va lozim.

Shu o'rinda adabiyot fani filologlar uchun ham, san'at yo'nalishidagi ijodkor talabalar uchun ham birday o'tilmasligi, ular ikki xil dasturga asoslanib, filologlar uchun keng va chuqur, san'atkorlar uchun umumiy va maqsadli o'tilishi kerak, deb hisoblayman.

Aytmoqchi bo'lganim, aktyorlar otni minishni yaxshi bilsalar bo'ldi, ot sporti chempioni bo'lishlari shart emas, demoqchiman. Sahnada qilichbozlik harakatini yaxshi namoyish qilib berishlari uchun aktyorlar sportning qilichbozlik yo rapira turida chempion bo'lishlari talab etilmaydi-ku. Aynan, g'azalni o'rganish borasida ham ulardan filologlardan talab qilinadigan darajada o'rgatilishi shartmasmikan, deb hisoblayman. Muhimi, yigit-qizlar g'azalni tushunsinlar, ajratsinlar, uni yurakdan o'tkaza olar darajada yaxshi ko'rsinlar, sevsinlar. Bizning institut "Sahna nutqi" kafedrasi o'qituvchilari o'z shogirdlariga g'azalni sevishni o'rgatsinlar. Yoshlarimiz otabobolarimiz kabi ko'ngillari "Navoiyxonlik" va "Bedilxonlik" davralari tuzadigan, ularni sog'inadigan bo'lsinlar. Ana o'shanda shogirdlarimiz ijod olamining chinakam aslzoda vakillaridan bo'ladilar.



## FANDRAYZING – BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNI JALB QILISH TEXNOLOGIYASI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, davlatimizda unchalik rivojlanmagan soha – fandrayzing (mablag' yig'ish) haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** fandrayzing, homiylar, nodavlat notijorat tashkilotlar, maqsad, davsturlar, loyiha, moliyalashtirish.

## ФАНДРАЙЗИНГ – КАК ТЕХНОЛОГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ВНЕБЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ

**Аннотация.** В этой статье будет представлена информация о менее развитой отрасли в нашей стране – сборе средств.

**Ключевые слова:** сбор средств, фандрайзинг, спонсоры, некоммерческие организации, сел, программы, проект, финансирование.

## FUNDRAISING – AS A TECHNOLOGY FOR ATTRACTING EXTRA BUDGETARY FUNDS

**Abstract.** This article will provide information about a less developed industry in our state – fundraising.

**Key words:** fundraising, fundraising, sponsors, non-profit organizations, purpose, programs, project, financing.



Fandrayzing – "mablag yig'ish", "moliyalashtirishni topish" tushunchasi AQSH dan o'zbek tiliga kirib keldi. U notijorat faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qilish amaliyotini belgilash uchun paydo bo'lgan edi. Fandrayzing (mablag yig'ish), shuningdek, foydali bo'lmagan faoliyat sohasini ta'minlash uchun zarur resurslarni (moliya, uskunalar, ko'ngillilar, ma'lumotlar) izlash bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Shu munosabat bilan fandrayzing – bu ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat yoki loyihalarni amalga oshirish uchun asosan notijorat tashkilotlarga pul va boshqa resurslarni jalb qilish usulidir. Mablag'lar jismoniy shaxslardan, tijorat tashkilotlaridan, fondlardan, davlat tashkilotlaridan olinishi mumkin. Mablag' yig'ish – bu notijorat tashkilotga kerakli mablag'ni topishga imkon beradigan sxema. Bu moliyaviy muammo, ko'pincha ijtimoiy ahamiyatga ega vazifani bajaradigan va pul topmaydigan tashkilotlar uchun to'siq bo'lib qoladi.

Bu muammoni hal qilishga imkon beradigan yo'nalish – mablag' yig'ishdir. Shunday qilib, NNT (nodavlat notijorat tashkilotlar) bir necha bor bir xil muammoga duch keladi: keyingi xayriya tadbiriga qayerdan pul olish kerak, qayerdan mablag' topish kerak, pul uchun emas, balki g'oya uchun ishlashga tayyor ko'ngillilarni qanday jalb qilish kerak? Buni hal qilish uchun mo'ljallangan mablag' yig'ilishi zarurdir [1].

Mamlakatimizda fandrayzing atamasi ko'pincha shunchaki xayriya tadbiri, xayriya uchun mablag yig'ish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda mablag' topishni anglatadi. Agar chuqurroq nazar solsak, aslida bu atama kengroq ma'noda ekanligini ko'ramiz. Mablag' yig'ish – bu tegishli marketing vositalari, usullari va texnologiyalaridan foydalangan holda tashkilot o'zi ta'minlay olmaydigan turli xil resurslarni jalb qilishning maqsadli strategiyasidir.

Shu bilan birga, ko'chadan kelgan odam loyihaga zarur bo'lgan katta miqdordagi mablag'ni jalb qila olmaydi. Marketing sotsiologiya, psixologiyaning zamonaviy vositalaridan foydalangan holda, loyihaga kerakli pul

oqimini jalb qila oladigan mutaxassislar kompaniyasi – fandrayzing tashkiloti, deb yuritiladi. Shunday qilib, bu – notijorat loyihaga ma'lum resurslarni jalb qiladigan faoliyat hisoblanadi. Resurslar nafaqat pulni, balki tovarlarni, zarur binolarni va mehnatni, aloqalarni, ma'lumotlarni va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, resurslar – bu tashkilot o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan narsa va u pul bo'ladimi yoki boshqa biron-bir narsa ekanligi kompaniyaga bog'liq.

*Mablag' yig'ish turlari;*

Jarayonning bir nechta tasniflari mavjud. Birinchisi shu kabi ko'rinadi:

- mablag' yig'ish borasida muayyan loyihani amalga oshirish uchun resurslarni qidirish bilan shug'ullanadigan loyiha;
- operatsion mablag' yig'ish – joriy xarajatlar uchun mablag' topishga qaratilgan.

Shuningdek, ichki va tashqi mablag' yig'ish bo'limi mavjud. Ichki, notijorat tashkilot xodimlarining o'zlari mavjud resurslardan foydalangan holda donorlarni va moliyalashtirishni qidirmoqdalar. Tashqi tomoni moliyalashtirishni izlayotgan kompaniyalarni, ya'ni mablag' yig'uvchilarni jalb qilishni nazarda tutadi.

*Mablag' yig'ishning asosiy vazifalari:*

- loyihaga yordam berishga tayyor bo'lgan donorlarni qidirish;
- tashkilotning ehtiyojlarini uning ishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash, ularni hisobga olgan holda homiylarni tanlash;
- turli xil resurslarni jalb qilish;
- tashkilotning yangi hamkorlari va do'stlarini qidirish;
- resurslarni olish uchun mavjud donorlar bilan ishlash;
- tashkilot faoliyati to'g'risida ijobiy obro'ga, yaxshi jamoatchilik fikriga ega bo'lish.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu ish notijorat tashkilotlarga tegishli, ammo egalarga daromad keltiradigan korxonalar emas. Biroq ushbu tashkilot hali ham yaxshi qurilgan mablag' yig'ish xizmatlari uchun pul to'lashi kerak.

Tabiiyki, har bir loyiha yakka tartibda yondashuvni talab qiladi va resurslarni jalb qilish bo'yicha mutaxassis bu haqda biladi. Biroq mablag' yig'ish loyihalarini o'tkazish algoritmi bir qator takrorlanadigan bosqichlarga ega:

- loyihani baholash, uning ehtiyojlari, potensial auditoriya va donorlar;

- kompaniya faoliyati, uning maqsadlari va ehtiyojlari to'g'risida ma'lumotni auditoriya va potensial donorga eng mos ravishda yetkazish;

- loyihani muntazam qo'llab-quvvatlashda, avval buni amalga oshirganlarni qiziqtirish.

Shunday qilib, harakatlar cheksiz auditoriyaga tarqatilmaydi, balki oldindan belgilangan maqsadga ega va mablag' yig'uvchilar tomonidan baholanadi. Mablag' yig'ish, ayniqsa, o'z faoliyatidan foyda ko'rmaydigan notijorat loyihalarga qaratilgan. Bunday loyihalarni tijorat rejimida amalga oshirish mumkin emas. Bugungi kunda bunday mablag' yig'ish turli sohalarda amalga oshirilmoqda:

- ijtimoiy ishda – bu og'ir kasallarni, muhtoj va ijtimoiy himoyalangan toifadagi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan xayriya tashkilotlari va jamg'armalari ishlaydi;

- madaniyat sohasida mablag' yig'ish muzeylar, tarixiy yodgorliklar va joylarni, kutubxonalarini, teatrlarni va san'atning alohida vakillarini qo'llab-quvvatlaydi;

- ilmiy sohada ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalari, ilm-fanga bag'ishlangan ko'rgazmalar, uchrashuvlar, konferensiyalar;

- agar biz biznes haqida gapiradigan bo'lsak, unda resurslar ijtimoiy ahamiyatga ega korxonaga jalb qilinishi mumkin;

- siyosatda alohida partiyalar, arboblar, tendensiyalarga ko'mak beriladi;

- sportda resurslar, jamoalar va alohida sportchilar, tadbirlar va sport o'quv yurtlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Shunday qilib, fandraying deb nomlangan "moliyalashtirishni qidirish" faoliyati barcha asosiy sohasiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, u davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ajoyib alternativ bo'lib xizmat qilishi mumkin, ayniqsa, agar u yomon amalga oshirilsa yoki umuman mavjud bo'lmasa.

Loyihaga resurslarni samarali jalb qilish uchta asosiy talabga javob berishi kerak:

- loyihaning ochiqligi va uning faoliyatining shaffofligi, donor loyihaning nima qilayotganini va uning maqsadlari nima ekanligini aniq tushunishi uchun;

- ishtirok etish qulayligi, shuning uchun jalb qilingan odamlar to'siqsiz xayr-ehson qilishlari mumkin;

- tashkilotga bo'lgan ishonch darajasini oshiradigan hisobot, bu potensial ishtirokchilar uchun yanada jozibador bo'lishini anglatadi.

Qisqasi, mablag' yig'ish – bu ish. Tashkilotning o'zi resurslarni jalb qilish bilan shug'ullanadimi yoki shu maqsadda mutaxassislar yollanadimi, farqi yo'q. Qanday bo'lmasin, har bir qadamdan oldin uning samaradorligini to'liq tahlil qilish kerak [1].

O'zbekistonda fandraying nisbatan yaqinda paydo bo'ldi va hozirda endigina rivojlana boshladi. Fandraying bu, madaniyat sohasidagi boshqaruvning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, u qo'shimcha, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish ishlari bilan bog'liq bo'lib, uning yordamida rejalashtirilgan dasturlar, tadbirlar, loyihalarni amalga oshirish uchun resurslar bilan ta'minlash

mumkin bo'ladi. O'zbekistonda fandraying notijorat sektorning o'sishi, shuningdek, ijtimoiy va madaniy sohani davlat tomonidan moliyalashtirishning pasayishi bilan parallel ravishda rivojlana boshladi. Shunday qilib, fandraying bu, notijorat xarakterdagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni jalb qilish va to'plash faoliyatidir.

Fandraying investitsiyalarni izlash va jalb qilishdan ajralib turishi kerak, chunki ikkinchisi foyda olishni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, ikkala holatda ham davlat idoralari, korxonalar, boshqa tashkilotlar, muassasalar, jismoniy shaxslar o'z mablag'lari va resurslarini ushbu loyihalar va dasturlarni amalga oshirishga sarflashini kutish uchun, ishlab chiqilgan loyihalar va dasturlarga qiziqish bildirish uchun aniq harakatlar olib borilmoqda. Fandraying madaniyat menejeri ishining muhim yo'nalishi hisoblanadi, chunki ushbu amaliyot bir qator muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi: binolarni ijaraga olish, transport xizmatlari, axborotni qo'llab-quvvatlash va ma'lum bir ijtimoiy va madaniy loyihani amalga oshirish mumkin bo'lgan boshqa xarajatlar. Shu bilan birga, madaniy muassasaning o'z-o'zini malakali va foydali tutishi kerak, shuning uchun PR faoliyati fandrayingning bir qismi sifatida qaralishi mumkin, chunki odamlar ma'lum darajada taniqli va ma'lum bir ahamiyatga, o'ziga xoslikka ega bo'lganlarni qo'llab-quvvatlashga va ularga yordam berishga harakat qilishadi. Fandraying samaradorligini olingan resurslarning miqdori va sifati bilan o'lchash mumkin [2].

Moliyalashtirish va resurslarni taqdim etish maqsadlariga qarab, fandrayingning ikki turi mavjud: loyiha va operatsion. Birinchi holda, mablag' yig'ish kompaniyasi aniq ijtimoiy-madaniy loyihalar va dasturlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni jalb qilishni maqsad qilgan. Madaniyat sohasidagi mablag' yig'ishning ushbu turi juda qulay va donorga taqdim etish osonroq, chunki u aniq vazifalar va natijalarni (ko'rgazma ochilishi, teatrlashtirilgan ishlab chiqarish va boshqalar mavjudligini nazarda tutadi), shuningdek, xarajat moddalarini ko'zda tutadi.

Operatsion fandraying bilan bog'liq vaziyat biroq boshqacha. Chunki bu aniq loyihalarni amalga oshirishga emas, balki xayriya faoliyatini yuritish yoki davom ettirishga qaratilgan (xodimlarga ish haqqi, binolar uchun ijara haqqi va boshqalar), natijada u kamroq rasmiylashtiriladi va shuning uchun unchalik samarasiz. Operatsion mablag' yig'ish jarayonida donorgalardan olingan mablag'lar va boshqa turdagi yordamlar maqsadga ega emas va madaniy muassasaning daromad qismida to'planadi. Shu bilan birga, operatsion mablag' yig'ishning ijobiy tomoni jalb qilingan resurslardan uzoq muddatli va istiqbolli vazifalarni hal qilish uchun foydalanish mumkinligini hisobga olish kerak.

Shuningdek, foydali bo'lmagan sohaga resurslarni jalb qilish texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar loyihani mablag' yig'ish bilan shug'ullanishni qat'iy tavsiya qiladilar, chunki u operatsion jihatdan aniq afzalliklarga ega. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan har qanday faoliyat, agar ijodiy yondashuv qo'llanilsa, buzilishi va loyiha sifatida taqdim etilishi mumkin. Loyiha shaklida har qanday xona, konferensiya, tadbir ham taqdim etilishi mumkin. Loyihaning asosiy afzalligi – maqsadlar, xarajatlar va eng muhimi, natijadagi shaffoflik. Hozirgi vaqtda loyiha faoliyati jadal o'sib

bormoqda, bu esa loyihani boshqarishning mashhurligini tushuntiradi. Biroq fandrayingni ikkala turida ham, eng muhimi, mablag' yig'ish kompaniyasining ikki yoki undan ortiq ishtirokchilari uchun o'zaro manfaatlarini topish va to'g'ri asoslashdir. Shu munosabat bilan mablag' yig'ish ko'pincha ijtimoiy sheriklikni shakllantirish va o'rnatish texnologiyasi, deb ataladi.

Ijtimoiy sheriklik doirasida potensial sheriklarning manfaatlarini hisobga olish, do'stona munosabatda bo'lish va sabr-toqatni namoyon etish kerak, chunki zarur mablag'larni ajratish o'z yurisdiksiyasiga resurslarni joylashtirish to'g'risida o'z fikrlarini shakllantiradigan aniq odamlarga bog'liq. Hamkorlik masalasini odamlar hal qilishadi va ko'p jihatdan bu qaror ularning mablag' yig'ish faoliyatini amalga oshiradigan tashkilot, muassasa yoki uning rahbariga bo'lgan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Shuning uchun moliyalashtirish to'g'risidagi qaror ko'pincha ikkala tashkilot xodimlari yoki menejerlari o'rtasidagi munosabatlar darajasi va xususiyatiga bog'liq [3].

Shunday qilib, fandrayingning zarur sharti turli tijorat firmalari, davlat idoralari, jamg'armalar va shaxslar bilan aloqalarni o'rnatishdir, bu esa keyinchalik madaniy muassasa uchun zarur resurslarni jalb qilishga imkon beradi. Shuning uchun mablag' yig'ish ko'pincha notijorat tashkilot uchun do'st topish san'ati, deb ataladi. Fandraying bu, cheksiz jarayon yoki sikl, uning natijasi tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat madaniyatini ta'minlash yoki ijtimoiy-madaniy loyihalar, dasturlar, tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur resurslarni muntazam ravishda jalb qilishdir. Shu munosabat bilan ushbu murakkab ishning nuanslari to'g'risida muvozanatli tasavvurga ega bo'lish uchun ushbu jarayonning har bir bosqichini batafsil ko'rib chiqish kerak.

Mablag' yig'ish madaniy muassasaning umumiy rivojlanish strategiyasiga asoslangan bo'lishi kerak bo'lgan rejalashtirishdan boshlanadi. Mablag' yig'ishni rejalashtirish sa'y-harakatlarni yo'naltirish va ushbu ishning har bir bosqichi bajarilishini nazorat qilish uchun zarurdir. Fandraying faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan tayyorgarlik ishlariga bog'liq bo'lib, bu muassasaning byudjetdan tashqari resurslarni jalb qilish bo'yicha muvaffaqiyatli ishining kalitiga aylanadi. Bundan tashqari, rejalashtirish doimiy ravishda avvalgi mablag' yig'ish kompaniyalarining xulosasini kuzatib boradi, chunki bu jarayon uzluksiz.

Fandraying jarayonida bosqichlari soni bo'yicha turli xil bosqichlar bor. Shunday qilib, ko'pincha mualliflar mablag' yig'ishda faqat uch bosqichni ajratib ko'rsatishadi, boshqalari mablag' yig'ishni o'n bosqichdan iborat, deb hisoblashadi. Ushbu masala bo'yicha turli xil fikrlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlaymizki, ko'plab amaliyotlarda mablag' yig'ishni tashkil qilish mantig'i bir xil ko'rinadi.

*Muammoni tahlil qilish va mablag' yig'ish strategiyasini tanlash.*

Mablag' yig'ish kompaniyasi vaziyatni tahlil qilish va

butun mablag' yig'ish strategiyasi quriladigan markaziy g'oyani yaratish bilan boshlanadi. Ushbu bosqichda qo'llab-quvvatlash va mablag' talab qiladigan ma'lum bir mablag' yig'ish mavzusini aniqlash muhimdir. Madaniyat sohasida bu ko'rgazmaning ochilishi, ta'lim dasturini amalga oshirish, kitob nashr etish, yoshlar dasturini o'tkazish, tanlov, festival, hujjatli materiallarni raqamlashtirish, fondni saqlashni qo'llab-quvvatlash va boshqa ko'p narsalar bo'lishi mumkin. Vazifa qanchalik aniq bo'lsa, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Bundan tashqari, madaniy faoliyatning tanlangan yo'nalishini qo'llab-quvvatlash uchun muammoni hal qilishning dolzarbligini asoslash kerak. Mablag' yig'ish kompaniyasining strategiyasi muvaffaqiyatli mablag' yig'ish natijasida hal qilinishi mumkin bo'lgan muammoning xususiyatiga bog'liq.

Fandraying strategiyasi har bir loyiha yoki zarur mablag'lar va boshqa resurslarni jalb qilishni talab qiladigan aniq faoliyat uchun alohida ishlab chiqiladi. Strategiya mablag' yig'ish kompaniyasini o'tkazishning maqsadi, mavzusi, vaqti, resurslari va usullarini belgilaydi. Mablag' yig'ish ko'pincha menejer yoki xodimlarning nafaqat jismoniy va intellektual ishlarini, balki ma'lum moliyaviy xarajatlardan foydalanishni ham talab qiladi (buklet nashr etish, axborot shakllarini chop etish, mobil aloqa xarajatlari va boshqalar) [4].

Ba'zida mablag' yig'ish kompaniyasi uchun ikkinchi bosqich ishining natijalarini o'z ichiga olgan batafsil dastur ishlab chiqiladi. Dasturda tasdiqlangan ish rejasini amalga oshirish bosqichlariga bo'lingan holda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Mutaxassislar mablag' yig'ishni rejalashtirishni ijtimoiy-madaniy loyiha yoki qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha mablag' talab qiladigan boshqa faoliyat turi kutilayotgan boshlanishidan kamida olti oy oldin boshlashni maslahat berishadi. Ushbu bosqichda sizning tashkilotingiz haqidagi barcha ma'lumotlarni umumlashtirishga, uning o'ziga xosligini yoki o'ziga xosligini aniqlashga va asoslashga arziydi, bu donorlar uchun argumentlar ro'yxatiga asos bo'lishi mumkin, rejalashtirilgan loyiha yoki faoliyatning belgilangan o'ziga xosligidan tashqari (kitob, festival, tiklash va hokazo). Natijada nafaqat mablag' yig'ish dasturi, balki ishchi versiya izohlarini tayyorlash ham mumkin. Bunday izohning hajmi, qoida tariqasida, bitta sahifadan oshmasligi kerak va shuning uchun barcha ma'lumotlar qisqacha, tushunarli, ishonchli va qisqa taqdim etilishi kerak.

Donorlar uchun izohda loyihaning maqsadlarini, loyihaning dolzarbligi va xususiyatlarini shakllantirish, amalga oshiruvchi tashkilot, kutilayotgan natijalar va buning uchun zarur bo'lgan manbalar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish tavsiya etiladi. Ba'zi hollarda operatsion mablag' yig'ish loyiha yoki dasturning tavsifini talab qilmaydi, balki madaniy muassasa faoliyatining batafsil tavsifini, uning faoliyatining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan muammoli vaziyatning tavsifini talab qiladi.

#### Foydadanilgan adabiyotlar:

1. Aleksandrovskiy S.M. Fandraying asoslari (o'quv qo'llanma). – Yekaterinburg: "Fan", 2008. – B.234.
2. Fan va ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni axborot bilan ta'minlash. Xayriya jamg'armalari va tashkilotlari uchun loyihalarni tayyorlash bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Sankt-Peterburg: 2001. – B.19.
3. Mablag' yig'ish bo'yicha VIII mintaqaviy ishchi yig'ilish materiallari. –Moskva: 2000.
4. Grant arizasini tayyorlash. Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun uslubiy qo'llanma. – Stavropol: 2000. – B.8.

## ВОСПИТАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В ВУЗЕ НА МУЗЫКАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ

**Аннотация.** В статье раскрывается значение воспитания эстетической культуры студентов на музыкальных занятиях. В ней рассматриваются понятия «воспитание эстетической культуры студентов», «эстетическая культура», ее компоненты (эстетическое сознание, эстетическая художественная деятельность), а также возможности воспитания эстетической культуры в процессе занятий.

**Ключевые слова:** эстетическая культура, эстетическое сознание и эстетическая деятельность

## MUSIQIY MASHG'ULOTLARDA TALABALARNING ESTETIK MADANIYATINI TARBIYALASH

**Annotatsiya.** Maqolada, talabalarning estetik madaniyatini tarbiyalashda musiqaning ahamiyati haqida so'z ketadi. "Estetik madaniyat", "talaboning estetik madaniyatini tarbiyalash", uning tarkibiy qismlari (estetik tushuncha, estetik badiiy faoliyat), shuningdek, ta'lim jarayonida estetik madaniyatni o'rgatish imkoniyatlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** estetik madaniyat, estetik tushuncha va estetik faoliyat.

## EDUCATION OF AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS AT THE UNIVERSITY AT MUSIC LESSONS

**Abstract.** The article reveals the importance of educating the aesthetic culture of students in musical classes. It examines the concepts of "educating students' aesthetic culture", "aesthetic culture", its components (aesthetic consciousness, aesthetic artistic activity), as well as the possibilities of educating aesthetic culture in the process of training.

**Key words:** aesthetic culture, aesthetic consciousness and aesthetic activity.

Стремление овладеть современными знаниями, быть просвещенными и обладать высокой культурой должно стать для всех нас жизненной потребностью [1].

Шавкат МИРЗИЁЕВ

Основная задача высшего образования сводится к тому, чтобы студенты смогли овладеть всей суммой знаний и навыков, необходимых для получения высокой квалификации. Как говорил президент Шавкат Мирзиёев: «Необходимо сформировать такую среду, которая бы активно способствовала процессам обучения, духовно-нравственного обогащения и воспитания на основе истинных ценностей» [2.С.95].

Важнейшей стороной воспитательной работы в вузе должно быть эстетическое воспитание, формирование музыкально-эстетической культуры личности, что предусматривает развитие современного мировоззрения, духовное обогащение, обобщение взглядов и представлений о постоянно изменяющемся мире, изменение музыкальных приоритетов, сохранение лучших образцов мирового музыкального искусства.

Современное общество нуждается во всесторонне развитой личности, основой которой является культура в самом широком ее значении и сегодня «... многие современные педагогические концепции строятся на формировании личности через культуру воспитания человека, который способен ценить, творчески усваивать, сохра-

нять и приумножать ценности родной и мировой культуры» [3.С.215].

Воспитание эстетической культуры личности – это важная составляющая мировоззрения молодежи, и поэтому данная проблема является предметом исследования многих ученых как в области философии, психологии, а так же в педагогике. Концепции и теории музыкально-эстетического воспитания разработаны Э.Б. Абдуллиним, Ю.Б. Алиевым, О.А. Апраксиной, Б.В. Асафьевым, А.С. Базиковым, Д.Б. Кабалевским, С.В. Казаковой, Л.В. Матвеевой, Е.В. Николаевой, Б.Л. Яворским и многими другими. Авторами выделены важнейшие методологические положения, касающиеся эстетического воспитания личности на уровне одного из видов искусства – музыки. Приобщение к музыке вводит молодежь в мир волнующих, радостных переживаний, открывает ему путь эстетического освоения жизни.

Эстетическая культура личности – это качество, выражающееся в способности и умении эмоционально воспринимать, осознавать и оценивать явления жизни и искусства, прекрасные или безобразные, возвышенные или низменные, трагические или комические, а также преобразовывать природу, окружающий мир человека «по законам красоты» [4.С.175].

Именно эстетическая культура является одной из важнейших составляющих духовного облика нашего современника, от наличия которой и степени ее развития зависит интеллигентность человека,

творческая направленность устремлений и деятельности, отношение к миру и другим людям, что очень важно в современном обществе. От уровня культуры каждого отдельно взятого человека зависит уровень культурного развития общества в целом.

Понятие «эстетическая культура личности» включает в себя две составляющие: эстетическое сознание и эстетическую деятельность. Эстетическое сознание является одной из форм общественного сознания, которая отражает чувственно-эмоциональное, интеллектуальное отношение личности к действительности и искусству, стремясь к гармонии и совершенству. Структура эстетического сознания включает в себя эстетическое восприятие, эстетические чувства, вкус, интерес, эстетический идеал, эстетические творческие способности.

Культура личности формируется в процессе воспитания и обучения, под влиянием социальной среды и личной потребности в постоянном развитии и совершенствовании уровня исполнительского мастерства как необходимость улучшения и совершенствования современных требований высшего профессионального образования в сфере вокально-хорового искусства, обеспечивающего целостную подготовку студентов на основе осознания избранной специальности [6.С. 20–25].

Обучение будущих специалистов в Вузе должно быть направлено на выявление специфического эстетического потенциала в формировании эстетической культуры личности, и это осуществляется более широко и целостно – в единстве целостного образовательного процесса, а именно воспитании и обучении.

Музыкальная культура играет положительную роль в процессе обучения специальным дисциплинам таких как «Дирижирование», «Хоровой класс», «Вокальный ансамбль», «Вокал», создает благоприятные условия на занятиях для раскрытия творческих способностей, индивидуальной одаренности студентов. Педагог каждого из этих предметов участвует в процессе формирования музыкально-эстетической культуры студента, обучая студентов активно формирует его музыкальные взгляды и профессиональное мастерство. Педагог не только направляет профессиональное развитие студента, опираясь на его музыкально-исторические и теоретические знания, но и осуществляет общехудожественное и общекультурное развитие будущего учителя музыки, развивая у студента чувство ответственности, дисциплину, волю, самокритичность, и другие профессиональные качества.

Музыка, как писал А.Б. Алиев: «...влияет на отношение к миру, на сознание, и нет другого такого искусства, которое бы так властно вторгалось в наш эмоциональный мир, подчиняя его себе». Именно музыка в силу своей специфической особенности, путем целенаправленного, а также систематического воздействия, помогает формированию мировоззрения, духовной и эстетической культуры, нравственных качеств, облагораживает

человека, делает его добрым, чутким и отзывчивым.

Каждая эпоха имеет свои приемы построения художественного мира изучаемого музыкального произведения и способов представления в нем человека с его эмоциями и чувствами. Несомненно, бессмертными являются классические музыкальные произведения зарубежных, русских и узбекских композиторов, чье творчество всегда оказывало огромное влияние на эмоциональное состояние человека. Но простое изучение материала еще не обеспечивает полностью его воспитывающего и эстетического воздействия. Успешное же решение зависит, прежде всего, от содержания музыкального произведения, от качества репертуара, методов и приёмов обучения, форм организации музыкальной деятельности, применяемых в работе со студентами. Чтобы произведение было прочувствовано студентами, раскрыт смысл и содержание музыки, необходима определенная система музыкальных знаний и навыков, позволяющая студентам добиваться больших успехов.

Методика обучения музыкальному искусству традиционно предполагает анализ художественной поэтической части музыкального произведения с целью раскрытия художественного образа и подбора оптимальных интонационных приемов и художественно-выразительных средств исполнения. На музыкальных занятиях студенты, знакомясь с музыкальными произведениями, изучают их содержание, образный строй через звук, мелодию, гармонию, знакомятся с жанрами и творчеством композиторов.

Эстетическая культура личности имеет глубокую сущностную определенность, связанную с процессами музыкального развития личности, на основе музыкального воспитания и образования, в котором участвуют нравственно-эстетическое восприятие, осмысление и переживание музыки, которые являются частью культуры личности.

Процесс воспитания музыкально-эстетической культуры – это совместная образовательная деятельность преподавателей и студентов по выработке комплексных свойств личности будущего специалиста, проявляющихся в его способности ценностно воспринимать, переживать и осмысливать действительность через «проживание» музыкального произведения в разнообразных видах собственной деятельности, отражающейся в его индивидуальном социально-художественном опыте.

Студенческий возраст весьма благоприятен для формирования музыкально-эстетической культуры, определенной системы отношений, ценностных ориентаций личности, ибо доминирующими мотивационно-смысловыми структурами в этот период развития личности являются те, которые направлены на собственную индивидуальность. Склонность к анализу своей внутренней жизни, к корректировке позиций способствует тому, что студенческий возраст становится, особо чувствителен к восприятию искусства и в первую очередь музы-

кального. Все это создает благоприятные условия для формирования музыкально-эстетической культуры личности студента, которая характеризуется способностью студента реализовать свой музыкально-эстетический потенциал (знания, умения, опыт, личностные качества) в собственной творческой деятельности. Она представляет собой особый способ овладения действительностью студентом в сфере его духовной деятельности, а также проявляющийся в интересе к музыке, в музыкальном вкусе, в музыкально-эстетических знаниях, умениях, в способности понимать, чувствовать, переживать и критически оценивать музыку.

Сегодня студенты изучают историко-культурные наследия, которые являются духовной культурой человечества, приобщению личности к эмоционально-нравственному опыту всемерно способствует музыкальное искусство. Весьма важным в этом процессе является то, что наиболее успешно он реализуется в воспитательном пространстве

вуза, как органичной части социокультурной среды, наполненной различными видами искусств, а музыкальным в особенности.

Изучая данную тему, можно сделать вывод о том, что изучение специальных музыкальных дисциплин положительно влияет на воспитание эстетической культуры студентов, формирует у них эстетические ценности и ценностного отношения к искусству. Таким образом, воспитание эстетической культуры студентов вуза представляет собой целенаправленный процесс присвоения эстетических ценностей и идеалов на основе трансформации их художественно-образных воплощений в личностные ценности через их переживание, в художественно-творческой и интеллектуальной деятельности.

Воспитание эстетической культуры студентов в вузе на музыкальных занятиях – это несомненно важный фактор становления их общей духовной культуры, целостного развития личности.

### Использованная литература:

1. Мирзиёев Ш.М. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах. «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» // Собрание законодательства РУ, 2017. № 6.
2. Критический анализ, жёсткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой деятельности каждого руководителя. Доклад на расширенном заседании Кабинета Министров, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2016 году и важнейшим приоритетным направлениям экономической программы на 2017 год. – Ташкент: «Узбекистон», 2017.
3. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования [Текст] Е.В. Бондаревская. Ростов н/Д.: Изд-во Рост. пед. ун-та, 2000. – С.352.
4. Музыкальный энциклопедический словарь/Гл. ред. Г.В. Келдыш. –Москва: «Советская энциклопедия», 1990. – С.672.
5. Киященко Н.И. Эстетика жизни. / Н.И. Киященко. – М.: 2000. – С.16–22.
6. Ильинская И.П. Критерии оценки уровня сформированности эстетической культуры младшего школьника // Начальная школа. 2009. №1. – С. 20–25.
7. ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ» 2005. – С.448.
5. Лихачев Д.Б. Теория эстетического воспитания школьников. – М.: «Просвещение», 1985. – С.175.
8. Петрова Г.А., Королева Г.И. Система эстетической подготовки студентов в высших учебных заведениях. / Г.А. Петрова, Г.И. Королева. –Казань: КГУ, 1984.
9. Павлова И.Ю. Формирование музыкально-эстетической культуры студентов педвуза на основе использования национального музыкального фольклора / И.Ю. Павлова: дисс. канд. пед. наук. – Казань: 2001. – С.239.
10. Алиев Ю.Б. Музыка среди нас (Не бесспорные рассуждения родителя - педагога) / Ю.Б. Алиев // Проблемы современного образования. 2010. № 4. – С. 74–84.
11. Васильченко О.А. Статья Роль педагога в профессиональном образовании студентов. Международный журнал ВАК «Проблемы современной науки и образования». – М.: 2022.
12. Васильченко О.А. Статья Некоторые особенности эстетического воспитания молодежи посредством музыки. Международная конференция Манчестр. Англия. 2022.

## ESTRADA REJISSYORLARINI TARBİYALASHDA "RITORIKA" IFODAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, "Ritorika" usullarini kelib chiqishi, uning tarixi va ta'lim jarayonlarida undan keng foydalanish haqida so'z ketadi. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorlarini tarbiyalashda ritorikaning o'ri va ahamiyati tahliliy ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** estrada, rejissura, ritorika usullari, ommaviy tomoshalar, san'at, aktyor, trop, figura, metalepsis.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ «РИТОРИЧЕСКИХ» СПОСОБОВ ВЫРАЖЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ РЕЖИССЕРОВ РАЗВЛЕЧЕНИЙ

**Аннотация.** В данной статье раскрывается суть происхождения метода «Риторика», его истории и широком использовании в образовательных процессах. Анализируется роль и значение риторики в подготовке режиссеров эстрады и массовых представлений.

**Ключевые слова:** эстрада, режиссура, риторические приемы, публичные выступления, искусство, актер, троп, фигура, металепис.

## USE OF "RHETORIC" EXPRESSIVE METHODS IN THE EDUCATION OF ENTERTAINMENT DIRECTORS

**Abstract.** This article describes the origin of "Rhetoric" methods, its history and its wide use in educational processes. The role and importance of rhetoric in training directors of variety shows and public shows is analyzed.

**Key words:** estrada, directing, rhetorical methods, public performances, art, actor, trope, figure, metalepsis.



"Ritorika" o'zi nima? Ritorika eramizdan avvaligi II–III asrda Xitoyda yoki Yunonistonda paydo bo'lgan, deb taxmin qilishadi. "Ritor" (grekcha so'z bo'lib) – nutqshunos degani. "Ritorika" esa – nutq madaniyati va notiqlik san'ati, deb tarijima qilingan<sup>1</sup>. Ritorika falsafa fanidan ajralib chiqqan alohida fan bo'lib, "Maqsadga muvofiq bo'lgan so'z va uni yaratishni o'rganish" deb nomlangan. Ritorika bilan qadimgi yunon mutafakkirlaridan Gorgiy Leontiyskiy, Aristotel, Dionis, Golikarnakskiy, Demetriya o'z notiqlik san'atini namoyish etishda keng foydalangan. Shuningdek, Sharqda Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalarining risolalarida Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy, Navoiy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlarida, qadimiyatning daho va mutafakkir ustodi avval Arastuning "Ritorika" risolasiga murojaat qilganliklari, uni iziqish bilan o'rganganliklari haqida o'z kitoblarida yozib qoldirganlar.

Abu Nosir Forobiy o'zining "Shoirilar san'ati qonunlari haqida" deb nomlangan risolasida, ritorikaga quyidagicha ta'rif beradi: "Epika va ritorika she'riyatning bir navi bo'lib, bunda ilgari o'tgan siyosiy va qonuniy tartib-qoidalar tavsif qilinadi. She'riyatning bu navida podshohlarning xulq-atvori, u haqidagi xabarlar, uning davri va u bilan bog'liq bo'lgan voqealar zikr qilinadi".

Notiq Isokrat (Perika zamondoshi 436–338) ritorika san'ati haqida: "Ritorika" – vujudga emas, ruhga aloqador eng muhim masalalarni hal etish

<sup>1</sup> Abu Nosir Forobiy. Shoirilar san'ati qonunlari haqida. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2018. – B.76.

<sup>2</sup> В.Н.Сундукова. Об искусстве поэтики. – С.265.

bilan shug'ulanadi"<sup>2</sup> – deydi. Undan so'z orqali xalqni boshqarish, kerakli joyda undan quroli sifatida foydalanish, maqsadli, jarangdor so'zlar orqali insonlarni aql-zakovati va irodasini boshqarishga, ularning xohish va istaklarini qulay bo'lgan tomonga og'dirishga o'rganish uchun foydalanilgan. Ritorika fani bu texnika, shu texnika natijasida paydo bo'lgan so'z, durdonaga aylanadi. Ritorika fanining asosiy maqsadi: notiqning nutqi ishonchli, go'zal, mazmunli hamda maqsadga muvofiq bo'lishga qaratilgan.

Hozirgi "Ritorika asoslari" rus olimi M.V.Lomonosov tomonidan 1740–1742-yillarda Rossiya fan sifatida olib kiriladi. M.V.Lomonosov dastlab Slavyan, grek va lotin akademiyasida, keyinchalik Germaniyada tahsil olgan vaqtlarida ushbu fanni katta qiziqish bilan o'rganib, uni 1743-yilda "Ritorikaning qisqa tarixi" nomli birinchi asari, 1748-yilda "Ritorika asoslari" deb nomlangan ikkinchi asari chop etiladi. M.V.Lomonosov ushbu asarlarini o'sha vaqtda ilm-ma'rifatga juda katta e'tibor qaratgan Pyotr IIIga bag'ishlaydi. Tez vaqt orasida ritorika Pyotr III farmoniga binoan ta'lim muassasalarida "Ritorika asoslari orqali badiiy tasvirlash hamda fikrlashni o'rganish" fani sifatida o'qitila boshlandi.

San'atshunos olim A.N.Radishev o'z asarida: "XVIII asrni oxiri XX asrni boshida Rossiya davlatida adabiyot va san'atni eng gullagan vaqti. Buning sabablaridan biri M.V.Lomonosov tomonidan 1740-yillarda fanga olib kiritilgan "Ritorika asoslari" 50 dan ortiq olim va ziyolilarni ("geniy"larni) paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Uning ritorikasi bu – ijodga katta yo'l", – deb ta'rif beradi. Buyuk kinorejissor Eyzenshteyn: "Ritorika

asoslaridagi trop va figuralar, hayotiy haqiqatni san'atga aylantirish uslubidir"<sup>2</sup>, – deb ataydi.

K.S.Alekseyev (Stanislavskiy) o'zining "**San'atdagi hayotim**" kitobida birinchi ta'limni oilada olganligini, uning enagasi juda ham aqlli inson ekanligini, iliq so'zlar bilan eslaydi. Uning tarbiyasida o'chmas iz qoldirgan enaga "**Ritorika asoslari**"ni yaxshi bilganligi, buyuk ijodkorning ilk tarbiyasiga mustahkam poydevor qo'yilganini anglash qiyin emas. Bizga tarixdan ma'lumki, o'sha davrda umumiy ta'limga fan sifatida kiritilgan "**Ritorika asoslari**" fanini Stanislavskiy gimnaziyada o'qigan vaqtida o'rgangan.

1918-yilda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida, ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkaziladi. Unda ta'lim muassalarida o'qitilayotgan din tarixi, lotin tili, grek tili va "**Ritorika asoslari**" fanini eskilik sarqiti sifatida ta'lim muassalaridan olib tashlanadi. Stanislavskiy o'z kitoblarida "**Ritorika asoslari**" fanini o'rganganligi haqida hech nima yozmaganligi sabablaridan biri ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat bo'lsa ajab emas. Lekin u muntazam "**Ritorika qonun**"laridan keng foydalanib kelganligini uning ijodiy faoliyatidan bilib olish mumkin.

Endi o'z-o'zidan savol paydo bo'ladi. Notiqlik san'atini, she'riyatni o'rganuvchi fanni rejissuraga qanday aloqasi bor, deyishingiz mumkin. Ma'lumki haqiqiy rejissyor notiq kabi o'zini aytmog'chi bo'lgan maqsadiga muvofiq so'zi, shoirlar kabi xalqning dardini eng noyob ifoda vositalari orqali nomoyon etmog'i lozim<sup>2</sup>. Shuning uchun "**Ritorika asoslari**" rejissyorni tarbiyalashda muhim omil bo'la oladi, deb o'ylaymiz.

San'atning barcha turlarida ritorika ifoda vositasi sifatida amalda qo'llab kelingan. Ta'lim jarayonida ritorika asoslarini rejissyor va aktyorlarga qo'llashdan maqsad:

- **mukammal san'at asarini yaratishda yosh ijodkorlarning erkinligini ta'minlash;**
- **talabalarning dunyoqarashini rivojlantirish;**
- **ijodkorni shaxs sifatida shakllantirish;**
- **uning iste'dodini erta anglash;**
- **ijod jarayonida yangidan-yangi ifodaviy vositalar paydo qilish.**

Bugungi kunda jahonning bir qancha nufuzli san'at akademiyalarida, ta'lim muassalarida, teatr va kinostudiya qoshida tashkil etilgan o'quv studiyalarida mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda ritorika asoslari keng qo'llanilib kelinmoqda. Shuningdek, Gollivud, Bollivud, MDH davlatlarida kino va teatr-studiyasi yuksak ijodkorlari F.Filini, Lyuk Besson, J.Kameron, Tarantino, Raj Kapur, Karen Jo'xar, K.Yormatov, L.Fayziyev, Sh.Abbasov, J.Qosimov, Z.Musaqov tomonidan suratga olinayotgan badiiy filmlarda B.Yo'ldoshev, V.Umarov, O.Salimov, N.Abdurahmonov, A.Xo'jaquliyevlar sahnalashtirgan spektakllarda R.Hamidov, B.Sayfullayev, X.Qosimovlar sahnalashtirgan ommaviy bayram va tomoshalarda ritorika asoslaridan keng foydalanilgan. Ritorika asoslari juda ko'p bo'limlardan iborat bo'lib, juda ko'p san'at turlarida qo'llaniladi. Biz teatr va kino uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan qismlarni,

ya'ni V.N.Sundukova o'z risolasida keltirgani bo'yicha o'rganib chiqamiz. Shuni tak'irlash kerakki, fandagi atamalar o'zbekcha tarjima qilinmaganligi tufayli lotincha, italyanacha, fransuzcha, grekcha hamda ruschada misol keltiramiz.

Troplar – grekcha so'zdan olingan bo'lib, "**obraz**" ma'nosini bildiradi. Obraz – birorta predmet yoki hodisani boshqa predmet yoki voqea orqali badiiy ifodalashdir. Troplar: taqqoslash; epitet; metafora; metonomiya; sinekdaxa; ironiya; giperbala; litota; insonlashtirish; allegoriya kabi turlardan iborat.

1. **Taqqoslash** – bir voqeani tabiatning bir hodisasiga yoki kimga va nimaga taqqoslash.

2. **Epitet** – tashqi ko'rinish orqali uni ichki mohiyatini ifoda etish. Uni kimga yoki nimaga o'xshashligini yorqin ifodalash.

3. **Metafora** – taqqoslashni qisqa ko'rinishi, ya'ni majoziy ma'no.

4. **Metonomiya** – shaxsning lavozimi bilan bog'liqligini ifodalovchi detal.

5. **Sinekdaxa** – butun-yaxlitlikni ifodalovchi detal.

6. **Ironiya** (mubolag'a) – ideallikni davo qiluvchi, ammo unga mos kelmaydigan haqiqat.

7. **Giperbala** – obyektmi mislsiz bo'rttirish.

8. **Litota** – obyektmi mislsiz kichiklashtirish.

9. **Insoniyashtirish** – badiiy asarda hayvonlar, o'simliklar, tabiat jismlarini odam qiyofasida ifoda etish.

10. **Allegoriya** – obyektmi abstrakt obrazlash, tabiiy hodisalarni odam qiyofasida ifoda etish.

**Figura** (lotincha so'zdan olingan bo'lib) – shaklning bir turi, obrazlar uyg'unligini hosil qiladi, degan manoni anglatadi.

**Figuralar:** *parallellik, antiteza, inversiya, gradatsiya, elipsis, standartlar, takrorlash, anafora, epifora, ritorik savollar va ritorik undov, kataxrezis.*

1. **Parallellik** – bir vaqtning o'zida bir necha o'xshash faktlarni sodir bo'lishi.

2. **Antiteza** – bir vaqtning o'zida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan hodisalarni namoyon bo'lishi.

3. **Inversiya** – kutilmagan hodisani sodir bo'lishi.

4. **Gradatsiya** – voqealarni kuchaytirilishi yoki susaytirilishiga aytiladi.

5. **Elipsis** – voqeada o'z-o'zidan aniq bo'lgan narsalarni o'tkazib yuborish yoki namoyish etmaslik.

6. **Standartlar** – voqeada qiziqish uyg'otuvchi sukutni hosil qilish.

8. **Takrorlash** – asarning boshida bir xil harakatni bir necha bor takrorlanishi.

9. **Epifora** – asarning finalida bir xil harakatlarni takrorlanishi.

10. **Ritorik savol** – asarda keltirilgan javobsiz savol.

11. **Ritorik undov** – har bir asarda mavjud bo'lgan yuksak undov, ya'ni fikr.

**Metalepsis** (lotincha so'zdan olingan bo'lib) – trop va figuralarni uyg'unligi, ya'ni ularning ko'pqirralik sintezini tashkil qiladi.

Janrlarni paydo bo'lishining birinchi bosqichi. **Metalepsis:** *grotesk, paradoks, parodiya, ekstrantichnost, ekstravagantnost, buffanada, sharj, absurd.*



1. *Grotesk (italyancha soʻz) – komediya va satirani badiiy ifodalovchi usullardan biri. Voqeani farqli darajada boʻrttirib ifoda etadi. Baʼzan fantastik koʻrinishda.*

2. *Paradoks (grekcha soʻz) – umumiy qabul qilingan tushunchalarga qarama-qarshi teskari fikrni ifodalash vositasi.*

3. *Parodiya (grekcha soʻz; “Para” – qarshi, “odiyo” – qoʻshiq) – asarda aniq shaxsga komik holat orqali boʻrttirilgan holat, achchiq kulgi orqali ifodalaydi.*

4. *Ekstrentrichnost (lotincha soʻz) – markazdan tashqari. Hayotiy oddiy mantiqni buzuvchi kutilmagan va taajjublantiruvchi hodisani yetkazishdagi badiiy usul.*

5. *Ekstravagantnost (fransuzcha soʻz) – omma orasida ularga oʻxshamasligini takrorlanmaydigan koʻrinish, fikrlash, insonni xatti-harakati.*

6. *Buffanada (lotincha soʻz) – hazil, masxarabozlik, askiyada nomoyon boʻladi.*

7. *Sharj (fransuzcha soʻz) – boʻrttirish, karikatura. Voqea-hodisalarni taʼkidlanishi, urgʻu berilishi.*

8. *Absurd – ishonish qiyin boʻlgan hodisa.*

Hozirgi kunda biz rejissor va aktyorlik boʻlimlarida ritorika qonunlarini professor V.N.Sundukovning “Поэтика искусства актёра” hamda “Хрестоматия по режиссерскому мастерству” deb nomlangan kitobida keltirilgan ifoda vositalari trop va figuralar,

metolipseslar tushunchalaridan foydalanmoqdamiz. “Ritorika qonuni”, – deydi V.N.Sundukova, – *nafaqat adabiyot uchun, balki teatr va kino sohasida ijod qilmoqchi boʻlgan rejissyor va aktyorni tarbiyalashda muhim omildir*”.

Talaba-rejissyor yoki aktyor uchun har bir mashq aniq bir vazifani amalga oshirishda haqiqat asosini sanʼat asosiga aylantirishga, uni tushunishiga yordam beradi. Rejissyor va aktyor talabalar har tomonlama erkin ijod qilishga dunyoni badiiy obraz orqali anglashga oʻrganmogʻi shart. Hech boʻlmasa shunga harakat qilib koʻrishi kerak. Misol uchun taburetkalardan predmetlar yasash, bir detalni turli narsalarga oʻxshatish, musiqa orqali kompozitsiya yaratish va hokazo. Oʻtilgan dars natijalariga qaraganda, mustaqil ish mavzularida rejissorlarni troplar va figuralar bilan ishlashi, ularni yanada malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa oʻrnida aytmoqchimizki, bugungi kun sanʼatini takomillashtirishda biz nafaqat yangi texnika va texnologiyalardan, balki bizni zamonamizdan bir necha ming yillar oldin qoʻllanilgan ifoda vositalaridan institutimiz ustaxonalarida, kollejlarda, maktablarda shaxsni tarbiyalashda ritorika asoslarini fan sifatida shaklantirmogʻimiz va keng jamoatchilikka taqdim etmogʻimiz kerak.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nosir Forobiy. Shoirlar sanʼati qonunlari haqida. – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B.103.
2. Aristotel. Poetika. – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B.67.
3. Сундукова В.Н. Хрестоматия по режиссерскому мастерству. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1988. – С.161.
4. Сундукова В.Н. Поэтика искусства актёра. Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1988. – С.265.
5. Mahkam Mahmudov. Arastu Ritorika (xitoba). – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B.298.

## INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA SAN'ATNING TUTGAN O'RNI

**Annotatsiya.** Maqolada, inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasidagi me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyati, nogironligi bor bolalar bilan ishlashda xorij tajribasi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuning bilan birgalikda inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlari hamda ta'lim jarayonida san'at turlaridan vosita sifatida foydalanishning imkoniyatlari to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiylashuv, inklyuziv ta'lim, ruhiy rivojlanish, san'at, raqs, qo'g'irchoq teatri.

## РОЛЬ ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация:** В статье раскрывается сущность нормативных документов по развитию инклюзивного образования, информация о зарубежном опыте работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья. Поэтому будут обсуждаться педагогические и психологические аспекты инклюзивного образования и возможности использования искусства как инструмента в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** социализация, инклюзивное образование, духовное развитие, искусство, танец, кукольный театр.

## THE ROLE OF ART IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION

**Abstract.** The article reveals the essence of regulatory documents for the development of inclusive education, information about foreign experience in working with children with disabilities. Therefore, the pedagogical and psychological aspects of inclusive education and the possibilities of using art as a tool in the educational process will be discussed.

**Key words:** socialization, inclusive education, spiritual development, art, dance, puppet theater.



O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida va ta'limga oid bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'limni tashkil etishda insonparvarlik maqsadi ustuvor qo'yilgan. Insonparvarlik maqsadining negizida ta'lim bilan barcha bolalarni qamrab olish va ularni savodxon shaxslar sifatida voyaga yetkazish mazmuni mavjud. Bu jarayonga nafaqat sog'lom, balki imkoniyati cheklangan bolalarni ham qamrab olinishi hujjatdagi insonparvarlik tushunchasi to'g'ri qo'llanilganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida jadal sur'atlar bilan inklyuziv ta'lim rivojlanmoqda. Chunki aynan inklyuziv ta'limning rivojlanishi nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim olishning keng imkoniyatlarini beradi. Nogironligi bo'lmagan bolalar va shaxslar nogironlik muammolarini tushunishadi. Natijada, nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida namoyon bo'ladi va jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish jahon hamjamiyatida o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan inklyuziv ta'limning rivojlanishi nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim olishning keng imkoniyatlarini yaratadi. Nogironligi bor shaxslarning jamiyatga ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

"Inklyuziv ta'lim" tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Inklyuziv ta'lim – inglizcha (inclusive, inclusion) so'zdan olingan bo'lib uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirilgan, o'ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma'nolarini anglatadi. Lotinchada esa (include) qamrab olaman, jalb qilaman ma'nosini, ya'ni nogironligi bo'lgan va oddiy bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf

etishni nazarda tutadi [1.87-b.]. Inklyuziv ta'lim barcha mamlakatlarda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir.

Ma'lumki, imkoniyati cheklangan shaxslarga mehr-oqibat ko'rsatish istiqloqlarning dastlabki kunlaridan davlatimizda ustuvor masalalardan biriga aylangan. Bunday shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, qo'llab-quvvatlash Bosh qomusimizda, qonun va boshqa hujjatlarda o'zining huquqiy ifodasini topgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi [2].

Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlarda maxsus maktablarda unchalik kam bo'lmagan kontingentdagi imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'lim olishi aniqlashtirilgan. Bu holat ta'lim beruvchi pedagoglarni yanada hushyorlikka chaqiradi hamda mas'uliyat yuklaydi. Ma'lumki, insonni o'rganish, uni tarbiyalash, unga alohida xizmat ko'rsatish muammosi butun insoniyat paydo bo'lishining ibtidosidan boshlab intihosiga qadar o'ziga xos obyektiv va subyektiv imkoniyatlar ko'lami bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lishini bugungi hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Zero, insonni bilish va uning tashqi (real) va ichki (ideal) olamiga adekvat ta'sir ko'rsatish va shu ta'sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo'lsa-da, bu jarayonda turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lib, shu sohada ishlaydigan mutasaddilar, o'qituvchilar zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklanadi. Bunday ta'limda sinf rahbari, fan o'qituvchilari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari sifatida yordam ko'rsatish orqali o'zlarining professional vazifalarini bajaradilar. Ayniqsa, oddiy bolalar bilan alohida ehtiyojga muhtojligi bo'lgan bolalar orasida tafovut sezilganda, ya'ni nogironligi bo'lgan bolaning tengdoshlariga qo'shilmay, tortinchoqlik qilib o'z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sababli, uyalgan yoki injiq bo'lib qolgan holatlarida ustozlarning oqilona tutumi katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha ko'plab vazifalar belgilab berilgan [2]. Jumladan:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek, tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

- jamoatchilik o'rtasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- o'quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini optimallashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, "Zamonaviy maktab"larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida, inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha "Zamonaviy maktab"ga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga qo'shimcha tarzda imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim jarayonini san'at turlari uyg'unligida olib borilishi, imkoniyati cheklangan

o'quvchilarni yanada jamiyatga ijtimoiylashuvini faollashtiradi.

Misol tariqasida aytish mumkinki, musiqa mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni ham turli – epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Bu boradigi fikrimizni raqs san'atiga bog'lab davom ettirish mumkin. Raqs ta'lim jarayoniga kiritilishi o'quvchining qalban xatti-harakatini vujudga keltiradi. Tasavvur qiling! Birinchi o'rinda musiqa yangrashi hamda unga hamohang tarzda raqs harakatlarining uyg'unligi har qanday insonni harakatga undaydi. To'g'ri, imkoniyati, ya'ni qo'l harakati cheklangan o'quvchilarda bu holat tashqi ko'rinishda amalga oshmasligi mumkin, lekin ularning harakatlanishi uchun motiv (faoliyatga undovchi ichki turtki) bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon esa nogironligi bor insonni sog'ayishiga ham qisman sabab bo'ladi.

Ikkinchi bir holatga e'tibor qaratsak, ta'lim jarayonida doimiy tarzda qo'g'irchoq san'ati tomoshalarini uyg'unlashtirib olib borilishi nima berishi mumkin? Qo'g'irchoq teatri bu – sintetik san'at turi bo'lib, bolalarni ibrat manziliga olib kiruvchi, hayot jumboqlarini hal qilishda mayoq vazifasini o'taydigan, sahna san'ati to'g'risidagi tushunchalarni shakllantiruvchi, ma'naviyat tomon boshlovchi ostona, dastlabki ko'prik va teatr san'atining ajralmas bir turidir [3.13-16-b.].

Albatta, bu san'at turining e'tiborli jihati shundaki, qo'g'irchoq teatrlarining badiiy vositalari (qo'g'irchoqlar) kichik sahnadan turib, bolalardagi audiovizual qabulni yaratib berishi, ularning nutqiy, jismoniy harakati, musiqiy didi kabi qator psixologik rivojlanuvchi elementlarni shakllanishiga ko'maklashadi. Shuningdek, bolalarda aqliy, axloqiy va estetik ta'limni rivojlantirishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, nogironligi bor o'quvchilarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasidagi muammolarni bartaraf etishda san'at sohasini o'ziga xos o'rnini bor. San'at inson tomonidan olamni amaliy-hissiy o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etib, ijtimoiy mazmunga ega. U tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib keladi. Ushbu fenomen hodisa ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi bo'lib, jamiyatning barcha jabhalariga, inson faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsata olish qudratiga ega.

San'at xilma-xil turlarga bo'linishiga sabab, san'atning bir turi voqelikni to'la ifodalab bera olmaydi. Ularning har biri mustaqil va o'ziga xos betakror bo'lib, voqelikning muayyan bir tomonini bevosita aks ettiradi. O'sha san'at turi u yoki bu insoniy his-tuyg'ularni ifodalashda boshqa turlarga nisbatan ustuvor o'rin egallaydi va ayni paytda muayyan cheklanganlik xususiyatiga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaxarova D. "Pedagogik mahorat" jurnali, 2020-yil, 2-son.
2. 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish KONSEPSIYASI. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020-yil, 14-oktyabr.
3. Abduxalilov A. "Madaniyat chorrahalarini" jurnali, 2021-yil, 4-son.



# V-BO' LIM

## KUTUBXONASHUNOSLIK

G'ulom NARZULLAYEV,  
O'zDSMI detsenti v.b., pedagogika fanlari nomzodi

### “KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI” FAKULTETIDA KUTUBXONA-AXBOROT VA BIBLIOGRAFIK TA'LIMNING O'QITISH MASALALARI: MUAMMO VA YECHIM

**Annotatsiya.** Maqolada, O'zbekistonda kutubxonachi kadrlar tayyorlash masalalari, kadrlar tayyorlashning qisqacha tarixi, uzluksiz ta'lim tizimi, bu tizimni amalga oshirishda kutubxona-axborot muassasalari uchun kadrlar tayyorlashda izchillik masalasi, uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan kadrlarning malakasini oshirish va boshqa ixtisoslikda ma'lumotga ega bo'lgan xodimlarni qayta tayyorlashga alohida e'tibor qaratish yo'llari haqida fikr-mulohazalar, takliflar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** kutubxona-axborot muassasasi, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, uzluksiz ta'lim, ko'p darajali ta'lim tuzilmasi, ta'limda innovatsiya, universal fond, kutubxona-axborot fondlarini jamlash, texnik jihozlash.

### ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИБЛИОТЕЧНО-ИНФОРМАЦИОННОГО И БИБЛИОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ФАКУЛЬТЕТЕ «БИБЛИОТЕЧНО-ИНФОРМАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ»: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

**Аннотация.** В статье вопросы библиотечной подготовки в Узбекистане, краткая история подготовки, система непрерывного образования, вопрос системности в подготовке кадров для библиотечно-информационных учреждений при внедрении этой системы, повышение квалификации кадров, которое считается основным звеном непрерывного образования, и уделяя особое внимание переподготовке работников со знаниями по другим специальностям, замечания и предложения по путям.

**Ключевые слова:** библиотечно-информационное учреждение, подготовка кадров, переподготовка кадров, непрерывное образование, многоуровневая образовательная структура, инновации в образовании, универсальный фонд, комплектование библиотечно-информационных фондов, техническое оснащение библиотек.

### TEACHING ISSUES OF LIBRARY-INFORMATION AND BIBLIOGRAPHIC EDUCATION AT THE "LIBRARY-INFORMATION ACTIVITY" FACULTY: PROBLEMS AND SOLUTIONS

**Abstract.** In the article, issues of librarian training in Uzbekistan, a brief history of training, the continuous education system, the issue of consistency in the training of personnel for library and information institutions in the implementation of this system, the improvement of the qualifications of personnel, which is considered the main link of continuous education, and paying special attention to the retraining of employees with knowledge in other specialties comments and suggestions about the ways.

**Key words:** library and information institution, personnel training, retraining, continuous education, multilevel educational structure, innovation in education, universal fund, collection of library and information funds, technical equipment.



Bugungi globallashuv jarayonida kutubxona-axborot muassasalari oldidagi eng muhim dolzarb masalalar, aholini axborotga bo'lgan ehtiyojini tinimsiz o'sib borayotganligi, jamiyatda axborot makonini kengayib borayotganligi va xilma-xilligi axborot-kutubxona muassasalari uchun oliy malakali kutubxonachi-bibliograflarni yetishtirib berishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi 4354-son Qarori bilan tasdiqlangan "2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"da respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari belgilab berilgan.

Bugungi kunda kutubxona-axborot faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, foydalanuvchilarga (iste'molchilarga) axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yangi bosqichga olib chiqish, axborot-kutubxona faoliyatida innovatsion g'oyalarni joriy etish, kutubxona fondlarini jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ijtimoiy himoya qilish kabi vazifalar o'ta muhim masalalardandir.

Jamiyatda axborot-kutubxona muassasalari aholini dam olishi, bo'sh vaqtini tashkil etilishi, ayniqsa, yoshlarni kutubxona-axborot xizmatidan bahramand bo'lishi, shuningdek, aholining barcha qatlamlarini axborot olishiga, bilim olishiga ko'maklashadigan madaniy-ma'rifiy va ta'lim muassasasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy madaniyatni chuqur anglash, uning rivoji va evolyutsiyasini tahlil qilishda, respublikaning universal fondga ega bo'lgan kutubxona-axborot muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2023-yilda ta'lim sifatiga asosiy e'tiborni qaratishga mo'ljallagan asosiy vazifalarni belgilab berdi. Mazkur qarorda *"Bugungi kunda innovatsion ta'lim shakllaridan foydalanib o'quvchi shaxsini har jihatdan kamol toptirishda mustaqil fikrlovchi, o'ziga xos qarashlarni bayon qila oladigan, mustaqil kreativ qobiliyatga ega yoshlarni tarbiyalash ta'lim-tarbiyaning dolzarb vazifalariga kiradi"*, – deb ta'kidlab o'tilgan.

Bugungi kunda kutubxonachi mutaxassislar tayyorlaydigan o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari maqomini oshirish, tarmoq kutubxona-axborot muassasalarining ilmiy va axborot salohiyatini oshirish, shuningdek, kutubxona-axborot sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) kutubxona-axborot muassasalari tarmog'ini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

2019-yil 7-iyundagi 4354-son qarori bilan tasdiqlangan "2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"da *"Bolalar va ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar guruhi (imkoniyati cheklangan insonlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'p bolali oilalar va boshqalar) axborot-kutubxona muassasalarining alohida e'tiborini talab etadi"*, – deb ta'kidlanganligi kutubxona-axborot muassasalari oldiga aholining barcha qatlamlariga, shuningdek, turli toifadagi nogironligi bo'lgan shaxslarga, yosh bolali ayollar, yoshi keksa qariyalarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilashni talab etmoqda.

Mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, O'zbekistonning dunyo miqyosida obro'-e'tiborining ortib borayotganligi kutubxona-axborot muassasalari zimmasiga mamlakatda bo'layotgan har qanday islohotlarga ko'maklashish, aholiga tezkor axborot taqdim etish bo'yicha qator majburiyatlarini

yuklaydi. Kutubxona-axborot muassasalari faoliyatida yangi innovatsion texnologiyalarning tatbiq etilishi, mazkur muassasalar tomonidan axborotni tarqatish funksiyalarining amalga oshirilishi hamda ko'p ming sonli aholini axborot olish imkoniyatini ta'minlash, kutubxonachilik sohasini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish ko'lami va sur'atlariga bog'liqdir.

Bugungi kunda kutubxona-axborot sohasini isloh qilish, ularni me'yoriy-huquqiy bazasining yanada takomillashtirish, kutubxona-axborot fondlarining jamlanishi va texnik jihozlanishini ta'minlash, yuqori malakali kutubxona xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasining keskin oshirishni taqozo etmoqda.

Yurtimizda kutubxona muassasalarining rolini va mavqeyini oshirishga qaratilgan ko'plab qaror va topshiriqlarni ishlab chiqilayotganligi va amaliyotga joriy etilayotganligi, kutubxona muassasalari oldiga bugungi axborotlashtirish va globallashtirish jarayonida qo'yilgan ulkan vazifalarni chuqur ixtisoslik bilimlariga ega bo'lgan, milliy va jahon madaniyati yangiliklaridan boxabar, noan'anaviy ijodiy qarorlar qila oladigan yuqori malakali mutaxassislar amalga oshirishlari mumkinligi e'tirof etilmoqda.

Kutubxona-axborot muassasalari uchun kadrlar tayyorlash masalalari tahlillari shuni ko'rsatadiki, uzoq yillar davomida o'rta va oliy malakali kutubxonachi kadrlarni tayyorlash masalasi yaxshi ahvolda emas edi. Mustaqillik yillarigacha va mustaqilligimizning dastlabki yillarida ham Respublikamiz hududlarida o'rta-maxsus va oliy ma'lumotli kutubxonachilarni o'qitadigan ilmiy darajaga ega bo'lgan mutaxassislar yetishmas edi. Shuningdek, madaniyat texnikumlari (keyinchalik madaniyat kollejlari tashkil etildi) o'sha davrlarda kadrlar tayyorlash masalalarini to'liq hal qila olmas edi, kutubxona xodimlarining soni va sifati u davr talablariga javob bermas, respublika uchun oliy ma'lumotli kadrlar zarur edi. O'tgan asrning 1934–1957-yillari davomida bunday kadrlar Moskva va Sankt-Peterburg (sobiq Leningrad) shaharlaridagi madaniyat institutlariga o'zbekistonlik talabalarni yo'llanma bilan yuborish yo'li orqali tayyorlanar edi. Biroq bu yo'l ham kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondira olmas edi.

Mustaqillik yillarida, to'g'rirog'i, 2014–2016-yillarda kadrlar qo'nimsizligini oldini olish maqsadida, respublikamizning 192 ta o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari kutubxonachilik yo'nalishlari ochildi. Ilgari ushbu mutaxassislik 5 ta o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari, ya'ni Namangan, Qarshi, Buxoro, Nukus va Toshkent Madaniyat kollejlari tayyorlanar edi. Biroq bizdagi ma'lumotlarga qaraganda, kasb-hunar kollejlari qoshida tashkil etilgan kutubxonachilik bo'limlarida malakali mutaxassislarni yetishmasligi, zamonaviy o'quv dasturlariga asoslangan darslik va o'quv qo'llanmalarni yo'qligi, aksariyat kollejlarda mutaxassislik fanlari bo'yicha 25-30 yil oldin Toshkent davlat madaniyat institutining kutubxonachilik fakultetini bitirgan kutubxonachilar o'quvchilarga ta'lim berib kelganligi, shuningdek, mazkur o'quv

dargohlarida kutubxonashunoslik, kitob tarixi, bibliografiyashunoslik, kutubxona fonlari va kataloglari predmetlari bo'yicha o'quv qo'llanmalarni deyarli yo'qligi, borlari ham eskiligi, talabalarni o'qitilishda muammolarni keltirib chiqardi. O'sha yillarda kutubxona-axborot faoliyati bo'yicha oliy ta'lim olish masalasida ham muammolar mavjud edi.

Tarixganazartashlaydigan bo'lsak, Respublikamizda oliy ma'lumotli kutubxonachi-bibliograf kadrlarni tayyorlash 1958-yil Qo'qon pedagogika institutida kutubxonachilik fakultetining ochilishi bilan boshlandi. Bu fakultet 1960-yildan Toshkent davlat pedagogika instituti, 1974-yildan Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida hozirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda. Shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat universitetida va Qo'qon davlat pedagogik institutida kutubxonachilik yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Kutubxona-axborot faoliyatida mutaxassisliklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2001-yilgacha "Kutubxonachi-bibliograf", 2001-yildan "Kutubxonashunoslik va axborot tizimlari" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlangan bo'lsa, 2006-yil 20-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi bilan yo'nalish nomi "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik"ka o'zgartirildi hamda bu yo'nalishda kadrlar tayyorlash ikki oliy ta'lim muassasasida: bir muddat sobiq Toshkent davlat madaniyat institutida va Toshkent axborot texnologiyalari universitetida hozirgi kungacha ham tayyorlanmoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik" hamda "Hujjatshunoslik, hujjat yuritish va arxivshunoslik" mutaxassisliklari bo'yicha magistrlar tayyorlandi.

Oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'lim – malaka oshirish hozirda faqat Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshida amalga oshirilmoqda. Biroq bugungi kunda kutubxonachilik nazariyasi va amaliyotida o'rta maxsus va oliy ta'limning izchilligi masalasi yo'lga qo'yilmagan. Axborot texnologiyalari universitetining "Axborotshunoslik va kutubxonashunoslik" yo'nalishida faqat kutubxonashunoslik, umumiy bibliografiya, kutubxona fonlari va kataloglari kabi maxsus fanlar o'qitiladi, mazkur dargohda an'anaviy kutubxonalar uchun kadrlar tayyorlanmas edi. Axborot texnologiyalari universitetida hozirgacha kutubxonashunoslik fani 2-kursda, kutubxona fondlari va kataloglari fani faqat 2-kursning 2-semestrda, umumiy bibliografiya fani esa 3-kursning oxirgi semestrda o'qitilmoqda. Fikrimizcha, oliy malakali kutubxonachi-bibliograflar tayyorlash uchun universitetning mazkur yo'nalishida maxsus mutaxassis fanlarni o'qitilishiga jiddiy e'tibor qaratish kerak.

O'zbekistonda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash

tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan davlat, shaxs va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy ehtiyojlarini qondiradigan muhim sohadir.

Uzluksiz ta'lim hozirgi kunda o'ta dolzarb masalalardan sanaladi. Hozirda Respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Mamlakatimizda uzluksiz ta'limga ko'p darajali kutubxonachilik-bibliografik ta'limi yordam beradi. Ta'limning ko'p darajali tuzilmasiga o'tish – bu kutubxonachi kadrlarini tayyorlash tizimini rivojlantirishda sifatli yangi bosqichdir. Oliy ma'lumot olish darajasi va shaklining turli-tumanligi bu tizimni yanada moslashgan va kutubxona muassasalarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini yaxshiroq darajada qondira oladigan qiladi, uzluksiz ta'limga yordam beradi.

Ta'limning ko'p darajaliligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: boshlang'ich kasbiy ta'lim, o'rta maxsus kutubxonachilik ta'limi, oliy-kutubxonachilik ta'limi, oliy ta'limdan keyingi ta'lim magistratura va aspirantura, doktorantura, malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'lib, ko'p darajali ta'limni tashkil qilishga ilmiy yondashuv kasbiy ta'limning barcha darajalari ta'lim dasturlarining yagonaligi va izchilligi tamoyiliga asoslanadi.

Kutubxona-axborot muassasalari kadrlarini ixtisosli tayyorlash sifatini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri oliy ta'lim muassasasida o'rta maxsus kutubxonachilik ma'lumotiga ega shaxslarni o'qitish hisoblanadi. Bunday tajriba ilgari sobiq Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining Kutubxona-axborot faoliyatini boshqaruv fakultetida yo'lga qo'yilgan edi. Hozirgi kunda kutubxona muassasalari xodimlarini tayyorlashdagi turli murakkabliklarga qaramasdan, o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash izchilligi muhim masala bo'lishi lozim. Ko'p darajali kutubxonachilik ta'limi ko'p pog'onali ("kollej-bakalavriat-mutaxassis-magistratura") asosida qurilishi soha uchun sifatli kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

2017-2018 o'quv yilidan boshlab, hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kutubxonachilik yo'nalishida qabul kvotalari keskin oshirildi. Masalan, o'sha yili 50 nafar kunduzgi, 2018-2019 o'quv yilidan 150 nafar kunduzgi, 50 nafar sirtqi, 2019-2020 o'quv yilidan boshlab har yili 150 nafar kunduzgi, 100 nafar sirtqi ta'limga talabalar qabul qilinmoqda. Keyingi 5 yil davomida jami 750 nafardan oshiq kutubxonachi-bibliograf mutaxassisligi bo'yicha mazkur o'quv dargohida talabalar tahsil olayotganligi va dastlabki qaldirg'ochlar kutubxona-axborot muassasalariga ishga yo'naltirilganligi ushbu sohada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasidir.

Hozirda institutga kirayotgan talabalarning aksariyati kollej ma'lumotiga ega o'quvchilar, ammo aynan o'rta maxsus kutubxonachilik ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislarni alohida guruhga qabul qilish, ularni maxsus o'quv rejalariga asosida o'qitish

bu yo'nalish ta'limining izchilligini ta'minlaydi. Bu talabalarni o'qitishda kolleжда o'qitilmagan zamonaviy axborot texnologiyalarini kutubxonachilik faoliyatida qo'llash bilan bog'liq maxsus fanlarga katta e'tibor berilishi zarur. Izchillik masalasini hal etishda qabul rejasi ham muhim masaladir. Sirtqi ta'limning qayta tiklanishi izchillik masalasini hal etishda ta'lim muassasalarida asos hujjatlari (o'quv rejasi va h.k.) ga zarurat beqiyosdir. Yana bir muhim masalaga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. 2020-2021 yilgi tasdiqlangan "Ta'lim klassifikatori"ga o'rta maxsus kutubxonachilik mutaxassisligiga kvota ajratilmagan. Demak, keyingi o'quv yilidan boshlab 11-sinfni bitirgan o'g'il-qizlar davlat granti asosida o'rta-maxsus ma'lumot olish imkoniyatiga ega emaslar. Bu masala zudlik bilan hal etilmasa, uzluksiz ta'lim tizimida mutanosiblik buziladi.

Ta'lim o'quv rejalarini bajarish uchun namunaviy dasturlar, o'quv-uslubiy materiallar, ma'ruza matnlari, uslubiy ko'rsatmalar, yuqori kurslar talabalari uchun ma'ruza matnlari yangidan ishlanishi zarur. Yana bir muhim masala, o'zbek tilida (ayniqsa, hozirgi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida) darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash – dolzarb masaladir. Galdagi vazifalar o'qitilayotgan talabalarni oldindan ish joyi bilan tanishtirib borish va bu asosida bitiruvchilarning o'z ish o'rnini oldindan maqsadli belgilashiga erishish zarur. Bularning barchasi o'rta maxsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash o'rtasidagi izchillikni belgilaydi, kadrlar sifatini oshiradi,

ko'p darajali uzluksiz ta'lim tizimini yaratishda tashkiliy masalalarni hal etish imkonini beradi.

Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan kadrlarning malakasini oshirish va boshqa ixtisoslikda ma'lumotga ega bo'lgan xodimlarni qayta tayyorlashga alohida e'tibor qaratish, buning uchun zarur bo'lgan majburiy va kafolatlangan bilim olishning me'yoriy-huquqiy mexanizmini ishlab chiqish, bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzurida tashkil etilgan pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida axborot kutubxona muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'rta maxsus va oliy ma'lumotli kutubxonachilarning malakasini oshirish, nomutaxassis kutubxonachilarni qayta tayyorlovdan o'tkazishni tashkil etish zarur. Markazdagi malaka oshirish tizimidan tashqari joylarda uzluksiz ta'limning mintaqaviy o'quv-metodik markazlarini tashkil qilish, markazning kutubxonachi xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishga, shaxsiy ijodini rivojlantirishga, davr talabi bilan o'z bilimi va malakasini muntazam yangilab borishga qaratilgan o'zgaruvchan va harakatchan tizimi dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish galdagi vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, kutubxonachilik sohasida Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar kutubxona muassasalari uchun mutaxassislarni uzluksiz ravishda tayyorlash ishini yaxshilaydi, kadrlar sifatini oshirishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

#### Foydaniilgan adabiyotlar:

1. Kutubxona-axborot faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni: № O'RQ-280. 2011-yil, 13 aprel. "Xalq so'zi" gazetasi, 2011-yil, 14-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" 2022-yil, 20-dekabr. // Gazeta.uz. 2022-yil, 20-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil, 7-iyundagi PQ 4354-sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil, 7-iyun.
4. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi). "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.
5. Kutubxonachilarga yordam: dayjest // Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi. Tuzuvchilar: M.Komilova, muharrir: D. Mansurova, mas'ul muharrir: U. Teshaboyeva. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. – B.64.

## KUTUBXONACHILIK TARIXI VA UNING HOZIRGI DAVR KUTUBXONACHILIK ISHI

**Annotatsiya.** Maqolada kutubxonalar tarixi, uning vujudga kelishida kutubxonachilik taraqqiyotidagi qonuniyatlar, kutubxonalarning ijtimoiy roli, madaniyat, ta'lim, fan, texnika va ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ahamiyatli tomonlari o'rganiladi. Kutubxona xizmatining tashkiliy shakllari va ish uslublari evolyutsiyasini kuzatar ekanmiz, kutubxona tafakkuri va kutubxona ta'limi rivojlanishi ham tahlil qilinadi. Kutubxonalar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida kutubxonachilikning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rish imkonini beradigan tarixiy yondashuvlar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** kutubxonalar, kutubxonachilik, kutubxona xizmati, jamiyat, taraqqiyot, axborot, tafakkur.

## ИСТОРИЯ БИБЛИОТЕКИ И ЕЕ СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД БИБЛИОТЕЧНАЯ РАБОТА

**Аннотация.** В статье рассматриваются история библиотек, закономерности в развитии библиотечного дела, социальная роль библиотек, важные аспекты в развитии культуры, образования, науки, техники и производства. Наблюдая за эволюцией организационных форм и методов работы библиотечной службы, анализируется также развитие библиотечного мышления и библиотечного образования. Выделены исторические подходы, позволяющие увидеть перспективные направления библиотечного дела на различных этапах развития библиотек.

**Ключевые слова:** библиотеки, библиотечное дело, библиотечное обслуживание, общество, развитие, информация, мышление.

## HISTORY OF LIBRARY AND ITS PRESENT PERIOD LIBRARY WORK

**Abstract.** The article examines the history of libraries, the laws in the development of librarianship, the social role of libraries, important aspects in the development of culture, education, science, technology and production. While observing the evolution of the organizational forms and working methods of the library service, the development of library thinking and library education is also analyzed. Therefore, libraries are illuminated in terms of their historical approaches, which allow to see the promising directions of librarianship at different stages of the development of society.

**Key words:** libraries, librarianship, library service, society, development, information, thinking.

“Kishilik jamiyati vujudga kelar ekan, dastlabki kitoblar va kutubxonalar, ijtimoiy-madaniy sharoitlarda qachon, qanday yaratilgan?” – degan savol ko'pchilik tarixchilarni, jumladan, kutubxonachilarni qiziqtirmasdan qolmasa kerak. Biroq bu savolga to'g'ri va aniq javob qaytarish oson emas, chunki ma'lumotlar turli manbalarda turlicha talqin qilinadi va o'z-o'zidan ularni solishtirish, aniqliklar kiritish, to'ldirish zarurati tug'iladi. Qomusiy kitoblarda ham aytiladiki, “Kutubxona yozma yodgorliklar saqlanadigan joy sifatida qadim zamonlarda paydo bo'lgan”<sup>1</sup>.

Milloddan avvalgi VII asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p mamlakatlar podshohlari saroylarida sopol va pergamentdan iborat hujjatlar to'plamlari saqlangan. “Tong yulduzi” gazetasida bosilgan “Kutubxona – nurxona” sarlavhali xabarnoma (1999-yil, 20-aprel) bu ma'lumotni qisman to'ldiradi. “Ura shahridagi (Abraam patriarxlar shahri) qazilma ishlarini olib borgan kishilar, – deyiladi xabarnomada, – yozuvlar tushirilgan taxtachalar topib olishdi. Bu yozuvlar

eramizdan avvalgi 800-yillarga to'g'ri kelib, birinchi kutubxonalarga qarashli ekan. Shundan so'ng xabarnomada miloddan oldingi 600-yillardayoq Mesopotamiya (hozirgi Iroq) saroylarida yaxshi tashkil etilgan kutubxonalar bo'lganligi bayon qilinadi. O'zbekcha qomusda bu masala quyidagicha izohlangan: “Qadimgi Misr ibodatxonalarida ruhoniylarga xizmat qilgan kutubxonalar bo'lgan. Yunonistonda birinchi yirik kutubxonani Aristotel tashkil etgan (mil.av. IV asr). Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasidir”. Yana bir ma'lumotga to'xtaladigan bo'lsak: 2004-yilda nashr qilingan “Большая энциклопедия”ning 3-jildiga razm solamiz. Unda ta'kidlanishicha, qadimgi misrliklar kitoblarning ancha yirik jamg'armalariga ega edilar, ulardan eng ko'hnalari Xristos tavalludigacha bo'lgan XIX asrga mansubdir. Assiriya va Vavilon shaharlari xarobalaridan topilgan ba'zi yodgorliklar ham kutubxonalarning qoldiqlari hisoblanadi. Yunon saltanati qulaganidan keyin ellin madaniyati qo'shni mamlakatlarda Osiyo, Misr, Italiyada rivojlandi, bu yerlarda kutubxonalar tashkil topishiga olib keldiki, bulardan eng nomdorlari

<sup>1</sup> Qobusnoma (6-jild). – Toshkent: 1973. – B.191.



Ptolomey asos solgan Aleksandriya kutubxonasi va Pergamodagi kutubxonadir.

Haqiqatan ham bizgacha saqlanib qolgan shunday kutubxonalar, yozuvlar va kitoblar bo'lmaganida insoniyat o'z o'tmishini ham, bilim-ma'rifat va hikmatlarni ham bilolmagan, ilm-fanni taraqqiy ettira olmagan bo'lardi. Yurtdoshimiz Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida (1066-yil) yozganidek:

**Bitib qo'ymasaydi dona qalami,  
Qorong'i qolardi moziy olami.**

Ona tilimizdagi qomusda tarixiy manbalarning guvohliklariga tayanib yoziladiki: "O'rta Osiyoning ko'p davlatlarida, xususan, So'g'diyona, Xorazmda III asrlardayoq anchagina boy kutubxonalar bo'lgan". Shu yerga kelganda o'qishni to'xtatishimizga to'g'ri keladi. Negaki, Markaziy Osiyodagi eng qadimgi xalqlarning yozuvlari miloddan avvalgi IV–V asrlarda shakllana boshlagani, ajdodlarimiz bu davrda xorazmiy, so'g'diy tillarida yodgorliklar bitganliklari misol sifatida keltirilmayapti. Amudaryo bo'yidagi viloyatlar, Balx bilan Xorazm oralig'i, sanasi bugungi kunlarimizdan 3 ming yil oldin, deb tan olingan "Avesto"ning taqdiri inobatga olinmayapti.

Manbalarda "Avesto" dastlab 21 ta kitobdan iborat bo'lganligi, 12 mingta ho'kiz terisi yoki 12 mingta taxtaga oltin harflar bilan bitilganligi qayd etiladi<sup>2</sup>. Akademik B.Axmedov o'sha vaqtlarda "Avesto"ning uch nusxasi mavjud bo'lgani, biri Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy)ning amr-farmoni bilan yoqib yuborilgani, ikkinchisi, Yunonistonga olib ketilgani, uchinchisi, o'ta e'tiqodli otashparastlar qo'lida qolganini ma'lum qiladi<sup>3</sup>. Shubhasizki, bular Kayoniy hukmdorlardan Gushtosp (Vishtosp) saroyidagi kutubxonada saqlangan. Bundan tashqari, "Avesto"da tabiat, nujum, jug'rofiya, dehqonchilik, tabobat, tarix kabi ilmlarga oid qismlarning mavjudligidan xulosa chiqarib ayta olamizki, otashparastlar (zardushtiylar) ning ixtiyorlarida shu fanlarga oid yozuvlar ham bo'lgan.

IX–X asrlarda (Somoniylik davrida) Markaziy Osiyoning deyarli hamma qismlarida ilm-fan va madaniyat rivoj topdi. Bu davr Rudakiy, Firdavsiy singari ulkan shoirlarni, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinodek zabardast olimlarni yetishtirib berganligidan tashqari, o'qimishli hukmdorlar tomonidan boy kutubxonalar barpo etilgani jihatidan ham ahamiyatlidir. Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning saroyidagi kutubxona, ayniqsa mashhur edi. Abu Ali ibn Sino mazkur ilm-ma'rifat dargohiga shunday ta'rif beradi: "*Men shunday kitoblarni ko'rdimki, ko'pchilik kishilar, hatto, ularning sarlavhasini ham eshitmagan. O'sha paytgacha ham, o'shandan keyin ham hech qachon men bunchalik ko'p kitobni ko'rmagandim. Bu kitoblarni o'qib chiqib, zo'r manfaat topdim*", – deya ta'riflaydi.

<sup>2</sup> Sa'dullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – T.: "O'qituvchi", 1996. – B.12.

<sup>3</sup> O'zbekiston tarixi manbalari. – T.: "O'qituvchi", 2001. – B.30.

<sup>4</sup> O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. – T.: "Fan", 1994. – B.29.

<sup>5</sup> O'zbekistonda kutubxonachilik tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1992. – B.6.

<sup>6</sup> Qosimova O. O'zbekistonda kutubxonachilik tarixi. – T.:

"O'qituvchi", 1991. – B.7.

<sup>7</sup> Xalqaro konferensiya tezislari. – T.: "O'zbekiston", 1996. – B.6–9.

Bular o'z navbatida ba'zi noxolis mualliflarning: "*Sharq, chunonchi, Markaziy Osiyo kutubxonalarini jamg'armasi asosan diniy adabiyotlardan iborat edi*", – qabilidagi fikrlari asosli emasligini ko'rsatadi. Kutubxonachilik tarixnavisi O.Qosimova o'rinni uqtirganidek: "*Ayni dunyoviy adabiyotlarning kutubxonalar, kitob bozorlari (rastalari)da mo'l-ko'l bo'lishi ilmiy bilimlarning yoyilishiga imkon berdi*". Akademik M.Xayrullayevning yozishicha: "*X asr muallifi Abul Vafo al-Buzjoniy o'zining "Geometrik qoidalarning hunarmandlarga kerakli tomonlari haqida kitob" asarida turli geometrik usullar yordamida har xil naqshlar, bino bezaklari yasash yo'llari, quruvchi ustalarning tajribalari, badiiy usullari haqida hikoya qiladi*"<sup>4</sup>.

O.Qosimova alohida ta'kidlaydiki, Somoniylar davrida: "*Ilgari saroylar va madrasalarda saqlanib kelgan qo'lyozmalar endi asta-sekin kutubxonalarda to'plana boshlandi. Ayni vaqtda qo'lyozmalarni xillarga ajratish usullari ishlab chiqiladi, bu ish IX–X asrlarga kelib ancha yuqori darajaga ko'tariladi*"<sup>5</sup>. Bu fikrida olim ibn Sinoning guvohligiga suyanadi. U zot ibn Mansurning kutubxonasiga tavsif berib yozgan edi: "*Har bir xonada kitoblar solingan sandiqlar turardi. Bir xonada arabcha va she'riy kitoblar, boshqasida fiqhga oid kitoblar, yana bir xonada har fanga oid kitoblar bor edi*".

Bundan anglashiladiki, Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo kutubxonalarida o'sha davrdayoq kitoblar yoxud qo'lyozmalar tili, mavzu va janr xususiyatlariga ko'ra tizimli tarzda joylashtirilgan. Mualliflar iqtidoridan tashqari, zamonasining ziyolisi, ma'rifatparvari va madaniyat tarqatuvchisi darajasida turuvchi ko'plab xattotlar (nusxa ko'chiruvchilar, mirzolar), yuksak mahoratli musavvirilar mehnatining mahsuli sifatida maydonga kelgan kitoblar aholi tomonidan e'zozlangan, qadr-qimmatini baland tutilgan. Dumariya madrasasi nomi bilan mashhur bo'lgan xonaqoqdagi kutubxonada birgina Beruniyning 30 dan ortiq ilmiy risolasi o'rin olgan<sup>6</sup>.

Turon zamindagi kutubxonachilikning o'tmishi haqida fikr yuritar ekanmiz, mo'g'ul istilosining vahshiyona oqibatlarini xususida to'xtalmaslik mumkin emas. Bu davrda (X–XIV asr) ona diyorumizda fan va madaniyatning boshqa yo'nalishlari qatori kutubxonachilik ham inqirozga yuz tutdi. Faqat sohibqiron Amir Temur Movarounnahrni ularning iskanjasidan ozod qilishi natijasida, 27 mamlakattan olimlar, shoirlar, musavvirilar, me'morlar poytaxt Samarqandga kela boshlashdi. Tayinki, karvonlarda bunday insonlarning tuya-tuya moddiy mulklari emas, balki ko'p-ko'p kitoblari, ya'ni ma'naviy boyliklari bo'lardi. Bundan tashqari, Ali Yazdiy ma'lumot berganidek, Temur bosh devonidagi (dastlab Shahrisabz, keyinroq Samarqand) shohona kutubxonaga qadami yetgan joylardan kitoblar va qo'lyozmalar jo'natib turgan. Uning faoliyatini Bog'dod, Urganch va g'aznadagi Baytul hikmatlarning kutubxonalariga qiyoslash mumkin. Tadqiqotchi D.Yusupova yozadiki: "*Kutubxona ishlari bilan maxsus kishilar shug'ullanganlar. Ular kitoblarning*

*tayyorlanishini yo'lga solib borganlar, ajratilgan mablag'larni tasarruf etganlar, kutubxonani doimiy suratda to'ldirib turish uchun yangi kitoblar izlash bilan shug'ullanganlar*<sup>7</sup>.

Darvoqe, islom olamida eng mo'tabar qo'lyozma Qur'onning mushaf nusxasi (ya'ni sahifalarining muqovalangan shakli) Samarqandga kelib qolishining sababchisi ham Amir Temurdir. Mushaf zamonlar o'tgan sari o'ta nodir tarixiy yodgorlikka aylanishining boisi esa quyidagicha: uni uchinchi xalifa Usmon bin Affon o'z hukmronligining ikkinchi yilidayoq (25 hijriy, 646 milodiy) ko'chirtirgan va u yangidan-yangi nusxalar uchun andoza bo'lib xizmat qilgan. Xalifa Usmon 35-hijriy yilda davlatdagi ichki nizolar oqibatida o'z uyiga mahbus qilinib, nizolar va isyonchilarning mazkur nusxani o'qib o'tirgan chog'ida muxoliflar tomonidan qatl etiladi. Shahid qoni ochiq qolgan mushaf uzra "Baqara" surasining 137-oyati ustiga to'kiladi, sal o'tmay bir necha varaq qon izlariga belanib qoladi. Avval Madinada, keyin xalifalikning Basradagi kutubxonasida saqlangan mushafi Usmonni sohibqiron Hijozdan Samarqandga o'z kutubxonasining muqaddas boyligi sifatida jo'natadi. Dastlab "Ko'k gumbaz" jomesida, keyin Xoja Ahrori Vali masjidida asrab kelingan Qur'oni karimning mazkur nusxasi 100 yildan ortiq Sankt-Peterburgda imperator kutubxonasining mulki bo'lib turdi va istiqlolimiz arafasida Toshkentga qaytarildi, hozirgi kunda Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasida avaylab asralmoqda<sup>8</sup>.

Shayboniylar davrida (1500–1601-yillar) Amir Temur davlati vayronalari o'rnida tiklangan Markaziy Osiyoda madaniy hayot qayta jonlandi. O.Qosimova yozganidek, bu kezlarda ko'plab tarixiy asarlar uzbek tiliga tarjima qilindi, yangi kutubxonalar tashkil etildi, borlari esa kengaytirildi. Buxoroda Abdulazizxon kutubxonasi vujudga keltirildi. Taniqli xattotlardan Mir Ali Xaraviy va Ahmad Husayniy mazkur kutubxonada faoliyat ko'rsatishdi. Shuningdek, Abdullaxonning kutubxonasi ham kitob shinavandalari orasida mashhur edi.

Shunisi e'tiborliki, jahonda eng yirik kutubxonalarning ko'pchiligiga ham XVII–XIX asrlarda asos solingan. Chunonchi, Britaniya muzeyi kutubxonasi 1753-yilda, Sankt-Peterburgdagi M.Ye. Saltikov-Shedrin nomli davlat ommaviy kutubxonasi 1795-yilda, Vashingtondagi kongress kutubxonasi 1850-yilda tashkil topgan. 1800-yilda Londondagi eng boy kutubxonani davlat tasarrufiga olish haqidagi qarorni Angliya parlamenti tasdiqlagan. XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo chor Rossiyasi tomonidan to'liq ishg'ol qilinishi natijasida, o'lkada o'sha davr nuqtayi nazaridagi birmuncha zamonaviy kutubxonalar paydo bo'ldi. Ulardan dastlabkisi Turkiston xalq kutubxonasi (1868) bo'lib, asosan rusiyzabon kishilar ehtiyojini qondirardi. 1871-yil

sentyabrdagi ma'lumotlarga qaraganda, kutubxona jami 75 nafar kitobxonga xizmat ko'rsatib turgan. Ulardan 45 nafari zobit, 19 nafari mahkama amaldori, 5 nafari savdogar, 2 nafari harbiy kotib, 2 nafari ruhoni, 1 nafari mahalliy maktab talabasi edi (Дмитровский Н.В. Двадцати пятилетие Туркестанской публичной библиотеки. «Туркестанские ведомости», 1895, 15 параграф).

Turkistondagi dastlabki o'smirlar va bolalar kutubxonasi 1904-yilda Samarqandda A.N.Yakubovskaya tomonidan xususiy tarzda ochilgan. 1905-yilda esa A.Chernyavskaya "Samarqand" gazetasi tahririyati huzurida xususiy kutubxona tashkil etadi. Bu yerda 3000 jilddan ortiq kitob bo'lib, 2-apreldan 20-iyunga qadar 1500 dan ko'proq kitobxonga xizmat ko'rsatilgan. 1908-yil arxeolog V.L.Vyatkinning tashabbusi bilan shahardagi Mirzo Ulug'bek madrasasida yangi tartibdagi musulmon kutubxonasi, 1911-yil 6-dekabrda xalq kutubxonasi (hozirgi A.S.Pushkin nomidagi viloyat kutubxonasi) ochildi. Lekin bosqinchi ma'muriyatbmuassasalardan o'lkada rus ta'sirini kuchaytirish, imperiya tarkibini mustahkamlash, aholining turli qatlamlariga hokimiyat uchun maqbul mafkuraviy ishlov berish maqsadlarida foydalandi. Professor X.Ziyoyev yozganidek, asosan rasmiy shaxslar va rus o'lkashunoslari nashrlarda "... go'yo Rossiya tufayli Turkistonda tinchlik o'rnatilgan va o'lkada ijobiy o'zgarishlar yuz berganligi, aks holda qattiq inqiroz va qoloqliq sodir bo'lishi mumkinligi haqida jar solindi. Shu tariqa Rus davlatining ayovsiz mustamlakachilik siyosati va milliy zulmini emas, balki "ijobiy o'zgarishlar va yutuqlar"ni targ'ib etish asosiy vazifaga aylantirildi"<sup>9</sup>.

Turkistonning vatanparvar ziyolilari, milliy ozodlik uchun ifatparvarlari, jasoratli noshirlari hokimiyatning bu kurashuvchi ma'rifatparvar maqsadlariga qarama-qarshi yo'l tutdilar. Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat kabi jadidlar, G'ulom Hasan Orifjonov, Husayn Manayev, Hoji Muhammad Azimjon Marg'iloniy, Mirzaahmad binni Mirzo Karim singari noshirlar shular jumlasidandir. Chunonchi, Munavvar qori Toshkentda "Turon", Behbudiy Samarqandda "Behbudiya", Ibrat Namanganda "Is'hoqiya" (litografiyasi ham bor) kutubxonalari tashkil etib, xalq milliy ongini uyg'otishga, ilm-ma'rifatni yuksaltirishga imkon beruvchi asarlar targ'ibotini birinchi darajali vazifa deb bildilar.

Shuni ham e'tirof etish lozimki, kommunistik mafkura hukmronligi davrida 1917-yildan 1991-yilgacha bo'lgan vaqtda mamlakatimizda kutubxonalarning keng tarmog'i vujudga keldi. Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida kutubxonashunoslik ilmiy va o'quv dunyo predmeti sifatida shakllandi va asosan amaliy yo'nalish kasb etdi. Ushbu davrdagi kutubxonashunoslik fanining o'ziga xosligi shunda ko'rinadiki, u dunyo miqyosida yagona fan sifatida rivojlandi.

Shu o'rinda kutubxonalarning ijtimoiy mohiyatga urg'u beradigan bo'lsak, kutubxonachilik ishining kutubxona-axborot va kommunikatsiya texnologiyalari

<sup>8</sup> Yaxshilikov J., Axadov Sh. Temuriylar manaviyati. – T.: "Fan", 1999. – B.18.

<sup>9</sup> Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: "Sharq", 1998. – B.7.

bilan bog'lanib avtomatlashtirilgan kutubxonalar nomi ostida birlashmoqda. Ya'ni rivojlanayotgan asrda axborot siyosati madaniy siyosatning bir bo'lagi hisoblanadi. Tabiiyki, aholining axborot-kutubxona resurslaridan to'liq foydalanishini ta'minlash, davlatimizning jahon axborot oqimi bilan to'laqonli hamkorligi o'tgan asrning 80-yillari oxiri 90-yillari boshlarida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari respublika darajasida hal qilina boshlangan davrdan rivojlangan. Bu jarayonga nafaqat ilmiy texnika axboroti institutlari, balki respublikaning global axborot tizimiga kirishining dolzarbligini tushunib yetgan kutubxonalar, oliy ta'lim muassasalari ham kirishdilar. Buning natijasi qabul qilingan quyidagi qonun va me'yoriy hujjatlar bo'ldi: "Axborotlashtirish to'g'risida"gi (1993), "Elektron hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazasi uchun Dasturlarni huquqiy himoyalash to'g'risida"gi (1994) qonunlar va "O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish konsepsiyasi" (1994).

Keyinroq milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, axborotdan foydalanish bo'yicha o'sib borayotgan kitobxonlarga yetkazish maqsadida quyidagi qonun va hujjatlar ishlab chiqilib qabul qilindi: "Elektron tijorat to'g'risida" (2003), "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" (2003), "Elektron raqamli yozuvlar to'g'risida"gi (2004) qonunlar. "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori (2002). Bugun axborot imkoniyatlari asosan kutubxonalarda yig'ilgan bo'lib, foydalanuvchilar shu yerda kutubxonada yig'ilgan yoki uzoqdagi axborotdan foydalanishi mumkin.

Axborot va internet texnologiyalarining rivojlanishi, kutubxonalarga o'z resurslarini tartibga keltirish, elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, axborot resurslarini koperatsiyalash, ularga erkin kirib, foydalanishni ta'minlash imkonini berib kelmoqda.

Kutubxonalar endi dunyoviy donolik ombori emas. Kutubxona-axborot xizmatining zamonaviy tizimi aholining barcha qatlamlarini yuqori boshqaruv tuzilmalaridan to'laqonli bir shaxsgacha bo'lgan xabardorlik darajasini oshirishga qaratilgan. Jamiyat kutubxonani bosma nashrlar saqlanadigan va chiqariladigan muassasa sifatida qabul qilishni to'xtatadi. Foydalanuvchilar soni ortib borayotgani uchun kutubxona bugungi kunda axborot markazidir. Kutubxonalar haqiqatan ham global o'zgarishlarga duch keldi. Arxitektura va texnik jihozlar o'tmishdagi klassik kutubxonadan tubdan farq qiladi. Jamg'armalar kataloglari kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi tufayli sezilarli darajada o'zgardi. Axborot uzatishning turli kanallariga kirish imkoniyatlari sezilarli darajada oshgan axborot jamiyatida kitobxonlar bilan munosabatlar ham qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Kutubxonachilar o'quvchiga ta'sir o'tkazish falsafasidan axborot mavjudligi falsafasiga o'tmoqda, ular axborot vositachilariga aylanmoqda. Kutubxonachilik menejment, marketing va innovatsiya kabi tushunchalarni jasorat bilan kiritdi.

Bu kutubxonachilik tarixidagi keyingi sahifa bo'ladi. U hozir kutubxonalarda ishlaydigan yoki kutubxona-axborot fakultetlarida o'qiyotganlar tomonidan yozilishi kerak. Har xil, lekin asosan kirish imkoni bo'lmagan manbalardan materiallar to'plagan bizdan farqli o'laroq, ular uchun axborot bazalari bilan ishlash ancha oson bo'ladi. Mamlakatimiz va jahon kutubxonachiligi tarixida yangi sahifa ochadigan ishqibozlarga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

## QANDAY QILIB XXI ASR KUTUBXONACHISI BO'LIH MUMKIN?

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, kutubxonachilik kasbining jamiyatimizda tutgan o'rni, zamonaviy kutubxonachida bo'lishi zarur bo'lgan sifatlari, kutubxonachining imiji va nutq madaniyati haqida to'xtalib, kutubxonachi imijini shakllantirish usullari atroflicha yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kutubxonachi, imij, nutq madaniyati, tafakkur sifati, moslashuvchanlik sifati, iroda sifati, pozitsiyalash, manipulyatsiya, verballashtirish, detallashtirish.*

## КАК СТАТЬ БИБЛИОТЕКАРЕМ XXI ВЕКА?

**Аннотация.** *В данной статье показана о роли профессии библиотекаря в нашем обществе, о качествах, которыми должен обладать современный библиотекарь, об имидже и культуре речи библиотекаря, о методах формирования имиджа библиотекаря.*

**Ключевые слова:** *библиотекарь, образ, культура речи, качество мышления, качество гибкости, качество воли, позиционирование, манипулирование, вербализация, детализация.*

## HOW TO BECOME A LIBRARY OF THE 21st CENTURY?

**Abstract.** *This article illustrates about the role of the profession of librarian in our society, the qualities that a modern librarian should have, the librarian's image and speech culture, and the methods of forming a librarian's image are described in detail.*

**Key words:** *librarian, image, speech culture, quality of thinking, quality of flexibility, quality of will, positioning, manipulation, verbalization, detalization.*



Kutubxonachilik kasbi eng qadimiy kasblardan biri bo'lib kutubxona fondini saqlash, tizimlashtirish uchun mas'ul bo'lgan, shuningdek, kutubxonaga tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatadigan, kutubxona sohasiga oid vazifalarni bajaradigan mutaxassis hisoblanadi. Tarixdagi ilk kutubxonachi Ptolemey I hukmronligi davrida kutubxonachilik kasbini boshlab bergan efeslik Zenodot (Denodos) ismi bilan mashhur bo'lgan yunon grammatikasi, adabiyotshunosi va gomershunos olimi bo'lgan. U Iskandariya kutubxonasining birinchi kutubxonachisi sifatida ish faoliyatini boshlab bergan. Dastlabki, kutubxonachilarning vazifalari faqat kerakli kitobni tezda topish bo'lgan, keyinchalik kutubxona fondi ko'paygani sari kutubxonachilar faoliyati ko'lam ham kengaydi. Miloddan avvalgi VIII asrda Ossuriya qiroli Ashurbanipal Mesopotamiyadagi Nineviyadagi saroyida kutubxona yaratdi. Ashurbanipal tarixda kutubxonachilikni kasb sifatida kiritgan birinchi shaxsdir. Miloddan avvalgi 323-yilda Makedoniyalik Aleksandr vafotidan keyin Ptolemey I tomonidan yaratilgan Buyuk Iskandariya kutubxonasi butun yunon adabiyotini saqlash uchun yaratilgan. U o'zining mashhur kutubxonachilari: Demetriy, Zenodot, Eratosfen, Apolloniy, Aristofan, Aristarx va Kallimax bilan ajralib turardi. Bu olimlar kutubxona fondidagi turli xil o'ramlarni to'plash va kataloglashtirishga katta hissa qo'shgan. Eng muhimi, Kallimachus kutubxona fondlarining birinchi mavzu katalogini yaratdi, uni pinakes deb nomlagan. Pinaklarda o'nta fan sinfiga ajratilgan 120 ta o'ram bor edi. Keyin har bir sinf mualliflarni alifbo tartibida sarlavhalari bo'yicha sanab o'tdi. Iskandariyadagi kutubxonachilar "bilimning saqlovchilari" hisoblangan.

Olimlar turli imperatorlarning kutubxonalarida kutubxonachi rollarida ishlagan bo'lsalar-da, kutubxonachi bo'lish uchun shaxsni malakali qiladigan maxsus lavozim yoki rol yo'q edi. Misol uchun, Avgust kutubxonasining birinchi kutubxonachisi Pompey Maker harbiy va sud vazifalarini birlashtirgan pretor bo'lgan idora edi. Xuddi shu kutubxonaning keyingi kutubxonachisi grammatik Gay Yuliy Gigin edi. XVIII asrda to'la vaqtli kutubxonachilar bo'lgan bo'lsa-da, kutubxona rolining professionallashuvi XIX asrning rivojlanishi bo'lgan. Buni uning birinchi o'quv maktabi, birinchi universitet maktabi va birinchi professional uyushmalari va litsenziyalash tartiblari ko'rsatgan 1870-yillarda Angliyada kutubxonalarda ayollar uchun yangi ish o'rni ochildi. Jamiyat a'zolari kutubxonalar "Qizlar va ayollar uchun juda mos joy" ekanligi bilan kutubxonachilar sonini ko'payishiga sabab ham bo'ldi. 1920-yilga kelib, kutubxonachilik kasbida ayollar va erkaklar teng darajada ko'p edi, lekin 1930-yilga kelib, ayollar oldinga chiqib, 1960-yilda esa 80% ni tashkil etdi.

Zamonaviy kutubxonachi nafaqat kitobxonga kerakli kitobni tezda topishga yordam beradigan, balki kutubxonadagi barcha resurslar to'g'ri saqlanishiga mas'ul bo'lgan mutaxassisdir. Zamonaviy kutubxonachilar malakali, o'qimishli mutaxassislar bo'lib, ular turli xil bilim va ko'nikmalarni bilishi lozim. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish jarayonida kutubxonachi quyidagilarni bilishi shart:

- *har bir foydalanuvchining qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib, alohida yondashuv asosida eng sara adabiyotlarni tavsiya qilish;*
- *bosma nashrlar haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lish, manbalarni taqqoslash asosida tahlil*

qila bilish, turli ommaviy tadbirlarni o‘tkaza bilish malakasini egallash;

- kutubxona fondini va kataloglarini chuqur o‘rganganligi, bibliografik qidiruv asosida manbalarni tezkorlik bilan topish, ko‘plab axborotlar oqimi va bosma nashrlar orasidan eng maqbulini aniqlay olish;

- turli ko‘rgazmalar tashkil etish, tezkor axborot yetkazishning turli usullarni qo‘llay bilish, bibliografik sharhlar tashkil etish;

- o‘z bilimi, tajribasi, ko‘nikma va malakasi orqali foydalanuvchilarga ta‘sir o‘tkazish yo‘li bilan ularda mutolaa madaniyati va axborot madaniyatini shakllantirish;

Bundan tashqari kutubxonachi:

- axborot yig‘ish, tanlash va tahlil qilish, yetkazish, bibliografik ma‘lumotlardan foydalanish usullaridan;

- foydalanuvchilarni o‘rganish, ular bilan ommaviy va yakka tartibda ishlash usullaridan;

- kutubxona-axborot xizmati, bibliografiya, mutolaa madaniyati, axborot madaniyati bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib borish metodologiyasidan to‘la xabardor bo‘lish kerak.

Foydalanuvchilar bilan ishlashni bugungi kun talablari darajasiga ko‘tarish uchun kutubxonachi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi talab qilinadi:

**Tafakkur sifati:** turli-tuman, ziddiyatli axborotlardan obyektivlikka yaqin xulosa chiqara bilish asosida tezkor harakatchanlik, muammoning mohiyatini anglay bilish, hodisalar, voqealarni tanqidiy tahlil qilish, ma‘lumotlar oqimidan kerakli axborotni ola bilishdan iborat.

**Moslashuvchanlik sifati:** faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezlik bilan o‘ta olish qobiliyati.

**Iroda sifati:** har qanday zaruriy ishga o‘z-o‘zini majbur qila olish ko‘nikmasi.

**Kommunikativ sifati:** o‘z kasbdoshlari va foydalanuvchilarga fikrini erkin, tushunarli bayon qilishi, ishchanlik ruhida suhbat olib borishi, har bir foydalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka tartibda yondasha olish malakasi. Demak, kutubxonachilik kasbining sifatlari bilimlar, ko‘nikma va malaka, faoliyat samaradorligi darajasini belgilaydigan holatlarning murakkab majmuidir.

Kutubxonachi nutq madaniyati va notiqlik qobiliyatiga, san‘atiga ega bo‘lishi shart. U o‘z kasbdoshlari va foydalanuvchilar bilan uzluksiz ravishda muloqotda bo‘lganligi sababli nutqi ixcham, ma’noli, ohangdor, muayyan, intonatsiya va diksiya, temp, yoqimli ovoz tembri chastotali bo‘lishligi muhim ahamiyatga ega. Nutqning jarangdorligi, so‘zlashganda pauza, mantiqiy urg‘uga rioya qilishlik uning ta‘sirchanligini oshiradi.

**Mutaxassislarining fikricha, kutubxonachi nutq madaniyatini yuqori darajada egallash uchun quyidagilarga e‘tibor berishi zarur:**

- o‘z aqli bilan fikrlashi;
- o‘zi xohlagan narsaga emas, foydalanuvchining xohishini tezda anglash asosida uning uchun dolzarb bo‘lgan muammoga asosiy e‘tiborni qaratish;

- foydalanuvchining nimalarga erishishini xohlashi bilan ko‘proq qiziqish;

- o‘z fikrini mantiqan o‘ylab bayon etish;

- o‘zidan avval kimdir gapirgan bo‘lsa, eng avvalo o‘sha ma‘ruzachidan qolgan taassurotdan auditoriyani tez olib chiqishni o‘rganish;

- bayon etiladigan fikrlarning e‘tiborni tortadigan joylarini oldindan aniqlab olish, fikrlar foydalanuvchilar uchun tushunarli bo‘lishi va ular tomondan qo‘llab quvvatlanishiga erishish zarur.

Shunga ko‘ra, kutubxonachi nutqiga nisbatan ma‘lum talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning mantiqiy jihatdan aniq, ta‘sirchan, maqsadga muvofiq bo‘lishidir. Ta‘kidlash kerakki, nutq ma‘lum shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda joy, vaqt, mavzu va aloqa jarayonining maqsadi kabi omillar ham ahamiyatlidir. Shunday qilib, nutqning aloqaviy sifati deganda, quyidagi holatlarni nazarda tutish lozim bo‘ladi.

1. Nutqning to‘g‘riligi eng avvalo, kutubxonachining foydalanuvchi bilan o‘zaro bir-birlarini tez va oson tushunishni ta‘minlaydi.

2. Nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma‘lum paytda qabul qilingan me‘yorlariga qat‘iy va aniq amal qilinishi, uning talaffuz, diksiya va grammatik me‘yorlarini egallash bilan bog‘liqdir.

Kutubxonachi nutqining aniqligi uning shakllanishiga xizmat qiluvchi til va tafakkur birligiga bog‘liq bo‘lib, “nutq va voqelik”, “nutq va tafakkur” munosabati asosida ham belgilanishi mumkin. Aniqlik bu so‘zning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Kutubxonachi nutqining ta‘sirchanligi, deganda og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va uning foydalanuvchilar e‘tiborini tortadigan va qiziqishini oshiradigan xususiyatlarga ega bo‘lishi hisobga olinadi. Kutubxona axborot xizmati foydalanuvchilar o‘rtasida ma‘ruzalar qilish, suhbatlar uyushtirish, har xil chiqishlar qilish orqali amalga oshiriladi. Ularning foydalanuvchilarga qay darajada ta‘sir qilishi, diqqatni qo‘yilgan masalaning mohiyatiga yo‘naltira olishi, ishontirishi kutubxonachidan katta mahorat talab etadi. Chunki har bir nutq, chiqish, suhbat ishontira oladigan, tushunarli, yorqin, ta‘sirchan, mantiqli va aniq bo‘lgandagina foydalanuvchilarga o‘zgacha ta‘sir ko‘rsatadi. Taniqli notiqlar o‘z nutqlarining ta‘sirchanligini oshirishda quyidagi holatlarga alohida e‘tibor qaratganlar:

1. O‘zi to‘xtalib o‘tayotgan masala yoki mavzuni chuqur o‘rganish va o‘zlashtirish.

2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lishi, so‘z va ish birligi, fikrlarni ilmiy asoslab berish.

3. Ma‘ruzalar, suhbatlar paytida tinglovchilar bilan yaqin va samimiy muloqot o‘rnata bilish.

4. Har bir mavzuning mazmunini to‘liq ochib berishga mas‘uliyat bilan yondashish.

Nutq madaniyatini yaxshi o‘zlashtirgan kutubxonachi uchun keyingi zaruriy bo‘lgan sifat uning tashqi ko‘rinishi, o‘zini qanday tutishi, bir so‘z bilan aytganda, uning imijidir. “Imij” tushunchasi

ingliz tilidan tarjima qilinganda “obraz” ma’nosini anglatadi. Imij yordamida jamiyatda u yoki bu kasb egasini qanday bo’lishi kerakligi aniqlashtiriladi. Kutubxonachi imiji u kutubxona faoliyati bilan bog’liq vazifalarni amalga oshirganligi nuqtai nazaridan kutubxona imiji doirasida aniqlanadi. Kutubxonachi imijining asosiy vazifasi uning xatti-harakati, nutqi, qiyofasi, ma’naviy olami va kasbiy yetukligi, muloqot orqali foydalanuvchilar ongida samimiy va mehribon maslahatchi obrazini yaratishdir. Umuman olganda, kutubxonachi imiji uning ichki va tashqi xususiyatlarining kutubxona-axborot xizmati jarayonida namoyon bo’lishidir. Imij quyidagi vositalar orqali shakllanadi:

1. *Pozitsiyalash – o’zini boshqalar bilan taqqoslash, solishtirish orqali takomillashtirishga intilish.*

2. *Manipulyatsiya – qo’l bilan mohirona bajarilgan texnik harakatlar bo’lib, o’zga shaxsning idrok etish jarayoni va harakatlarini boshqarish, obyektga (yakka shaxs, guruh)ga davrning mazkur muddatida zarur*

*deb hisoblangan axborotni singdirish, unga urg’u berishdan iboratdir.*

3. *Verballashtirish – yaxlit imijni yaratishning vositalardan biri sifatida kechinmalar, his-tuyg’ular, fikr-mulohazalarni chiroyli ifodalashdir.*

4. *Detallashtirish – biron-bir aksessuar, kiyim, soch yoki insonning butun ust-boshining xotirada yaxshi saqlanib qoluvchi, vaziyatning tafsilotlarini, inson qiyofasining asosiy jihatlarini xotirada tiklashga yordam beruvchi omildir.*

Mutaxassislarining fikriga ko’ra, inson imijining 80 foizi tashqi ko’rinishi, imo-ishoralari, xatti-harakatlaridan, 20 foizi esa so’zlashuvidan iboratdir. lekin shu narsani unutmaslik kerakki, so’z qolgan 80 foizini ham qamrab olish imkoniyatiga egadir. Demak, muloqotni tashkil eta bilish qobiliyati kutubxonachi imijida alohida o’rin tutadi. Kutubxonachi uchun tashqi ko’rinish muhim, albatta. Shu bilan birga foydalanuvchilar bilan muloqot qila olish qobiliyati, nutq madaniyati o’z navbatida muhim ahamiyat kasb etadi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldashev I.J., Nosirov O’. Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: 2020. – B.390.
2. Marina N. THE PUBLIC LIBRARY OF THE FUTURE : Qualitative and Quantitative Methods in Libraries / Nikta Marina; Christos Karydis. – Vol 9 No 4 (2020) . – December Issue 2020.
3. Гендина Н.И., Колкова Н.И., Скипор И.Л., Стародубова Г.А. Формирование информационной культуры личности в библиотеках и образовательных учреждениях: учебно-методическое пособие. – Москва: Школ. б-ка. 2002. – С.29.

## ELEKTRON SHAKLDAGI IMIJ KATALOG: MAQSAD VAZIFALARI VA YARATISH USULLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola, kutubxona ishi amaliyotida kataloglarning maqsad-vazifalari va elektron shakldagi imij katalog yaratish yo'l-yo'riqlari, ya'ni an'anaviy kutubxona alifboli katalogini, kartochkalarini skanerlab, elektron shakldagi axborotlarni qidirish imkoniyatini beradigan elektron imij-katalog yaratish usullari haqida.

**Kalit so'zlar:** kutubxona imiji, kutubxona alifboli katalogi, kutubxona zaxiralari, elektron katalog, kutubxona interyeri.

## ЭЛЕКТРОННЫЙ КАТАЛОГ ИМИДЖ: ЗАДАЧИ И МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ

**Аннотация.** Данная статья посвящена методам создания электронного каталога-изображения, который предоставляет возможность поиска информации в электронном виде путем сканирования полей электронного каталога-изображения, то есть традиционного библиотечного алфавитного каталога, в практика библиотечной работы.

**Ключевые слова:** изображение, библиотечный алфавитный каталог, библиотечные фонды, электронный каталог, интерьер библиотеки.

## ELECTRONIC CATALOG OF IMAGES: TASKS AND METHODS OF CREATION

**Abstract.** This article devoted to the methods of creating an electronic image catalog, which provides an opportunity to search for information in electronic form by scanning the fields of the electronic image catalog, that is, the traditional library alphabetical catalog, in the practice of library work.

**Key words:** librarian, image, speech culture, quality of thinking, quality of flexibility, quality of will, positioning



Mamlakatimizda kutubxona: madaniy-ma'rifiy va ma'naviy makonning ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston kutubxonasi o'zining barcha ishlarini Yangi O'zbekistonni barpo etishga safarbar etib, davlat tomonidan mamlakat oldiga qo'yilgan ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy vazifalarni bajarilishiga axborot-resurslar yordamida, ilmiy innovatsion bilimlarni tarqatish orqali hamda yoshlarni tarbiyasida katta o'rin tutadi.

Kutubxonalarning zaxirasi qanchalik mukammal to'ldirilgan bo'lsa, ulardagi foydalanuvchi-kitobxonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun shunchalik keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ayni bir vaqtda, bir tomondan, ulardagi zaxiralarning katta hajmda ekanligi va mazmunining boyligi, ikkinchi tomondan, kutubxonaga murojaat qiluvchi aholi talablarining nihoyatda xilma-xilligi kutubxona to'plagan kitob va boshqa resurslarini har tomonlama ochib ko'rsatib berishni qat'iy talab qiladi. Axborot-resurslarni foydalanuvchi-kitobxonlarga ko'rsatib berishga kataloglarni to'g'ri tashkil qilish orqali erishiladi.

Katalog so'zi lotincha – "ro'yxat" degan ma'noni bildiradi. Kutubxona katalogi kutubxona zaxirasida mavjud bo'lgan kitoblarning (yoki boshqa matbuot asarlari-resurslarning) ro'yxati, degan ma'noni bildiradi. Ammo bunday aynan tarjima qilish kataloglarning haqiqiy ahamiyatini yetarli darajada to'liq tushuntirib berolmaydi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> G'aniyeva B.I. Axborot-kutubxona katalogi va fondi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – B.5.

Kutubxona kataloglarini tuzish jarayonida, o'zida mavjud bo'lgan kitoblar va boshqa resurslarning nomlarinigina sanab o'tishni maqsad qilib qo'ymaydi, balki kitobxonlarga kutubxona zaxirasidan o'zlariga kerak bo'lgan matbuot asarlarini tanlash va qidirib topish uchun juda katta imkoniyatlar tug'dirib berishni ko'zda tutadi. Kutubxona resurslarining mazmuni, mavzusi, ilmiy va g'oyaviy yo'nalishi jihatidan, nashr etilgan vaqti, sifati va shu kabilar xilma-xildir.

Kataloglar kitobxonlarga eng qimmatli va eng yaxshi asarlarni, hozirgi paytda kitobxonni qiziqtirayotgan mavzularni to'g'ri va to'liq holda yoritib beradigan asarlarni yangilab olishda yo'l-yo'riq berishi lozim. Kutubxona kataloglari kutubxona resurslarining mazmunini ochib berish, kitobxonlarga kitob tanlashda yordam berish vositasi, ularning kitob o'qishiga aniq bir maqsadni ko'zlab rahbarlik qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunga kutubxona zaxirasida mavjud bo'lgan matbuot asarlarini kitobxonlarning talablariga va kutubxonaning eng "qimmatli" kitoblarini targ'ib qilish sohasidagi vazifalariga javob bera oladigan aniq reja asosida elektron kataloglarda ko'rsatish bilan erishiladi.

Foydalanuvchi-kitobxonlarning kutubxona ma'naviy boyligidan to'la foydalanishini ta'minlash, ularning talablarini qondirishga ham bog'liqdir. Kutubxonalar uchun turli tipdagi orgtexnika vositalari zarur. Kerakli kitobni reklama qila bilish, uni ommalashtirish kabilar muhimdir.

Kataloglar xalqimizning o'qish madaniyatini oshirish, ularning bilimini va estetik didini takomillashtirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalash sohalaridagi

vazifalariga javob bera olishi lozim. Shu bilan birga kataloglarning ommabop bo'lishi kerakligini ham yodda saqlash kerak.

An'anviy kataloglar foydalanish uchun qulay, tuzilishi jihatdan esa kitobxonlarga tushunarli bo'lishi lozim. Kataloglarda ba'zi bir shartli ma'lumotlarga (ayrim so'zlarni hamma tushuna oladigan qilib qisqartirish, shartli belgilar va boshqalarga) yo'l qo'yish mumkin bo'lganligi sababli, ularni kitobxonlarga tushuntirib beradigan tadbirlarni: kutubxonachi yordam ko'rsatishlarini, plakatlarni va turli belgi hamda qisqartmalarni tushuntiruvchi yozuvlarni, vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan maslahatlarni oldindan rejalashtirish zarur. Katalogning hammabopligi uning to'g'ri tanlangan shakliga ham bog'liqdir. Kitob katalogda yoki bibliografiyada juda batafsil tasvirlangan bo'lsa-da, bu tasvir uning mazmuni to'g'risida to'liq tasavvur berolmaydi, kitobxon kitobni ko'rib chiqish natijasidagina ana shunday tasavvurga ega bo'ladi.

Keyingi yillarda ko'pgina kutubxonalarda kitobxonlarning kitob javonlari yoniga bemalol kira oladigan sharoit yaratilmoqda. Kitoblarni bevosita ko'rib chiqqan holda mavjud zaxira bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lish kitobxonlarning talablarini yanada yaxshiroq qondirishga yordam beradi, ularning qiziqish doiralari kengaytiradi, kitoblarning harakatda bo'lish darajasini oshiradi. Kitob javonlari yoniga bemalol kira olish kutubxona kataloglarining rolini pasaytiradi, deb xulosa chiqarish noto'g'ri bo'ladi. Shunday sharoitda ham kataloglar kutubxona zaxirasi bilan tanishishning asosiy vositasi sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shuni unutmash kerakki, hozirgi daqiqada javonda turgan kitoblar kutubxona resurslarining haqiqiy mazmunini aks ettira olmaydi, chunki ko'p kitoblar boshqa kitobxonlarga berilgan bo'ladi, javonlarda qolgan kitoblar esa kutubxona zaxirasida haqiqatdan qancha kitob borligini ko'rsatib berolmaydi. Shu bilan birga kataloglarda resurslar mazmunining turli-tumanligi, mavzu va masalalarning boyligi bilan osonroq tanishish mumkin. Bu mavzu va masalalar yuzlab, minglab va o'n minglab kitoblarda yoritilganidir.

Alifboli katalog yordamida kutubxonachi biror muallifning asarlaridan qaysilari yetishmasligini, zaxirada aniq bir kitobning yoki uning muayyan nashrning bor-yo'qligini aniqlay oladi.

Tizimli va sohaviy katalog bo'yicha ayrim bir masalaga doir mavjud adabiyot yetarli darajada to'liq tanlanmaganligi aniqlanishi mumkin. Bu kataloglar bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni to'ldirish uchun bibliografik nashrlarni ko'rib chiqish, nashriyotlarning mavzular rejalari bilan tanishish, kerakli nashrlarni sotib olishni mo'ljallash imkonini beradi.

Kutubxona kataloglari bibliografiya va ma'lumot-bibliografiya ishlarida ham keng qo'llaniladi. Mavzuli ko'rgazma yoki kutubxonaga olingan yangi kitoblarning virtual ko'rgazmasini tashkil qilishda ham kutubxonachi birinchi galda kataloglarga murojaat etadi, ko'rgazmaga qo'yilayotgan kitoblarning tasodifan tanlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun shunday qiladi, ma'lumki, bu o'rinda

ham kataloglar bilan bibliografiyadan birga foydalanadi. Kutubxona kataloglari yangi olingan kitoblarni tasvirlashda, fan sohalariga ajratishda kutubxonachiga yordam beradi. Ularga qarab zaxirada bu asarlarning boshqa nashrlari bor-yo'qligi aniqlanadi. Har xil bo'lib qolmasligi uchun ularning tasviri va katalogda aks etgan-etmaganligini solishtirib ko'riladi. Agar qiyinchilik tug'ilsa, bunday hollarda qabul qilingan qarorlar bilan taqqoslab ko'rish yordam beradi. Kutubxona kataloglarining funksiyalari keng va xilma-xildir. Kataloglarni tuzish ishlari kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etishda ulardan juda yaxshi va har tomonlama foydalanish vazifalariga bo'ysundirilgan bo'lishi lozim. Bu ish kutubxonachidan matbuot asarlarini farqlay bilishni, ularning mazmunini va kitobxonlar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilishni talab qiladi. Kutubxonachi kataloglarning har bir turini tuzish metodlarini o'rganib olishi va muayyan katalogga xos bo'lgan vositalar bilan resurslarning mazmunini juda to'liq, ilmiy jihatdan to'g'ri ochib berishga intilishi kerak. Faqat tuziladigan kataloglar turlarining miqdorigina emas, balki ma'lum darajada ulardan har birining tuzilish xarakteri ham kutubxonaning turiga, uning vazifalariga, resurslarining hajmi va mazmuniga, kutubxona xizmat ko'rsatayotgan kitobxonlarning tarkibiga bog'liqdir. Kataloglar tuzish usullarini puxta bilish kutubxonachining kasbiy tayyorgarligining ajralmas va zarur qismi hisoblanadi.

Kutubxona kataloglari bosma bibliografik ko'rsatkichlarga nisbatan muhim afzallikka egadir, chunki ularda eng yangi adabiyot to'liqroq aks ettiriladi. Bosma ko'rsatkichlarga faqat ularni tuzish paytiga kelib, nashrdan chiqqan kitoblarga kiritiladi va binobarin ulardan foydalanilayotganda hamma vaqt ularning hozirgi davrdan qisman orqada qolayotganligini nazarda tutishga to'g'ri keladi. Holbuki, kataloglarda kutubxona zaxirasiga olingan keyingi kitoblarni ham o'z vaqtida tez aks ettirish uchun aniq imkoniyat bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim katta kutubxonalarining ish tajribasida yangi olingan kitoblarni o'z vaqtida kataloglarda aks ettirishning muhim ekanligiga yetarlicha baho bermaydilar va bu jarayon ancha kechikib bajariladi. Kartochkalarni kataloglarga kun sayin joylashtirib borishning texnik qiyinchiliklari bor, deb bahona qilib yangi olingan kitoblarning tasviri yig'ilishiga qarab bir necha haftaligi, ba'zan bir necha oyligi bir qilib kiritiladi. Ba'zi hollarda bu narsa, hatto, sistemaga aylanib qoladi va yangi olingan kitoblar "Yangi kitoblar" degan alohida kartotekada aks ettiriladi, bundan maqsad, keyingi oylarda resurslarning to'ldirilishi qanday borayotganligi to'g'risida kitobxonlarga axborot berib turishdir. Bir yoki ikki oy o'tgandan keyingina bu tasvirlar kataloglarga kiritiladi, kartoteka esa kutubxonaga olinayotgan yangi kitoblarning tasvirlari bilan yangidan to'ldiriladi. Albatta, yangi olingan kitoblar to'g'risida kitobxonlarga o'z vaqtida axborot berib turish kerak, ammo bu ish kitobxonlarni kutubxona zaxirasining to'liq hajmi bilan tanishtirishning asosiy manbayi bo'lgan kataloglarning mazmunini toraytirish hisobiga bo'lmasligi lozim. Yangi kitoblar to'g'risida axborot berishni boshqa yo'llar bilan: bosma byulletenlar tuzish yoki yangi olingan kitob kartotekalariga dublet

<sup>2</sup> G'aniyeva B.I. Axborot-kutubxona katalogi va fondi (o'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – B.5.



kartochkalari kiritish, ularni kutubxona kataloglarida o'z vaqtida aks ettirish yo'li bilan amalga oshirish kerak<sup>2</sup>.

Kutubxonaga murojaat qiladigan kitobxonlarning talablari juda xilma-xildir. Ba'zan ularga ma'lum kitoblar kerak bo'ladi, boshqa holda ularni o'zlariga tanish bo'lgan muallifning asari qiziqtiradi, ko'pincha ular biron-bir masalaga doir kitoblarni berishni so'raydilar-u, bu masala yoki predmet qayerda va qaysi mualliflarning qanday asarlarida yoritilganligini bilmaydilar. Ko'rinib turibdiki, kutubxona bu xilma-xil talablarning hammasini birgina katalog tuzish bilan qondira olmaydi. Kutubxona xizmati ko'rsatish nazariyasi va praktikasida kataloglarning eng muhim turlari aniqlanganki, ularning har biri ma'lum bir xarakterdagi talablarni qondirishga imkon beradi. Kataloglarning mavjud turlaridan har birining asosi ayrim bir matbuot asarini tasvirlashdir. Kutubxona kataloglari tasvirlarni guruhlarga ajratish usuli bo'yicha uchta asosiy turga: alfavit katalog, sistemali katalog va predmet katalogiga bo'linadi. Alfavoli katalogda matbuot asarlarining tasviri mualliflarning familiyalari yoki sarlavhalarning alfaviti bo'yicha joylashtiriladi. Tasvirlarning shu tartibda joylashtirilishi, birinchidan, konkret bir asarning muallifi va sarlavhasi tasvirlarni guruhlarga bo'lish usuli bo'yicha kataloglarning bir-biridan farqi kitobxonaga ma'lum bo'lgan bir paytda mazkur asarning bor yoki yo'qligini aniqlash, ikkinchidan, muayyan bir muallifning kutubxona zaxirasida mavjud bo'lgan asarlari bilan tanishish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi (2019-yilning 7-iyunida qabul qilingan PQ-4354-sonli) Qarorining qabul qilinishi kutubxonashunoslik sohasida boshlangan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Qarorga muvofiq, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasida bir qator asosiy vazifalar belgilandi. Jumladan, ushbu hujjatga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tajribalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish, aholiga axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda zamonaviy talablarni inobatga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirilishi belgilandi. Shuningdek, kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish (shu jumladan, pullik xizmat ko'rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish ko'zda tutilgan<sup>3</sup>.

E'tiborlisi, o'z axborot-resurslarini yaratish va ularni sifatli to'ldirib borish orqali kitobxonlarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta'minlashga o'tilmoqda. Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida, axborot-kutubxona

xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalardan biri masofadan axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish va modernizatsiya qilishdir. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan masalalarni samarali amalga oshirilishi mamlakat axborot-kutubxona muassasalarining yanada rivojlanishi, axborot, madaniy-ma'rifiy, yangi ma'naviy makon doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi yagona axborot-kutubxona makonini yaratishga imkon beradi.

Ushbu qarorga asosan hozirgi zamon kutubxonalarini innovatsiya yo'lini tanlasagina rivojlanish va taraqqiyotga erishadi. Kutubxona ishida innovatsiya – bu yangi faoliyat turlari namunalarini joriy etish, kasbiy faoliyatda yangi sifat ko'rsatkichlariga erishishdir. Innovatsion faoliyat – yangi samarali texnologiyalarni ishga joriy qilishdir.

#### **Hozirgi zamon kutubxonalaridagi elektron kataloglarning quyidagi afzalliklari mavjud:**

1. *Kerakli adabiyotlarni izlayotgan kitobxon masofadan tarmoq orqali katalogga kirishi mumkin. Bu kitobxonning vaqtini tejaydi.*

2. *An'anaviy kataloglarga qaraganda elektron katalogdan bibliografik tavsifning barcha elementlari bo'yicha qidirish bir necha yuz marotaba tez.*

3. *Elektron kataloglar internet orqali taqdim qilinganda, undan foydalanuvchilar soni keskin ortadi va kutubxona zaxirasini butun jahonga ko'rsatish imkoniyati yaratiladi.*

4. *An'anaviy kutubxona kataloglaridan foydalanish vaqti cheklangan. Elektron katalogdan foydalanish vaqti cheklanmagan. Kitobxon elektron katalogdan o'ziga qulay paytda foydalanishi mumkin.*

5. *Elektron katalog avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimlarining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi va zaxiradagi adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, kitoblarga buyurtmalar berish, qaytarib olish va kutubxona statistikasini yuritishda asosiy rollardan birini o'ynaydi.*

6. *Elektron katalogdan foydalanishda mantiqiy amallardan foydalanib qidirish farmoyishlarini tuzish imkoniyatining mavjudligi, kitobxon tomonidan izlanayotgan adabiyotlarni qidirish samarasining yuqori bo'lishiga olib keladi.*

*Shunday qilib, O'zbekistonda axborot telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi axborot resurs markazlari va axborot-kutubxona markazlarda elektron kataloglarning yaratilishiga olib keldi. Bu holat, birinchidan, kutubxonalar zaxirani kitobxonlarga taqdim qilish sifati va samarasini oshirgan bo'lsa, ikkinchidan, O'zbekiston olimlari, yozuvchilari, akademiklarining ilmiy ishlari va asarlarini butun dunyoga ko'rsatish imkoniyatini yaratdi. Kutubxonachilik kasbi imijini shakllantirishda asosiy vazifalardan biri. Alfavoli katalog – kutubxona zaxiralarini to'liq ochib beruvchi kutubxona katalogidir. Sistemali katalog – kutubxona zaxirasini fan sohalari bo'yicha ochib beruvchi kutubxona katalogidir.*

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan

<sup>3</sup> Mirziyoev Sh. "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Preziden Qarori. 2019-yil, 7-iyunda qabul qilingan

fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu esa axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, zaxiralarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Imij so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "obraz", "tasvir", "tasavvur qilish" ma'nolarini beradi. Jamiyatda bu, insonning egllab turgan mavqeyiga muvofiq o'zini tutishi tushuniladi.

Imij – reklama qilish va targ'ib etishning ma'lum bir obektga jamoatchilik bilan aloqa qilgan holda ommaviy tasavvurni va munosabatini tashkil etadi. Imijni o'rganish bilan imijologiya shug'ullanadi. Imij yaratish jarayoni imijlash, deyiladi.

Imij yoki obraz bu masala yuzasidan bir qancha nuqtayi nazar, qarashlar mavjud. G'arbdagi kasbiy adabiyotlarda, imijga bag'ishlangan mavzu obrazlarning maqsadi va o'ziga xos xususiyatlarini asoslash maqsadida qo'llaniladi. Bizning tasavvurimizdagi tavsifnomaning asosi kutubxona imiji – bu kutubxonaning ta'lim tizimi va umuman jamiyat rivojlanishida (asosan o'quv jarayonini axborot bilan ta'minlashda)gi salmog'i, ahamiyati darajasi va rolini belgilovchi ko'rsatkich.

Kutubxonaning ijobiy qiyofasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari:

- *resurslar bilan ta'minlanganlik;*
- *malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik;*
- *foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifati;*
- *ko'rsatiladigan xizmatlar sifati;*
- *estetik bezatilganlik (dizayn foto-dizayn);*
- *kutubxona intereri (mebel, jihozlar, joylashgan o'ri);*

- *rangli bezatilgan peshlavhalar, ajratkichlar;*
- *ko'rgazmalar;*
- *kutubxona faoliyati haqida muntazam axborot berib borish.*

Shuningdek, kutubxona to'g'risida ijobiy taassurotni mustahkamlashga yordam ko'rsatuvchi firma stili ham imijga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Kutubxonaning ko'rinishi (stili) quyidagi bir qator elementlardan tashkil topadi. Kutubxona belgisi – kutubxona o'z faoliyatini olib borishda qo'llaydigan original bezatilgan grafik tasvir. Logotip – kutubxonaning tasviriy simvoli, ramzi. Shior – taklif qilinayotgan xizmatning asosiy g'oyasini 50 foiz ifodalovchi qisqa ibora, chaqiriq, deviz, kutubxona shiori. Masalan, "Badiiy kitob o'qisangiz, bir finjon qahvani bepul beramiz".

Kutubxonachi imiji. Kutubxonachilik kasbi imijini shakllantirishda asosiy vazifalardan biri bu, sohadagi mutaxassislar to'g'risida ijobiy fikr hosil qilish bo'lib, bunga quyidagi yo'l bilan erishish mumkin:

- *kasbiy sifatlarni ya'ni intellekt, professionallik, ish uslubi, insonlarga munosabat, muloqotga kirishuvchanlik, axborot texnologiyalarini bilish;*
- *tashqi ko'rinishni belgilash;*
- *har turli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish qobiliyati;*
- *omma oldida so'zlash qobiliyati;*
- *ish yuzasidan yozishmalarni olib borish qobiliyatini rivojlantirish.*

Elektron shakldagi imij-katalog an'anaviy kutubxona alifboli katalogini katochkalarini skanerlab, elektron shakldagi axborotlarni qidirish imkoniyatini beradi. Elektron imij-katalog nashrlar haqidagi bibliografik axborotlarni o'zida jamlaydi va u elektron katalogning tarkibiy qismi hisoblanadi. Elektron imij-katalog mazmun bo'yicha qidirish va shuningdek, alfavit katalog yashiklari bo'yicha alifboli qidirish imkonini beradi. Qidirish jarayonida qidirish "oynakchasi"ga o'zingizni qiziqirtirgan so'z yoki jumlani kiritasiz. Nashr qilingan kartochkadagi quyidagilar hisobga olinadi: muallif familiyasi, sarlavha, ochqich so'z va nashriyotdan chiqish ma'lumotlari alfavit bo'yicha qidirish jarayonida qidirish oynakchasiga muallifning familiyasi yoki bosh harflari, yoki sarlavhaning bosh so'zlari (agar mualliflari soni uch nafar bo'lsa) kiritiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.464.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – B.485.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild) – T.: "O'zbekiston", 2017. – B.592.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 13-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kutubxona-axborot faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2011-yil, 14-aprel.
6. Rahmatullayev M.A., Umarov A.O., Karimov U., Muhammadiyev A.Sh. Avtomatlashtirilgan kutubxona. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. – B.266.
7. Karimov U., Rahmatullayev M.A. Elektron kutubxona. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. – B.260.
8. Гуревич П.С. Приключения имиджа: Типология телевизионного образа и парадокси его восприятия. – Москва: «Искусство», 1991. – С 221.
9. Леонтев Д.А. Имидж (электронный ресурс). – М.: 2008. «Большая российская энциклопедия», – С.130.
10. Панасюк А.Й. Имидж. – М.: «Энциклопедический словарь», 2007.
11. Панасюк А.Й. Формирование имиджа. Стратегия, психотехнологии, психотехники. – М.: «ОМЕГА-Л», 2008. – С.266.



# VI BO' LIM

## YOSH TADQIQOTCHI

Malohat TUROBOVA,  
San'atshunoslik instituti tayanch doktoranti

### O'ZBEK QO'G'IRCHOQ TEATRIDA OBRAZ YARATISH MASALALARI VA MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o'zbek qo'g'irchoq teatri san'atida obraz yaratish masalalari va muammolari to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq teatri san'ati, obraz, badiiy obraz, aktyor, rejissyor, rassom, qo'g'irchoq ustasi, qahramon.

### ВОПРОСЫ И ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ ОБРАЗА В УЗБЕКСКОМ КУКОЛЬНОМ ТЕАТРЕ

**Аннотация.** В данной статье говорится о вопросах и проблемах создания имиджа в искусстве узбекского театра кукол.

**Ключевые слова:** кукольное искусство, персонаж, художественный персонаж, актер, режиссер, художник, кукловод.

### ISSUES AND PROBLEMS OF CREATING AN IMAGE IN THE UZBEK PUPPET THEATER

**Abstract.** This article talks about the issues and problems of image creation in the art of Uzbek puppet theater.

**Key words:** art of puppetry, character, artistic character, actor, director, artist, puppet master, character.



Qo'g'irchoq teatri san'atining o'ziga xosligi shundaki, unda obraz qo'g'irchoqlar ishtirokida yaratiladi. Qo'g'irchoqlar badiiy vosita bo'lib, uning yordamida asarning g'oyaviy-emosional mazmuni tomoshabinlar mulkiga aylanadi. Zaboni yo'q, jonsiz qo'g'irchoqlar aktyorlar mahorati orqali jonlanadi, tilga kiradi.

Ko'pincha savol tug'iladi, qo'g'irchoqlar xatti-harakatga, yuz ishora va hissiyotlarga ega bo'lmasa, nima uchun jonli insonlar o'rniga harakat qiladi? Aynan qo'g'irchoq teatrining ustunligi ham shunda! Imkonsiz narsalarni amalga oshiradi, jonli va jonsiz predmetlarni insonlardek fikrlashga, harakatlanishga bu orqali bolalarni tasavvur olamini boyitishga, tabiat va hayvonlarga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllanishga yordam beradi. Shu boisdan rang-barang obrazli personajlardan unumli foydalanish imkoniyati juda keng. Bu sahnada hayvonlar, turli mavjudotlar va jonsiz predmetlar ishtirokida ham obraz yaratilib, ular o'zlarining xulq-atvori, intilishlari, maqsadlari orqali insonlarga nisbatan timsollanadi.

Qo'g'irchoq teatrida "obraz" tushunchasi san'atning shakllanish jarayonlaridan boshlab, inson va uning turmush tarzi bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. O'zbek qo'g'irchoq teatri san'ati ildizlariga nazar solsak, bu borada asosan ikki manba muhim rol o'ynaganligining guvohi bo'lamiz. Birinchi manba,

O'zbekiston hududida yashagan animistik e'tiqodga tayanuvchi xalqlarning marhumni eslash marosimidir, deb hisoblanadi. Mazkur marosimga ko'ra, o'lgan kishining eng yaqin odami uning niqobini yasab kiyadi va marhum harakatlari, nutqi, muomalalarini tiklashga urinadi. Niqob ba'zan boshga kiyilmasdan, qo'lda ushlanganicha harakatlantirilgan. Bunday paytda "ijrochi" ham marhum, ham o'z "rolini" bajargan va o'ziga xos dialog hosil qilgan. Ushbu marosim o'zbek qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi uchun zamin tayyorlagan[1]. Dastavval, marosimlarda marhumni xotirlash maqsadida jonlantirishga urinish, niqoblarga murojaat etish, keyinchalik jonsiz qo'g'irchoqni harakatga keltirilganligini payqash qiyin emas. Ya'ni, mana shu diniy marosimlar orqali ilk bor "obraz" tushunchasi vujudga keladi. Keyinchalik maxsus niqoblarning masxarabozlar, xalq aktyorlari qo'lga o'tishi, marosimlar o'rnini ijtimoiy voqealar egallashi obraz yaratishdagi o'ziga xos an'anaviy formalarni ishlab chiqdi.

Teatrshunos olim Muhsin Qodirov an'anaviy xalq tomoshalarining badiiy xususiyatlarini shunday ta'riflaydi: "An'anaviy teatr – ijrochilik san'ati. Bu yerda hal etuvchi – ijrochi aktyor, uning e'tiqodi, qobiliyati, malakasi mahoratdir. Zotan, xalq aktyori tomoshabinlar davrasidan hosil bo'lgan o'ziga xos "sahna"da maxsus ayvonlarda, ko'shklarda tomosha

*ko'rsatgan. Rosmana dekoratsiya yo'q, voqea o'rni va payti esa shartli. Bunday sharoitda aktyor faqat o'ziga, o'z san'atiga ishonib ish ko'radi. U mustahkam an'anaviy fabula, voqealar, obrazlar silsilasi, barqaror savol-javoblarga tayangan holda so'z va harakatlar to'qiydi, ya'ni badihago'ylik (improvizatsiya) qiladi"* [2].

Zamonaviy qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish xususiyatlari birmuncha o'zgacha. Obraz eng avvalo dramaturg tomonidan so'z orqali yaratiladi va rejissyor, qo'g'irchoq yasovchi usta, liboslar bo'yicha rassomning ijodiy ustaxonasidan o'tib, mahoratli aktyorning qo'lida jonlanadi. Aktyor butun bir ijodiy jamoaning mehnatini yuzaga chiqaruvchi shaxs sifatida, spektakldagi barcha tarmoqlar avvalo, uning qulay harakati va erkin ijodiga xizmat qilishi talab etiladi. Zamonaviy qo'g'irchoq teatrida obrazning kelib chiqishi, xatti-harakati, intilishlari orqali romantik, fantastik, realistik, afsonaviy, simvolik, mifologik singari barcha turlaridan unumli foydalaniladi. Shu bilan birga quyidagicha tasniflanadi:

- *inson va uning maqsad-muddaosini ifoda etuvchi obrazlar;*

- *ramziy obrazlar, ya'ni inson xatti-harakatlari, holatlari hayvonlar, o'simliklar, jonsiz predmetlar orqali ramzlantirilgan obrazlar;*

- *rejissyor, rassom, dramaturg tomonidan qo'llanilgan ifodalar, ko'chma ma'noda keluvchi so'z va iboralar orqali yaratilgan obrazlar.*

Qo'g'irchoq teatri aktyori har bir asardagi qahramonlar uchun turli obrazlar yaratadi. Komediya asarlar qo'g'irchoq teatrida yetakchilik qiladi va bunday spektakllarda aktyorlar yumorga alohida e'tibor qaratadi. Mana shunday yumoristik vaziyatni yetkazib berishda aktyordan favqulodda bolalarcha quvnoqlik, sho'xlik va o'yinqaroqlik talab etiladi. Ammo bir vaqtlar qo'g'irchoq teatri repertuarining asosini egallab kelgan komediya spektakllar aktyorlar ijro mahoratini ma'lum bir shtampga solib qo'yganligi hech kimga sir emas. So'nggi yillarda turli yo'nalishdagi jiddiy asarlarga alohida ahamiyat qaratilayotganligi obrazlar va janrlarning xilma-xilligi ortib, ijrochilik borasida ham o'ziga xos burilish yasayotganligi bilan quvontirmoqda. Xususan, tarixiy psixologik, tarixiy afsonaviy, tarixiy drama janridagi "Shiroq afsonasi", "Yurt tumori, To'maris", "Jaloliddin Manguberdi", "Bahrom va Dilorom", "Tohir va Zuhra" singari bir qancha o'ziga xos turli talqinlarga ega spektakllarda badiiy obraz yaratish borasida chuqurroq va jiddiy yondashish holatlari kuzatiladi.

Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri yutuqlari asosan mana shunday jiddiy asarlar ustidagi jarayonlarda ko'zga tashlanayotganligi quvonarli holdir. Bu borada aytish joizki, qo'g'irchoqlarning turlari va ularning boshqarish tizimlari xilma-xillashib, tasviriy va ifodaviy yechimlarning, xususan, dekoratsiya, musiqa, raqsning yangicha shakllari o'zlashtirila boshlandi. Ayniqsa, raqs san'ati alohida o'ringa ko'tarilayotganligi, spektakl badiiyligini oshirish, asar g'oyasi va qahramonlar xarakterini boyitish maqsadida, ritmik tana harakatlaridan unumli foydalanish jarayonlarining ortib borayotganligiga

guvoh bo'lib turibmiz. Misol tariqasida Sh. Yusupovning "Bahrom va Dilorom" spektaklini olaylik. Rejissyor spektaklda raqs elementlariga katta o'rin ajratib, plastik harakatlar yordamida badiiy obraz yaratadi. Bu raqs sahnalaridan tomoshabinga fikrlar va hissiyotlarni yetkazish, hikoyanavislik maqsadida foydalanadi. Bahrom va Dilorom muhabbatining ayanchli qismati bevosita ohular taqdiri bilan bog'liq bo'lganligi bois, spektaklda ohular timsoliga urg'u beriladi va jonli planda harakatlanadi. Rejissyor obrazlarning o'ziga xosligini tasniflashda musiqa va plastikaga keng ahamiyat qaratish zamirida ularning intilishlari va qilmishlarini noananaviy yechim orqali ifoda etadi.

Mazkur sahna asarlarida tarixiy haqiqatga suyangan holda, davr manzarasini va tarixiy shaxslar obrazini mujassamlashtirish maqsadida, to'qima voqealar va qahramonlarni asar zamiriga olib kirish holatlari ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga buyuk tarix sahifalarini bola ruhiyatiga moslashtirish jarayonlariga bog'liq ekanligi bilan ahamiyatlidir. Quvonarlisi shundaki, tarixiy asarlar ustidagi ijodiy jarayonlarda teatrning barcha tarmoqlari bir tan-u bir jon bo'lib, badiiy obraz yaratmoqda. Tarixiy shaxs obrazlari kichik sahna va kichik tomoshabin qarshisida turib, ulkan g'oyalar to'g'risida hikoya qilmoqda. Bu esa teatr ijodkorlarining buyuk tariximiz va kelajagimizga bo'lgan hurmati va muhabbatining yorqin ifodasidir. Buyuk tarixiy shaxs siymosini qaytadan badiiy kashf etish sharqona hayotimizga g'arb madaniyati kirib kelayotgan ushbu damda muhim ahamiyatga egadir. Zero, tarixiy shaxs obrazi, uning hayot faoliyati, jasoratlari inson kamolotida muhim sanaladi.

Qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish jarayonida qo'g'irchoq yasash texnikasi muhim rol o'ynaydi. Zero, yaxshi qo'g'irchoq yomon aktyorning qo'lida o'ladi, yomon qo'g'irchoq esa yaxshi aktyorning ijodiy ishini buzadi, deyishadi. Qo'g'irchoq niqobining badiiy obrazi – tipikligi, hayotiyliigi, unda xarakterning mavjudligi rassom-haykaltaroshning mahoratiga bog'liq bo'lsa, qo'g'irchoqning harakat qilish imkoniyati, imo-ishoralarning ifodaliligi qo'g'irchoqning texnik qurilmasiga bog'liq. Bu borada qo'g'irchoq va hatto uning kostyumi tayyorlangan material ham muhim rol o'ynaydi. Qo'g'irchoqning plastik imkoniyatlari qanchalik boy, rang-barang va ifodali bo'lsa, aktyor qo'g'irchoqni mahorat bilan o'zlashtirsa, tomoshabinga spektaklning mazmuni shunchalik ochib beriladi. Bu borada qo'g'irchoqni harakatga keltiruvchi aktyorning mahorati ko'p qirrali bo'lishi kerak. Chunki turli qahramonlar, turfa xarakter va murakkab boshqarish texnikasiga ega bo'lgan qo'g'irchoqlar o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Bir so'z bilan aytganda, qo'g'irchoqlarni ishlab chiqarish jarayonlari uning badiiy imkoniyatlarini belgilaydi. Bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolarning aksariyati ham aynan qo'g'irchoqlar yasash texnikasi va badiiy xususiyatlari bilan bog'liq.

Ayniqsa, to'qima obrazlar ustidagi jarayonlarda bu holat yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Bilamizki, fantastik qahramonlar orqali obraz yaratish birmuncha murakkab jarayon. U xoh ijobiy, xoh salbiy xarakterga

ega bo'lsin, aktyordan ulkan mahorat va mashaqqatni talab etadi. Chunki aktyor protatipi bo'lmagan qo'g'irchoq-qahramonga noan'anaviy xarakter, o'ziga xos ovoz intonatsiyalari topishi, yangicha boshqarish texnikasiga moslashishi lozim. Agar qo'g'irchoq juda katta bo'lsa, uning mashaqqati yanada ortadi. Qo'g'irchoqlarning o'lchamidagi nomutanosiblik esa spektaklning badiiy yaxlitligiga ta'sir ko'rsatadi.

Odatda qo'g'irchoqlar hajmi, tipikligi, yuz ifodasi, maqsad-muddaosi va harakatlanish texnikasining imkoniyat darajasiga qarab obrazlashtiriladi. Ammo ko'plab sahna asarlarida uchraydigan personajlar ustida obraz yaratishda sobiq an'analarga va mavjud shablonlarga tayanib qolinayotgan holatlar ham yo'q emas. Bir xil ovoz ohanglari, his-tuyg'ulardan foydalanish, tasvirlash, holat va xarakter berish borasida ma'lum shtaplarga tushib qolish jarayonlari kuzatilmoqda. Misol tariqasida yalmog'iz kampir, to'tiqush, tulki va shunga o'xshagan bir qancha qo'g'irchoq-qahramonlar deyarli bir xil obrazda. Bundan tashqari yovuz yoki mehribon xarakterli personajlar ham boshqa asardagi shu singari qo'g'irchoq-qahramonlarni takrorlaydi. Bu aktyorlarning ovoz intonatsiyalari yaxshi charxlanmaganligi yoki hissiy-emotsional holatlarni mukammal o'zlashtirmaganligidan emas, balki ijodkorlarning obraz ustida kamroq izlanishlaridan dalolat beradi. Tayyor obrazdan shablon olishadi va qo'llashadi. Mana shuning uchun qo'g'irchoq

teatri ijodkorlarining birinchi galda tasavvur olamini, fantaziyasini boyitish, o'z ustida tinimsiz ishlash va mehnatsevarlikka o'rgatish lozimdir.

Aktyor sahna nutqi, raqs, pantomima, sahna harakati, ritmika, qo'g'irchoq yasash va boshqarish texnologiyasi, musiqa asoslari, qo'shiqchilik, jismoniy madaniyat, bolalar va kattalar psixologiyasi, teatr tarixi singari bilimlarni o'zlashtirsa ham mehnatsevar bo'lmasa, bularning barchasi befoydadir. Shu boisdan yosh aktyorlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ushbu sohaga mehr-muhabbatini mustahkam asosda shakllantirishga yanada ko'proq e'tibor qaratish zarurati davr talabiga aylanmoqda. Chunki tobora dunyo qo'g'irchoq teatri ijodkorlari ekspressiv vositalar polifoniyasiga intilmoqda. Kundan-kunga qo'g'irchoq turlari va tizimlarining xilma-xillagi ortib bormoqda. Endilikda davr talabiga mos milliy koloritni o'zida aks ettiruvchi qo'g'irchoq teatrlarini yaratish borasida jadal jarayonlar olg'a surilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qo'g'irchoq teatrlarining maqsadi yosh avlodga ma'naviyat urug'ini ularga tanish va yaqin ifoda vositalari orqali sodda va samimiy shaklda yetkazishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, qo'g'irchoqlar yetakchi vosita sifatida tomoshabinlar hayotida teatrlarining oliy maqsadini targ'ib qiladi. Qachonki qo'g'irchoq tabiiy kulsa, yig'lasa, jonli harakatlansa tomoshabinni spektakl maqsadi va g'oyasiga ergashtira oladi. Buning uchun aktyorning qo'g'irchoq ishtirokidagi ijrosi obraz darajasiga ko'tarilishi shart.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov.M. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. – Toshkent: “Fan”, 1993. – B.163.
2. Qodirov.M., Qodirova.S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: “Talqin”, 2006. – B.17.
3. Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. – B.7.
4. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi. – T.: 2014.
5. Turdiyeva I. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari. – T.: O'zDSMI, 2015.

## DRAMATIK SPEKTAKLDA MUSIQA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, dramatik spektakllar uchun yaratilayotgan turli janrdagi musiqalar, jumladan, teatrlashgan postanovkalar, opera, balet, myuzikl, musiqiy drama va dramatik teatr spektakllaridagi musiqalarning o'ziga xos xususiyatlari kompozitorlik kesimida amaliy va nazariy tahlil qilinadi. Shuningdek, sahnadagi qahramonlar siyomosini musiqada to'laqonli aks ettiribgina qolmay, balki qahramon va tomoshabin o'rtasidagi hissiy kechinmalarni musiqiy bog'lovchi sifatida kompozitorlik ijodiyoti ilmiy mushohada qilinadi.

**Kalit so'zlar:** musiqiy drama, kompozitor, tarixiy drama, teatr, opera, balet.

## МУЗЫКА В ДРАМАТИЧЕСКОМ СПЕКТАКЛЕ

**Аннотация.** В этой статье проводится практический и теоретический анализ музыки различных жанров, создаваемой для драматических спектаклей, включая специфику музыки в театральных постановках, опере, балете, мюзикле, музыкальной драме и спектаклях драматического театра в композиторском ракурсе. В частности, ведётся научное наблюдение композиторского творчества как музыкального связующего звена эмоциональных переживаний между героем и зрителем, так и в полной мере отразившего в музыке образы героев сцены.

**Ключевые слова:** музыкальная драма, композитор, историческая драма, театр, опера, балет.

## MUSIC IN DRAMA PERFORMANCE

**Abstract.** This article provides a practical and theoretical analysis of music of various genres created for dramatic performances, including the specifics of music in theatrical productions, opera, ballet, musical, musical drama and drama theater performances from the composer's point of view. In particular, the scientific observation of the composer's work is being carried out as a musical link of emotional experiences between the hero and the audience, and fully reflecting the images of the heroes of the scene in music.

**Key words:** musical drama, composer, historical drama, theatre, opera, ballet.



Yurtimizda so'nggi yillarda musiqqa san'ati, xususan, kompozitorlik faoliyatiga bo'lgan yuksak e'tibor yanada ortib bormoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-dekabrda "Opera va balet san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-64-sonli Qarorida ko'rish mumkin. Unda opera va balet san'atini yanada rivojlantirish, jumladan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri faoliyatini takomillashtirish, milliy opera va balet san'atini keng targ'ib etish, uning jahon san'at olamida tutgan o'rni va mavqei yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda aytilish mumkinki, teatr musiqasi ijodkorligi alohida rivojlanishi lozim bo'lgan sohalardan biri sanaladi. O'zbekiston kompozitorlari tomonidan turli musiqiy janrlarda asarlar yaratilgan bo'lib, shu jumladan, teatrlashgan postanovkalar, opera, balet, myuzikl, musiqiy drama va dramatik teatr spektakllari uchun ham jozibali musiqalar yaratilmoqda.

Teatr olamida musiqqa – alohida bir olam. Bu musiqani boshqa yerda uchratmaysiz, ya'ni u faqatgina o'sha sahnaga, o'sha spektaklga oiddir. Musiqqa spektaklning jon tomiri, ajralmas qismi bo'lgani uchun ham uni yaratish, aniqrog'i, aynan bir spektaklga moslab bastalash, yangi ohanglarni vujudga keltirish o'ta murakkab vazifa. Shunchaki, o'z xayollari, ilhomiga ko'ra musiqqa yaratuvchi ijodkorga qaraganda, spektakllar uchun musiqqa yaratuvchi kompozitor uchun bu o'ta mashaqqatli vazifa sanaladi.

Chunki bu kompozitor spektaklda kechayotgan har bir jarayonni eng nozik jihatlari bilan anglamog'i, qahramonlarni his qilmog'i, hatto, ularning o'rnida o'zini ko'rmog'i, asarni sahnalashtirayotgan rejissyorning maqsadi va tomoshabinning istagini tushunmog'i hamda bularning barchasini uyg'unlashtirgan holda o'z qarashlarini go'zal pardalarda aks ettirmog'i lozim. Bunday musiqqa asarining g'oyasini pyesaning matni bilan teng ravishda ochib berishi, asar qahramonlarining tuyg'ulari va ruhiyatini aktyorlarning ijrosi bilan barobarlikda ifodalab berishi, spektakl ritmini rejissyorning umumiy maqsadi bilan hamohang yaratishi kerak. Buning uchun kompozitor professional tayyorgarlikdan tashqari dramatik san'atni ham tushunishi, teatr musiqasining o'ziga xosligini bilishi va buni e'tiborga olishi hamda o'zining individualligini namoyish etishi muhimdir. Bu borada mashhur rus teatr kompozitori Ilya Sas shunday degan edi: "Bu yerda nafaqat musiqachi bo'lish kerak, balki, musiqachi ekanini unutishni ham bilish kerak"<sup>1</sup>.

2020-yilda O'zbek Milliy Akademik drama teatri bilan hamkorlikda faoliyat olib bordik va "Jaloliddin Manguberdi" spektaklini katta jamoa bilan birgalikda tomoshabinlar e'tiboriga havola etdik. Bu asar uchun musiqqa bastalar ekanman, ijodkor sifatida juda kuchli ruhiy kechinmalarni boshimdan o'tkazdim. Chunki Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashgan eng kuchli sarkardalar qatorida tarix zarvaraqlarida alohida tilga olinadi. U faqat bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashibgina qolmay, balki turli xalqlar ustiga mo'r-u malaxday

<sup>1</sup> <https://megalektsii.ru/s119881t14.html>

yopirilgan balo-yu qazolarga o'zini tutib, mo'g'ullarning dodini bera olgan yagona lashkarboshi hamda davlat rahnamosi sifatida mangulik mulkidan o'rin egallagan. Ulug' bobomizning hurlik va ozodlik yo'lidagi tengsiz jasorati va fidoyiligi, istiqloqlarning xalqimiz hayotidagi ahamiyatining yaqqol namoyonidir. Shu bilan birga, barchamizni bugungi tinch va osoyishta kunlarning qadriga yetishga, yurt taqdiri uchun doimo daxldorlik tuyg'usi bilan yashashga chorlaydi. Bu esa, mening zimmamga katta mas'uliyat yukladi. Men shunday musiqa yaratishni istadimki, u orqali tomoshabinlar har bir qahramonning kechinmalarini boricha anglasin, o'zini go'yoki voqealar ichida his etsin, bosh qahramonning jasorati-yu mardligini yorqin ifodalasin, deya urindim.

*“...avval opera yoki musiqali drama yaratgan kompozitorlar sahna asarda ishtirok etuvchi qahramonlarning musiqiy obraziga jiddiy ahamiyat bermaganliklari va bergan holda ham ularning ruhiy his-tuyg'ulariga aloqador bo'lmagan musiqalar yaratganliklari sababli ular tarixda chuqur iz qoldira olmadilar”<sup>2</sup>.* Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, spektakllarga musiqa bastalash juda mas'uliyatli vazifa.

Aslida, kompozitor spektakllar uchun musiqa bastalar ekan, bu jarayonni shartli ravishda bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin. Eng avvalo, spektakl ssenariysi bilan tanishish, so'ng, rejissyor bilan pyesaning g'oyasi, syujet, obrazlarning xarakteri haqida ma'lum bir to'xtamga kelish kerak. Kompozitor tayyorgarliklar jarayonida bevosita ishtirok etishi ham muhim bosqich sanaladi. Ish jarayonida kompozitorning musiqa bilan bog'liq ishlari esa quyidagilarni tashkil qiladi:

- *rejissyorning musiqiy bezaklar borasidagi rejalarini bilan tanishish;*
- *pyesada musiqa kiritiladigan qismlarini aniqlash;*
- *bu qismlarning xronometrajini belgilash;*
- *musiqiy etyudlar borasida ish olib borish;*
- *ohanglarni, ritmni aniqlash;*
- *leytmotivlarni topish;*
- *rejissyorga musiqa klavirini topshirish;*
- *repititsiya jarayonida yaratilgan musiqalarni pyesa matni tarkibiga kiritish;*
- *musiqani orkestrlashtirish;*
- *xarakterli temblarni tanlash;*
- *musiqiy partituraning yaratish.*

Bularning bari amalga oshirilgandan keyingina musiqa va asarning birlashuvini sahnada ko'rish mumkin bo'ladi. Kompozitor mana shunday murakkab jarayonni boshdan kechirmaganicha, tanlangan asar uchun mos musiqani yarata olmaydi. Sanab o'tilgan bosqichlarning har biri shunchaki ish jarayoni emas, balki kompozitor uchun kuchli ruhiy va jismoniy kechinmalar davri bo'lmog'i lozim. Ana shundagina spektakl ijrochilari ham, tomoshabinlar ham asardan to'la zavq ola biladilar.

<sup>2</sup> <https://litfest.ru/teoria/drama.html>

<sup>3</sup> Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. – B.21.

2021-yilda O'zbek Milliy Akademik drama teatrida tomoshabinlar e'tiboriga havola etilgan **“O'zgaralar dardi”** jiddiy komediyasi ham iliq qarshi olindi. Bundan tashqari shu yil **“Urush odamlari”** dramasi ham namoyish etilgan edi. 2022-yilda esa yana bir tarixiy drama **“Adolat fasli”** (“Amir Temur”) spektakli taqdim etildi. Namangan viloyat musiqali drama teatri bilan hamkorlikda yaratilgan **“Usmon Nosir”** spektaklini (tarixiy drama) ham tomoshabinlar e'tiboriga havola qildik. Albatta, dramatik spektakllar turli janrdagi bo'lsa-da, ularning har biriga alohida yo'nalishda yondashish, janrga mos ravishda musiqa bastalash talab etiladi. Yuqorida sanab o'tilgan spektakllarning barchasi bir-biriga o'xshamagan xarakterdagi, turli janrlarga mansub spektakllar sanaladi. Tarixiy drama, jiddiy komediya kabi janrlarga musiqa bastalar ekanman, amin bo'ldimki, bu yo'nalishda ijod qiluvchi kompozitordan juda katta mahorat va bilim talab etiladi. Chunki tarixiy drama janridagi spektakllarga musiqa bastalash jarayonida juda ko'p ilmiy va tarixiy manbalarga murojaat etish, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish, tarixshunos, musiqashunos mutaxassislar bilan suhbatlar olib borishimga to'g'ri keldi. Ana shu jarayondan olgan ma'lumotlarim asosidagina tarixiy spektakllarning musiqasini bastalashga jazm qilganman.

*Komediya (yunoncha – komos-ode “quvnoq qo'shiq”) adabiy dramatik asar bo'lib, unda personajlar, vaziyatlar va harakatlar hazil va satira yordamida kulgili tarzda taqdim etiladi. Shu bilan birga, personajlar qayg'uli bo'lishi ham mumkin<sup>3</sup>.* Biroq jiddiy komediya, maishiy dramada yozilgan spektakllarga musiqa bastalash esa butunlay boshqa jarayon va o'zgacha ishtiyok talab etadi. Umuman olganda, dramatik teatr kompozitori uzluksiz izlanish va o'rganish bilan o'z ijodini bog'lashi zarur. Aks holda, kutilgan natijaga erishish mushkul.

Eng e'tiborli jihati shundaki, dramatik spektakllarga musiqa bastalash bilan opera yoki balet asarlariga musiqa bastalash bir-biridan tubdan farq qiladi. Har birida sahnalashtirilgan asarlar uchun musiqa o'zining alohida funksiyasiga ega bo'ladi. Masalan, opera uchun bastalangan musiqalar, balet uchun yoziladigan musiqalardan tubdan farq qiladi, shu jumladan, musiqiy drama yoki myuzikl uchun yozilgan musiqa dramatik spektakl uchun yaratilgan musiqalarga o'xshamagani kabi. Aslida, dramatik teatr spektakllari uchun yozilgan musiqalar mavzuni ochib berishda juda katta o'rni borligiga ko'pchilik, hattoki, teatr mutaxassislari ham yetarlicha e'tibor berishmaydi. Spektaklda sahnalashtiruvchi rejissyor mahorati, sahnalashtiruvchi rassom dekoratsiyasiga va liboslarga baho beriladi-yu, asarning muvaffaqiyatli chiqishida kompozitor mehnatining ta'sirini, yutug'i yoki kamchiliklarini juda kam hollarda tahlil qiladilar.

Tasavvur qiling, opera spektakli yaratib bo'lingan musiqaga asoslangan holda quriladi va operada kuylovchi xonanda musiqani eshitgan holda kuylashi talab etiladi. Xuddi shunday, baletda ham musiqani avval eshitib, shunga mos raqs harakatlari amalga oshiriladi. Ammo dramatik spektakllarda esa buning

mutlaqo aksi, ya'ni aktyor musiqani emas, balki musiqa aktyor ijrosini to'ldirgan holda, unga xalaqit bermay yangrashi talab etiladi. Ba'zan aktyorlar rol ijrosi vaqtida improvizatsiya yoki boshqa holat tufayli ijro sur'atini oshirishlari yoki pasaytirishlari mumkin. Kompozitorning vazifasi esa, aktyor ijrosining har qanday tezligida ham uning yaratgan musiqasiga mos kelishi shart. Bu vazifa kompozitor uchun oson emas, albatta. Vaziyat professionallikni, oldindan ko'ra olish qobiliyatini, shu bilan birga yuksak ijodkorlikni talab etadi.

Misol tariqasida, "**Jaloliddin Manguberdi**" spektaklidagi muqaddimani keltirib o'tamiz. Bu yerda Jaloliddin Manguberdining bobosi nevarasining tug'ilgani haqida elga xabar beradi. Ayni paytda ijro etiladigan monolog vaqtida yangraydigan musiqa, tantanali ruhda bo'lishi kerak. Shu bilan birga aktyorning nutqiga ham xalaqit qilmasligi kerak. Ya'ni aktyor ovozi bariton yoki bass bo'lsa, yangrayotgan musiqa diapazon jihatdan balandroq olinishi kerak bo'ladi. Yoki shunga o'xshash vaziyatda ayol kishi rol ijro etayotgan bo'lsa, musiqani pastki registrdan olish lozim bo'ladi. Ya'ni bu yerda aktyorning ovozi va musiqa diapazoni bir-birini to'ldirishi kerak. Bunga o'xshash ko'z ilg'amaydigan, nozik jihatlar aslida muhim sanaladi.

**Musiqali teatr aktyorining drama aktyoridan farqi nimada?** Dramatik aktyor spektaklning temporitmini boshqaradi. Uni his qilgan aktyor shunga asoslanib, o'z obrazini yaratadi. Dramatik aktyorda so'z san'ati muhim ahamiyatga ega. Musiqali teatrdagi musiqa spektaklga jon bag'ishlaydi. Musiqa bilan boyitilgan asarning voqealari kuy va qo'shiqlar orqali bir-biri bilan bog'lanadi. So'zdan asar dunyoga keladi, so'zdan qo'shiq yaraladi. Sahnadagi qahramonning ichki iztirobi kuchayib, quvonch yoki hasrat cheksiz bo'lganda, so'z bilan ifodalab bo'lmas holat qo'shiq va kuy orqali tomoshabinga yetkazib beriladi<sup>4</sup>.

Men ayni vaqtga qadar bir nechta dramatik spektakllar uchun musiqalar yaratgan bo'lsam, shuni angladimki, bu asarlarni tomoshabinga yetqazib berish uchun, sahnaga mukammal asar tarzida olib chiqish uchun musiqa nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Buni hattoki, asar qahramonlari rolini ijro etayotgan aktyor va aktrissalar ham tasdiqlashmoqda. Birgina O'zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirovaning ta'kidlashicha: "*Musiqa – rol ijrosi vaqtida naqadar qo'llab-quvvatlaganini, qahramonning tuyg'ularini ifodalab berish uchun juda katta yordam berganini alohida e'tirof etish kerak*"<sup>5</sup>.

Aslida bu holatni tomoshabin payqamasligi, umuman e'tibor bermasligi mumkin. Chunki spektakl namoyishi davomida musiqa na aktyorga, na tomoshabinga umuman xalaqit bermasligi kerak. Aksincha, musiqa spektaklga shu darajada qorishib, uyg'unlashib ketishi kerakki, bir butunlik hosil bo'lsin. Ya'ni musiqa alohida, spektakl alohida ajralib qolmay, musiqa spektaklning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qilmog'i kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dramatik teatr musiqasi primitiv (oddiy) musiqalar emas, uning tuzilishi ham oddiy jarayonlardan iborat bo'lmay, balki uning ortida katta mashaqqatli mehnat yotadi, maqsad mukammal musiqani namoyish etish kabi g'oyalar yashiringan. Aslida, bu soha juda katta ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Bugungi kunda yosh tadqiqotchilar, olimlar dramatik spektakllar uchun yoziladigan musiqalarning tahlili, kompozitorlik ishlari, o'ziga xos murakkabliklari, yutuqlar, kamchiliklar, yo'nalishning tarixi va shunga o'xshash boshqa ko'plab masalalar yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borishlari maqsadga muvofiq. Chunki bu yo'nalishda hali ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilishni talab qiladi, uning hali ochilmagan qirralari bisyor.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. – B.188.

Селитский А.Я., Демина И.К. Основы музыкальной драматургии. [Учебное пособие для педагогов и студентов высших учебных заведений по специальности 070111 «Музыковедение»] М-во культуры Рос. Федерация, Рост. гос. консерватория (акад.) им. С.В. Рахманинова. – Ростов н/Д., 2003. – С.204.

Allanbayev R.O. Musiqali teatr aktyorlarining shakllanishida ovoz ustida ishlashning o'rni. / P.O. Алланбаев. Текст: непосредственный // Молодой учения. // 2019. № 24 (262). – S. 523-525. URL: <https://moluch.ru/archive/262/60161/>

2. Еременко Г. Музыкальный театр Запада в первой половине XX века. Аналитические очерки. Новосибирская государственная консерватория (академия) им. М.И.Глинки. – Новосибирск: 2008. – С.320.

3. <https://www.classic-music.ru/>

4. <https://litfest.ru/teoria/drama.html>.

5. <https://megalektsii.ru/s119881t14.html>.

<sup>4</sup> Allanbayev R.O. Musiqali teatr aktyorlarining shakllanishida ovoz ustida ishlashning o'rni. / R.O. Алланбаев. Текст: непосредственный // Молодой учения. // 2019. № 24 (262). – С.523–525. URL: <https://moluch.ru/archive/262/60161/>

<sup>5</sup> Gavhar Zokirovaning asarga yozilgan musiqa haqidagi fikrlari. Qoraqalpog'iston MTRKning 2022-yil, 16-iyun kuninamoyish etilgan "Uchrashuv" ko'rsatuvidan.



## MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDA MADANIYAT MARKAZLARINING O'RNI

**Annotatsiya.** Maqolada, Yangi O'zbekistonda milliy o'zlikni anglashda madaniyat markazlarining o'rni va roli haqida yozilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi 826 ta madaniyat markazlarining faoliyati yoritilgan. Ularda milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq – til, milliylik, urf-odat, qadriyat bilan bog'liq to'garaklar, tadbirlar, badiiy jamoalar tahlil qilingan. Ular orqali milliy o'zlikni anglash ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** milliy o'zlik, madaniyat markazlari, til, qadriyat, urf-odat, to'garak, tadbirlar.

## ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ РАСПОЛОЖЕНИЕ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ

**Аннотация.** В статье описывается место и роль культурных центров в реализации национального самосознания Нового Узбекистана. В частности, приводится деятельность 826 домов культуры при Министерстве культуры и туризма Республики Узбекистан. В них были проанализированы кружки, события и художественные группы, связанные языком, национальностью, традицией и ценностью. Через них проявляется реализация национального самосознания как духовного феномена.

**Ключевые слова:** национальная идентичность, культурные центры, язык, ценность, традиция, круг, события.

## UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY LOCATION OF CULTURAL CENTERS

**Abstract.** The article describes the place and role of cultural centers in the realization of national identity in New Uzbekistan. In particular, the activity of 826 cultural centers under the Ministry of Culture and tourism of the Republic of Uzbekistan is given. In them, circles, events, and art groups related to English, language, nationality, tradition, and value were analyzed. Through them, the realization of national identity is manifested as a spiritual phenomenon.

**Key words:** national identity, cultural centers, language, value, tradition, circle, events.

Milliy o'zlikning shakllanishi, avvalo, millat hayotiy faoliyatining maqsad va marralarini belgilaydi. Uning o'z g'oyalari, mafkurasi, nazariy tilda aytganda, o'z konsepsiyasining shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. M.I.Belyayevning fikriga ko'ra, "Butun insoniyat yaxlit organizmida har bir millatning o'z o'rnini belgilaydigan g'oyasi bo'lishi kerak va millatning g'oyasi davlat quruvchanlikdadir"[4.C.58]. Davlatning madaniyat sohasidagi siyosati bevosita shu omil bilan bog'liq hisoblanadi. 2017-yil 15-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4956-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashkil etildi [1]. Ushbu Farmonga muvofiq, bu vazirlikning asosiy vazifalaridan biri bu: "Aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish" [1] belgilangan. Shuningdek, ushbu vazirlik tarkibiga Respublikada faoliyat olib borayotgan madaniyat muassasalari, teatrlar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar va boshqalar ham kiritilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi tizimida 826 ta

madaniyat markazlari faoliyat olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qaroriga asosan 2019–2020-yillarda madaniyat markazlari faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi doirasida madaniyat markazlari to'g'risidagi nizom va madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 264-son qarori bilan tasdiqlandi.

Mazkur nizomga asosan madaniyat markazlarining asosiy vazifasi etib quyidagilar belgilangan:

- aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash;
- ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarini o'zida mujassam etgan namunalik dasturlarni shakllantirish;
- xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish;
- turli xil to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Millatni ijtimoiy-tarixiy shakllanishida insonlarning o'zaro til, madaniyat, hudud, din (ma'naviy, ruhiy) yaqinligi orqali ma'lum bir tarixiy sharoitda shakllanadi,

deb qaraladi. Milliy o'zlikni anglash tarkibiga – til, tarixiy o'tmish birligi, kelib chiqishi umumiyliigi, milliy qiziqishlar, etnik stereotiplar va qadriyatlar, ramzlar, an'analar va urf-odatlarining anglanganligi kabilarni kiritish mumkin. Ular orqali milliy o'zlikni anglash ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi [8.B.26].

Milliy g'oya bilan milliy o'zlikni anglashda tarkibiy-funksional bog'liqlik mavjud bo'lib, milliy g'oya milliy o'zlikni anglashda yordam beradi. Ular quyidagilardan iborat: birinchidan, milliy ma'naviy merosga, millatga mansubligini anglash; ikkinchidan, ona tiliga hurmat; uchinchidan, milliy qadriyatlarga ishonch va e'tiqod; to'rtinchidan, tarixiy merosga munosabat; beshinchidan, diniy qadriyatlarga hurmat; oltinchidan, umuminsoniy qadriyatlar milliy o'zlikni anglashning muhim omilidir [7.B.17].

Milliy g'oya jamiyatda mavjud bo'lgan xalqning ona tili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki ona tili milliy g'oya va milliy madaniyatning negizi hisoblanadi. Ona tili orqali har bir xalqning o'ziga xos milliy-ma'naviy xususiyati, o'zligini anglashi namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, ona tili milliy madaniyatning tarkibiy tuzilishida muhim o'ringa ega bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi "Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 264-son qaroriga muvofiq, markazlar vazifalaridan biri sifatida "bolalarni "nutq madaniyati" bo'yicha kurslar tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosini keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish", etib belgilangan [2]. "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" o'zbek adabiy tili va umummilliy til imkoniyatlarini o'rganuvchi va ularning ma'lum sharoit va ko'zlangan maqsadga muvofiq hayotga tatbiqi bilan shug'ullanuvchi kursdir. Biroq hozirgi kunda respublikaning barcha madaniyat markazlarida bu garchi rus tili, ingliz tili va boshqa til kurslari ochilgan bo'lsa-da, "Nutq madaniyati" kursi yetarli darajada tashkil etilmagan. Vaholanki, bu kurs bo'yicha bir necha qo'llanmalar yozilgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" [3.B.36]. Shuning uchun ham ona tilini milliy g'oyaning milliy o'zligini anglashda tuzilmaviy funksional tahlil etish, ularning o'zaro bog'liqligini e'tirof etish lozim. Har qanday millat – ona tilisiz mavjud bo'lmaydi.

Til – millat mavjudligining, yashab faoliyat ko'rsatayotganligining asosi va mezonidir. Har bir millatning tili milliy o'zligini anglashga katta ta'sir ko'rsatib, asrlar mobaynida turli avlodlar o'rtasidagi ma'naviy va ruhiy bog'liqligini ta'minlab kelgan. Til vositasida bir hududda yashovchi insonlar o'zlarining turmush tarzi, an'analari, urf-odat va qadriyatlarini shakllantirib borganlar.

Milliy o'zlikni anglash har bir etnos milliy mentalitetining shakllanib rivojlanishida hamda etnosning rivojlanish jarayonida tarixiy-madaniy

omillar ta'sirini idrok etish, o'zlikni anglab, o'zga etnik guruh vakillari tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analariga hurmat bilan qarashdir. Respublika madaniyat markazlarining yana bir vazifasi sifatida quyidagilar: "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish", berilgan. Madaniyat markazlarida 551 ta xalq havaskorlik ansambllari faoliyat yuritadi. Mazkur xalq havaskorlik ansambllarining har biri yil davomida o'rtacha 10-15 tagacha tomosha dasturlari bilan hududlarda gastrol safarlarida, shuningdek, umumxalq bayramlari va barcha milliy bayramlarda milliy xalq ijodiyoti yo'nalishidagi repertuarlarini aholiga keng namoyish etadi.

2020-yilda Respublikadagi 826 ta madaniyat markazlarida 2,2 mingga yaqin tadbirlar tashkil etildi. Madaniyat markazlarining 502 tasida vokal, estrada, raqs, xalq cholg'ulari, gimnastika, tasviriy va amaliy san'at, badiiy o'qish, qo'g'irchoqbozlik, drama va havaskorlik teatri yo'nalishlari bo'yicha to'garaklarda onlayn darslar tashkil etildi. 2020-yilda aholi, xususan, yoshlarni uyda qolgan holda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida, 4 ta onlayn ko'rik-tanlov va 1 ta onlayn festival tashkil etildi. Jumladan, "Uydagi yulduzlar", "Yoshlarda madaniy hayot", "Umrboqiy navolar", "Dunyo ranglari oq va qora ranglarda" kabi onlayn ko'rik tanlovlar hamda "Kitobga muhabbat va men sevgan qahramon" onlayn festivali tashkil etilib, mazkur tadbirlarga jami 13 ming nafardan ortiq yoshlar jalb etildi hamda 150 nafari munosib taqdirlandi.

Biroq Respublikadagi madaniyat markazlarida tashkil etilgan folklor, havaskorlik to'garaklari va badiiy havaskorlik jamoalarida bir nechta muammolar mavjud. Jumladan, mahalliy hokimliklar tomonidan hududlardagi yoshlarni madaniyat markazlariga bepul jalb etish bo'yicha turli topshiriqlar ko'pligi sababli, madaniyat markazlari rahbarlari tomonidan pullik xizmat ko'rsatuvchi to'garaklarni ko'paytirish evaziga muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda to'garak rahbarlarining ish haqiga, ularni rag'batlantirishga sarflash ishlarini tashkil etish imkoniyati mavjud emas.

Badiiy havaskorlik jamoalarining mazmunan boy repertuarlari bo'lsa-da, xorijiy davlatlarda tashkil etiladigan xalqaro festivallar, konkurslar va havaskorlik san'atiga tegishli bo'lgan turli tadbirlarda moliyaviy mablag'lar ajratilmasligi sababli, havaskorlik jamoalarining xorijiy gastrol safarlarida ishtirok etish ko'rsatkichlari qoniqarsiz ahvolda.

"Milliy qadriyatlar– millat uchun muhim jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar, millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar,

*ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi*" [6.B.71], – degan fikrlardan kelib chiqsak, unda milliy qadriyatlar demokratik, adolatli, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlaydigan ma'naviy poydevordir, deb baholash mumkin.

Xullas, milliy o'zlikni anglash g'oyasi hozirgi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Ilmiy doirada bu tushuncha berilgan ta'riflarni son-sanog'i yo'q. Biroq milliy o'zlikni anglash tushunchaning amaliyotga tatbiqi bevosita respublikada faoliyat olib

borayotgan madaniyat markazlariga bog'liqdir. Shu vaqtga qadar qabul qilingan qonun va qarorlarda bu masalani yoritish asosiy vazifalardan biri sifatida berilgan. Madaniyat markazlarining faoliyatida ham ilmiy, ham mazmunan boyitish jarayoni asta-sekin qo'llanib borilishi lozim. Ayniqsa, millatning o'zligini anglatuvchi o'zbek tiliga oid to'garaklar, tadbirlar ko'proq tashkil etilmog'i lozim. Shuningdek, millat o'tmishi, tarixiy shaxslari, urf-odatleri, qadriyatlari bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish kechiktirib bo'lmas jarayon hisoblanadi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 17-fevral. №35 (6729)-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/>
3. Abdulla Avloniy. Adabiyot yoxud milliy she'rlar, ifodai maxsusa. 1-juz, 1-tab', 1909. – B.89.
4. Беляев М.И. Идеология русского национального государства. – Москва: «Мысль», 2006. – С.258.
5. Qodirova H.B. Milliy o'zlikni anglashning sotsial talqini. – Toshkent: "Navro'z", 2017. – B.114.
6. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: "Sharq", 1998. – B.366.
7. Xo'jamurodov I., Saparov B. Milliy g'oya tizimida o'zlikni anglash tuzilmasi (tuzilmaviy-funksional tahlil). – T.: "Navro'z", 2019. – B.117.
8. Xo'jaxonov I.M. O'zbeklarning milliy o'zligi (tarixiy-madaniy asoslari va shakllanishi). – T.: "Nurafshon business", 2020. – B.120.

<sup>1</sup> Xolmo'minov M., Qolqanatov A. "Inson ma'naviyatining manbai". "Ijodiy parvoz" gazetasi.

## DUTOR – BASTAKORLIK IJODIDA

**Annotatsiya.** *Ma'lumki, dutor ijrochilik san'atida sozanda va bastakor sifatida ijod qilgan ustozlar talaygina. Ularning ijro maktablari va uslublari, yaratgan asarlari kelajak avlod uchun ijod mahsuli sifatida keng targ'ib etilgan. Maqolada, dutor ijrochilik tarixida o'ziga xos talqin uslubiga va mualliflik asarlariga ega bo'lgan Faxriddin Sodiqov, Orif Qosimov, G'ulomjon Qo'chqorov, Mirsodiq Ergashev kabi sozandalarning asarlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *dutor, ijro, uslub, ijod, sozanda, bastakor, an'ana, kuy, ohang.*

## ДУТАР – В ТВОРЧЕСТВО БАСТАКОРОВ

**Аннотация.** *Известно, что в дутарском исполнительском искусстве наставники одновременно вели деятельность в качестве исполнителя и бастакора. Их исполнительские школы и стили, созданные ими произведения широко рекламировались как продукт творчества для будущего поколения. В статье анализируется творчество таких исполнителей, как Фахриддин Садыков, Ориф Касимов, Гулямжон Кучкаров, Мирсодик Эргашев, обладающих уникальным стилем интерпретации и авторскими произведениями в истории исполнительства дутар.*

**Ключевые слова:** *дутар, исполнение, стиль, творчество, музыкант, традиция, мелодия, гармония.*

## DUTOR – IN THE CREATIVITY OF BASTAKORS

**Abstract.** *It is known that in the khutor performing arts, mentors simultaneously conducted activities as a performer and a bastakor. Their performing schools and styles, the works they created were widely advertised as a product of creativity for the future generation. The article analyzes the work of such performers as Fakhriddin Sadykov, Arif Kasimov, Gulomjon Kuchkarov, Mirsodik Ergashev, who have a unique style of interpretation and author's works in the history of dutar performance.*

**Key words:** *dutor, performance, style, creativ, musician, bastakor, tradition, melody.*



Hozirgi kunda ilm-fan taraqqiyotining zamon talablariga mos ravishda xorijiy tajribalarni amaliyotga qo'llanilishi, musiqa san'atining jahon andozalari negizida o'qitilishi, yangi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan o'quv metodlarining qo'llanilishi dutor ijrochiligida yangi tamoyillar yaratilishidagi asosiy poydevorlardan biridir. Zero, musiqa san'atining yetuk namoyandalari tomonidan yaratilgan ijod namunalari nafaqat kasbiy soha mutaxassislar uchun, balki ommabop shaklda targ'ib etish asosiy maqsadlardan biriga aylandi. Endilikda ta'lim jarayonini tinglash uslubi orqali emas, balki nazariy va amaliy faoliyatni o'zaro bog'lagan holda bir vaqtning o'zida olib borishga zamin yaratildi. Bugungi kunga qadar ushbu ijodiy faoliyatni yo'lga qo'yishda, o'zbek bastakorlari va kompozitorlarining o'rni beqiyosdir. Odatda cholg'u ijrochilik san'atining rivojlanish bosqichlariga nafaqat sozandaning o'ziga xos bo'lgan uslubi, balki asar muallifining bastakorlik ijodi bilan ham uzviy bog'liqdir.

Ma'lumki, dutor ijrochilik san'atida sozandalik faoliyatini bastakorlik bilan birgalikda olib borgan ustozlar talaygina. Ularning ijro maktablari va uslublari, yaratgan asarlari kelajak avlod uchun ijod mahsuli sifatida keng targ'ib etilganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Shu boisdan, bugungi kunda ijrochilik tarixida dutorda o'ziga xos talqin uslubiga va mualliflik asarlariga ega Faxriddin Sodiqov, Orif Qosimov, G'ulomjon Qo'chqorov, Mirsodiq Ergashev kabi sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi tahsinga loyiqdir. Jumladan, an'anaviy dutor uchun **"Tebranur"** (Orif Qosimov), **"Mustaqillik nashidasi"** (Mirsodiq Ergashev), alt dutor uchun **"Rez-rez"**,

**"Tabassum"**, **"Dilnoz"** (Orif Qosimov), **"Sevinch"**, **"Dilrabo"** (G'ulomjon Qo'chqorov), **"Ko'ngil guldastasi"**, **"Chaqqon o'yna"**, **"Shahdam, ildam"** (Mirsodiq Ergashev) kabi asarlar yaratildi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Faxriddin Sodiqov chang va dutor ijrochiligida o'ziga xos uslub va maktab bilan tanilgan sozandalardan biridir. F.Sodiqov nafaqat sozanda, balki bir qancha asarlar muallifidir. Uning ijod mahsuli hisoblangan bastakorlik asarlari aynan bizgacha ma'naviy meros sifatida yetib kelmoqda. Ma'lumki, har bir sozandaning yaratgan asarlari avloddan avlodga muayyan qoidalarga asoslangan kuyning tarkibiy tuzilishlari negizida an'analarga aylangan holda yetib keladi. Jumladan, bastakor Faxriddin Sodiqovning ijrosida **"Dutorim"** acapi bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, Orif Qosimov va Mahmud Yunusovlar tomonidan quyidagicha talqin etildi.

F.Sodiqov musiqasi  
Z.I.Mo'minova notaga olgan




Yana bir mohir sozanda Orif Qosimov o'zining betakror ijrosi bilan nafaqat an'anaviy ijro yo'nalishida, balki akademik yo'nalishda ham ijod qilgan sozandalardan biridir. Uning bastakorlik ijodida an'anaviy dutor uchun **"Kuyla dutorim"** **"Talpinur yurak"**, **"Chert dutoring"**, alt dutor uchun **"Tabassum"**,

“Dilnoz”, “Tebranur” kabi bir qator asarlar yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning ijro dasturini yanada boyitishga ulkan hissa qo‘shgan. Jumladan, “Dilnoz” kuyi mi-major tonalligida yozilgan bo‘lib, oddiy 2/4 o‘lchovida, teskari va o‘rama zarbda ijro etiladi.



Orif Qosimovning bastakorlik ijodida nafaqat o‘zbek musiqasi, balki tojik madaniyati ohanglari ham turli kuy va qo‘shiqlar ko‘rinishida aks etadi. Jumladan, Tojikiston xalq shoiri Mirzo Tursunzodaning so‘zi bilan aytiladigan “Rez-rez” qo‘shig‘i dutor uchun “Tojikcha kuy” deb ataldi [2.12]. Ushbu qo‘shiq ilk bora Dovud Mullaqandov tomonidan ijro etilgan. Ushbu asarning 7/8 o‘lchovi doyra usullaridan kelib chiqqan holda maxsus metroritm formulasidir. Bu o‘lchov o‘ziga xos xususiyatga, ya’ni notekis almashinuvlardan iborat. Mazkur o‘lchovni oddiy o‘ng qo‘l bilan ifodalanuvchi pastga va tepaga zarblari yordamida ijro etish mumkin. Aniq va ildamlik bilan tojik musiqasining o‘ziga xos ohanglari aks ettirib boriladi.



Shuningdek, tojik xalq ohanglari negizida “Raqsi dilshod” kuyi yaratilgan bo‘lib, dutor uchun bastalangan. Mazkur kuy 1973-yilda O‘zteleradiokompaniyasining “Oltin fondi”ga sozandaning ijrosida yozib olingan. Asar 6/8 ufor usulida yozilgan.



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, “O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi” dirijyor va o‘z sohasining fidoyi ustozlaridan biri G‘ulomjon Qo‘chqorovdir. U mehnat faoliyatini musiqa maktabi va musiqiy-badiiy havaskorlik jamoalarida olib borgan. Sozandaning ijodiy faoliyatida dutor va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun bastalangan asarlar o‘rin olgan bo‘lib, asosan musiqa va san‘at maktabi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. U yaratgan kuy va qo‘shiqlar muallifning “Shodiyona”, “Dutor sadosi”, “Gulshan”, “Dilrabo”, “Yosh dutorchi” kabi o‘quv-qo‘llanma va darsliklariga kiritilgan. Ayniqsa, bugungi kunda dutor alt uchun yaratilgan “Sevinch”, “Dilrabo”, “Yor xumori” kabi kuylari o‘ziga xos ijro uslubida ko‘plab sozandalar tomonidan ijro etilgan. Jumladan, bastakorning ijrosida “Sevinch” kuyini misol keltirib o‘tishimiz mumkin.



“Sevinch” kuyi oddiy 2/4 o‘lchovida yozilgan bo‘lib, bastakor teskari va o‘rama zarblardan, chap qo‘l bilan ifodalanuvchi mordent va forshlaglardan foydalangan. Bu asar G‘.Qo‘chqorovning “Dilrabo” nomli qo‘llanmasiga ham kiritilgan va fortepiano jo‘rligida dutor alt uchun moslashtirilgan. Lekin, bu kuyning audiyozuvdagi talqini bastakor tomonidan an’anaviy dutorda ijro etilgan. Dinamik belgilar asosida badiiyligini ifodalab bergan.

G‘.Qo‘chqorov muallifligidagi asarlar nafaqat an’anaviy dutorda bir ovozli asar, balki fortepiano jo‘rligida dutor alt uchun ham “Orzu” kuyi bastalangan. Asarning takt o‘lchovi 4/4 bo‘lib, Allegro moderato tempida o‘rtacha tezlikda ijro etiladi [3.B.5].



Shu o'rinda kompozitor va sozanda Mirsodiq Ergashevning dutor uchun yaratgan quyidagi asarini tahlil qilib o'tamiz. Sozanda Mirsodiq Ergashevning qalamiga mansub "Ko'ngil guldastasi" kuyi "sol-minor" tonalligida yozilgan bo'lib, birinchi qism maestoso tempida oddiy 2/4 o'lchovi, ikkinchi qism esa animato tempida 6/8 ufar doyra usulida yozilgan.

"Ko'ngil guldastasi" kuyi kompozitor tomonidan aslida an'anaviy dutor uchun yaratilgan bo'lsa-da, bugungi kunda dutor alt va fortepiano partiyalari ham keng tarqalgan. Asarning ijro uslubini turli xildagi zarblar bilan boyitib, murakkablashtirib borish sozandaning mahoratiga bog'liq. Masalan, I-qismni oddiy va teskari zarblarda yoki ritmo-figuralar bilan ijro yozilgan. [7.B.16.]



Asarning II-qismi ufori usulda yozilgan bo'lib, uning turli ritmik-figuralaridan foydalanish sozandaning ijro mahoratiga bog'liq. Shuningdek, sho'x va jonli xarakterdagi bu qismda musiqiy bezaklardan, ya'ni forshlag, mordent, tovushlarni chimdich va glisandolarni qo'llash tavsiya etilgan.



Dutorning torlari ikkita bo'lsa-da, undagi ijro etiladigan sadolar, o'ziga xos uslublardan va zarblardan iboratdir. Shu boisdan bo'lsa kerak, milliy cholg'u har bir xalqning moddiy va ma'naviy boyligi, deb qaralgan. Dutor cholg'usi asosan xalq kuylari va ashularini ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, yillar davomida sozandalarning bastakorlik ijodi, ijro uslubi va maktablari negizida takomillashgan.

Bugungi kunda musiqa san'atining ijrochilik yo'nalishida har bir cholg'uning o'ziga xos talqin uslublarini o'rganish, ustoz-shogird an'analari davom ettirish va rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yillar davomida kuchayib borayotganligi barchamizga ma'lum. Shu bois, ilmiy nazariyasini va amaliyotini o'rganish, tadqiqotlar olib borish cholg'u ijrochilik san'atidagi eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, o'zbek xalqining eng sevimli qadimiy cholg'ularidan biri dutorning o'ziga xos ijrochilik uslublarini, ustoz-shogird an'analari hamda sozandalik bilan bir qatorda bastakorlik ijodini bir vaqtning o'zida olib borayotgan professional soha mutaxassislarining faoliyatiga qiziqish tobora ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida konsert dasturlarida, festivallarda, respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlari uchun ijro dasturining kengayishiga, mamlakatlararo madaniy hamkorlik aloqalarni yuzaga kelishiga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev M. Ko'ngil guldastasi. – Toshkent. "O'qituvchi", 2005. – B.26.
2. Qosimov O. Dutor taronalari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B.30.
3. Qo'chqorov G'. Dutor sadolari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – B.87.
4. Karomatov Fayzulla. O'zbek xalq musiqa merosi (XX asr). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B.462.
5. Jabborov Ahmad. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. –T.: "Yangi asr avlodi", 2004. – B.470.
6. Rasultoyev J., Hamidov A. Dutor. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, "D" harf. – T.: 1989. – B.441.
7. Rasultoyev J. O'zbek dutor ijrochiligi. – T.: "O'qituvchi", 1997. – B.109.
8. Khamidov A. O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi xrestomatiyasi. – T.: "O'qituvchi", 1978. – B.74.
9. Boltayev R. Dutor maqomlari. – T.: Karrlo MCHJ nashriyoti, 2006. – B.144.
10. Ziyaeva M. Dutor. – T.: Tahrir nashriyot bo'limi, 2008. – B.76.
11. Turgunova N. Cholg'u ijrochiligi (Dutor). – T.: "Namangan", 2020. – B.115.

## TEATRLASHTIRILGAN TADBIRLARDA FOLKLOR JAMOALARINING ISHTIROKI

**Annotatsiya.** Bayramlar eng qadimgi davrdan boshlab, hozirgi kunimizgacha halqning madaniy etnik boyligi, urf-odat va an'analarida namoyon bo'lib kelmoqda. Mazkur maqolada, halq qadriyatlarini jamlangan folklori teatrlashtirilgan milliy bayramlarda yangi shakllarini yaratish, badihago'ylikni rivojlantirish to'g'risida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** teatr, tadbir, xatti-harakat, bayram, marosim, urf-odat, an'ana, folklor, etnografiya.

## УЧАСТИЕ ФОЛЬКЛОРНИХ КОЛЛЕКТИВОВ В ТЕАТРАЛИЗОВАННЫХ МЕРОПРИЯТИЯХ

**Аннотация.** В данной статье говорится о том, что праздники отмечаются как день радости народа с древних времен, и в праздниках находят отражение культурное и этническое богатство, обычаи и традиции народа. Речь идет о создании новых форм фольклора, театрализованных народных праздниках, развитии искусства.

**Ключевые слова:** театр, событие, движение, праздник, обряд, традиция, фольклор, этнография.

## PARTICIPATION OF FOLKLORE GROUPS IN THEATRICAL EVENTS

**Abstract.** This article says that the holidays have been celebrated as a day of joy for the people since ancient times, and the holidays reflect the cultural and ethnic wealth, customs and traditions of the people. We are talking about the creation of new forms of folklore, theatrical folk festivals, the development of art.

**Key words:** theatre, event, movement, holiday, rite, tradition, folklore, ethnography.



Har bir xalqning milliy o'ziga xosligini ko'rsatadigan an'ana va marosim, urf-odat va bayramlari bor. Ular asrlar bo'yi mehnatkash xalqning ijodiy iqtidoriga ko'ra boyib, sayqallanib kelayotgan millatning o'zligini, milliy qiyofasini belgilaydigan badiiy vositalardir. Mustaqillik sharofati bilan milliy bayramlarimizga katta e'tibor qaratilib, xalqimizning unutilayozgan qadriyatlarini qayta tiklandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: "Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim", – degan fikri mavzuning dolzarbligiga asos bo'ladi.

Bayramlar eng qadimgi davrdan boshlab, inson hayotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bayram – xalq hayotining eng go'zal qiyofasini va erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi kuzgudur. "Bayram xalqning shodlik va xursandchilik kuni", – degan edi Sharqning buyuk allomasi Mahmud Qoshg'ariy. Darhaqiqat, hayotimizdagi erishilgan yutuqlar, muhim sanalar oiladagi xursandchilik sifatida tantana va shodiyonalik bilan nishonlanadi. Shuning uchun bayramshunos olim Usmon Qoraboyev xalq bayramlarining uchta asosiy xususiyatini quyidagicha belgilaydi.

1. Bayram holati (bayram kayfiyatining) paydo bo'lishi, bayramga bo'lgan ehtiyojning tug'ilishi.

2. Bayramona holat va kayfiyatning paydo bo'lishi uchun ommani bayram ishtirokchisiga aylantirish zarurati.

3. Bayram bu teatrlashtirilgan namoyishlar, tomoshalar, konsertlar, ko'rik-tanlovlar, bellashuvlar, ya'ni rang-barang ommani bayram birligidir.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida bayramga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bayram (turkiycha – katta yig'in,

to'y) keng nishonlanadigan tantanali kun. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, qaror topishiga ko'ra an'anaviy, diniy, milliy va boshqa bayramlar vujudga keldi. Avloddan-avlodga meros tariqasida o'tib keladiganlari an'anaviy bayramlar, deyiladi. Masalan, Navro'z bayrami. An'anaviy bayramlar biror xalq yoki millatning ayni vaqtdagi ijtimoiy turmushi, hayot kechirish tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Diniy bayramlarda esa har bir monetistik dinning aqidalarida belgilab qo'yilgan marosimlar nishonlanadi".

Tadqiqotchi Ye.V.Sokolov, bayramlarni barcha dam olish shakllari orasida eng afzali deb ko'rsatadi. Chunki bayram tadbirlarida dam olishning eng samarali shakllari mujassamlashadi. Haqiqatdan ham bayramning o'ziga xos xususiyati unda keng ommaning ishtirok etishidir. Bayram ko'pchilik uchun uyushtiriladi. Teatrlar, konsert zallari, televideniye ko'rsatuvlari, radio eshittirishlarida omma faqat tomoshabin yoki tinglovchi rolini bajarsa, bayramlarda odamlar faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Sababi, bayramlarda hamma o'z qobiliyatini namoyish qilishi va bo'lgan voqelarga o'z munosabatini bildirishi mumkin.

Bayramlarning yana bir o'ziga xos xususiyati, ularning bir necha tadbirlar sintezidan tashkil topishidir. Har qanday bayram ko'plab tadbirlar asosida uyushtiriladi. Masalan, bayramning ochilish marosimidan so'ng, bir joyda bayram ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlari, ikkinchi joyda dor o'yini, polvonlarning chiqishlari, uchinchi joyda askiya va qiziqchilar chiqishlari, qo'g'irchoq teatri tomoshalarini, to'rtinchi joyda badiiy havoskorlik jamoalari, folklor-etnografik ansambl konsertlari, beshinchi joyda esa sport musobaqasi kabilar tashkil qilinadi. "Chunki an'analar, marosimlar, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, folklor-etnografiya namoyishlari, xalq o'yinlari bayramlarning asosiy tarkibiy qismi sanaladi".

Bizga ma'lumki, insonlarning hayot tarzi faqatgina jamiyatning ishlab chiqarish qudrati bilan emas, balki har bir xalqning madaniy etnik boyligi, folklor-etnografiyasida

saqlangan urf-odatlarida, ma'naviyatida, o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Teatrlashtirilgan folklor dasturlarida, asrlar davomida insonni shaxs sifatidagi kamoloti, uning orzulari va xalq sifatidagi rivoji asosiy g'oya bo'lib kelgan. Shuning uchun insonlarning mehnat jarayoni, maishiy hayoti va badiiy ijod bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy havaskorligi teatrlashtirilgan shaklda namoyish qilinadi. Bunday tadbir ishtirokchilarning o'z ijodlarini va iqtidorlarini namoyish etishlariga imkoniyat yaratadi. Aynan mana shu o'ziga xoslik, milliy bayramlarda folklor raqamlarini namoyish qilishga yordam berib, ijodiy jamoalarning teatrlashtirilgan tadbirdagi ishtirokini zaruratga aylantiradi. Bunday yondashish xalq an'analari va folkloriga acoslangan holda, bayram kayfiyatini yaratish uchun tadbir o'tkaziladigan joy va vaqtni aniqlash hamda makonni badiiy bezash harakatni boshlashiga da'vat qiladi. Natijada, syujetli teatrlashtirilgan folklor dramaturgiyasi, tomosha dasturi ijodiy jamoani faollashishiga asos bo'ladi.

Barcha millatlar folklorida qadimdan ommaviy ijro shakli mavjud bo'lgan. Masalan, gruzinlar folklor bayramlarida qadimiy xalq an'analari "Kayenoba", "Berikaoba"lar qo'llanilgan. Ukrainlarning qadimiy "Ivan kupala", ruslarning "Maslennitsa" va "Hosil bayrami", dog'istonliklarning "Sukver suvar" nomli gul bayrami, chuvashlarning qadimiy "Akatuy" ("Omoch" bayrami) va folklorning jamoaviy ijro shaklidir. Demak, turli millatlar madaniyatini namoyon qiladigan folklori teatrlashtirilgan shaklda qo'llanilishi, ularni mazmunan va badiiy jihatdan boyitadi. Xalq qadriyatlarini jamlangan folklori teatrlashtirilgan milliy bayramlarda yangi shaklda, jamoa bo'lib ijro qilish an'anasi respublikamizning barcha hududlarida amalga oshirilmoqda. Bunday harakat yangi shakllarni yaratib, eskilarini modernizatsiya qilishga yordam bermoqda. Bu esa, kechagi kun bilan bugungi kunni, an'anaviy bilan yangisini milliy folklorida birlashtirmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, yoshlarga emotsional ta'sir qiluvchi teatrlashtirilgan shakldagi bayramlarda, xalq an'analari va folklorining jamoa bo'lib ijro qilinishi ommaga ma'qul bo'lmoqda. Sababi, folklorida bir tomondan boy poetik musiqiy asos bor bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi ma'no kashf etuvchi, an'anaviy marosim namoyish qilinmoqda. Ularda: O'zbekistonda yashayotgan xalqlarning bir maqsad sari intilishlari, mustaqil davlat qurish maqsadi, o'zaro do'stlikni mustahkamlash, kattalarni hurmat qilish, qahramonlarni ulug'lash, o'tganlar xotirasini yodda saqlash g'oyasi asosiy negizni tashkil etmoqda.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan milliy bayramlarimizda fuqarolrimiz hisoblangan har qaysi millat jamoasi o'z folklor dasturlari bilan ishtirok etmoqda. Ular "Turkiston umumiy uyimiz" g'oyasi ostida birlashib, bu qutlug' mintaqada asrlar davomida ahil yashab kelayotgan o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman, qirg'iz, tojik va boshqalarning bugungi kuni hamda kelajagi ham bir, degan hamjihatlikni ifodalashga harakat qilmoqda. Bunday tadbirlarda, har bir millatga xos kuy va qo'shiqlar, qiz va yigitlarning o'ziga xos raqslari, doyralarning sadosi ostida barcha guruh solistlarining qo'l ushlab, aylanalar hosil qilib raqsga tushishi ahillik g'oyasini namoyish etadi. Lekin

o'tkazilayotgan bayram tomoshalarida, folklor dasturlarini sahnalashtirayotgan rejissorlar qaytariqlarga, bir xillikka shtamp kabi badiiy xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. Natijada, har bayramda beshta-oltita folklor-etnografik jamoalar qatnashmoqda. Vaholanki, vatanimizning har bir hududida o'ziga xos repertuarga ega bo'lgan folklor-etnografik jamoalar faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, folklor jamoalar dasturlarining mazmuni, nomerning g'oyaviy dolzarbligi hamda tomoshaviyligi hisobga olinmayapti. Shuningdek, folklor dasturlar ijrosi jarayonida tomoshabin bilan jamoa ishtirokchilari o'rtasidagi chegara mavjudligidir. Folklor ijrosi azaldan tomoshabinlarni faollashtirish jarayoniga qurilgan. Bunga sabab, xalq an'analari jamlangan ijroga so'z, musiqa va raqs sintezi asos bo'lgan. Folklorga e'tiborsizlik, xalqning asrlar davomida shakllangan tomoshaviy-o'yin an'analari, syujetli xatti-harakatli ramziy ifodalarni, uning ishtirokchilaridagi ko'p ma'noli talqinlarni anglamaslik natijasidir. Bunga ssenariy muallifi va rejissorlarning xalq ijodiyoti asoslarini chuqur bimasliklari sabab bo'lmoqda. Natijada, folklor jamoalari materiallarini saralashda qaytariqlarga yo'l qo'yilayotganini alohida ta'kidlash joizdir.

Folklor-etnografik jamoalarining, teatrlashtirilgan bayram tomoshalaridagi ishtiroki tahlili shuni ko'rsatdiki, ijrochilar doim tomoshabinlardan ajratilib, tadbir ssenariysi asosida harakatlanadi. Natijada, folklor ijrochilari nomer ommaga qanday ta'sir etayotganini his qilmaydi. Demak, teatrlashtirilgan tadbirlardagi folklor jamoalari ishtirokida quyidagi ta'sirchan vositalarni inobatga olish lozim.

1. *Teatrlashtirilgan folklor ijrosida, mintaqaviy libos va o'ziga xos mimika va plastika ma'lum belgi sistemasiga aylanib, amaliy real hamda shartli ideal ko'rinishlarga bo'linishi inobatga olinmogi zarur.*

2. *Folklor ijrosida xor bo'lib qo'shiq aytish va unga mos raqsga tushishda badihago'ylik an'anaviyligi bilan xalq orasida yuksak baholangan. Demak, ijrochilarning badihago'yiligi asosiy e'tiborda bo'lishi zarurdir.*

3. *Teatrlashtirilgan tadbirlarda ishtirok etgan folklor jamoalari ijrosidagi nomerlarda badihaga qurilgan bellashuv, hazil ko'rinishida namoyish etilishi asosiy talabga aylanishi zarur.*

4. *Teatrlashtirilgan bayram-marosimlarda folklor jamoalari ishtiroki an'anaga aylantirilishi maqsadga muvofiqdir.*

5. *Folklor jamoalari ijodini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun maxsus festival va tanlovlar o'tkazish zarur.*

Xulosa shuki, o'z bayramlarini nishonlaydigan jamiyatning badiiy-estetik talablarini, xalqning hayotga bo'lgan qiziqishlarini, tomoshabinlarning ruhiy ehtiyojlarini qondirishda tarixiy voqealarni, milliy urf-odatlarini o'zida jamlagan folklorlar ijrosi ta'sirchan badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki xalq an'analari va folklori bayram muhitini vujudga keltirishda, teatrlashtirilgan tomoshalar orqali mavzuga oid obrazli shaklni namoyish etadi. Folklor va uning ta'sirchan vositalarining namoyishi tomoshabinlar faolligini oshirib, ishtirokchilarning badiiy qudratini namoyon qilib, teatrlashtirilgan tadbirning o'tkaziladigan joyini maqsadga muvofiq bezashga va estetik tamoyillarini kuchaytirishga asos bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-4947-son.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk (1tom). – Toshkent: "Fan", 1963. –B.447.
3. Qoraboyev U.X. O'zbekiston bayramlari. – T.: "Sharq", 1991. – B.49.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (1 tom). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000. – B.584.
5. Соколов Э.В. Свободное время и культура досуга. – Ленинград: 1977. – С.84-85.





# VII BO' LIM E'TIROF

Go'zal XALIKULOVA,

O'zDSMI professori v.b., san'atshunoslik fanlari nomzodi

## SO'Z QUDRATINI CHUQUR ANGLASH – ZAMON TALABI

*O'zbek millatning ma'naviy merosini, tilini, adabiyotini nihoyatda qadrlab, ko'z qorachig'iday asrashga harakat qilgan zabardast adib G'afur G'ulomning 120 yilligiga bag'ishlanadi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni va unda kuylangan so'zning ulug'ligi, tilning imkoniyatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, aruz vaznining masnaviy janri va uning asl mantig'ini Navoiy asarlari misolida tahlil qilib bergan ulug' adib G'afur G'ulomning "Xamsa" bo'yicha olib borgan tahlillari qalamga olinadi. Yoshlarga o'zbek adabiy tilining boyligi va qudratini chuqur anglash, so'zlashda milliy tilning qonun-qoidalariga amal qilish masalalari bo'yicha fikrlar bo'lajak aktyorlarga targ'ib qilinadi. Ayniqsa, teatr san'ati ixlosmandlariga ko'rsatmalar berish yo'lida xulosa va takliflar keltiriladi.

**Kalit so'zlar.** Alisher Navoiy, Xamsa, doston, aruz, adabiy til, sahna nutqi, aktyor, adib, teatr san'ati.

## ГЛУБОКОЕ ПОНИМАНИЕ СИЛЫ СЛОВА – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

*Посвящается 120-летию неповторимого поэта Гафура Гуляма, который невероятно ценил и стремился оберегать свой язык, духовное наследие узбекского народа и его литературу, как глазное око.*

**Аннотация.** В этой статье рассматривается эпос "Фархад и Ширин" султана словесного сословия Алишера Навои и величие поющего в нем слова, возможности языка. За основу взят анализ "Хамсы" великого мудреца Гафура Гулама, который проанализировал маснавский жанр аруза и его оригинальную логику на примере произведений Навои. Молодежь призывают к глубокому пониманию богатства и мощи узбекского литературного языка, соблюдению законов и правил национального языка в устной речи. Особенно на пути к обучению любителей театрального искусства будут сделаны выводы и предложения.

**Ключевые слова.** Алишер Навои, Хамса, эпос, аруз, литературный язык, сценическая речь, писатель, театральное искусство.

## A DEEP UNDERSTANDING OF THE POWER OF THE WORD IS A REQUIREMENT OF TIME

*Dedicated to the 120th anniversary of the unique poet, Gafur Gulyam, who incredibly valued and sought to protect his language, the spiritual heritage of the Uzbek people and their literature as an eye.*

**Abstract.** This article reflects on the epic "Farhad and Shirin" of the Sultan of the word estate, Alisher Nawoi, and the glory of the word sung in it, the possibilities of the language. The analysis of the Masnavi genre of aruz weight and its original logic on the "khamsa" of the great Adib Ghafur Ghulam, who analyzed it on the example of Navoi's works, is taken into account. Young people are encouraged in matters of deep understanding of the wealth, power of the Uzbek literary language, the observance of the law and regulations of the national language in speech. Conclusions and suggestions are made, especially on the way to giving instructions to lovers of theatrical art.

**Key words.** Alisher Navoi, Khamsa, doston, aruz, literary language, Adib, theater arts.

**Kirish.** Mamlakatimizda o'zbek adabiy tili salohiyatini yuksak cho'qqilarga olib chiqqan adiblarni xotirlash, ularning hayoti va ijodini chuqur o'rganish, qoldirgan ilmiy va ijodiy merosini yoshlar orasida keng targ'ib qilishda tashabbuskorlik bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning, "Navoiyni anglamoq o'zlikni anglamoqdir", degan da'vatlari bugun har bir ta'lim sohasidagi professor-o'qituvchilarga, talaba yoshlarga Navoiyni chuqur o'rganishga, anglashga undamoqda.

Toshkentdagi Alisher Navoiy bog'ida tashkil etilgan "Adiblar hiyoboni" xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun tom ma'noda adabiyot, ma'naviyat va tarbiya maskaniga aylanib bormoqda. Ushbu majmuadan samarali foydalanish, yigirma to'rtta yirik adiblarning xotirasiga o'rnatilgan haykallar poyida oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarning tashkil etilishi har bir adib ijodini chuqur o'rganishdagi tashabbuslar natijasidir.

Mamlakatimiz Prezidentining 2020-yil 20-may kuni ushbu Adiblar hiyobonida o'tkazgan majlis bayonida

belgilanganidek, adiblar ijodini chuqur o'rganish, ularning hayoti va ijodiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, asarlar to'plamlari, ilmiy-ommabop kitoblarni chop etish, talaba yoshlar va o'quvchilar uchun mahorat darslarini o'tkazish, bu saboqlarni ommaviy axborot vositalari, telekanallar orqali yoritish kundun-kunga takomillashib borayotganini guvohi bo'lib turibmiz. O'z adiblarini e'zozlab, avlodlar kelajagi uchun barpo etilgan bunday hiyobon dunyoda yagona desak, mubolag'a bo'lmas.

Bugun o'lkamizga bahor kirib kelishi bilan Adiblar hiyoboni har kungidan ham gavjum. Hiyobondagi adiblarning haykallari yonida adabiy uchrashuvlar, she'rxonlik kechalari davom etmoqda. Yoshlarimiz jo'shib adiblar xotirasini yod etmoqdalar. Televideniye kameralari va jurnalist tutgan mikrafonlar oldida ajdodlarimizning adabiy merosidan zavqlanib, jo'shib o'z fikrlarini erkin bayon qilayotgan bu yoshlarni ko'rib zavqlanadi kishi. Hiyobonda farzandlarini yetaklagan ota-onalar, nabiralari bilan sayr qilib yurgan bobo va buvilar, ta'lim muassasalari bitiruvchilari, o'quvchi yoshlar madaniy hordiq chiqarish bilan birga adiblarning Ona Vatan uchun qoldirgan ijodiy meroslarini xayollaridan o'tkazadilar.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga garchi O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodini abadiylashtirish vazifasi yuklatilgan bo'lsa-da, institut talabalari har bir adibning hayoti va ijodi, ularning jamiyatdagi o'rni haqida mukammal bilimlarga ega bo'lish istagida yod olgan she'rlari-yu, qasidalarini qaysi shoir va yozuvchiga tegishli bo'lsa o'sha joyda zavqlanib ijod qilayotganidan g'ururlanasiz. So'z qudratini chuqur anglashga o'rgatish yo'lidagi sa'y-harakatlaringiz zoye ketmayotganidan xursand bo'lasiz.

Bu yil ham Alisher Navoiyning 582 yilligi munosabati bilan hiyobonga tashrif buyurgan san'at, madaniyat va adabiyot ahli so'z mulkining sultoni haykali poyiga gullar qo'yib, uning ijod namunalaridan she'rlar, qasidalar, "Xamsa" dostonlaridan parchalar o'qildi. Bunda albatta aktyorlik yo'shalishi talabalarining "Sahna nutqi" fanidan o'rgangan g'azal, ruboiy qatorida "Farhod va Shirin" dostonidan masnaviyarni ijro etildi. Bunda o'zbek adabiyotining zabardast adibi G'afur G'ulomning buyuk narsiy bayonidan, tahlillaridan foydalanildi. Radio va televideniye, gazeta va jurnallarda, ijtimoiy tarmoqlarida Navoiyning ijodi orqali o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Bunday holatga guvoh bo'lar ekansiz, yoshlar yuragidagi hayajonni, aktyor bo'laman, deya intilayotgan yuz-ko'zlaridagi quvonchni ko'rib, Prezidentimiz g'oyalari nihoyatda muhim, dolzarb va to'g'ri bo'lganiga yana bir bor amin bo'lasiz. Albatta, bunday ijodiy natijalar zaminida olimlarimizning, pedagoglarimizning tinimsiz mehnati va izlanishlari, yangi metodik yondashuvlari yotadi.

Asosiy qism. G'afur G'ulom – Alisher Navoiyning tilini mahorat bilan o'quvchilarga tushunarli bayon qilgani, yozuvchi, shoirning o'zbek tili rivojiga katta hissa qo'shgan haqida juda ko'p ma'lumotlar, ilmiy tadqiqotlar mavjud.

G'ulom 37 yoshida Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini shoirning 440 yillik yubileyi munosabati bilan nashrga tayyorlashda zabardast adib sifatida ulkan ishini amalga oshirgan. Birinchidan, "Farhod



va Shirin" dostonini nashrga tayyorlangan barcha nusxalarini qunt bilan o'rganib, baytlarning ketma-ketligini sinchkovlik bilan tekshirib chiqib, O'zbekiston davlat xalq kutubxonasida saqlanayotgan dostonning har bir nusxalarini bir-biri bilan solishtirib, oldingi nusxalarda kamchiliklar borligini aniqlagan.

Shoirning yozishicha, 1901-yilda "Farhod va Shirin" dostoni Toshkentda O.A.Porsev matbaasida bosilgan bo'lib, uni Shohmurod ismli kotib bosmaga tayyorlab yozgan. G'ulom dostonni nashrga tayyorlashda mana shu nusxani asos qilib oladi. Sababi ushbu kotib tomonidan yozilgan nusxada kamida yigirmalab qo'lyozmalardan foydalanilgan. G'ulom undan tashqari to'rtta qo'lyozmani ham topgan va ularga baho bergan [1.B.23].

"Birinchisi Xorazmning Toshqal'a shahrida 1252 hijriy yilida (milodiy 1847-yilga to'g'ri keladi) Said Mahmud Muhammad Turdi o'g'li tomonidan ko'chirilgan nusxa bo'lib, bu nusxa juda ham e'tibor bilan mumkin qadar xatosiz ko'chirilgan. Bu qo'limdagi nusxalarning eng yaxshisi hisoblanadi. Pishiqlik bilan ko'chirilgan, ziynatsiz, sodda", – deb yozadi adib. "Ikkinchisi, Qo'qonda 1282 hijrida Muhammad Amin xo'ja Said Qalandar o'g'li tomonidan ko'chirilgan nusxa. Bu nusxani ko'chirgan kotib ham o'z ishiga ancha mas'uliyat bilan qaragan. Birinchi va ikkinchi nusxalar bilan solishtirganda "Farhod va Shirin" dostoni bo'yicha tafovuti 12-13 baytdan oshmaydi. Kotib dostonni ko'chirar ekan, anglamagan satrlarini qoldirib ketgan. Uchinchisi Buxoroda 1191-yilda Hoji Ahror o'g'li tomonidan ko'chirilgan nusxa. Xati yaxshi, lavhalari ham bor, biroq chala, e'tiborsizlik bilan to'lgan satrlar ko'p. To'rtinchisi Toshkentda 1902-yilda Abdumannof qori tomonidan bostirilgan nusxa. Bu 1901-yilda bosilgan nusxaning kopiyasi bo'lgani holda, ko'p xatolarga yo'l qo'yilgan [2.B.23].

G'ulom ishga kirishar ekan, mavjud kamchiliklarni bartaraf etadi, to'ldiradi, ko'chirish davomida keng o'quvchilar ommasiga so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning tilini, shuningdek, dostonning tilini yaxshi anglashlari uchun har bir baytning to'g'risiga hozirgi

o'zbek adabiy tilida nasriy bayon yozib, tahlillar bilan chiroyli ifodalab beradi.

Navoiy har bir doston boshida so'zning qudrati, uning serjilo ma'nolariga tasannolar o'qiydi, uni gavhar-u javohirlarga tenglashtiradi, dengiz to'lqinlarining naqshli tomchilari-yu uning ostidagi durlarga mengzatadi. Undan ham qoniqmay, inson ruhining javharlariga, aytib sovimaydigan qo'shiqqa tenglashtiradi. "Farhod va Shirin"da ham so'z qudratini, har bir harf qimmatini yuksaklikka ko'taradi.

Masalan:

**227. Qalamkim rahnavardi tez takdur,  
Azaldin manzili favqul falakdur.**

Adib G'afur G'ulom ushbu baytni shunday bayon qiladi: "O'z yo'lini ranglarga, poloslarga to'shab chopquchi qalam qadamining o'rni ilgaridan ko'kning ustida bo'lgandir".

**Magar vahm adhamidur tez raftor,  
Ne adham jardai shabdez raftor.**

"U, go'yo qo'rquvning yo'rg'a qora oti va balki Xisrav Parvezning chopqir qora otidir".

**Chiqib ustiga barmoq shahsuvari,  
Bo'g'in belbog'iyu tirnoq uzori.**

"Ustiga barmoqlar chavandozi minadir, barmoq bo'g'inlari belbog'i, tironoq esa uning yuzidir" [3.B.26].

Mana shu uchta bayt tahlilining o'zida aktyorni doston o'qishga o'rgatib olish mumkin. Hozirgi kun yoshlari mumtoz adabiyotimizdan yiroq, badiiy tafakkuri sayoz, deyaverish bilan ish bitmaydi. Ularga doston o'qish uchun ilmiy yondashuv bilan ko'ngliga she'riy satrlarga muhabbat uyg'otmoq zarur.

**270. Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.**

"Bu maydonda turmoq va Nizomiy panjasiga panja urmoq oson emasdir".

**Tutaykim qildi o'z changini ranja,  
Nekim urdi aning changiga panja.**

"Har kim uning changaliga panja ursa, u o'zining changalini mayib qilgan bo'ldi".

**Kerak she'r olida ham sheri janggi,  
Agar sher o'lmasa, bori palanggi.**

"Sherga ro'baro' bo'lmoq uchun urush sheri bo'lmoq kerak va hech bo'lmasa arslon bo'lishi kerak".

**Yo'q ersa jam' bo'lsa borsdek yuz,  
Alardin hosili yo'q g'ayr tuf yuz.**

"Bo'lmasa yo'lbarlardan yuztasi yiqilsa, ulardan foyda yo'q, ularning yuziga tupurish kerak" [4. B.32].

Bu shoh baytlar bilan, uning nasriy bayoni bilan har qanday aktyorning ruhiyatiga ta'sir qilish mumkin. So'zga bo'lgan muhabbatini oshirish, tilga bo'lgan e'tiqodini kuchaytirish mumkin. Sahna nutqi o'qituvchisi bu borada tarbiyalayotgan aktyorini ham sevishi, uni avaylashi juda muhim masala. Uning nutqiy kamchiligini faqatgina texnik mashqlar bilan emas, balki so'zning tub ma'nosini ochish sirlarini mana shu baytlarni ijro qilish orqali tushuntirish zarur. Hozirgi til bilan aytganda, kompleks tarzda ishlamoq kerak.

Ishlash usuli va metodikasi. Badiiy asar namunalari aktyorlik kasbini o'rganayotgan talabalar ijrosi orqali o'quvchi qalbiga tezroq olib kiradigan yana bir janr bor. U ham bo'lsa badiiy o'qish san'atidir. Aruz vaznida badiiy o'qish ko'nikmasi aktyorlik yo'nalishlarida asosan ikkinchi kursda o'rgatiladi. Talaba avval aruz vaznida

yozilgan to'rtlik, hikmatli so'zlar, aforizm, ruboiylarni, uchinchi kursda esa haqiqiy masnaviy va g'azallarni o'qiy olishi kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, talabani dostonlardan parcha o'qishi, uni yod olishi o'ta dolzarb masala.

Bugun sahna nutqi o'qituvchisining aktyorlar bilan ishlashdagi eng katta kuchi badiiy o'qishga bo'lgan muhabbatini uyg'otish uchun sarflanmoqda. Nega? Axir aktyor bo'lish istagida institutga qadam bosgan yoshga nega buncha asab, kuch ketishi kerak? Nega bunchalar ularning tafakkuri to'porilashib, sayozlashib qolgan? Nega kitobdagi matnlarni tutilmasdan o'qiy olmaydi? Nega tili no'noq? Nega talaffuzi chatoq? Nega, nega? Savollarning keti to'xtamaydi. Nima bo'lganda ham milliy kadr tayyorlash o'qituvchining gardanida, aktyor bo'laman degan talabaga o'rgatish kerak, tajribasini, qancha tajribasi bo'lsa ishga solish kerak, fikrlashga, tafakkur qilishga majburlash kerak.

Men 2017-yilining kuzida Mirzo Tursunzoda nomidagi Tojikiston davlat madaniyat va san'at institutiga borganimda, 2-kurs drama aktyorligi bo'limi talabalari uchun "Sahna nutqi" fanidan mahorat darsi o'tdim. Kursdagi yigirma nafar talaba bilan ishlar ekanman, auditoriyaning tomoshabin o'rindiqlarida o'ttiz nafar teatr san'ati pedagoglari o'tirishadi. Menda mas'uliyat ikki barobar kuchli edi. Mening darsim ularga ma'qul keldi, qiziqib sahnaga chiqib ishlagan pedagoglar ham bo'ldi. Chunki men o'zim ishchi kiyimda sahnada talabalar bilan ishlayotgan edim. Texnik mashqlarni ular bilan bajarish biroz qiyin kechdi, chunki ko'pchilik talabalarda nutq a'zolari qotgan, tana mushaklarida plastika mavjud emas va hokazo. Ammo meni qoyil qoldirgan narsa aruz vaznida badiiy o'qishga o'tgandagi holat bo'ldi. Firdavsiydan shunday baytlarni o'qib ketishdi, men hayron qoldim. Xulosa qildimki, ularga mumtoz adabiyot yoshlikdan singdirilgan. Firdavsiy asarlariga bo'lgan muhabbat yoshlikdan tafakkuriga, ong-shuuriga yetkazilgan. Keyin o'ylab qoldim, agar mening talabalarim bilan bu talabalar doston o'qishda musobaqa uyushtirilsa, mening talabalarim yutqazishi aniq... Shundan so'ng, men pedagog sifatida o'zimning talabalarimni yanada ko'proq sevishga, ularga boshqa pedagog bermagan narsalarni ko'proq o'rgatishga, aruzga muhabbatini oshirishda erinmaslikka bel bog'ladim.

Talabada masnaviy o'qish ko'nikmasini oshirishda "Farhod va Shirin" dostoning 62 baytdan iborat bo'lgan birinchi bobining G'.G'ulom qilgan nasriy bayon bilan o'qigan zahoti Alisher Navoiy falsafasini tezroq anglaydi. Baytlarni qayta-qayta o'qib, yod olgisi keladi. "Farhod va Shirin" dostonini o'qishga oshiqadi. Voqealar ichiga kirib, qahramonlar va ularning dunyoqarashi, fikrlar jangiga quloq tutadi, so'zlarning tub ma'nosini tushunib, tegishli xulosalarga ega bo'ladi. Lekin u bu yo'l bilan ijroga o'tolmaydi. Talabada bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun unga avvalo texnik tayyorgarlik, ikkinchidan, hayotiy kuzatuvlari, tarixiy bilimlari keng bo'lish talab qilinadi. Undan tashqari badiiy o'qish mahorati ham shakllangan bo'lishi kerak. Masnaviy o'qishda aruz vazni haqidagi tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega.

Har bir baytda ilgari surilgan g'oya, fikr chuqur tahlil qilinadi. Tasavvurlar orqali bo'layotgan voqea-hodisalar

talabaniing ko'z oldida gavdalanishiga ko'mak beriladi. O'sha davr muhiti ham tushuntiriladi. Asardagi syujetga mos teatr va kinolarda talqin qilingan ijrolar haqida fikr yuritiladi. Badiiy o'qishda diksiyaning yaxshi ishlashiga, nafasdan to'g'ri foydalanishga, ovozi aytmoqchi bo'lgan fikrga mos ishlatishga alohida e'tibor beriladi.

Dostondagi eng mashhur bo'lgan baytlari talabaga to'g'ri taqsimlab berilsa, uning nutqi ravonlashadi, ovozi baralla yangraydi, tafakkuri kengayib so'zlarni badiiy ifoda qiladi. Vaznda ijro qilishga kirishadi.

5450. **Erursen shoh – agar ogohsen sen,  
Agar ogohsen sen – shohsen sen.**

5455. **Shahikim ilm nurin toti zoti,  
Aning tohashr qoldi yaxshi oti.  
Skandar topti chun ilmu hunarni,  
Ne yanglig' oldi ko'rgil, bahru barni.  
Ikki ming yil o'tib yuz ming xiradmand,  
Bo'lib hikmatlari birla barumand.  
Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,  
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.  
Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,  
Ki davr ahli biridan aylamas yod.  
Vale ul, iom sori topti chun dast,  
Ko'zin olinda bo'ldi osmon past.**

G'.G'ulom bu nodir baytlarni quyidagicha bayon qiladi: *“Shoh bo'lsang ogoh bo'l, ogoh bo'lsang shoh bo'lasan. Bilim nuri bilan vujudni portlagan shohning qiyomatgacha yaxshi oti qoladi. Bilim va hunarni egallagan Iskandar quruqlikni va suvni qanday egallaganini ko'r. Iskandardan ikki ming yilcha o'tib ketdi, yuz minglab aqli odamlar haligacha uning hikmatlaridan bahra oladilar. Temurxon naslidan bo'lgan Ulug'bekday sultonni hali dunyo ko'rgani yo'qdir. Uning o'g'illari, nasllari tugab ketdi, zamon ahli ularning birortasini eslamaydi. Biroq Ulug'bekning o'zi bilimni qo'lga kirgizgan edi, shuning uchun uning ko'zi oldida osmon past bo'lgan edi”*.

Bu nasriy bayon badiiy o'qishda talabaga singdiriladi. Baytlarni o'qib bo'lgan nasriy bayonni ham ijro qilinadi. Shunda uning fikri ko'zida, mimikalarida, imo-ishorasida namoyon bo'ladi. Tomoshabinga ta'sir qila oladi. Pedagog tomonidan baytning rukni to'g'ri topib berilsa, so'zning tub ma'nosi, pauza, ohang, tempo-ritm masalalari tushuntirilsa, tahlilda kerakli belgilardan foydalanib ijrochiga yordam berilsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Alisher Navoiyning asarlarida so'zning qudratini chuqur anglagan G'.G'ulom o'zbek millatining ma'naviy merosini, tilini, adabiyotini nihoyatda qadrlab, ko'z qorachig'idek asrashga harakat qilgan. Ijodida til imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. Uning ulkan so'z boyligi Alisher Navoiyni ko'p mutolaa qilganligidan bo'lsa ajab emas. Shuning uchun ham Navoiy dostonidagi har bir baytini avaylab, uning mazmun-mohiyatini o'quvchiga yetkazishga harakat qilgan. 46-bobdan 5320 baytni (asli doston 5613 baytdan iborat bo'lgan, birinchi bob 227-baytdan boshlanadi) nasriy bayon qilib, o'quvchilarga taqdim qilgan.

G'.G'ulom o'tgan asrning 30-yillaridayoq milliy til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishning namunasini ko'rsatib, asarlarida hozirgi o'zbek tilida kam uchraydigan so'zlardan foydalanadi. Aslida badiiy asar tili mohiyatan ta'sirchan emotsional ekspressiv til hisoblanadi.

Kuzatishlar, natijalar. Joriy yilning 13-aprel kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining majlislar zalida O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulomning 120 yilligiga bag'ishlangan “Bir adib haqida suhbat” rukni ostida “Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas” deb nomlangan xotira kechasi bo'lib o'tdi. Kechada navoiyshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Vahob Rahmonov adibga shunday ta'rif berdi: *“G'afur G'ulom o'zbek mumtoz adabiyotini avlodlarga yetkazish yo'llarini shakllantirishga juda katta hissa qo'shgan o'zbek adibi. U kishi mumtoz adabiyotimizning yo'nalishini belgilab bergan. 2020-yilgacha yetib kelgan Alisher Navoiyning yakka-yu yagona “Farhod va Shirin” dostonining varianti aynan G'afur G'ulom bilan bog'liq. Mumtoz adabiyotimizni qisqartirish, iloji boricha avlodlarga yetkazmaslik sobiq Sovet davrining talabi bo'lgan. G'afur G'ulom ba'zan mana shu talabga bo'ysinishga majbur bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, vazn tarjimada aynan o'zi bo'lmasa ham kelajakni o'ylab juda tushunarli tarzda dostonni nasriy bayon qilib bergan”* [5].

Filologiya fanlari doktori, professor Adhambek Alimbekov adibga *“Millatni yaxshi ko'rgan adib, o'zbek va jahon adabiyotini yaxshi bilgan, chuqur anglagan adib”* [6], – deya ta'rif berdi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Turon xalq yozuvchisi, adiba, tarjimon Shahodat Isaxonova ushbu kechada so'z olib, nafis fikrlarni bildirdi. *“G'afur G'ulom katta bilim egasi bo'lgan. Har bir asarini o'sha bilimni evaziga dunyoga keltirgan. Bugungi avlodni o'sha adiblarimiz darajasiga yetkazish kerak. Ulug'larning qilgan ulug' ishlarini avlodlarga chuqur tushuntirishdan qochmasligimiz kerak, shunda uzilish bo'lmaydi”* [7], – adiba.

Men pedagog sifatida, sahna nutqi, badiiy o'qish mutaxassisi sifatida ushbu fikrdan juda ta'sirlandim.

G'afur G'ulom Sharq mumtoz adabiy manbalarni chuqur o'zlashtirgan, eski o'zbek yozuvida bitilgan mumtoz adbiyot, ilmiy, tarixiy kitoblarni erkin mutolaa qilib, ular haqida teran ilmiy mulohazalar yutitgan tadqiqotchi ham bo'lgan. Ulug' shoir, akademik G'afur G'ulom Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Lutfiy, Sakkokiy, Durbek, Mirxon, Xondamir singari allomalar haqidagi eski o'zbek tili qonunlariga rioya qilishga da'vat etib yozgan: *“Atoiy emas, Otoy!”*, badiyatni his etish, mumtoz badiiy vositalardan xabardor bo'lishga chorlagan *“Navoiy zamonimiz”, “Buyuk ustoz”, “Ikki Mashrab”, “Poetikamizni tobora takomillashtiraylik”* nomli yirik monografik tadqiqotlar darajasidagi maqola va ma'ruzalari fikrimizga dalildir [8], – deya izoh beradi Z.Hamidov.

Toshkent davlat yuridik universitetiga G'afur G'ulomning ijodi va hayotini abadiylashtirish uning ilmiy va ijodiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish vazifasi yuklatilgan. 2021-yilning may oyida ushbu universitetda o'tkazilgan konferensiyada ham juda samimiy fikrlar aytilgan edi. Arab tilini yaxshi bilgan, ayniqsa, fors-tojik tilida ijod qilgan Rudakiy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Hofiz, Mirzo Bedil kabi mashhur so'z ustalari asarlarini mutolaa qilar, ba'zilarini ona tilimizga o'girib, ma'naviy oziqlanardi. Mumtoz adabiyot namunalariidan bahramandlik G'afur G'ulom ijodiga samarali ta'sir ko'rsatgani sir emas. Bugun adibni yaxshi bilgan olimlar G'afur G'ulomga shunday

ta'rif bermoqdalar: "G'afur G'ulomda Navoiyga o'xshash qobiliyat bor edi. Kosadagi may qalqisa tomchilari atrofga sochilib ketadi. Bizga qolgan tomchilar adibning qoldirgan asalari. Qolgan iste'dodi o'zi bilan ketdi" [9].

Odatda davra suhbatlari, konferensiyalar sog'lom fikrlarning shakllanishida, bilim va ko'nikmalarning oshishida ulkan foydasi bor. Ming afsuslar bo'lsinki, keyingi paytlarda bunday anjumanlar san'at va madaniyat ahli ichida susayib qoldi. Bahs, muzokaralar, badiiy o'qish ijrolaridagi tahlillar, targ'ibotlar, yutuq va kamchiliklar, ularga bag'ishlangan tadqiqotlar ham kamaygandek, bunda mas'ul shaxslarning o'rni ko'rinmayotgandek, nazarimizda.

Shu o'rinda yoshi ulug' bo'lishiga qaramasdan adiblar ijodi bilan bog'liq ilmiy-amaliy anjumanlarda faol qatnashib yuradigan, o'z bilimlari va xotiralari bilan o'rtoqlashib, davra qatnashchilariga samimiy fikrlarini, nasihatlarini ayamaydigan Axmedova Olmosxon G'afurovnaning ta'sirli so'zlarini keltirishni o'rinni deb bildik: "Men tadbirlarga taklif qilinganimda, avvalo adabiyotni, san'atni sevadigan kishilarni sog'inib kelaman. So'zga chiquvchilarning fikrlarini diqqat bilan eshitaman. Ulug'larimiz qilgan buyuk ishlar haqida gapirib kelajakka yetkazish ilinjida bo'lganlarni e'zozlayman. Men G'afur G'ulomdek adibning farzandi bo'lganimdan faxrlanam.

Dadam she'r o'qisa, ayam yig'lab o'tirar edi. Bir kuni shunday holatga duch keldim. Ayam dadam yozgan she'rni o'qib, yig'lab o'tirgan ekan. Men ayamning yig'layotganini ko'rib, ko'nglim to'lib ketdi. Oyoqlariga cho'kka tushib yig'lamoqchi bo'ldim. Ayam menga, jim, dadang she'r yozyapdilar, dedi. Men bunday lahzalarni ko'p ko'rganman. Dadam fors, tojik, urdu kabi ko'p tillarni bilar edi. Urush vaqtida o'z ko'zi bilan ko'rgan dahshatli voqealarni qalamga olar edi. Bizning eshigimiz doim ochiq turar edi. Bolalar dadamning jonu dili edi. Qo'shni bolalar eshigimizdan mo'ralab o'tishar edi. Chunki ularga shirinlik, mevalar ulashar, evaziga she'r bilasanmi, deb ulardan she'r so'rar edi. Ayniqsa, Navoiy ruboiylarini yoddan o'qiganlarni ko'proq shirinliklar bilan siylar, she'r bilmagan bolalarni uyga olib kirib, she'r yodlashga o'rgatib qo'yar edi" [10], – deya xotirlaydi Olmosxon G'afurovna.

G'afur G'ulom bilan bo'lgan yana bir ma'lumotni yaqinda Ma'naviyat va ma'rifat markazining ovoz yozish studiyasida Hamid Olimjonning she'rini o'qiyotgan

O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulomning qizi Olmosxon Axmedova.



jarayonda ajoyib rejissyor Zamira Egamberdiyevadan eshitdim. Hamid Olimjon vafot qilganidan keyin Zulfiyaxonim umuman she'r yozishni to'xtatib qo'ygan ekan, hatto uyidan tashqariga ham chiqmay qo'ygan ekan. Bu holatni sezib, kun sanab yurgan G'afur G'ulom Zulfiyaxonimning uyiga borib, bunday o'tirish bilan hayot zarbalariga javob berib bo'lmashligini, ijodni davom ettirishi, farzandlar kelajagi uchun yashash kerakligini uzoq tushuntirgan ekan. Oradan bir hafta o'tmasdan Zulfiyaxonim "Bahor keldi seni so'roqlab" deb nomlangan she'rini yozib, ustozning oldiga borib, dard aralash sog'inch bilan yozilgan she'rini ko'z yoshi bilan o'qib beribdi. G'afur G'ulom safdoshlarining ham qayg'usi bilan yashagan zabardast adib bo'lgan ekan.

Xulosa. Adabiyot, san'at, ayniqsa, teatr san'ati har bir davrda tomoshabinning diqqat markazida bo'lgan. Aktyorlar asosiy kuch va vosita sifatida adabiy asarni ijro orqali tomoshabinga yetkazadi. Aktyorning badiiy o'qishi, tilning qudrati, nutqning go'zalligi badiiy so'z ijrosida ko'rinadi. Bunda mumtoz adabiyotimiz namunasi bo'lmish Alisher Navoiyning asarlarini yaxshi bilish, uni ijro qilish, nasriy bayon to'g'risida fikrlardan xabardor bo'lish nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, bu borada G'afur G'ulomning nasriy bayoni, tahlilidan foydalanish zarur. Yosh aktyorlarni tarbiyalashda dastlabki qadamlarni til va nutq ravonligini ta'minlash, mumtoz adabiyotni chuqur o'rgatish davr talabi bo'lmoqda. "O'zbek tilining ko'rkini, jozibasini ko'rsatadigan va uni targ'ib qiladigan kishilar bu – professional aktyorlar hisoblanadi. Ular qayerda ishlamasinlar: teatrdami, kinodami, radiodami, televideniya professional san'atkor ekanligini unutmasinlar. So'z xatti-harakatini, ibora-yu jummalarni shunday aniq, to'g'ri va ravon gapirsinkinlarki hammaga o'rnak bo'lsin" [11.B.119].

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. "Farhod va Shirin". – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1956.
2. O'sha manba. G'afur G'ulomning 1940-yilda yozgan kirish so'zidan olindi.
3. "Farhod va Shirin" dostoni (I bob). Qalam vasfida bir necha qalam surmak va bu dostonni bizdan ilgari yozgan shoir Nizomiy va Xusrav nomlarini tilga keltirish haqida.
4. O'sha manba.
5. 2023-yil 13-aprelda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining majlislar zalida O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulomning 120 yilligiga bag'ishlangan "Bir adib haqida suhbat" rukni ostida "Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas" deb nomlangan xotira kechasida yozib olindi.
6. O'sha xotira kechasidan yozib olindi.
7. O'sha xotira kechasidan yozib olindi.
8. Hamidov Z. Badiiy so'z san'atkor. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" // 2013-yil, 19-son.
9. 2021-yil 5-mayda Toshkent davlat yuridik universitetida o'tkazilgan "Oliy ta'lim tizimida akademik G'afur G'ulom asarlarini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy konferensiyada yozib olingan.
10. O'sha konferensiyada yozib olingan.
11. Xalikulova G.E. Sahna nutqi. –T.: "KARLO", 2008.

## USTOZ G'ULOMJON HOJIQULOVNING IJROCHILIK MAKTABI

**Annotatsiya.** *An'anaviy ijrochilik yo'nalishida serqirra ijod qilib, bu san'at turining rivojiga hamda davomiyligiga o'z munosib hissasini qo'shib kelayotgan san'atkorlar ijodini o'rganish muhimdir. Ana shunday benazir ijodkorlardan biri "El yurt hurmati" ordeni sohibi, O'zbekiston xalq artisti G'ulomjon Xojiqulovdir. U nafaqat mohir sozanda, balki iste'dodli xonanda sifatida ham xalqning e'tiborini qozongan va milliy merosimizga o'z hissasini qo'shgan. Bunday ijodkorlarning hayoti va ijodini o'rganish, shuningdek, yoshlarga o'rgatish dolzarb masalalardan biridir.*

**Kalit so'zlar:** *g'ijjak, maqom, mumtoz musiqa, an'anaviy ijrochilik.*

## УСТОЗ ГУЛОМЖОН ХОДЖИГУЛОВА ИСПОЛНИТЕЛЬНАЯ ШКОЛА

**Аннотация:** *Важно изучать творческих людей, которые внесли свой вклад в развитие и передачу из поколения в поколение традиционного направления исполнения. Одним из таких музыкантов является обладатель ордена «Эл юрт хурмати», народный артист Узбекистана Гуломжон Хожикулов. Он завоевал внимание народа не только как искусный музыкант, но и как талантливый певец и добавил свой вклад к узбекскому национальному наследию. Изучение жизни и творчества таких творцов, а также обучение молодежи является одним из актуальных вопросов.*

**Ключевые слова:** *гиджак, маком, классическая музыка, традиционное исполнение.*

## PERFORMANCE SCHOOL OF USTOZ GULOMJON HAJIGULOV

**Abstract.** *It is important to study creative people who have contributed to the development and transmission from generation to generation of the traditional direction of performance. One of such musicians is the holder of the order "El Yurt Khurmati", People's Artist of Uzbekistan Gulomjon Khozhikulov. He won the attention of the people not only as a skilled musician, but also as a talented singer and added his contribution to the Uzbek national heritage. The study of the life and work of such creators, as well as the education of young people is one of the topical issues.*

**Key words:** *gijak, makom, classical music, traditional performance.*

Mamlakatimizda yosh avlodning ma'naviyatini shakllantirish va kamol toptirish masalasi, bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida: *"Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta, bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi"*<sup>1</sup>, – deya ta'kidlagan edi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev jamiyatimiz kelajagining yaratuvchilarini eng yuksak insoniy fazilatlar egasi, oliyjanob axloq, kuchli e'tiqod sohibi qilib tarbiyalashga diqqat qaratishi ham bejiz emas. Ma'lumki, har qaysi davrda jamiyat tomonidan yoshlarga nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, degan savol ko'ndalang turadi. Bu borada yosh avlodni ma'naviy kamolotida adabiyot, san'at va madaniyat vakillarining ta'siri sezilarli darajada katta bo'lib kelgan.

Prezidentimizning shu yilning 3-avgustida respublikamiz ijodkorlari, adabiyot, san'at va madaniyat xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvida ham ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari xususida muhim fikrlar aytili. Unda vatanparvarlik,

insonparvarlik va o'z eliga sadoqat shaxs ma'naviyati mezonlari sifatida ulug'landi. Ma'naviy barkamollikka erishish zaruriyati insonning aqliy, axloqiy, ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish nechog'lik ahamiyatli ekanini ko'rsatmoqda. Kishining chuqur va zamonaviy bilimga, keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'lishi, yuksak ma'naviy kamolot sohibiga aylanishining asosiy sharti sifatida qaralmoqda<sup>2</sup>.

Ta'lim tizimi shaxs ma'naviyatini shakllantirishning muhim omili ekanligini unutmagan holda, ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'un olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu borada san'at va madaniyat maskanlarida yosh avlodga ta'lim-tarbiya o'rgatishda, boy milliy an'analarga bo'lgan hurmat va sadoqatni shakllantirishda ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish o'z samarasini ko'rsatmoqda. Talabalarni milliy san'atimizga qiziqtirish, san'at ustalari yaratgan sara asarlar, o'ziga xos ijro maktablari, qolaversa, ularning ibratomuz hayoti va boy ijodiy tajribalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq vazifalardandir.

Atoqli san'atkorlar Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, To'xtasin Jalilov, Nabijon Hasanov, Aminjon Nasriddinov, G'anjiston Toshmatov, Turg'un Alimatovlarning nomi o'zbek milliy musiqa san'ati, xususan, an'anaviy ijrochiligidagi munosib o'rin egallaydi. Bugungi kunda ularning musiqiy merosini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, yaratgan asrlarini amalda ijro etish, ularni notalarga tushirish va nashr etish ishlari biz shogirdlar uchun ham qarz ham farzdir.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 4-avgust O'zbekiston adabiyot, san'at va madaniyat xodimlari bilan uchrashuvidagi nutqidandir.

O'zbek musiqa merosiga munosib hissa qo'shgan, o'z ijro uslubi, o'z ijodiy maktabini yaratgan va ko'plab shogirdlarni yetishtirgan zabardast ustozlardan biri mohir g'ijjakchi, hassos sozanda va xonanda, bastakor va murabbiy O'zbekiston xalq artisti G'ulomjon Hojiqulovdir. U 1928-yil 6-fevral kuni Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Buluqboshi qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. Ilk musiqa sabog'ini tog'asi Ergash Abdurahmonovdan olgan. O'z davrining yaxshi sozandalaridan bo'lgan Abdurahmon g'ijjakchi yosh G'ulomjondagi musiqaga bo'lgan ishtiyoqni sezadi va unga soz chalishni o'rgatadi. Keyinchalik G'ulomjon Hojiqulov milliy mumtoz musiqa namunalari va sozandalik sirlarini Yunus Rajabiy, Komiljon Jabborov va Saidjon Kalonov kabi zamonasining yirik san'atkorlaridan o'rgangan. Ilk ijodiy faoliyatini Yangiyo'l teatrida (1942–1945) boshlagan, Andijonga qaytgach mehnat faoliyatini avval (1946–1949) cholg'u ansamblida boshladi. So'ngra, Abbas Bakirov taklifiga binoan Andijon teatrida (1949–1990) ishladi. Avvaliga sozanda va musiqa rahbari, yordamchi dirijyor, so'ng bosh dirijyor (1990–2003) bo'lib faoliyat olib bordi<sup>3</sup>.

Ustozdan nega aynan g'ijjak cholg'usini tanlaganini so'raganimda, g'ijjak ovozi ko'proq inson ovozigacha o'xshatishini, aytgan edi. Haqiqatdan ham bu sozda inson ovozi, ruhiy olamiga yaqinlik sezilib turadi. Ma'lum bo'lishicha, buyuk ajdodimiz, qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik asarining "Musiqa haqida risola" bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Unda cholg'ular ta'rif berilib, ular ichida inson ovozi eng mukammal cholg'u hisoblagan. Yana keltirilishicha, torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari ijrochilari hamisha o'zlari yaratgan kuylar ohangini inson ovozigacha yaqinlashtirishga, bunda o'zgacha bir musiqiylikka erishishga, ohangni ta'sirliroq, samimiyroq, ravonroq chiqarishga intilishgan. Olim ohangi inson ovozigacha juda yaqin turgan cholg'ular ud va rubobni batafsil ta'riflagan. Bunda rubob tushunchasi ostida g'ijjakka o'xshagan torlari kamoncha bilan chalingan musiqalar nazarda tutilgan<sup>4</sup>.

Ustoz san'atkor G'ulomjon Hojiqulov ijodini asosiy uch jabhaga bo'lish mumkin: bastakorlik, sozandaxonanda va pedagogik faoliyat. Uning bastakorlik faoliyati ilk daf'ada teatr sohasida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, musiqali drama janrida musiqa yetakchi o'rin egallaydi. Dastlabki davrda yaratilgan musiqali dramalarning barchasida partituralar bo'lmagan. Spektakllarda o'rniga qarab o'zbek xalq qo'shiqlari, katta ashula, an'anaviy cholg'u kuylari va maqom yo'llaridan sahna hodisalariga muvofiq foydalanilgan. Ushbu vazifalarni G'ulom Zafariy, Shorahim



Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, Davlat Oxun, To'xtasin Jalilovlar talabchanlik bilan bajarganlar<sup>5</sup>.

G'ulomjon Hojiqulov spektakllarning musiqiy xususiyatlarini yaxshi bilgani bois ustozlar izidan borib musiqali dramalarga kuy bastalash, mavjud musiqalarni tiklash, sozandalar guruhi va aktyorlarga ijro yo'llarini ko'rsatishda bosh-qosh bo'ldi. Jumladan, **"Farhod va Shirin"**, **"Tohir va Zuhra"**, **"Layli va Majnun"**, **"Nurxon"**, **"Nodira"**, **"Ravshan va Zulxumor"**, **"Yusuf va Zulayho"**, **"Xolisxon"** kabi musiqali dramalarni Andijon teatrida qaytadan tiklashda salmoqli hissasini qo'shdi. **"Nurxon" spektaklini tiklash menga unchalik qiyinchilik tug'dirmadi**, – deya hikoya qiladi bastakor. **"Nurxon"dagi musiqalarning soni qirqdan oshadi. Men 14-15 yashar bolalik chog'imda ko'plab dramalar musiqalarini yodlab olganman. Ayniqsa, "Tohir va Zuhra"ning musiqasi meni o'ziga tortardi va jalb etardi**,<sup>6</sup> – deydi ustoz san'atkor.

Bastakor ko'p yillik ijodiy tajribalariga tayanib **"Diydor"** (R.Fayziboyeva asari), **"Vatan madhiyasi"** (M.Boboyev asari) va **"Mehrobdan chayon"** (A.Qodiriy asari) kabi musiqali drama va dramatik spektakllarga musiqa yozdi. 1998-yil Andijon teatrida **"Layli va Majnun"** musiqali dramasi tiklab, sahnaga qo'yishga muvaffaq bo'ldi.

Bastakorlik faoliyati har bir ijodkorni abadiyotga yetaklovchi sohadir. G'ulomjon Hojiqulovning bastakorlik faoliyatidagi ashula va qo'shiq janrlariga mohirona murojaati alohida e'tiborga molik. U yaratgan kuy va qo'shiqlar o'zbek milliy musiqa xazinasida o'ziga xos o'rin egallaydi. Xususan, san'atkor yuzga yaqin qo'shiq va ashulalar, maqom ashula yo'lidagi asarlarni ijod etdi. **"Jafu qilma"** (Sakkokiy so'zi), **"Kim ekan, u"** (Vosit Sa'dulla she'ri), **"Xirom etgil"** (Dilafkor so'zi), **"Qo'shiq aytaylik"** (Akmal Po'lat so'zi), **"Asli yoz bo'lmayo"** (G'afur G'ulom she'ri), **"Keldi yoqimli bahor"** (Nozima so'zi), **"Gul uzatsam"** (Po'lat Mo'min so'zi), **"Ko'z qorayguncha"** (Hofiz g'azali), **"Lola sayli"** (Erkin Vohidov so'zi) shular jumlasidandir.

Bastakor o'z ijodida turli avlod shoirlarining she'riyatiga murojaat etadi. Xususan, mumtoz shoirlardan Sakkokiy, Muqimiy, Nozima, Atoiy, Yusuf Saryomiy, Hofiz g'azallariga kuy bastalagan bo'lsa, zamondosh qalam sohiblaridan Habibiy, Sobir Abdulla, Vosit Sa'dulla, Erkin Vohidov, Po'lat Mo'min,

<sup>3</sup> Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.

<sup>4</sup> Nazarova O. El sevgan san'atkorlar. – T.: "O'zbekiston", 2008.

<sup>5</sup> Xudoyev G'. G'ijjak cholg'usi ijrochilik an'analari. – T.: "Muharrir", 2014.

<sup>6</sup> Xudoyev G'. G'ijjak cholg'usi ijrochilik an'analari. – T.: "Muharrir", 2014.

G'afur G'ulom, Akmal Po'lat, Olimjon Xoldor, Alijon Salohiddinov kabi qator shoirlar she'riyatiga asoslanib asarlar yaratdi.

Bastakor birorta qo'shiq yoki ashula ustida ishlar ekan, uning matniga katta e'tibor beradi. Matn mazmunidagi ma'noning asl mohiyatini bilishga intiladi, hatto, so'rab bilishdan ham istihola qilmaydi. Bu xususida G'ulomjon ustoz shunday degan edi: *"Nodira, Hofiz, Jomiy g'azallarini bir xil hofizlarimiz tushunmaydi. Uni to'g'ri aytish uchun mutaxassis olim yoki ustoz hofizlardan so'zlar ma'nosini so'rab, tushunib olish kerak. Hofiz qo'shiq aytayotgan vaqtda so'z ma'nosini bilsagina, chiroyli ijro etadi. Baytning ma'nosini bilish kerak, bilmasa juda qiyin"*<sup>7</sup>.

Ustoz san'atkor she'riyatni chuqur bilgan, so'z mag'zini chaqqan, undagi majoziy ma'no va tashbihlarni anglagan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Bastakor nazmning qaysi janriga murojaat etmasin, musiqani undagi mazmun va mohiyatni yoritishga xizmat qildiradi. Masalan, ashula janridagi asarlarida daromad, miyonxat, dunasr va furovard shakli matn nuqtayi nazari va ohang rivoji tizimi doirasida bir-birini to'ldiradi. Bu kabi xususiyatlar uning ijodida ko'plab kuzatiladi.

G'ulomjon ustozning sozanda, xonanda va bastakor bo'lib shakllanishida teatrning juda katta ta'siri bor. Teatrda ijodiy muhit va ijrochilik ruhiyati bastakor ijodining yangi qirralarini kashf etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bois, u yaratgan asarlar xilma-xildir. Ularda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga xos jihatlarni, xalqona yondashishlarni, ustozga xos fikrlashni, ustoz bastakorlar an'alarini kuzatish mumkin. Qolaversa, ijodda bu muqarrardir, buni ijrochilik maktabiga qiyoslash to'g'riroq bo'ladi<sup>8</sup>.

G'ulomjon Hojiqulov yaratgan qo'shiqlardagi yana bir jihat shundan iboratki, qo'shiq va ashula mazmunini ochib berishda musiqali drama qonuniyatlaridan ijodkorona foydalanadi. Qahramonga xos obrazni ifodalash, uning ichki tuyg'ulari, ruhiy olamini ochib berish kabi badiiy ifodalar musiqada o'z aksini topadi. Shuning bilan xonandaga o'ziga xos va mos talqinni yaratishdek vazifani yengillashtirib berishga muvaffaq bo'ladi. Bundan tashqari bastakordagi har bir xonandaning ovoz imkoniyati va xarakteriga mos asar yaratish ko'nikmasi ham uning teatr sohasidagi amaliy tajribalarining samarasidir.

Nozikta'b sozanda repertuaridan "Miskin", "Ajam", "Nasrullovi 1-4", "Nasri Segoh 1-3", "Sarparda", "Rok", "Qurbon qaytarma", "Chapandozi Bayot", "Surnay navosi", "Surnay Dugohi" kabi cholg'u kuy (turkum)lar o'rin olgan. Ustoz o'ziga xos jozibali ovozida "Ushshoq", "Girya 1-2", "Azim daryo", "Bayot", "Dugoh", "Tortadur", "Yaxshiroq", "Ayrilmasin", "Kezarman" kabi mumtoz ashula va maqom yo'llarini talqin etgan. Ijrochilik amaliyoti uning ijodkorlik tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu holat ashula hamda qo'shiqlarning ijro

etilishi xususiyatlarini belgilashi barobarida, ba'zan jo'navoz cholg'uni nisbatan mustaqil darajaga qadar yuksaltiradi. Masalan, "Surnay Chorgohi" kuyida biz surnay ijrochiligining o'ziga xos unsurlarini an'anaviy g'ijjak ijrochiligiga xos musiqiy bo'yoqlar bilan uyg'unlashganini ko'ramiz. Bastakorning asarlari turli shakl va usullar zamirida yaratilgan. Lekin, har bir ijroda ustozning talqiniga xos uslub alohida sezilib turadi.

G'ulomjon Hojiqulovning o'ziga xos ijro uslublardan biri, bu uning soz chalib turib xonish qilishida namoyon bo'ladi. Har bir sozanda ijroda ustoz san'atkorlar ijrosidagi o'ziga xoslik, nafislik, ravonlik, joziba kabi sifatlarini namoyish qilishga harakat qiladi. Ayniqsa, ashula yo'llarini sozda talqin etishda bu yaqqol namoyon bo'ladi. Ustoz ijodida ham ashula aytim yo'llarini cholg'uda talqin etish va aksincha, cholg'uga xos nola, qochirim, bezak va naqshlarni mohirona tarzda ovozga ko'chirish, g'ijjakdagi sehrli sadolarni mahoratli talqin etish kuzatiladi. Sozanda-xonanda ashula ijrosida ovozni sozga va sozni ovozga moslab boradi. Soz va ovoz bir-birini to'ldiradi. Bu albatta, G'ulomjon ustozning ijro yo'lidagi o'ziga xos yondashuvdan biri bo'lib, g'ijjak sozi ijro yo'llari an'alarini yanada rivojlantirdi, deyish mumkin.

O'zi bironta cholg'uda chalib, o'z xonishiga jo'r bo'la olish mahorati hamma xonandaga ham nasib etavermaydi. *"Qo'lida soz chalib xonish qiladigan xonandaning qo'lida jilov bo'ladi. Pardani toza eshita oladi. Sozsiz xonish qiladiganlar ansabmlga tayanadi, boshqa sozandaga tayanadi, bu jarayon esa biroz murakkabroq kechadi. Fikrimcha, qo'lida soz chalib kuylaydigan xonandaga yengilroq bo'ladi, uning yaxshi tomonlari ko'p"*<sup>9</sup>, – degan edi usta.

G'ulomjon Hojiqulov ijodida turfa janrlar ichida qo'shiqchilikka asosiy o'rin beriladi. Aynan shu nuqtada bastakorning ijodiy intilishlari hamda shunga bo'ysungan badiiy vosita ifodalari o'z aksini topadi. Uning qo'shiq va ashulalari sermazmunan bo'lib, barchasida ona diyor, vatan, qahramonlik, mehnat, sevgi-muhabbat va boshqa mavzular tarannum etiladi. Lekin, bastakorning ijodkorlik xazinasida lirik mavzudagi ashulalar ham alohida o'rin tutadi. Shu ma'noda, bastakor ashulalarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. O'zbek musiqa merosi, ayniqsa, qo'shiqchilikdagi an'analarga asoslangan qo'shiq-ashulalar (masalan, "Keldi ayyomi bahor", "Qo'shiq aytaylik"), an'anaviy yo'nalishdagi asarlar;

2. Original, zamonaviy kuy-ohangli qo'shiq-ashulalar (mualliflik asarlari). Janr nuqtai nazaridan qaraganda, G'ulomjon Hojiqulov ashulalari xalq ijodiyoti va mumtoz musiqa an'alariga sodiq qoldi. Binobarin, uning qo'shiqlari orasida qo'shiq, yalla, lapar, ashula janrlari an'alariga uzviy bog'langan namunalar oz emas. Aksariyat qo'shiqlar zamonaviy mazmun bilan bog'liqdir. E'tiborga molik tomoni shundaki, bastakor o'z asarlarida ko'proq ashula va maqom ashula yo'llarida ijod etadi. Ulardagi musiqiy vositalar, ijro uslublari juda boy va kengdir. Bu o'rinda kuyga alohida e'tibor qilish ustozga xos

<sup>7</sup> Qodirov M. Sehr va mehr. – T.: "Adabiyot va san'at", 1980.

<sup>8</sup> Azizboyev S. An'anaviy g'ijjak ijrochiligi. – T.: 2005.

<sup>9</sup> Qurbonov Q. G'ijjak ijrochiligida o'ng qo'l holati va ijro shtrixlari. 1992-yil.



xislat. San'atkorning kuylari nozik tabiatli, vazmin, dardli, asta-sekin rivoj oluvchi, zanjirband jumalardan iboratdir. Rivojlangan shakllarga moyillik, lad, ritmik tuzilmalarining an'anaga yaqinligi ham o'ziga xosdir. Ijro uslublari xonandaning ovozigga mos kelishi, cholg'u va ovozning jarangi bastakor ijodining navqiron davridayoq muayyan tus olib, uning qo'shiqchilik ijodining turli davrlarida ham o'z kuchini saqlab qoldi va rivoj topdi<sup>10</sup>.

Shogird tayyorlashda G'ulomjon Hojiqulov bag'rikeng ustoz ekanligini e'tirof etish joizdir. Uning ko'plab shogirdlari musiqa san'atimiz ijrochiligi amaliyotida ko'zga ko'ringan, yetuklikka erishgan sozanda va xonandalardir. Ular orasida Abduhoshim Ismoilov, Qahramon Komilov, Ahmadjon Dadayev, Tursnboy Jo'rayev, Murod Norqo'ziyev, Kamoliddin Rahimov, Habiba Oxunova, O'rinboy Nuraliyev, Mahmudjon Tojiboyev, Nuriddin Hamroqulov, Mag'firat Ubaydullayeva, Sharofat Tojiboyeva, Mavluda Boymatova va yana bir qancha el ardoqlagan san'atkorlar bor. Ustozning shogirdlarini amaliyot bilan bog'lab, uch guruhga bo'lish mumkin: a) teatr aktyor-xonandalari; b) sozandalar; v) yakka xonandalalar.

Ustozteatr-xonandalari bilan juda ko'pyillarda davomida muloqot qilib, ularning faoliyati shakllanishida muhim rol o'ynagan. *"G'ulomjon aka shogirdga "serob"dir, – deydi Rifatilla Qosimov suhbatda. – O'zbekiston xalq artistlari Mag'firat Ubaydullayeva, Habiba Oxunova, Kamoliddin Rahimov, O'rinboy Nuraliyev, Nuriddin Hamroqulov kabilar G'ulomjon akani haqiqiy ustozim deb biladilar. Bular hammasi teatr jamoasidan kelib chiqqan taniqli xonandalalar. Ular bilan birga Mavluda Boymatova, Rustam G'ofurov, Muxtasar Yo'ldosheva, G'ulomjon G'ofurov, Abdullajon G'ofurov kabi qator teatr aktyorlarini qayd etish lozim. Ular xonandalikda ham o'z mavqeiga ega bo'lgan san'atkorlardir"*. Ijro yo'lga ega bo'lganligi uchun ko'pchilik unga ergashadi, undan bilim oladi. Shu yo'nalishning o'zida ikki turga xos sozanda shogirdlarini qayd etish mumkin. Birinchidan, maktabning ijrochilik an'alarini egallab, pirovardida o'z mustaqil ijro yo'lini topgan sozandalar: Abduhoshim Ismoilov, Komunar Komilov, Qahramon Komilov, Ahmadjon Dadayev. Ikkinchidan, shu maktabni davom ettirayotgan Oybek va Ulug'bek Hojiqulovlar, Murodjon Norqulov, Sherzod Hojiqulov va hokazo. *"Ularni o'zbek g'ijjak ijrochilik san'atining davomchilari sifatida maktab namoyandalari deyishga haqliman"*, – deb qayd etadi Rifatilla Qosimov<sup>11</sup>.

G'ulomjon Hojiqulov 1998-yildan boshlab Andijon universitetida pedagoglik faoliyatini olib bordi. Ushbu universitet huzuridagi musiqa fakultetida mumtoz musiqamiz sohasida ta'lim berib, yosh kadrlarni tarbiyalash yo'lida jonbozlik ko'rsatdi. 2001-yilda ustozga faxriy professor unvoni berildi.

Yakka xonandalalar bilan ishlash ustoz san'atkor ijodida keng qamrovli jabhadir. Uning ijrochilik maktabiga havas qilgan, unga ixlos qo'yib o'rganishga ixtiyor etganlar respublikamizning turli viloyat va shaharlaridan ko'plab topiladi. Azaldan ma'lumki, an'anaviy xonandalikda ustoz-shogird an'anasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham qayd etish lozimki, bunda ustoz o'z kasbini mohir ustasi, bilim va ma'rifat egasi bo'lmog'i lozim. G'ulomjon Hojiqulov ham ana shunday bilimli ustozlardan.

O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev ham ijrochilik san'atiga xos ko'p jihatlarda, ya'ni ijroda qo'llaniladigan sayqallar, naqsh bezaklar, so'zlarning burro talaffuzida G'ulomjon Hojiqulovdan o'rnak olgani sezilib turadi. Chunki, bastakorning o'z ustozlari an'analari zamirida shakllangan ijro uslubi shogirdlar ijrosida qaysidir bir tarafi bilan namoyon bo'lib turadi. Ana shunday shogirdlardan Avazbek Mahmudov, Xurshid Hasanov, Jo'raxon Toshxo'jayev, Ahmadjon Dadayev ijodlarini alohida e'tirof etish joizdir<sup>12</sup>.

1995-yilda G'ulomjon Hojiqulov shogirdi va farzandi Ravshanbek bilan Andijonda "Meros" maqomchilar ansamblini tuzadi. Mazkur ansamblda hozirgi kunda ham yosh maqomchi sozanda va xonandalalar Ravshanbek Hojiqulov boshchiligida maqom sirlarini o'rganib kelmoqdalar. Andijon g'ijjak ijrochiligi san'atining yorqin namoyandasi, an'anaviy ijrochilik maktabining ustoz san'atkori G'ulomjon Hojiqulovning ulkan mehnati, san'atimiz rivojiga qo'shgan hissasi hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. 1970-yil "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", 1988-yil "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvonlari, 1999-yil "El yurt hurmati" ordeni, 2001-yil "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligi" medali bilan taqdirlandi.

Darhaqiqat, G'ulomjon Hojiqulov o'zbek musiqa san'atining rivojiga muhim hissa qo'shgan san'atkoridir. Uning ijodiy uslubida milliy musiqa an'alarining eng ilg'or jihatlari mujassam. Bu an'analarni ustozlaridan puxta-pishiq o'zlashtirib, zamonaviy musiqa ijodiyotida sozanda, xonanda, bastakor va ustoz-murabbiy sifatida mehnat qilib, xalqimizga musiqa durdonalarini armug'on etishga erishdi.

<sup>10</sup> Nazarova O. El sevgan san'atkorlar. – T.: "O'zbekiston", 2008.

<sup>11</sup> Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. – T.: 2007.

<sup>12</sup> Azizboyev S. An'anaviy g'ijjak ijrochiligi. – T.: 2005.

## SURXON SAN'ATI FIDOYISI – XOLIQ XURSANDOV

**Annotatsiya.** Ushbu maqola surxon vohasi san'atining bilimdoni, folklorshunos olim, qalami o'tkir yozuvchi va dramaturg Xoliq Xursandovning ijodiy faoliyati hamda porloq xotirasiga bag'ishlanadi. Ijodkorning o'zbek san'ati, xususan, surxon xalq san'atining ravnaqiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kuy, qo'shiq, folklor, raqs, ansambl, ssenariy, drama, teatr, sahna, asar.

## ХОЛИК ХУРСАНДОВ – ПОСВЯЩЕНТЕЛЬ СУРХАНСКОГО ИСКУССТВА

**Аннотация.** Данная статья посвящена творческой деятельности и яркой памяти Холика Хурсандова, знатока искусства Сурханского оазиса, фольклориста, писателя и драматурга. Обсуждается вклад в развитие узбекского искусства, особенно сурханского народного творчества.

**Ключевые слова:** музыка, песня, фольклор, танец, ансамбль, сценарий, драма, театр, сцена, спектакль.

## KHOLIK KHURSANDOV – INITIATOR OF SURKHAN ART

**Abstract.** This article is devoted to the creative activity and vivid memory of Kholik Khursandov, a connoisseur of the art of the Surkhan oasis, folklorist, writer and playwright. The contribution to the development of Uzbek art, especially Surkhan folk art, is discussed.

**Key words:** music, song, folklore, dance, ensemble, script, drama, theatre, stage, play.



Tarixdan ma'lumki, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Bugungi zamonaviy Yangi O'zbekiston taraqqiyotida, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'laki bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan musiqiy madaniyatimizga suyanish, xalq kuylarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasi, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliylikimizni anglatuvchi, milliy g'oyalarimizni boyituvchi xalq ijodiyoti milliy san'atimizda o'ziga xos o'rin egallaydi. Shunday ekan, o'lmas xazinamiz va iftixorimizga aylangan o'zbek xalq ijodi namunalarini tinglab, mazmun-mohiyatini chuqur o'rganib, har bir oilada targ'ib qilib, tarbiyaviy ahamiyatga boy so'zlari, ohanglari bilan yaqindan tanishtirish va tug'ilib voyaga yetayotgan yoshlar ong-shuuriga singdirish kabi vazifalarni amalga oshirishimiz kerak. Bundan tashqari, bu soha rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan ustozlarning ijodiy faoliyatini ilmiy o'rganish lozim.

Hozirgi o'zbek raqs san'atida asosan o'ziga xos, o'z uslubiga ega bo'lgan Xorazm, Buxoro va Farg'ona raqs maktablari tan olingan. Bundan tashqari surxon vohasi raqs maktablari ham o'z holicha alohida shakllanib borgan va o'z maktabiga ega. Ushbu maktab o'zining musiqasi, raqs harakatlari, kiyim va taqinchoqlari bilan tubdan farqlanadi. Surxon vohasining folklor raqs san'ati o'rganilib, izlanishlar olib borilmoqda. Boysun tumanidagi "Katariguzar" qishlog'i, Oltinsoy tumanidagi (qadimda Denov tumani

hududi) "Katta Vaxshivor" va "Kichik Vaxshivor" qishloqlari, Sariosiyo tumanidagi "Zevar" qishlog'i, Denov tumanidagi "Sina" va "O'shor" qishloqlari qadimdan san'atkorlar qishlog'i, deb tan olingan va bu an'ana hozirgi kungacha davom etib kelayapti. Surxon raqs maktabiga oid barcha raqslarning hozirgi kungacha saqlanib kelinishida, yuqorida qayd etilgan "san'atkorlar qishlog'i"ning xizmati katta ekanligini e'tirof etmay bo'lmaydi.


Yaqinda surxon raqs san'ati haqida o'quv qo'llanma nashr ettirildi. Uni yaratishda ko'p yillar davomida Surxondaryo vohasining turli hududlarida juda ko'p izlanishlar olib borgan baletmeyster Shoira Choriyevna Qurbonova bilan suhbat qilishga musharraf bo'ldik. Uning aytishicha, bu ishga surxon vohasining yoshi ulug' nuroniy otaxon va onaxonlari hamda xalq ichida tanilgan raqs san'ati fidoyilari jalb etilgan, ular bilan hamkorlikda ijodiy izlanishlar olib borilgan. Vohada ijodiy faoliyat olib borayotgan yetuk mutaxassislar, havaskorlik ashula va raqs ansambllari jamoasining vakillari amaliy ishlarga jalb qilingan. Bu ishlarni amalga oshirishda ham ilmiy, ham ijodiy maslakdosh, tashkilotchi va ko'makchi bo'lgan surxon san'atining fidoyi ustozlaridan biri Xoliq Xursandov bo'ladi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning yaratilishiga asos bo'lgan, 2011-yilda nashr ettirilgan "Surxon raqs maktabi" nomli uslubiy qo'llanmaning mualliflaridan biri Xoliq Xursandovni xotirlashni munosid, deb o'yladik.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Respublika madaniy-oqartuv ishlari a'lochisi, yozuvchi, dramaturg, taniqli folklorshunos, shirin nafas hofiz Xoliq Xursandov 1945-yil 9-mayda Boysun tumani "Tuzbozor" mahallasida tug'ilgan. 1952–1956-yillarda qishloqdagi

Vasiliy Chapayev nomidagi boshlang'ich maktabda ta'lim oladi. U Surxondaryo viloyatining tog'lik Boysun tumanida yashab, ijod qilgan. Boysun tuman markazidagi Madaniyat uyida xor to'garagi tashkil etilgan bo'lib, Xoliq Xursandov o'n ikki yoshidan shu to'garak ishtirokchisi bo'lgan va tengdosh bolalar qatorida umumiy qo'shiqlarni aytib yurgan. Bolakay ustozlarining yuzini yerga qaratmadi va ular kutganidek yaxshi hofiz bo'lib yetishdi. Elga manzur bo'lib kelgan qo'shiqlari orqali viloyatdagi ustoz xonandalar va shinavandalar tomonidan olqishlanib, 1980-yillarda Surxondaryo viloyatida taniqli hofiz darajasiga yetdi. Hofiz haqida Surxondaryo viloyat matbuotida ham tez-tez maqolalar chiqib turar edi.

1962-yil Xoliq Xursandov Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tarix-adabiyot fakultetining tarix-geografiya bo'limiga talabalikka qabul qilinadi. 1964–1967-yillarda ijodkor harbiy xizmat va o'qishni yakunlagach, bir necha yillar Boysun tumanidagi Qurilish – monataj kolonnasida qurilish brigadiri vazifasida ishladi.



Noyob ovoz va iste'dod egasi bo'lgan Xoliq Xursandov 1985-yilning oxirida Boysun tuman markaziy madaniyat uyi qoshidagi "Shalola" ansambliga ishga o'tadi. 1986-yilda Xoliq Xursandov tashabbusi bilan Boysun tuman Markaziy madaniyat uyi qoshida "Boysun" folklor-etnografik ansambli tuzildi. Ansambлга Xoliq Xursandov badiiy rahbar, Habib Umarov musiqa rahbari etib tayinlandi. Ishni ansamblning repertuarini boyitishdan boshladi. U tinim bilmay xalq og'zaki ijodini, o'zbek xalqining marosimlari va udumlarini o'rgandi. Bolalikdanoq qadimiy qo'shiq matnlarini, xalq urf-odatlarini, o'yinlarini yon-atrofidagi odamlardan yozib borgan. Yillar sarg'aytirgan varaqlarda yozilgan matnlarni tiklab, har bir marosim va udumning tarixini o'rganib, "Dehqonning bir yili" deb atalgan folklor-etnografik dasturni tayyorlaydi. Ushbu dastur orqali ansamb 1986-yil viloyat konkursi g'olibi, 1987-yil aprel oyida Respublika folklor-etnografiya dastalari ko'rik tanlovi g'olibligini qo'lga kiritdi.

Xoliq Xursandov "Dehqonning bir yili", "Sus xotin", "Yaqu-yaq", "Ololmaysan-a, shuginani-ya", "Navro'z muborakbod", "Xo'p mayda" kabi folklor-etnografik dasturlari tayyorladi. "Unutilgan ohanglar", "Boysunda qor eriganda", "Boysunning bir kuni", "Sharq bozori", "Qadimiy o'yinlar", "Ko'pkari" deb nomlangan musiqali kino ssenariylari bilan milliy san'atimiz xazinasini boyitdi.

Ijodkorning bu sohada amalga oshirgan ishlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. 1990-yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan Xoliq Xursandovga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" va "O'zbekiston madaniy oqartuv a'lochisi" unvonlari berildi. U nafaqat folklorshunos olim, balki qalami o'tkir yozuvchi va dramaturg hamdir. Qalamkashning birinchi asari jahon urushi mavzusida yozilgan "Ona!" bo'lib, 1969-yilda "Guliston" jurnalida chop etilgan. Respublikamizning "Bekajon" gazetasida "Muhabbat va ro'yo", "Yosh xotin", "Jazo", "Jindara parisi", "Nido" "Muhabbat ko'r tug'iladi", "Tarmalar bahorda eriydi" kabi hikoya va qissalari chop etilgan. Respublika matbuotida "Chopon kiygan ayol", "O'lganlar yolg'on gapirmaydilar", "Qiyomatdan bir kun oldin" nomli romanlari chop etilgan.

Xoliq Xursandovning dramaturgiyaga kirib kelishiga, Surxondaryo viloyat drama teatri rajissyorlari Mansur Ravshanov, Ne'mat Pardayevlarning: "Shuncha mukofot, olqish oldingiz, nega teatrimiz sahnasi uchun bir asar yozmaysiz?" – degan so'zlari sabab bo'lgan ekan. Bu so'zlardan ruhlangan ijodkorning dramaturgiyadagi "Kampir topaymi, dadajon?" deb nomlangan ilk asari 998-yilda rejissyor Ne'mat Pardayev tomonidan Mannon Uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyat drama teatrida sahnalashtirildi. Ijodkorning ushbu asari nafaqat Surxondaryo, balki yurtimizning bir necha viloyatlari, jumladan, Qashqadaryo, Farg'ona teatrlari sahnalarida qo'yilib, olqishga sazovor bo'lgan.

Xoliq Xursandovning bu muvaffaqiyati tasodif emasligi, uning iste'dodli adib va dramaturg ekanligini keyingi "O'lding, aziz bo'lding" asari isbotlab berdi. Ushbu asar Xoliq Xursandovni dramaturg sifatida qo'shni respublika hamda xorijiy mamlakatlarda ham tanitdi. Asar respublikamizning ko'pgina teatrlarida sahnalashtirildi. Adibning yana bir mashhur asari "Xotinimning uch shaydosi" Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtirildi. Muqimiy teatrlarining bosh rejissyori Bahodir Nazarov tomonidan sahnalashtirilgan "Toptalgan tuyg'u" dramasi ham tomoshabinlarga manzur bo'ldi. 2003-yilda Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri adibning "Dard ko'rmagan erka bolam" pyesasini sahnaga olib chiqdi.

2004-yilda Xoliq Xursandov o'zbek xalqi folklor-etnografiyasi va xalq marosimlari asosida, "Ayolg'u" nomli asar yozdi. Asar O'zbek Milliy Akademik drama teatri bosh rejissyori Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirildi va Turkiya davlati Istanbul shahrining 900 yilligi bayramida hamda Rossiya Federatsiyasining poytaxti Moskva shahri teatrlarida namoyish etilib, mutaxassislar tomonidan yuksak baholandi.

Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanbe shahrida o'tkazilgan xalqaro teatr festivalida Xoliq Xursandovning "O'lding, aziz bo'lding" asari bilan qatnashib, teatr jamoasi tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi va hakamlar hay'ati tomonidan yuqori baholandi. Teatr jamoasi



2009-yilda Misr Respublikasida o'tkazilgan xalqaro teatr festivalida ham Xoliq Xursandovning "O'lding, aziz bo'lding" va "Kampir topaymi, dadajon" asarlari bilan qatnashib, mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

2010-yilning boshida Xoliq Xursandovning "Sudxo'rning pari qizi" asari "Parivashga parvonaman" nomi bilan Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida

rejissyor Bahodir Nazarov tomonidan sahnalashtirildi va muvaffaqiyatli namoyish etib kelinmoqda. Bundan tashqari ijodkorning tashlandiq bolalalar haqidagi "Alla aytay, jonim bolam..." asari mazkur teatrdagi "Mehr bulog'i" nomi bilan namoyish etilgan. Uning "To'maris!" nomli nazmiy dramasi Muqimiy teatrida, "Ayol qasidasi" dramasi Mannon Uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Adibning o'n ikkita pyesasi o'zbek teatrlarining repertuarini bezadi. Uning asarlari Rossiya, Qozog'iston, Misr, Turkiya davlatlarining nufuzli teatrlari sahnasida o'tkazilgan festivallarda ham namoyish etilgan.

Milliy qadriyatlarni milliy musiqamiz orqali bolalik chog'idan singdirib va shu asosda tarbiyalab borilsa, bola ruhan pok, ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayadi. Oilada saqlanib kelinayotgan azaliy o'zbekona tarbiyaviy muhit bilan tashqaridan kirib kelayotgan har xil yot g'oyalar o'rtasida bo'ladigan tafovutni teran anglaydi, salbiy va ijobiy tomonlarini ajratadi hamda unga xolis munosabat bildira oladi. Yoshlar tarbiyasida ustoz san'atkorlarning bizga qoldirgan ulkan merosidan foydalanish lozim. Serqirra ijodkor Xoliq Xursandov 2015-yilning bahorida bu foniy dunyoni tark etdi. Ammo uning yorqin xotirasi, ilmiy va ijodiy ishlari hamisha surxon xalqi va muxlislar qalbida mangu qoladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abraikulova N.E. The art of uzbek dance: features of schools and directions. International Conference on Digital Society, Innovations & Integrations of Life in New Century. www.iejrd.com SJIF: 7.169.
2. Safarov Z., Abraykulova N. Ma'naviyat – jamiyat hayotining joni va ruhidir. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021. Page 561.
3. Qurbonova Sh., Xursandov X. Surxon raqs maktabi. – Toshkent: "Nur sehri oshiyonu", 2010.
4. X.Xursandovning qizi Yulduz Xursandova taqdim etgan ma'lumotlardan foydalanildi.

## TURG'UN ALIMATOV IJODIY MEROSI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, an'anaviy tanbur ijrochiligining benazir namoyandasi, betakror sozanda va murabbiy, tillonoxun san'atkor, O'zbekiston xalq artisti, professor Turg'un Alimatovning ijro maktabi xususida so'z ketadi. Jumladan, ustoz san'atkorning tanbur va sato ijrochiligidagi o'ziga xos ijrochilik uslubi mumtoz asarlar ijrosi kesimida qiyosiy o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** tanbur, sato, maqom, sozanda, san'atkor, kuy, ohang.

## ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ТУРГУНА АЛИМАТОВА

**Аннотация.** В данной статье, проводится научно-теоретическое наблюдение исполнительской школы Тургуна Алиматова, уникального представителя традиционного танбурского исполнительства, народного артиста Узбекистана, профессора, уникального созанда тиллонохуна. Рассматриваются специфические стили исполнения танбура и сато мастера-художника контексте исполнения классических произведений.

**Ключевые слова:** танбур, сато, маком, исполнитель, мелодия.

## CREATIVE HERITAGE OF TURGUN ALIMATOV

**Abstract.** This article provides a scientific and theoretical observation of the performing school of Turgun Alimatov, a unique representative of the traditional tanbur performance, people's artist of Uzbekistan, professor, unique sozand tillonohun. The specific styles of performance of tanbur and sato of the master-artist are considered in the context of the performance of classical works.

**Key words:** tanbur, sato, poppy, performer, melody.



Yangi O'zbekistonda milliy mumtoz an'analarimizni keng tadqiq va targ'ib qilish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmogda. Buni maqom san'atining ulug' darg'alari hayoti va ularning ijodiy faoliyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari kesimida ham ko'rish mumkin. Bu kabi fundamental ishlarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3391-sonli Qarorida o'z aksini topdi. Mazkur Qarorning "O'zbekistonda maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash" bandiga muvofiq bir qancha ulug' san'atkorlarimiz ijodi ilmiy va amaliy o'rganilmogda.

Badiiy obrazlarni ohanglar, go'zal musiqiy bo'yoqlar bilan ifoda etish, bu ijrochilik demakdir. Ijro asosini tashkil etuvchi ana shu badiiy vositalarni eshituvchiga imkon qadar to'la yetkaza olish esa, ijrochilikning izchil maqsadlaridan biri bo'lishi kerak. Mana shu jarayonda ijrochilar turli yo'llarga, yo'nalishlarga murojaat qiladilar, aniqrog'i, toifalarga bo'linadilar. Kimdir o'z ijrosi bilan xalqona ohanglar yordamida kishilar qalbiga kirib borishga intiladi, kimdir o'z ijrosini ma'lum bir guruhlar istagi asosida shakllantirishga harakat qiladi. Yana kimdir: "Go'r kuysa kuysin-u, qozon qaynasin", qabilida yo'l tutib, mentalitetimizga to'g'ri kelgan, kelmagan ohanglarni "kashf etish" bilan "zamonaviy ijro" yaratishga harakat qiladi. Ijroning bu

tariqa bo'linishi, bu ijrochilikning bo'linishi demakdir. Ba'zi hollarda ikkinchi, uchinchi guruhlariga mansub ijro va ijrochilarning ilm ahli orasida ham e'tirof etilishi, hatto, tan olinishi kishini tashvishga soladi, albatta. Haqiqiy ijrochi vujudiga xalq musiqasiga tegishli barcha go'zal unsurlar singib ketgan bo'lishi kerak. Shundagina ijrochilik san'at darajasiga ko'tarila oladi.

An'anaviy tanbur ijrochiligining benazir namoyandasi, betakror sozanda va murabbiy, tillonoxun san'atkor, O'zbekiston xalq artisti, professor Turg'un Alimatov ijroni san'at darajasiga yetkaza olgan va an'anaviy tanbur va sato ijrochiligidagi o'z maktabini yaratib ketgan mana shunday mahorat sohiblaridan biri edi. Ustoz haqida matbuot sahifalarida, badiiy va ilmiy asarlarda ko'p va xo'b gapirilgan. Men ham u kishining kenja avlod shogirdlaridan biri sifatida, ustoz ijrolarining ba'zi o'ziga xos ibratli jihatlari haqida baholi qudrat so'z yuritmoqchiman.

Turg'un Alimatov an'anaviy ijrochilikni shu paytgacha bizda uchramagan musiqiy unsurlar bilan boyitdi. Uning chap qo'li bilan amalga oshirilgan musiqiy bo'yoqlari, o'ng qo'li bilan sadolantirgan zarblari nafaqat san'at ahli, balki oddiy shi-navandalarni ham hayratga solib kelmoqda. Aslida ijrochilik soz tovushini aniq-tiniq chiqarishdan boshlanadi, keyin parda bosiladi. Bu jarayon yakunlangach, pardalar ziynatlanadi. Sozandalar tili bilan aytganda, ularga ishlov beriladi. Mana shu jarayondagi eng sodda, eng murakkab badiiy musiqiy unsurlarning sayqallangan ko'rinishlarini Turg'un Alimatov ijrosida ko'ramiz. "U ko'pgina ustoz sozandalar, radio orqali

beriladigan mashhur Qur'on hofizlari hamda o'z davrida dong taratgan hind filmlarining kuy va qo'shiqlarini diqqat bilan tinglab, o'z hissiyoti orqali tahlil etib, ijodiy o'zlashtirdi"<sup>1</sup>.

Odatda aksar mohir tanburchilar, kuy chalish paytida simning quyi xarrakka yaqin yoki o'ta yaqin joyini chertadilar. Bunda zarblar sadosida qandaydir o'ziga xoslik paydo bo'ladi. Bu holatni sozandalar "chingillatish" yoki "chingillatib chalish", deb talqin etishadi. Turg'un Alimatov ijrosida esa noxun tanbur torining shunday joyiga uriladiki, natijada, siz bu zarblardan sozning tabiiy, haqiqiy tovushini eshitganday bo'lasiz. Tanburchilarning zarblarga munosabati ham turlicha. Kimdir "pirrang"dan ko'p foydalansa, kimdir "qo'sh zarb"ni afzal ko'radi, yana kimdir ijro mohiyatini "yakka zarb"da ko'radi. To'g'ri, ustoz Turg'un Alimatov ham o'z ijrosida bu zarblarning barchasini ishlatgan. Biroq e'tiborli tomoni shundaki, o'zining nozik musiqiy ta'bi kashf etgan nodir qonuniyatlar asosida, bu zarblarni kuy talablaridan kelib chiqib, ma'lum bir tartibga keltirgan, ya'ni mezonga solgandi. Masalan, "Samarqand ushshog'i"ning eng yuqori nuqtasida u "rez"dan, "Saraxbori Oromijon"ning ba'zi joylarida "pirrang"dan, "Chorgoh"da esa "yakka zarb"ning turli ko'rinishlaridan juda ustalik bilan foydalangan. Bugungi kunda yosh tanburchilar ham mazkur kuylarni ijro etayotganda ana shu zarblarni o'zgarishsiz, aynan ustoz ijrosiga o'xshatib sadolantirishga harakat qilishayotgani e'tiborga molikdir.

Ustozning parda ustida harakatlanadigan chap qo'l barmoqlari ham ijro etilayotgan kuyning to'laqonligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, an'anaviy ijroga xos musiqiy jilolar asosan chap qo'l barmoqlari vositasida hosil qilinadi. O'z navbatida musiqiy bo'yoqlar kuyning mohiyatini ochishda undagi badiiy obrazlarning ohanglar yordamida mufassal aks etishida eng muhim omil hisoblanadi. Zarblar kabi musiqiy bo'yoqlarning ham ohanglardagi ifodaviy ko'rinishi mahoratli tanburchilar tomonidan turlicha sadolantiriladi. Ba'zi sozandalarda ijro davomida soz tovushi uzluksiz, titrab (to'lqinlanib) tursa, ba'zilarida titrab, ma'lum davomiylikdan so'ng uzilib turadi. Bunday ijroni ustoz sozandalar "erkalatish" yoki "uzib chalish" deyishadi. Ta'kidlash lozimki, ijro uslublarining biz yuqorida tilga olib o'tgan elementlarining barchasi ham bir-biridan go'zal va kuyni boyitadigan vositalardir. Ularni zarracha kamsitmagan holda shuni ta'kidlash kerakki, Turg'un Alimatovning ijrosida ham bu elementlar uchraydi, albatta. "Gulzorim" kuyining avji "Turk"dan oldin keladigan bo'lagida, "Yovvoyi segoh"ning oxirgi furovardida u tovush sadosini uzgan bo'lsa, "Qo'qoncha tanovar", "Navro'zi ajam" kabi kuylarda ilk pardalarning mungli titrog'idan hayratga tushasan kishi.



*"Uning ba'zi bir musiqiy kompozitsiyalari Buzruk, Navo, Segoh va shunga o'xshab nomlanadi. Bu kompozitsiyalarning o'ziga xosligi shundaki, u ilk obrazni o'zgacha vositalar orqali talqin etadi. Lekin bunday bo'lishiga qaramay Turg'un Alimatov asarlarida yuksak badiiy estetik did hukmronlik qiladi"*<sup>2</sup>.

Ustoz ijrosining boshqa ijrolarda umuman uchramaydigan bir jihati bor. U bir tovushni sadolantiradi-yu, simga noxun tekkizmasdan tovush cho'zimini uzmagan holda unga boshqa barmoqlari yordamida bir necha tovushlarni ulaydi va oldingi tovushga qaytadi. Mana shu jarayonni diqqat bilan kuzatgan har bir kishi bir lahza bu sadolanishda ohanglarning titrayotganini, ingrayotganini his etadi. Musiqa tili bilan aytganda molish, nolish, kashish (bo'yoqlarning nomi) ijro elementlarining u mana shu bir lahza sadoga sig'dira oladi.

"Cho'li iroq", "Surnay navosi" kuylarini tinglab men ustozning o'zigacha va o'zi bilan zamondosh nomdor tanburchilarning ijro yo'llarini mukammal egallaganliklariga ishonch hosil qildim. Ayniqsa, "Qo'shchinor" kuyi menda o'zgacha taassurot qoldirdi. Unda qadimiy an'analarning o'ziga xos talqini bilan ro'baro' bo'lasiz. Kuy ijrosining o'ziga xos tomoni shundaki, sozanda kuyning deyarli har bir bo'lagidan so'ng to'xtaydi, go'yo usuldan chiqib ketgandek (albatta doira usulidan). Xayolimizda kuy samoviy va aroziy jismlar harakatini diqqat bilan kuzatayotgandek, sozandaning yurak tepkishini eshitayotgandek bo'ladi, bir soniyalik uzilishlarda. So'ng chuqur xayol o'z girdobiga tortadi-yu, tasavvurimizda yonmayon turgan ikki chinor – qo'shchinor gavdalanadi. Mayin shabada esib, chinor barglarini silaydi. Barglar saboga o'z sirlarini aytmoqchi bo'lgandek tebranadi. Shu payt birdan ko'nglimga ba'zi sozandalarning ustoz "Qo'shchinor"ni chalganda doira usulidan chiqib ketgan degan da'volari keladi-yu, o'zimga-o'zim savol beraman: shabada yoki silkinayotgan chinor barglari birorta doira usuliga buysunarmikin?..

<sup>1</sup> Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: "Musiqa", 2004. – B.331.

<sup>2</sup> Matyoqubov O. Maqomot. – T.: "Musiqa", 2004. – B.331.

Demak, Turg'un Alimatov ijro etgan barcha kuylari kabi "Qo'shchinor" kuyining ijrosiga ham o'ta donishmandona yondashgan.

Ustoz nafaqat tanbur ijrochiligida, balki sato ijrochiligida ham betakror uslub yarata olgan ulug' san'atkor hisoblanadi. U kishining dutor chalishi alohida bir san'at, kamon chalishi esa yana bir boshqa san'at. *"Uning asosiy murabbiysi – qulog'i, noyob eshitish qobiliyatidir"*<sup>3</sup>.

Bular haqida kichik bir maqola doirasida batafsil so'z yuritish imkoni yo'q, albatta. U o'zining butun ijodiy faoliyati davomida an'anaviy tanbur, sato ijrochiligini eng go'zal va mukammal holda dunyoga tanita oldi. *"Turg'un Alimatov ijro uslubining o'ziga xosligi shundaki uning tanbur ijrochiligi mahorati Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa san'atining ko'hna an'alariga samarali ta'sir ko'rsatgan"*<sup>4</sup>.

O'tgan asrning 40–50-yillarida Buxoroda yashab ijod etgan tanburchi Atojon zargarning ijrolaridan hayratga tushgan kishilar uni "tillonoxun" deb atashgan ekan. Bugun men an'anaviy tanbur va sato ijrochiligida o'ziga xos maktab yaratib ketgan, betakror sozanda, mehribon murabbiy, ustoz

Turg'un Alimatovni ham tillonoxun, ham tillokamon deb atagan bo'lar edim. Ustozning hayoti va ijodiy faoliyati ikki chinor – "Qo'shchinor"ga o'xshab ketadi go'yo. Bu chinorlarning biri unga Alloh in'om etgan ilohiy ne'mat – umr. U kishi juda ibratli va barakali umr ko'rdilar. Ikkinchisi, Alloh inoyati bilan u kishiga nasib etgan iqtidor – betakror ulug' san'at. Ushbu chinorlarning orombaxsh soyasidan bahramand bo'layotgan biz yoshlar ularning yuksakligi oldida har doim ta'zimdamiz.

Xulosa o'rnida, ustoz san'atkorning o'z shogirdlariga muallim sifatida, ustoz-shogird an'alarining go'zal timsolini o'z qalamiga mansub quyidagi jumladan ko'rish mumkin: *"Kuy insonning qalbidan chiqadigan mo'jiza. Inson qalbiga har narsa aralashaversa ham yaxshi emas. Shuning uchun musiqaga yo'l boshlaydigan ustoz-shogird jarayoni ham juda nozik bo'ladi. Ustoz ko'zlagan maqsad qachon shogird qalbiga yetib boradi – uni Xudo biladi. Kuyning biron-bir nozik jihati chiqmasa o'quvchi-talabani koyib o'tirmayman, chunki koyishning foydasi yo'q. Aksincha, zarari bor. U ustoz shogirdni bir-biridan yiroqlashtiradi"*<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Matyoqubov O. Maqomot. – T.: "Musiq", 2004. – B.331.

<sup>4</sup> Султанова Р. Тургун Алиматов – талант от Бога // "The Bukharian Times" газета общины Бухарских евреев Америки. – Америка: 2012. 13–19 январь (518). – С.14.

<sup>5</sup> Alimatov T. Ustozlar ibrati yoshlarga o'mak. // Shashmaqom saboqlari (maqola va ma'ruzalar to'plami). – T.: 2005. – B.27.

# O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi*

**Nashrga tayyorlovchilar:**

G'ani Xudoyev  
Faxriddin Abduvohidov  
Ozoda Shobilolova

**Sahifalovchi-dizayner:**

Abdug'ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 15.06.2023-yil  
Ofset bosma usulda bosildi.  
"Arial" garniturası. Bichimi 60x841/8.  
Shartli bosma tabog'i 12,25.  
Buyurtma raqami №. Adadi: 195 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal "SHAFOAT NUR FAYZ" MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Mahorat ko'chasi 71-uy